

**O'ZBEKISTOH RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA**

**MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

“Kimyoviy texnologiya” kafedrasи

*5320400 - “Kimyoviy texnologiya” (to'qimachilik sanoati)”  
ta'limyo'nalishlarida tahlil olayotgan bakalavr talabalar uchun*

**TOLALI MATERIALLARNI KIMYOVIY PARDOZLASH  
TEXNOLOGIYASI**

*fanidan ma'ruzalar kursi*

**Toshkent-2017**

## ANNOTATSIYA

«Tolali materiallarni kimyoviy pardozlash texnologiyasi» fanidan ma’ruzalar kursi 5320400 - “Kimyoviy texnologiya” (to’qimachilik sanoati)” ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan bakalavr talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda turli tolalar xossalari, ular qurilmasida pardozlash jarayoni muhiti va haroratining ta’siri ostida bo‘ladigan o‘zgarishlar, tabiiy tolalar chiqindilari tarkibi, xossalari va ulardan tolani tozalash jarayonlarining kimyoviy va nazariy asoslari, bo‘yovchi moddalarning tolaga bog‘lanish nazariyasi, gul bosishning nazariy asoslari, yakunlovchi va maxsus pardozlash jarayonlar kimyosi va mohiyati yoritilgan.

Maruza matnida turli tolali to‘qimachilik materiallarini bo‘yash va gul bosishga tayyorlash, bo‘yash, gul bosish, yakunlovchi va maxsus pardozlash jarayonlaridagi yangi texnologiyalar haqida ma’lumotlar berilgan.

TTYSI ilmiy-uslubiy  
kengashida tasdiqlangan  
«\_\_\_» \_\_\_\_ 201\_\_ y.

Bayonnomma № \_\_\_\_

Tuzuvchilar: t.f.d., dotsent Nabieva I.A.

t.f.n.,dotsent Xasanova M.Sh.

Assistant Rasulova K.M.

Taqrizchilar: MCHJ“Kompaniya” UNITEX”  
mutaxassis Abduvoxidov D.

TTYESI dotsenti, t.f.n. Qodirova D.N.

## **Tayanch so‘zlar va iboralar:**

Tolali materiallar, tabiiy tolalar va ularning yo‘ldosh moddalari, yo‘ldosh moddalar tarkibi, kimyoviy tolalar, pardozlash, tolalar qurilmasiga pardozlash muhiti va haroratsining ta’siri, yo‘ldosh moddalar xossalari, turli tolali matolarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash nazariyasi, bo‘yovchi moddalar, bo‘yash, bo‘yash nazariyasi, bo‘yashning kinetik va termodinamik ko‘rsatkichlari, bo‘yash bosqichlari, bo‘yovchi moddaning tola ichiga diffuziya mohiyati, diffuziya koeffitsienti va uni hisoblash, bo‘yovchining tolaga sorblanish izotermasi, kimyoviy potensial, moyillik, moyillikni hisoblash usullari, bo‘yash entalpiyasi va entropiyasi, gul bosish, gul bosishning nazariy asoslari, yakunlovchi pardozlash, yakunlovchi pardozlashning kimyosi va nazariyasi, kimyoviy bog’, antipiren, termoreaktiv smola, termoplastik smola, antistatik pardozlash maxsus tolalar.

## **1-MA’RUZA**

### **Kirish. Tolali materiallarini pardozlash kimyoviy texnologiyasi fani maqsadi, vazifalari**

Reja:

1. Tolali materiallarini pardozlash kimyoviy texnologiyasi fani, maqsad va vazifalari
2. Pardozlash korxonalarini rivojlanish istiqbollari.
3. Tolalarning sinflanishi.

Kishilik jamiyati o‘zining moddiy farovonligini oshirish uchun tabiat bilan kurashda turli-tuman yangiliklar yaratib, undan ustunlik qilmoqda. Kimyo fanining eng so‘nggi kashfiyotlari va ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar yangi-yangi sun’iy va sintetik materiallarni vujudga keltirishga imkon bergan. Bu materiallardan tayyorlangan sun’iy va sintetik gazlamalar, trikotaj, mo‘yna, poyabzal va boshqalar pishiqligi, mustahkamligi, arzonligi bilan ajralib turadi.

Inson ming yillardan beri o‘zi uchun kerakli barcha buyumlarni, ya’ni gazlama va kiyimlarni tabiiy tolalar: jut, paxta, kanop, jun va zig‘irdan tayyorlagan va ularga turli-tuman pardoz bergen.

*To‘qimachilik materiallarini pardozlash kimyoviy texnologiyasi fani, maqsad va masalalari.* Xalq iste’mol mahsulotlarini sifatini yaxshilish, raqobatbardoshligini ta’minlash, dunyo namunalari darajasida ishlab chiqarish O‘zbekiston Respublikasning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Bu maqsadga yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan pardozlash korxonalari texnologlarini yetishtirib berish orqali erishish mumkin.

TMPKT – bu to‘qimachilik materiallarini pardozlashga tayyorlash, bo‘yash, gul bosish va yakuniy pardozlash jarayonlarini nazariy va texnologik mohiyatini ilmiy-texnik muammolarni hal etuvchi fandir.

Pardozlashning kimyoviy texnologik jarayonlari asosan tolali materillarga kimyoviy, fizik-kimyoviy yo'llar bilan ta'sir etish orqali amalga oshiriladi Bunday jarayonlarga oxorsizlantirish, qaynatish, oqartirish, merserlash, karbonlash, bo'yash, gul bosish, appretlash, termoishlov berish va boshqalar misol bo'la oladi.

To'qimachilik korxonalaridagi kimyoviy-texnologik jarayonlarning asosiya vazifasi mahsulotlarga ma'lum xossalari berishdan iboratdir. Bular: kapillyarlik, oqlik, kamkirishuvchanlik, kamg'ijimlanuvchanlik, namga chidamlilik, ko'rkalilik va boshqalardir. To'qimachilik materillarini pardozlashning kimyoviy jarayonlari bilan bir qatorda mexanik jarayonlar ham bajariladi (tuk qirqish, paxmoqlash, dazmollash, en kengaytirish va boshqalar).

To'qimachilik materiallarini pardozlash qadimdan ma'lum bo'lib, hozirgi kunda u og'ir qo'l mehnatidan to uzlusiz tez sur'atlarda olib boriladigan jarayonlargacha rivojlanib kelmoqda. XVIII asrgacha zig'ir tolali matolarni oqartirishga butun yoz mavsumida erishilgan bo'lsa, XIX asrga kelib ba'zi kimyoviy materialarni qo'llanilishi sababli bu jarayonga ikki oy mobaynida erishishga muvaffaq bo'lganlar. Hozirgi kunda yuqori harorat, bosim hamda turli faol kimyoviy moddalarni ishlatish orqali matolarni oqartirishga bir necha soat sarflanadi xolos.

XIX asr o'rtalarigacha bo'yash va gul bosishda faqat tabiiy bo'yovchilardan foydalanilgan. 1842 yili Qozon universiteti professori N.N.Zinin tomonidan kashf etilgan anilinni olish texnologiyasi sanoat miqyosida ko'pgina bo'yovchi moddalarni ishlab chiqarishga asos bo'ldi. Matolarni badiiy bezash uchun bo'yovchi moddalar, bo'yoqlar va pigmentlar ishlatiladi.

Bo'yovchi moddalar – rangli organik birikmalar bo'lib, to'qimachilik materiallari va boshqa jismlarga bir tekis va mustahkam rang beradi.

Bo'yoq - matolarga gul bosish uchun ishlatiladigan bo'yovchi modda, quyuqlovchi va yordamchi moddalardan tashkil topgan murakkab tarkibdir.

Pigmentlar – suvda va ko'pchilik organik erituvchilarda erimaydi, tola yuzasiga bog'lovchi moddalar yordamida bog'lanadi.

Pardozlash-bo'yash korxonalari ko'p miqdorda suv iste'mol qiluvchi sanoat tarmog'iga kiradi. Jarayonlardan hosil bo'lgan oqova suvlarni tarkibida bo'yo'chi modda, ishqor, kislota, tuz va sirt aktiv moddalarning bo'lishi ularni tozalash jarayonini qiyinlashtiradi.

Hindiston, Xitoy va Misr matolarga gul bosishning vatani hisoblanadi. Ilgari matolarga qo'lda gullar chizilgan, so'ng maxsus qoliqlar orqali, keyinchalik esa gul bosish jihozlarida matolarda turli gullar hosil qilingan.

Matolarga yakuniy pardoz berish xamma jarayonlardan so'ng kashf etilgan. XVIII-XIX asrlarda matolarga kraxmal bilan ishlov berib, uni sifatini oshirish ma'lum bo'lgan. Bu jarayonda mato o'ziga olgan yangi xususiyatlar birinchi yuvishdanoq chiqib ketgan.

XX asr o'rtalariga kelib matolarga yakuniy pardoz berishning yangi turlari kashf etildi (kam kirishuvchan, kam g'ijimlanuvchan, suv o'tkazmaydigan, olovbardosh, bakteriyalardan himoyalananuvchan).

Turli ishlab chiqarishdagi pardozlash jarayonlarining iqtisodiy baholash va o'rghanish, bu jarayonlarni olib borishning eng maqbul sharoitini tanlash, yordamchi materiallar va jihozlar tanlash, ishlab chiqarish jarayonlarni nazorat qilish muammolarini hal qilish, gigienik va xavfsiz mexnat qilish sharoitini ta'minlash to'qimachilik materillarini pardozlash texnologiyasi vazifasini tashkil etadi. To'qimachilik materiallarini pardozlash jarayonlarini effektiv olib borish kimyo va fizika qonuniyatlarini muhandis, iqtisod va boshqa fanlarni amalda qo'llashni o'rghanuvchi bilimlar majmuasiga asoslanadi.

*Pardozlash korxonalarini rivojlanish istiqbollari.* To'qimachilik materillarini pardozlash jarayonlari bo'yash - pardozlash yoki pardozlash korxonalarida olib boriladi. Pardozlash korxonalari tarkibida quyidagi asosiy bo'limlar faoliyat ko'rsatadi: oqartirish, bo'yash, gul bosish va yakuniy pardoz berish. Asosiy bo'limlar bilan bir qatorda yordamchi bo'limlar ham bo'lib, ular: xom-ashyo, tayyor mahsulot, yarim tayyor mahsulot, kimyoviy moddalar va ehtiyyot qismlar omborxonasi; kimyoviy stansiya, bo'yoq qaynatish xonasi, ishlatilgan eritmalarini regeneratsiya qilish bo'limi, qoliqlarni tayyorlash yoki gravyura xonasi.

Pardozlash korxonalarining rivojlanishi quyidagi omillarga asoslanadi;

1. Aralash tolali matolar miqdori va turlarini ko‘paytirish, eni enli matolarni ishlab chiqarishga o‘tish.

2. Jarayonlarni birgalikda olib borish, texnologik ketma-ketlikni qisqartirish, hamda jarayonlarni faollashtiruvchi, yangi fizik va kimyoviy usullarni keng qo‘llash orqali pardozlash jarayonlarini jadallashtirish.

3. Kichik modulli, ko‘pik, azotrop, yuqori konsentratsiyali, yuqori haroratli, suyuq ammiakli va shu kabi yangi progressiv texnologiyalarni qo‘llash.

4. Kompyuter texnologiyalarini qo‘llab texnologik jarayonlarni avtomatik nazorat qilishni keng qo‘llash va kimyoviy modda miqdorini avtomatik boshqarish.

Tolali materillar yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlarni amalga oshiruvchi obyekt bo‘lib, xossalari va strukturasi bo‘yicha juda murakkab sistemalardir.

*Tolalarni sinflanishi.* Kelib chiqishi bo‘yicha barcha ma’lum tolali materillar ikki guruhga bo‘linadi: tabiiy va kimyoviy. Bevosita tabiiy materiallardan olinadiganlarga tabiiy tolalar deyiladi. Ular asosan organik va ayrim hollarda mineral tabiatli bo‘ladilar. O‘z o‘rnida organik tolalar yana ikki guruhga: jonivorlardan olinadigan va o‘simliklar asosidagi tolalarga bo‘linadi, bular paxta, len, pelka, jut, rami va jun, tabiiy ipak. Bu tolalar tola hosil qiluvchi polimerlar bo‘yicha sellyulozali va oqsilli bo‘ladi. Mineral tola guruhiga texnika sohasida ahamiyatli hisoblangan asbest kiradi.

Tabiiy yoki sintetik yuqori malekulyar birikmalarni kimyoviy qayta ishlab hosil qilingan tolalar kimyoviy tolalar deyiladi. Kimyoviy tolalar sun’iy va sintetik tola guruhalidan tashkil topgan.

Tabiiy yuqori molekulyar birikmalarni qayta ishlash orqali sun’iy tolalar hosil qilinadi. Bularga quyidagi tolalar kiradi:


Sellyuloza asosli: viskoza, polinoza, mis-ammiakli, triatsetat, atsetat tolalari;

Oqsil asosli: kazein, zein tolalar.

Quyi molekulyar birikmalardan sintez yo‘li bilan olingan sintetik polimerlar asosidagi tolalar sintetik tolalar guruhini tashkil qiladi. Asosiy zanjirdagi elementlar tarkibi bo‘yicha sintetik tolalar geterozanjirli (polamid (PA)-kapron,

anid, enant; poliefir (PE)-lavsan;) va karbozanjirli (poliakrilonitril (PAN)-nitron; polivinilxlorid (PVX)-xlorin; polivinilspirt (PVS)-vinol).

Noorganik kimyoviy tolalar guruhiga shishali tola, keramikali tolalar, metall va yarim metalli iplar mansubdir. 1-rasmda tolalarning sinflanishi keltirilgan.



1- rasm. Tolalarning sinflanishi


Kimyoviy tola nima? Faraz qilaylik oldimizda oddiy o'simlik daraxti. Agar shu daraxt kesilsa  $6 \text{ m}^3$  taxta olinib, undan mebellar va pol yasalishi mumkin. Daraxtning qirindi va qipig'i qimmatbaho yoqilg'i hisoblanadi. Kimyogar o'sha daraxtdan juda ko'p ingichka tolali qimmatbaho ipak oladi, ya'ni daraxt va uning qipig'idan sof holatdagi sellyuloza, sellyulozadan esa har xil kimyoviy usullar bilan viskoza tolsi olinadi. Bunda  $6 \text{ m}^3$  taxtadan bir tonnaga yaqin tolali ipak olinib, undan 240 ming juft paypoq va ipakli gazlamalar yoki 9 ming metr sun'iy ipak polotno to'qish mumkin.



2-rasm. Bitta katta archa tanasidan ko'p miqdorda ipak matosi va paypoqlar olish mumkin.

Viskoza, mis-ammiakli va atsetat sun'iy ipaklar, avtomobil va samolyotlarning g'ildiraklari shinasi uchun ishlatiladigan mustahkam kordlar, plyonkalar, telefon apparatlari va boshqalar ham daraxtdan olinadi.

Ammo tabiatda mavjud bo'lgan xom ashyolar sanoatni uzoq muddatgacha yuqoridagi mahsulotlar bilan ta'min eta olmaydi. Buni inobatga olgan holda olimlar sun'iy tolalar olish bilan bir qatorda, oddiy quyi molekulali moddani ikkinchisiga ya'ni polimerga aylantirish, ya'ni sintez yo'li bilan yangi xossalarga ega bo'lgan sintetik tolalar hosil qilish usullarini ham yaratganlar. Ko'zga ko'rmas metan gazidan yangi tolalar olinishi fikrimizning dalilidir (2-rasm).



3-rasm. Polimer matolar ishlab chiqarish uchun tabiiy va yo'ldosh gazni kimyoviy qayta ishlab hosil qilinadigan asosiy mahsulotlar


Sintetik tolalar va undan tayyorlangan gazlamalar o‘z xossalari bilan tabiiy va sun’iy tolalardan farq qiladi. Sintetik tolalardagi ba’zi bir xususiyatlar tabiiy tolalarda uchramaydi. Bu tolalar issiqlikka, nur ta’siriga, suvga, bakteriya va mikroorganizmlarga, kislota va ishqorga chidamlilik xossalariiga ega.

Kimyoviy tolalarni ishlab chiqarish mehnat unumdorligining tez o‘sishini ta’minlaydi. Masalan, 1 tonna viskoza tolasini olish uchun, shuncha miqdorda paxta tolsi olishga qaraganda 2-3 marta kam xarajat sarf bo‘ladi. Bitta kimyo zavodi bir kunda 100 tonna viskoza tolasini ishlab chiqarishi mumkin. Shu miqdordagi tabiiy tolani olish uchun 22 ming gektardan olingan zig‘irni yoki 50 ming gektarda etishtirilgan paxtani qayta ishlashga to‘g‘ri keladi (4-rasm).

1 m<sup>2</sup> sun'iy qorako'l ishlab chiqarish 6 bosh tirik qorako'lni saqlab qolish imkonini beradi. Sintetik tola olish uchun xech qanday hosildor yerning keragi yo'q. Tabiiy tola olish uchun esa hosildor yer, yaxshi ob-havo va mashaqqatli mehnat kerak. Ushbu shart – sharoitlarning bo'lish-bo'lmasligi tabiiy tolaning sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

1855 yilda fransuz olimi Odemar o'z laboratoriyasida birinchi bo'lib nitrotsellyulozadan, G.Shardone esa 1884 yilda azotli porox massasidan sun'iy ipak olganlar. Sanoat miqyosida sun'iy tolalar ishlab chiqarish esa 1880 yillarda amalga oshirilgan. 1920 yillarda olimlar laboratoriyada sun'iy tolalarning barchasidan farq qiluvchi, yaxshi sifatlarga ega bo'lgan ajoyib sintetik tola yaratdilar. Sintetik tolalar olishda odatda fenol etilen gazi, neftni qayta ishslashda hosil bo'lgan maxsulotlar, atsetilen, propilen va boshqalar qo'llaniladi.

Tolalardan mato ishlab chiqarish bir necha murakkab jarayonlardan tashkil topadi. Quyida toladan mato ishlab chiqarish texnologik sxemasi keltirilgan.



4- rasm Toladan mato ishlab chiqarish texnologik sxemasi

To‘quvchilik jihozlaridan olinadigan mato xira rangli bo‘lib, u xom mato deb ataladi. 5-rasmda to‘quvchilik jihozida mato to‘qish jarayoni keltirilgan.



5-rasm. To‘quvchilik jihozida mato to‘qish jarayoni.

Quyida turli tolalar va ulardan tayyorlanadigan mato ko‘rinishlaridan misollar keltirilgan.

| Tabiiy tolalar |  |  |  |
|----------------|--|--|--|
| Paxta          |  |  |  |
| Kanop          |  |  |  |
| Penka          |  |  |  |

|             |   |  |   |
|-------------|---|--|---|
| Zig‘ir      |  |  |  |
| Jun         |  |  |  |
| Tabiiy ipak |  |  |  |

### Sun’iy tolalar

|                   |   |  |   |
|-------------------|---|--|---|
| Viskoza           |  |  |  |
| Mis-ammiakli tola |  |  |  |
| Atsetat tolalar   |  |  |  |
| Bambuk            |  |  |  |

| Sintetik tolalar     |  |  |  |
|----------------------|--|--|--|
| Poliamid             |  |  |  |
| Poliefir             |  |  |  |
| Poliakrilonitri<br>l |  |  |  |
| Poliolefin           |  |  |  |
| Poliuretan           |  |  |  |
| Polivinilspirt       |  |  |  |
| Polivinilxlori<br>d  |  |  |  |

Nazorat savollari:

1. Tola nimadan tashkil topgan?
2. Zig‘ir tolasi qaysi sinfga mansub?
3. Poliamid tolasiga misol keltiring
4. Tayyor mato olish ketma-ketligini yozib bering

## 2-MA’RUZA

### Tola hosil qiluvchi polimerlar

Reja:

1. Tola hosil qiluvchi polimerlar
2. Tolalar haqida umumiy ma’lumotlar
3. Turli tolalarga suv va harorat ta’siri


*Tola hosil qiluvchi polimerlar.* Barcha to‘qimachilik tolalari yuqori molekulyar birikmalardir. Bir necha yuz ming atomlarni o‘zaro asosiy valentliklari orqali birikkan molekulali moddalar *yuqori molekulyar birikma* yoki *makromolekula* deyiladi.

Bir xil elementar zvenodan tashkil topgan makromolekulalar *polimerlar* va bir necha xil elementar zvenodan tashkil topgan makromalekulalar *sopolimerlar* deyiladi.



To‘qimachilik tolalaridagi polimer makromalekulasining o‘rtacha uzunligi odatda 150 dan to 3000 nm gacha bo‘lgan oraliqga to‘g‘ri keladi (1 nm (nanometr) =  $10^{-9}$ m). Bu ko‘rsatkich kimyoviy tolalar uchun 150-300 nm ga teng va tola makromolekulasining ko‘ndalang kesimi 0,3-0,8 nm ga to‘g‘ri keladi. Ko‘pchilik to‘qimachilik tolalarining polimer makromalekulasi chiziqli tuzilishga ega:

- A-A-A-A- yoki  $(A)_n$ - *polimerlar*
- A-A-B-A-V-A-V-A- *sopolimerlar*

Paxta, tabiiy ipak, viskoza, atsetat, kapron tolalarining chiziqli makromolekulasi uzun zigzag ko‘rinishda yoki buralgan spiral shaklida bo‘ladi (4-rasm). Ba’zi chiziqli polimerlar stereoregulyar tuzilishga egadir, ya’ni yon guruhlar asosiy zanjirga nisbatan tartibli joylashgan (tabiiy selluloza va polipropilen polimeri). To‘rsimon tuzilishli makromolekulalar, bu bir necha chiziqli zanjirlarni o‘zaro bir-birlari bilan ko‘ndalang vodorod bog‘lar bilan bog‘langan ko‘rinishidir, masalan – jun tolesi:




Ba’zi modifikatsiyalangan tolalar payvand sopolimerlash yo‘li bilan tarmoqlangan strukturaga ega bo‘ladi, masalan, diatsetat selluloza zanjiriga akrilanitril guruhlarini payvandlash orqali nitrilatsetat tolesi hosil qilinadi:



6-rasm. Turli makromolekulalarning sxematik ko‘rinishi. a- chiziqli (selluloza), b-tarmoqlangan (modifikatsiyalangan tolalar), v-to‘rsimon (jun).


Tola xossasiga makromolekula shakli ta’sir etadi:

1) Stereoregulyar chiziqli polimerli tolalar qizdirish ta'siriga o'ta mustahkam, yaxshi elastiklik va yumshoqlikka va plastiklikka ega (masalan sellyuloza). Sellyuloza makromolekulasini sxematik tarzda quyidagicha ko'rsatishimiz mumkin:




Bu yerda gidroksil guruh. Ko'rinish turibdiki sellyulozaning polimer zanjiri qat'iy ravishda tartiblangan, shuning uchun ham u stereoregulyar polimer hisoblanadi.

2) Fazoviy strukturaga ega bo'lgan polimer tolalar boshqalarga nisbatan juda qattiq va mo'rt, harorat ta'sirida plastik xossasini deyarli o'zgartirmaydi, qiyin eriydi (masalan - jun).




3) Tarmoqlangan strukturali polimer tolalar kichik pishiqlikka va chiziqli polimerlarga nisbatan yuqori plastiklikga ega.

Polimerlarning kimyoviy formulasi bir xil bo‘lsada, ular makromolekulasini shakli turlicha bo‘lsa, bu polimerlarning xossasi ham turlicha bo‘ladi, masalan, sellyuloza va kraxmal.



Tola xossalari nafaqat tola hosil qiluvchi polimer makromolekulasining kimyoviy tuzilishiga, balki ularning tolada joylashishiga, ya’ni nodmolekulyar tuzilishiga ham bog‘liqdir. Bu polimerda kristall va atrof uchastkalarning mavjudligi, nisbati, joylashishi hamda murakkab makromolekulalarning hosil bo‘lishini tushuntiradi.




7-rasm. Tolalarning nadmolekulyar tuzilishi

Sellyulozaning ikkita makromolekulasi elementar zvenolardagi gidroksil guruhlar orasidagi vodorod bog‘lar hisobiga o‘zaro intensiv molekulalararo bog‘lanadi. Natijada makromolekulaning katta qismida takrorlanuvchan zich

strukturalar hosil bo‘lishi mumkin. Aynan shu holat bo‘yicha har bir zvenosida uchtdan gidroksil guruh tutgan, turli chiqindilardan tozalangan sellyuloza gidrofil modda bo‘lsada, uni suvda erimasligini tushuntirish mumkin. Molekulalararo bog‘lanishda ishtirok etgan gidroksillar suv bilan ta’sirlashmaydi. Ammo sellyulozaning zich strukturaga ega bo‘lmagan uchastkalarida vodrod bog‘lanishlarda ishtirok etmagan gidroksil guruhlar suv bilan ta’sirlashadi va o‘zining gidrofilligini nomoyon etadi. Suvli eritmalarda yaxshi bo‘kadi, havodagi namlikni sorblaydi, suvli muhitlarda kuchli reaksiyon qobiliyatga ega.

Alohibda makromalekulalar bir-birlari bilan mikrofibrillarning makromolekulyar tortishi kuchi ta’sirida birlashadi, mikrofibrillar esa o‘z navbatida fibrillarning shunday kuchlari ta’sirida birlashadi. Fibrillardan tolalar tashkil topadi (6-rasm). Mikrofibril va fibrillarning uzunligi ko‘ndalang kesimidan bir necha marta katta qiymatga ega.



8-rasm. Tola tuzilishinig sxemasi.

1-tola.

2-fibrillyar.

3-mikrofibrillyar.

4- makromolekula

Ko‘pchiliktabiiyvasintetikpolimerlarmikrofibrillariningdiametritahminan 10 nm, uzunligi, masalan, sellyulozalitolalaruchun 1000 nm, mikrofibrillardagimakromolekulalarorasidagimasofa 1 nmdankam, mikrofibrilvafibrillarorasidagimasofabirqadarkattaroqqiyatgaega. Polimerlarning fibrillyar tuzilishi havo, namlik va qo‘sishchalar bilan to‘lgan mikrog‘avaklarni hosil bo‘lishiga olib keladi. Makromolekulalar mikrofibrillarda bir xil joylashmaydi, ular orasida tartibli joylashgan kristall va bir qadar tartibsiz joylashgan amorf uchastkalar bor.

Mikrofibrillardagi submikroskopik g‘ovaklar o‘lchami 3-5 nm, fibrillar orasidagi g‘ovaklar o‘lchami 10-15 nm ga teng. Shu bilan bir qatorda yirik g‘ovaklar, bo‘shliqlar va 1-2 mkm ( $1\text{mkm} = 10^{-6}\text{ m}$ ) o‘lchamdagи darzlar (treshina) ham bo‘ladi, bular tola tuzilishining morfologik xususiyatiga taaluqlidir.

Molekulalararo kuchlar bu – vodorod bog‘lar va Van-der Vaals kuchlari bo‘lishi mumkin. Tolada gidrofil harakterdagi **guruuhlar** -OH, -NH<sub>2</sub>, -COOH, =NH, -SH va boshqalarning bo‘lishi vodorod bog‘ning vujudga kelishiga olib keladi va tolaning gigroskoplik hamda reaksiyon qobiliyatini oshiradi. Van-der Vaals kuchlari **elektrostatik maydon dipolligi** yoki ikki molekula elektron va atom yadrolarining elektromagnit maydonlarining o‘zaro ta’sirlashuvi natijasida vujudga keladi.

Vodorod bog‘lar 0,26-0,28 nm, Van-der Vaals bog‘lanish 0,28-0,6 nm masofada ta’sir qiladi, turli bog‘lanishlarning bog‘lanish energiyasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

#### Bog‘lanish turiga bog‘liq ravishda ta’sirlashuv energiyasining solishtirma qiymatlari

| №  | Bog‘ turi<br>(ta’sirlashuv,<br>bog‘lanish) | Ta’sirlashuv energiyasi (bog‘lanish, ta’sirlashuv) |          |
|----|--|--|----------|
|    |  | kKal/mol   | kDj/mol  |
| 1. | Van-der-Vaals                              | 0,4-0,04   | 1,6-0,16 |
| 2. | Vodorod                                    | 2-10   | 8-40     |
| 3. | Koordinatsion                              | 50-100   | 200-400  |
| 4. | Ion  | 50-100   | 200-400  |
| 5. | Kovalent                                   | 50-100   | 200-400  |

**Izoh.** 1 kDj/mol = 0,24 kKal/mol. Masalan. Sellyulozada vodrod bog‘lanish energiyasi 20,9-30,4 kDj/mol, Van-der-Vaals kuchlar energiyasi 8,3-12,5 kDj/mol, kovalent bog‘lanish energiyasi 320-360 kDj/mol

Ion bog‘lanish ikki bir-biriga qarama-qarshi zaryadli ionlar orasida vujudga keladi. Tarkibida ionogen (-OH, -COOH, -NH<sub>2</sub>) guruhlari bo‘lgan oqsil, sellyuloza, poliamid va poliakrilonitril tolalar ion bog‘lanishga kira oladi. Suvda eruvchi barcha bo‘yovchi moddalar, anion va kation tipidagi sirt aktiv moddalar va boshqa to‘qimachilik yordamchi moddalari tolalar bilan ion bog‘lanishi mumkin.

Koordinatsion bog‘lanish bu donor akseptor bog‘lanish bo‘lib, u kompleks birikmalar uchun xosdir. Markaziy atom sifatida vakant elektron orbitali bo‘lgan neytral atom (akseptorlar), liganda sifatida esa bo‘sh elektron juftlikga ega bo‘lgan neytral atom (donorlar) ishtirok etadi. Koordinatsion bog‘lanishlar poliamid va jun tolali to‘qimachilik materiallarini metallkompleks bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yash jarayonida vujudga keladi.

Kovalent bog‘lanish eng mustahkam kimyoviy bog‘ hisoblanadi. Kovalent bog‘lanishda sorblanish qaytmas xarakterda bo‘ladi. Tola hosil qiluvchi polimerlarning elementar zvenolari orasidagi kovalent bog‘lanish ularni kimyoviy mustahkamligini, bo‘yovchi modda strukturasidagi atom orasidagi kovalent bog‘ ularning xromofor sistemasining kimyoviy va fotokimyoviy mustahkamligini bildiradi.


Molekulalararo ta’sirlashishning umumiyligi energiyasi kogeziya energiyasi deb ataladi. Bu energiyaning ortishi bilan polimerning pishiqligi, mo‘rtligi, erish harorati va yumshash harorati ortib boradi. Kogeziya bu – jism ichida (hajmda) bir faza chegarasida molekulalararo birikishdir. Bu vodorod va (yoki) kimyoviy bog‘lar kuchi hisoblanadi. Adgeziya esa – ikki bir-biriga tegib turgan yuzalar orasidagi molekulalaro bog‘lar energiyasidir. Adgeziyaning miqdoriy maydon birligi hisobida jismlarni ajratishga sarflanadigan ish bilan aniqlanadi. Tola yuzasida ko‘pgina tabiiy va texnologik chiqindilar adgeziya hisobiga ushlanib turadi. To‘qimachilik materialiga gul bosilib, quritilgach bo‘yoq mato yuzasi bilan adgezion bog‘lanib turadi.

Makromolekulalarni turli ta'sirlarda tuzilishini o'zgarishi ularning konformatsiya va konfiguratsiyasi bilan tushuntiriladi.


*Konfiguratsiya* bu – issiqlik ta'sirida makromolekula atomlarining ma'lum fazoviy tuzilishidir. Makromolekulaning bir konfiguratsiyadan ikkinchisida o'tishi kimyoviy bog'larning uzilishi bilan boradi. Polimerlarda bir necha turdag'i konfiguratsiya bosqichlari ajratilib ko'rsatiladi:

- zveno konfiguratsiyasi;
- zvenolarning ulanish konfiguratsiyasi;
- bloklarning ulanish konfiguratsiyasi;
- zanjir konfiguratsiyasi.

Zveno konfiguratsiyasi to'yinmagan qo'shbog' monomerlardan olingan polimerlar uchun xos:



Zvenolarning ulanish konfiguratsiyasi nosimmetrik tuzilishga ega bo'lgan polimerlar uchun xos bo'lib, unda zvenolar boshi oxiriga, oxiri oxiriga, boshi boshiga usullarda birikishi mumkin, masalan xlorvinildan polivinilxloridni hosil bo'lishi:



Bloklarning ulanish konfiguratsiyasi turli tarkibdagi zvenorlardan tashkil topgan sopolimerlar uchun xos:

Regulyar zanjir – A-V-A-V-A-V-A-V-A-

Bloksopolimerlar –  $[A-A-A]_n - - [-B-B-B-B]_m - [A-A-A-A-A]_k -$

Choklangan (privitie) bloksopolimerlar

– A-  
B-B-B-B-B-B-B-B-B-B-B-B-B-

Zanjir konfiguratsiyasi zveno yoki bloklarning ketma-ket birikishi bilan aniqlanadi. Bunda chiziqli (PVS, PE, PP, tabiiy sellyuloza), tarmoqlangan (asosiy zanjir bilan birga yon zanjirlari xam bo‘lgan polimerlar), to‘rsimon (polimerni yuqori darajada tarmoqlanishida hosil bo‘ladi; to‘rsimon polimer zanjirlari o‘zaro kimyoviy bog‘lar yordamida birikkan bo‘ladi; to‘rsimon polimer strukturasi yassi yoki fazoviy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin) polimerlar hosil bo‘lishi mumkin.

Tarmoqlangan polimerlarni ayrim tuzilishlari:

Yon zanjiri kalta bo‘lgan



Yon zanjiri uzun bo‘lgan



Yulduz ko‘rinishda



Taroqsimon




Daraxtsimon




To‘rsimon polimerlarni ayrim tuzilishlari:


Narvonsimon



Yarimnarvonsimon




Yassi to‘rsimon



Fazoviy to'rsimon



Makromolekulalarning *konformatsiyasi* – issiqlik yoki tashqi maydon ta'sirida molekula shaklini kimyoviy bog'larni uzilmagan holda o'zgarishidir. Bunda issiqlik ta'sirida polimer zanjiri konfiguratsiyasini o'zgartirmagan holda turli konformatsion tuzilishga ega bo'ladi.



Oqsil makromolekulasi



Chiziqli polimerlar

Tolali materiallar tashqi kuch ta'sirida deformatsiyaga uchraydi, bu deformatsiyalar elastik, plastik va taranglik deformatsiyalaridan tashkil topadi.

*Taranglik* (uprugaya) deformatsiyasi makromolekulalarning o'zaro joylashishi o'zgarmagan holda atom va makromolekulalar orasidagi masofani o'zgarishida paydo bo'ladi. Kuch olinganda taranglik deformatsiyasi shu zahotiyoy qoyib bo'ladi (rezinka). Shuning uchun ham bu deformatsiya tez qaytuvchi deb ataladi.

*Elastiklik* deformatsiyasi - kuch olinganda sekinlik bilan yo'qoladi, ya'ni relaksatsiyalanadi. Bu deformatsiya makromolekula shaklini o'zgarishi bilan boradi va faqat polimer moddalarda vujudga keladi. Mahsulotdagi iplar, iplardagi tolalar, polimerlardagi makromolekulalar konfiguratsiyasining o'zgarishida paydo bo'ladi. Bu deformatsiya uzoq vaqt davomida vujudga keladi, shuning uchun ham u sekin qaytadigan deformatsiya deb ataladi.

*Plastik deformatsiya* – kuchlanish olingandan so‘ng yo‘qolmaydi. Plastik deformatsiyada tashqi kuchlar ta’sirida alohida makromolekulalar yoki ular zvenolari o‘zaro o‘rin almashishlari vujudga keladi. Ip, tola, makromolekulani aralashishi – ichki va tashqi bog‘larni qaytmas o‘zgarishida paydo bo‘ladi. Sinovlar ma’lum vaqt oralig‘ida bajarilganligi sababli elastik deformatsiyaning bir qismi plastik deformatsiyaga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun plastik deformatsiya qoldiq deformatsiya deb ham yuritiladi.

*Tolalar haqida umumiy ma’lumotlar, turli tolalarga suv va harorat ta’siri.* Barcha tolali materiallar o‘zlarining suvgaga bo‘lgan munosabatlari bo‘yicha gidrofil va gidrofob guruhlarga ajraladilar. Gidrofil tolalar turkumiga barcha tabiiy tolalar, viskoza, polinoza va misammiakli tolalar mansub. Bu tolalar gidrofil guruhlarning (-OH, -NH<sub>2</sub>, – COOH) kuchli gidrotatsiyasi hisobiga suvda yaxshi bo‘kadi. Gidrotatsiya natijasida tola struturasidagi molekulalararo bog‘lar qisman uziladi va g‘ovaklarning o‘lchami kattalashadi. Gidrofil tolalar o‘zlariga suyuqlikni yaxshi shimadigan, elektrlanmaydigan, havo o‘tkazuvchan xossalarga egadirlar. Gidrofil tolalarni pardozlashga tayyorlash murakkab jarayon hisoblansada, lekin maxsus shart-sharoit talab qilinmaydi. Gidrofil tolalarni pardozlash jarayonini (bo‘yash va gul bosish) oddiy sharoitda olib borish mumkin.

Gidrofob tolalar suyuqlikni kam shimuvchan, elektrlanadigan tolalardir, lekin shu bilan birga bu tolalar pishiq, yuqori mexanik xossaga ega bo‘lib, nurbardosh va mikroorganizmlar hamda kuyaga chidamlidir. Gidrofob tolalar turkumiga barcha sintetik tolalar, atsetat va triatsetat tolalari kiradi. Bu tolalar struktursida gidrofil guruhlar juda kam va ular suda bo‘kmaydi. Gidrofob tolalarni tarkibida faqat oxor bo‘lganligidan ularni pardozlashga tayyorlash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Gidrofob tolalarni bo‘yash ancha murakkab, bo‘yash jarayoni uchun yuqori harorat, uzoq vaqt va bosim talab qilinadi.

2-jadvalda suv ta’sirida tolalarning strukturasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, 3-jadvalda esa tolalarning namlikni yutish miqdori ko‘rsatilgan.

2-jadval

Turli tolalarning suv ta'siri o'zgarishi

| Tolalar           | Namlik yutilishini standart qiymati, % | Bo'kish natijasida xajmnning ortishi, % | Nam xolatda mustahkamligini yo'qolishi, % |
|-------------------|--|---|---|
| Gidrofil tolalar: |  |   |   |
| Paxta             | 7-8                                    | 36-45                                   | +20                                       |
| Zig'ir            | 11,9                                   |   | +10                                       |
| Viskoza           | 11,0-13,5                              | 95-120                                  | -37; -55                                  |
| Jun               | 17,0                                   | 36-42                                   | -10; -22                                  |
| Tabiiy ipak       | 11,0                                   | 36                                      |   |
| Gidrofob tolalar  |  |   |   |
| TATS              | 2,5-4,0                                | 12-18                                   | -30...-33                                 |
| Poliefir          | 0,4-0,5                                | 0,5-1,5                                 | 0   |
| Poliamid          | 4,5                                    | 10-12                                   | -10...-15                                 |
| PAN               | 1,0-2,5                                | 2-6                                     | 0...-20                                   |

3-jadval

Tolalarning namlik yutish ko'rsatkichlari

| Tolalar     | Havoning nisbiy namligida tolalarning gigroskopikligi, % |     |
|-------------|--|-----|
|             | 65%  | 95% |
| paxta       | 6  | 20  |
| jun         | 14   | 28  |
| tabiiy ipak | 11   | 30  |
| viskoza     | 13   | 30  |
| diatsetat   | 6-8  | 20  |

|                  |         |         |
|------------------|---------|---------|
| poliamid         | 3,8-4   | 6       |
| polivinilxlorid  | 0       | 0,1     |
| poliakrilonitril | 0,1     | 0,2     |
| poliefir         | 0,5     | 0,8-1,0 |
| polivinilspirt   | 5-6     | -       |
| polipropilen     | 0       | 0       |
| poliuretan       | 1,0-1,3 | -       |

Qizdirishga ta'siri bo'yicha tolalr termoplastik va termoreaktiv guruhlarga bo'linadi. Termoplastik polimerlar qizdirish natijasida plastik holatga o'tadi va keyingi sovutish natijasida plastikligi kamayib qattiqlashib qoladi. Bu guruhga ATS, PA, PE, PAN, PVX va boshqa tolalar ta'luguqli. Termoreaktiv tolalar plastik holatga o'tmaydi va yuqori harorat ta'sirida parchalanadi. 4-jadvalda turli tolalarni yuqori harorat ta'siriga bo'lgan o'zgarishlari keltirilgan.

4-jadval.

#### Turli tolalarga harorat ta'siri

| Tola        | Tolalarining chidamliylik harorati, °C<br>(1-5 min) | Shishalanish harorati, °C | Yumshash harorati, °C | Parchalanish harorati, °C |
|-------------|---|---------------------------|-----------------------|---------------------------|
| Paxta       | 150-180/5 min                                       | 220                       | -                     | 200                       |
| Jun         | 100-110/5 min                                       | -                         | -                     | 170-200                   |
| Tabiiy ipak | 140/1min  | 182-184                   | -                     | 180                       |
| ATS         | 120-130   | 200                       | 225                   | 185                       |
| TATS        | 130-140   | 160-180                   | 300                   | 185                       |
| PA          | 140   | -                         | 196-216               | -                         |
| PE          | 150/500s  | -                         | 235-265               | -                         |
| PAN         | 150   | 75-85                     | 300-320               | 220-280                   |
| Viskoza     | 120   | -                         | -                     | 175                       |

## Tolalarning fizik-mexanik xossalari 5-jadvalda keltirilgan

5-jadval.

### Tolalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

| Tola        | Uzilishga bo‘lgan mustahkamligi, n/teks | Uzilishdagi cho‘zilish, % |
|-------------|---|---------------------------|
| Paxta       | 0,24-0,35                               | 7-6                       |
| Zig‘ir      | 0,4                                     | 3                         |
| Viskoza     | 0,14-0,24                               | 10-23                     |
| Jun         | 0,1-0,16                                | 28-48                     |
| Tabiiy ipak | 0,24-0,33                               | 15-23                     |
| TATS        | 0,1-0,16                                | 20-28                     |
| PE          | 0,4-0,67                                | 16-28                     |
| PA          | 0,36-0,63                               | 22-45                     |
| PAN         | 0,32-0,15                               | 16-22                     |

5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sintetik tolalar boshqa tolalarga nisbatan yuqori mexanik mustahkamlikka ega ekan.

## 3-MA’RUZA

### Sellyulozaning kimyoviy tuzilish

Reja:

1. Tabiiy sellyuloza tolalarining xossalari.
2. Sellyulozaning kimyoviy tuzilishi
3. Sellyulozaga kislota va ishqor ta’siri
4. Sellyulozaga oksidlovchi va qaytaruvchilar ta’siri
5. Yorug‘lik va mikroorganizmlar ta’siri


*Paxta tolasi.* Paxta tolasi bu chigitni qoplab turuvchi tola bo‘lib, u xom paxta deb yuritiladi. Paxta tolasi o‘rtacha (26-35 mm) va ingichka tolali (35-50 mm) bo‘ladi. Paxtani dastlabki ishlash vaqtida (jinlash jarayonida) tola chigitdan ajratiladi va tolali material hosil qilinadi. Paxta tolasining qayta ishlash jarayonining texnologik yo‘nalishiga ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkich uning yetilganlik darajasi, uzunligi, namligi, chiziqli zichligi, mustahkamligi va ifloslik darajasidir. Tola etilganlik va mustahkamlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yettita navga ajratiladi.

6-jadval.

#### Paxta tolasining normativ ko‘rsatkichlari


| Navi | Etilganlik<br>darajasi,<br>kamida | Uzilishdagi<br>mustahkamligi,<br>n/teks | Ifloslanganlik darajasi,<br>% |                   | Namligi,<br>% |
|------|-----------------------------------|---|-------------------------------|-------------------|---------------|
|      |                                   |   | hisob<br>bo‘yicha             | mumkin<br>bo‘lgan |               |
| 0    | 2,1                               | 4,9                                     | 1,9                           | 4,0               | 8             |
| 1    | 2,0                               | 4,4                                     | 2,1                           | 5,0               | 8             |
| 2    | 1,8                               | 3,9                                     | 2,6                           | 6,5               | 9             |
| 3    | 1,6                               | 3,4                                     | 3,5                           | 7,5               | 10            |
| 4    | 1,4                               | 3,0                                     | 5,3                           | 12,0              | 11            |
| 5    | 1,2                               | 2,5                                     | 8,6                           | 16,0              | 12            |
| 6    | 1,2                               | 2,5                                     | 12,5                          | 22,0              | 12            |

Paxta tolasi silliq, yassi lenta ko‘rinishda, buralgan holatda bo‘lib (9-rasm), o‘rtasida kanal (10-rasm) ham bo‘ladi.



9-rasm. Paxtatolasining yetilganlik darajasi


Paxtatolasiningo ‘tayupqabirlamchide voriuning tashqihimoyapardasi hisoblanadi (9-rasm). Sellyuloza bo‘lmagan ko‘pgina moddalar shu devorda joylashadi.




10-rasm. Paxta tolasi strukturasida makromolekulalar orientatsiyasi. *a*- birlamchi devor, *b*- ikkilamchi devorning tashqi qatlami, *v*-ikkilamchi devorning markaziy qismi.

Birlamchi devordagi sellyuloza makromolekulasi xaotik joylashgan va ularning kamgina qismi tola o‘qiga nisbatan perpendikulyar orientirlangan. Ikkilamchi devori tolaning asosi hisoblanadi, bu qavatda sellyuloza makromolekulasi tartibli joylashgan, ular uzun fibrillar hosil qiladi, fibrillr esa o‘z navbatida tola o‘qiga nisbatan ma’lum burchak ostida orientirlangan. Birlamchi va ikkilamchi devorlar tola o‘qiga nisbatan konsentrik joylashgan. Tola ichida kanal bo‘lib, uning bir tarafi ochiq. Ichki kanalda azot tutgan moddalarning bir qismi protoplazma ko‘rinishda bo‘ladi. Paxta tolasida lignin yo‘q, lekin u ip gazlama tarkibiga poya va barglar bilan birgalikda o‘tadi.

*Zig‘ir tolalar*. *Zig‘ir tolalar* turli o‘simliklarning poya va barglaridan ajratib olinadi. Ularning ichida len tolsi katta ahamiyatga ega. *Zig‘ir tolalar* paxta tolasiga nisbatan uzun, qattiq va qalin. Morfologik tuzilishida farq bo‘lsada, ularning umumiyligi asoslarini sellyulozadan tashkil topganligidadir. O‘simlik poyasining diametri bo‘ylab 20-25 ta *zig‘ir* tolsi to‘plamlari, har bir to‘plamda esa 15-30 tadan elementar tola joylashgan (9-rasm). Elementar tolaning ikki uchi ingichkalashib boruvchi arqonsimon shaklga ega (11-rasm). Elementar tolaning o‘rtacha uzunligi 25 mm bo‘lib, ular o‘simlikning uzunligi bo‘yicha (taxminan 15-125 sm) joylashgan.



11-rasm. *Zig‘ir* poyasining ko‘ndalang kesimini sxematik ko‘rinishi. 1-epidermis, 2-parenxima, 3-bo‘shliq, 4-zig‘ir tola to‘plamlari, 5-asosiy qismi, 6-kambiy, 7-yog‘och qismi.



12-rasm. *Zig‘ir* elementar tolasining tuzilishi. a- tashqi ko‘rinishi, b- ko‘ndalang kesimi, v-tolaning mikroskop ostida ko‘rinishi

Texnik zig‘ir tolasi paxtaga nisbatan farqli o‘laroq elementar tolalarning buramalaridan tashkil topgan. Bu elementar tolalar o‘zaro oraliq plastinka orqali birikkan, plastinka esa pektin va lignin moddalardan tashkil topgan. Elementar tolalardagi sellyuloza makromolekulasi yaxshi orientirlangan va ular mikrofibrill va fibrill ko‘rinishda nadmolekulyar kompleksni hosil qiladi. Sellyuloza asosidagi paxta va zig‘ir tolalarining tarkibi, tolalarning molekulyar massasi va polimerlanish darajasining o‘rtacha miqdorlari quyidagi jadvallarda keltirilgan.

7-jadval.

Tola tarkibi


| Moddalar             | Toladagi miqdori, % |          |
|----------------------|---------------------|----------|
|                      | Paxtada             | Zig‘irda |
| Sellyuloza           | 94,5-96             | 75-78    |
| Mumsimon moddalar    | 0,5-0,6             | 2,7      |
| Pektin moddalar      | 1,0-1,2             | 2,9-3,2  |
| Lignin               | -                   | 3,8      |
| Azot tutgan moddalar | 1,0-1,2             | 1,9-2,1  |
| Mineral moddalar     | 1,2                 | 1,3      |
| Boshqalar            | 0,3-1,3             | 9,4-11,9 |

8-jadval.

Tolalarning molekulyar massasi va polimerlanish darajasining o‘rtacha qiymatlari


| Sellyuloza tutgan polimerlar | Polimerlanish darajasi | Molekulyar massasi |
|------------------------------|------------------------|--------------------|
| Paxta                        | 10000                  | 1620000            |
| Zig‘ir                       | 36000                  | 5800000            |
| Yog‘och sellyulozasi         | 30003                  | 490000             |
| Viskoza                      | 450                    | 78000              |

Sellyulozaning kimyoviy tuzilish.  $\alpha$ -glyukoza angidrid sellyuloza makromolekulasining elementar zvenosidir -  $C_6H_{10}O_5$ . Sellyuloza makromolekulasida  $\alpha$ -glyukoza angidridlar  $\beta$ -formada bo‘lib, o‘zaro 1-4 uglerodlar orqali glyukozid bog‘ bilan bog‘langan.




$\alpha$ -glyukoza angidridlar zanjirda vint ko‘rinishda joylashgan. Ularning har biri ikkinchisiga nisbatan  $180^0C$  ga buralgan. Polimerlanish darajasi 10000-15000 ga teng. Paxta sellyulozasining molekulyar massasi 1620000-2430000 va zig‘irniki 5832000 ga teng.

Sellyulozani umumiy formulasi  $(C_6H_{10}O_5)_n$  ёки  $[C_6H_7O_2(OH)_3]_n$ . Har bir elementar zvenoda 3 tadan (OH)-guruhi, ulardan bittasi birlamchi (6-uglerod atomida) va ikkitasi ikkilamchi (2-va 3-uglerod atomida) bo‘ladi. Ikkinci uglerodagi gidroksil kislotali xususiyatga ega va u glyukozid bog‘ga nisbatan  $\alpha$ -holatda joylashgan. Gidroksil guruhdan tashqari glyukozid bog‘ ham reaksiyon faol guruhi hisoblanadi. Bu bog‘ energiyasi 250 kDj/mol ga teng:




Sellyuloza amorof-kristall tuzilishdagi moddadir. Makromolekulaning qattiqligi va molekulalararo kuchlar ta’siri natijasida sellyuloza yuqori orientirlangan kristall strukturaga ega, paxta sellyulozasining kristallik darajasi 70%, zig‘irniki 80-85%, regenerirlangan sellyuloza - gidsel-sellyulozaning kristallik darajasi 40-50% ga teng. Molekulalararo o‘zaro ta’sirlashuv ikki xil turdagil bog‘lar yordamida amalga oshadi: vodorod bog‘lar va Van-der Vaals kuchlari.



*Sellyulozaning fizik xossalari.* Tabiiy sellyuloza faqat ba'zi bir polivalent metallarning ammiak va aminli gidrookis kompleks birikmalarining suvli eritmalarida eriydi. Ko'pincha mis-ammiakli kompleksdan foydalaniadi. Sellyuloza  $150\text{-}180^{\circ}\text{C}$  haroratda 5 daqiqa davomida hech qanday o'zgarishga uchramaydi. Sellyulozaning shishalanish harorati  $220^{\circ}\text{C}$ , bu harorat suv, etilenglikol,  $\text{HCOOH}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ishtirokida to  $25^{\circ}\text{C}$  gacha pasayib ketadi. Sellyuloza nam holatda yuqori elastik holatda bo'ladi, absolyut quruq sellyuloza esa shishalangan holatda bo'ladi. Organik erituvchilarda erimaydi. Ba'zi organik erituvchilar sellyulozaning reaksiyon qobiliyatini oshiradi.

*Sellyulozaga kislotalar ta'siri.* Sellyuloza makromalekulasidagi glyukozid bog'lar mineral kislotalar ta'siriga chidamsiz va oson gidrolizlanadi., ya'ni parchalanib suvga bog'lanadi. Gidroliz jarayonining boshlang'ich bosqichida sellodekstrinlar hosil bo'ladi. Sellodekstrinlarning molekulalari 80 tagacha glyukoozid qoldiqlarini tutgan bo'ladi. Gidrolizni davom etishi bilan oligosaxaridlar bo'ladi:




Gidroliz reaksiyasida kislota katalizator vazifasini bajaradi. Kislotaning sellyulozaga ta'siri kislota tabiatiga va konsentratsiyasiga, ishlov berish harorati va davomiyligiga bog'liq. Kislotalar sellyulozani gidrolizlash qobiliyati - kuchi bo'yicha quyidagi tartibda joylashtiriladi:


*bor < sirka < chumoli < shavel < fosfor < sulfat < azot < xlor kislota*

Kislota konsentratsiyasi, jarayon davomiyligi va haroratni ortib borishi bilan gidroliz tezligi ham ortib boradi. Pardozlash jarayonlarida to‘qimachilik materiallari va sellyuloza tolalarini kislota ta’sirida buzilishlarini oldini olish maqsadida 3-5 g/l li sulfat kislotadan foydalaniladi. Jarayon harorati 40-50°C, davomiyligi 15-40 daqiqa.

*Sellyulozaga ishqorlar ta’siri.* Sellyuloza molekulasidagi glyukozid bog‘larning o‘ziga xos tomonlaridan biri - bu ularning ishqor ta’siriga yetarlicha turg‘unligidir. Ishqorning kuchsiz eritmalari oddiy haroratda sellyulozaga ta’sir etmaydi. Haroratni 130-140° C gacha ko‘tarish natijasida sellyulozaga havodagi kislород ta’sir etadi. Bu holatda ishqor (NaOH) sellyulozani havo ta’sirida oksidlanib, *oksitsellyuloza* hosil bo‘lishini ta’minlovchi faktor hisoblanadi. Ishqorni konsentrangan eritmalari sellyulozaga ta’sir ettirilganda yangi birikma - *ishqoriy sellyuloza* hosil bo‘ladi. Hozirgi kungacha NaOH qanday qilib sellyulozaga birikib qolishi tushuntirilmagan. Ba’zi olimlar bunda alkogolyatlar hosil bo‘ladi deb tushuntiradilar:



Boshqalari esa quyidagi sxema bo‘yicha molekulyar birikma hosil bo‘ladi deb hisoblaydilar:




Sellyuloza elementar zvenosi gidroksil guruhlarining ishqorlarga nisbatan turli reaksiyon qobiliyatga ega ekanligi inobatga olinsa, sellyulozaning ishqor bilan o‘zaro ta’sirlashuvida ham alkogolyatlar, ham molekulyar birikmalar hosil bo‘ladi deb tahmin qilish mumkin.

Ishqoriy sellyuloza turg‘un bo‘lmagan birikmadir: suv ta’sirida ishqoriy sellyuloza oson gidrolizlanib sellyuloza va ishqorga ajraladi. Hosil bo‘lgan sellyuloza o‘zining fizik-kimyoviy xossasi va strukturasi bo‘yicha dastlabki sellyulozadan (*sellulosa I*) farq qiladi. Shuning uchun u *gidratsellyuloza* (*sellulosa II*) deb ataladi. Gidrat sellyuloza tabiiy dastlabki sellyulozaga nisbatan ko‘proq gigroskopik xususiyatga, yuqori bo‘kish xossasiga, intensiv bo‘yalishga ega va u gidrolizga uchragan. Konsentrangan ishqorlar ta’sirida gidratsellyuloza

eriydi. Sellyuloza II da sellyuloza makromolekulasidagi glyukozid qoldiqlari bir-biriga nisbatan  $90^{\circ}$  da joylashgan, shu bilan strukturaning g‘ovakligi ta’minlanadi. Tabiiy yoki gidsratsellyulozaga suyuq ammiak bilan ishlov berish bo‘ktirish, so‘ngra ammiak bug‘larini chiqarib yuborish orqali Sellyuloza III hosil qilinadi. Sellyuloza II ning polimer zanjiri Sellyuloza III zanjiriga antiparallel holatda joylashgan Sellyuloza I, II, III ga glitsirin bilan  $280^{\circ}\text{S}$  haroratda 1-2 soat davomida ishlov berish, so‘ngra glitsirinni qaynagan suv yordamida siqib chiqarish orqali Sellyuloza IV olinadi.

*Oksidlovchi va qaytaruvchilar ta’siri.* Qaytaruvchilar sellyulozaga destruktiv ta’sir etmaydi va sellyuloza xossasini o‘zgartirmaydi. Oksidlovchilar sellyulozani oson **oksitsellyulozaga** aylantiradi. Sellyulozani oksidlanishida hosil bo‘lgan turli mahsulotlar aralashmasiga oksitsellyuliza deyiladi. Oksidlovchilar oldin sellyuloza tolasini yuzasida joylashgan funksional guruhlarga ta’sir etadi, so‘ng asta sekin tola ichiga kirib boradi. Oksidlovchilarni ataylab tanlash orqali molekuladagi alohida olingan funksional guruhni, uni reaksiyon qobiliyatiga asoslangan holda, oksidlash mumkin (oksidlovchilar sifatida azot (II) oksid  $\text{NO}_2$ , yod kislota –  $\text{HJO}_4$ , natriy xlorit- $\text{NaClO}_2$  lardan foydalanish mumkin).



Ko‘p hollarda sellyulozaga oksidlovchilar ta’sir ettirilganda birlamchi va ikkilamchi gidroksidlarni barobar oksidlanib turli nisbatda aldegid, keton va karboksil gurhlarni hosil bo‘lishi kuzatiladi. Bu guruhlarni hosil bo‘lish nisbati jarayonni olib borish sharoitiga, jumladan rN muhitga, harorat va okislovchi turi, hamda konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi. Aldegid guruhlarning mavjudligi yod va mis soni bilan aniqlanadi. Karboksil guruh ishqoriy titrlash yoki oksitsellyulozaga suyultirilgan NaCl ta’sir ettirilganda ajralib chiqayotgan SO<sub>2</sub> miqdori orqali aniqlanadi. Oksitsellyuloza dastlabki sellyulozaga nisbatan past mexanik pishiqlikka, mis - ammiakli eritmalar kichik qovushqoqlikka, yuqori qaytarilish qobiliyatiga ishqorlarda eruvchanlikka ega.

Oksitsellyulozaning sifatiy aniqlash uchun metilen havo rangdan foydalaniladi. Metilen havo rang oksitsellyulozani intensiv bo‘yaydi. Oksidlovchilar ichida natriy xlorit sellyulozani tanlab oksidlaydi. Natriy xlorit faqat oxirigi aldegid guruhlarni oksidlaydi.

*Sellyulozaga tuzlar ta’siri.* Gidroliz natijasida kuchli kislota hisoblanadigan tuz eritmalar (ZnCl<sub>2</sub>, AlCl<sub>3</sub>) va kuchli kislotalarning nordon tuzlari sellyulozaga kislota kabi ta’sir etib, sellyulozani gidrolizlaydi, yuqori konsentratsiyalilari eritadi. Ko‘pgina o‘rta tuzlar eritmalar gidrolizlanmaydi, hamda gidrolizlanganda ishqor hosil qiladagan tuzlar sellyulozaga ta’sir etmaydi. Lekin ba’zi ishqoriy va ishqoriy metall tuzlarining konsentrangan eritmalar sellyulozani bo‘ktirishi va xatto eritishi mumkin (LiJ, NaCNS).

*Yorug‘lik va atmosfera sharoitlari ta’siri.* Sellyulozaga bir vaqtda yorug‘lik, namlik va havo kislородини ta’sir etishi uni *fotodestruksiyaga* uchrashiga oldib keladi. Bu jarayon *fotoliz*, *fotooksidlanish* va *fotogidroliz* natijasida vujudga keladi.

**Fotoliz** - IQ - nurlar ta’sirida bog‘larning uzilishidir

**Fotooksidlanish** – IQ - nurlar bilan faollashgan havo kislороди ta’sirida sellyulozani oksidlanishidir.

**Fotogidroliz** - IQ - nurlar bilan faollashgan namlik ta’sirida glyukozid bog‘larning gidrolizi.

*Mikroorganizmlar ta'siri.* 9 % namlikdagi sellyuloza 75-85 % nisbiy havo namligida saqlanganda, u ba'zi bakteriya va mog'orlovchi zamburug'lar ta'sirida parchalanadi. Mikroorganizmlar ta'sirida oldin oddiy qandlar hosil bo'lishi bilan boradigan gidroliz jarayon kechadi va bu jarayon to glyukoza hosil bo'lguncha, keyinchalik bu mahsulotlarni achitqilarini hosil bo'lguncha kechadi. Massani yo'qolishi to 17,5 % gacha yetadi. Mikroorganizmlar ta'siriga uchragan sellyuloza tolasi ishqorlarda eriydigan bo'lib qoladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Paxta va zig'ir tolalaring o'zaro o'xshashligi va farqini tushuntirib bering
2. Sellyuloza strukturasining o'ziga xosligi nimada?
3. Sellyulozaga kislota va ishqor qanday ta'sir qiladi?
4. Gidrotsellyuloza va gidsellsellyuloza nima?
5. Sellyulozani tanlab oksidlash. Oksitsellyuloza nima?
6. Fotoliz, fotooksidlash, fotogidroliz nima?
7. Sellyulozaga mikroorganizmlar qanday ta'sir qiladi va qanday sharoitlarda?

## **4-MA'RUZA**

### **Gidratsellyuloza va asetat tolalarining olinishi va xossalari**

#### **Reja:**


1. Viskoza va polinoza tolalarini hosil qilish.
2. Mis-ammiakli tola.
3. Gidratsellyuloza tolalarning xossalari.
4. Bambuk tolalari haqida umumiy ma'lumotlar.

*Sellyulozaning oddiy efirlari. Olinishi va qo'llanilishi.* Sellyuloza hidroksil guruhlari bo'yicha har xil xossalari, jumladan oddiy va murakkab efirlar hosil


qiladi. O‘zining qimmatli xossalari tufayli bu birikmalar quyuqlashtiruvchi sifatida gul bosishda, apretlovchi va yelimlovchi moddalar sifatida, shuningdek ba’zi sun’iy tolalar olishda xom ashyo sifatida keng qo‘llaniladi.

Oddiy efirlarni sintez qilishning asosiy usuli bu - ishqoriy sellyulozani gallogenalkillar va geterotsikllar bilan o‘zaro reaksiyasidir. Ular ishqorning ( $\text{NaOH}$ ) 30-35% - li muhitida  $80-120^{\circ}\text{C}$  haroratda olinadi. Oddiy efirlarning xossasi efirni polimerlanish darajasiga, eterifikatsiya darajasiga va kiritiladigan o‘rbbosarlarning nisbiy molekulyar massasiga bog‘liq. Sellyuloza efirlari suv va ishqor eritmalarida eruvchan. Yuqori qiymatli efirlar organik erituvchilarda eruvchan.

Pardozlash korxonalarida ko‘pgina oddiy efirlardan, ya’ni metil, etil, oksietil va karboksietil efirlar foydalaniladi. *Metil va etil* sellyuloza ishqoriy sellyulozaga metil yoki etil xlor ta’sir ettirish orqali hosil qilinadi.




Sellyuloza efirlarini hosil qilishni sxematik ko‘rinishda quydagicha ifodalash mumkin:




$\gamma=140\ldots200$  qiyatga ega bo‘lgan metil efir texnik ahamiyatli hisoblanadi.

Bu modda suvda va bir qator organik erituvchilarda eriydi. Ularning suvli eritmalarini  $rN = 2\text{-}12$  oralig‘ida turg‘un va ular quyuqlashtiruvchilar sifatida qo‘llaniladi. *Oksietilsellyuloza* (OES) sellyulozaga etilen oksid ta’sir ettirib olinadi:




Bu reaksiya bilan bir qatorda oksietilenni sellyulozaga polimerlanishi reaksiyasi ham borishi mumkin:



OES ning eruvchanligi almashinish darajasiga bog‘liq, quyi almashinish darajali ( $\gamma=15\text{-}25$ ) efirlar ishqorlarning suyultirilgan eritmasida eriydi,  $\gamma=50$  bo‘lganlari suvda eriydi. Ulardan oxorlovchi modda, quyuqlashtiruvchi va appretlar sifatida foydalaniladi.

*Karboksimetilsellyuloza* (KMS) sellyulozaga monoxloruksus kislotasi yoki uning Na li tuzini NaOH ishtirokida ta’sir ettirish orqali hosil qilinadi.




Sellyuloza oddiy efirida karboksil guruhning borligi KMS ni yaxshi eruvchanligini ta’minlaydi.  $\gamma=25\text{-}30$  li NaKMS suvda to‘liq eriydi. NaKMS to‘qimachilik sanoatida oxorlovchi, resorbent va quyuqlashtiruvchi moddalar sifatida ishlatalinadi. NaKMS neft va qazib olishda, tog‘ kimyo sanoatida keng miqyosda burug‘lovchi sifatida qo‘llaniladi. Undan qurilishda gul qog‘oz va keramik kafellarni yelimlashda, beton aralashmalarga qo‘sishda qo‘llaniladi. NaKMS dan yana tibbiyot va kosmetika sohasida ham keng ko‘lamda foydalaniladi.

Sellyuloza murakkab efirlari. Sellyuloza murakkab efirlarini olishda eterifikatsiyalovchi raegent sifatida organik va noorganik kislotalar, ularning

angidridlari yoki xlorangidridlaridan foydalaniladi. Barcha murakkab efirlar ichida eng ko‘p ishlab chiqariladigan efirlar bu – nitratlar, ksantogenatlar va sellyuloza atsetatlaridir.

**Nitratlar** (selluloza azotnokisliy efirlari) kalta tolali paxta sellyulozasiga (lintga) azotli va sulfat nitrollovchi aralashma ta’sir ettirib olinadi:



Reaksiyanatijasida unio libborishsharoitigabog‘liq ravishda mono-diatrintratsellyulozahosilbo‘ladi, ular damos ravishda 6,8; 11,1; va 14,14% azotbo‘ladi.

Piroksolin - 12,5 dan 13,7% gacha azot bo‘lib, undan portlovchi moddalar tayyorlanadi. Kollo silin lak - bo‘yoq sanoatida ishlatiladi. Unda azot miqdori 10,7-12,2 %ga teng. Nitrat sellyulozalar almashinish darajasidan qat’iy nazar suvda va qutbsiz organik erituvchilarda erimaydi. Tarkibida 10,5-14,2 % azot bo‘lgan nitrat sellyuliza atsetonda eriydi. Selluloza ksantogenatlari va atsetatlari sun’iy tolalar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

*Sun’iy tolalarni olish va ularning xossalari.* Sun’iy tolalarga gidsratsellyuliza: viskoza, mis ammiakli va atsetat: diatsetat, triatsetat tolalari taaluqlidir.

Gidratsellyuliza tolalar-viskoza, polinoza va mis-ammiakli tolalar. Selluloza asosidagi kimyoviy tolalar viskoza va mis-ammiakli tolalar gidsratsellyulozadan olinadi. Kimyoviy tolalar ishlab chiqarishda viskoza oldingi o‘rinlarda turadi. Viskoza va mis ammiakli tolalarni umumiyl ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:  $(\text{C}_6\text{H}_{10}\text{O}_5)_n$ . Formuladan gidsratsellyuliza tolalar ham selluloza kabi tuzilishga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Tabiiy tolalarni gidsratsellyuliza tolalardan farqlash maqsadida ular 10%-li o‘yuvchi ishqor eritmasida eriladi. Gidratsellyuliza tolalar bu eritmada oldin bo‘kadi va eriydi.

Viskoza va misammiakli tolalarni olishda tabiiy selluloza yoki uning hosilalari eriladi va eritmalardan kerakli uzunlikdagi, shakldagi qalinlikdagi va

talab qilingan fizik-kimyoviy xossali tolalar shakllantiriladi. Shakllantirish chog‘ida sellyuloza eritmasidan kimyoviy strukturasi bo‘yicha tabiiy sellyulozaga o‘xshagan, lekin fizikaviy strukturasi: makromolekulalari to‘plamlarini joylashishi va shakli, nadmolekulyar tuzilishi bo‘yicha paxta va zig‘ir tolalaridan keskin farq qiladigan tolalar hosil bo‘ladi. Bu tolalarning tarkibi quyidagicha:

- gindratsellyuloza - 94%
- yog‘lovchi moddalar - 3%
- matirlovchi moddalar - 0,1-2%

Viskoza tolalari paxta tolasiga nisbatan yuqori gigroskoplikka, sorbsion xossaga ega va turli reagentlar ta’siriga chidamsiz hisoblanadi. Gindratsellyuloza tolalar turli polimerlanish darajasiga ega:

- viskoza - 300-350
- pollinoza - 400-500
- misammiakli - 300-400

Paxta sellyulozasining kristallik darajasi 70 %, zig‘irniki 80-85%, regenerirlangan sellyuloza - gindratsellyulozaning kristallik darajasi 40-50 % ga teng.


Viskoza va polinoza tolalarini ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida yog‘och sellyulozasidan, misammiakli tolallar uchun paxta chiqindilari yoki yog‘och sellyulozasidan foydalaniladi. Viskoza va polinoza ksantogenat sellyulozadan shakllantiriladi, bunda ksantogenat omillanadi va gindratsellyulozaga aylanadi. Misammiakli tolalar sellyulozaning mis gidrooksidni ammiakli eritmasidan shakllantiriladi, so‘ngra tola erituvchidan yuvib tashlanadi. Gindratsellyuloza tolalarini ishlab chiqarishda kechadigan kimyoviy reaksiyalar natijasida sellyuloza makromolekulasiда piroan xalqalarning o‘zaro joylashishida ma’lum o‘zgarishlar yuz beradi ayrim tadqiqotchilarining fikricha bunda bir zveno ikkinchisiga nisbatan 90° da joylashishi, gindratsellyuloza tolalarining reaksiyon qobiliyatini ortishiga,

gigroskopikligini paxta va zig‘ir tolalarinikidan yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Viskoza ip, shtapel tola ko‘rinishda, polinoza va mis-ammiakli tola shtapel ko‘rinishda shakllantiriladi. Ulardan mato, trikotaj, kord iplari tayyorlanadi va aralash tolali (paxta, kapron, lavsan) mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Gidratsellyuloza tolalar bu eritmada oldin bo‘kadi va eriydi. Viskoza va mis-ammiakli tolalar ishlab chiqarishda tabiiy sellyuloza yoki uning hosilalari eritiladi va eritmadan kerakli uzunlikdagi, shakldagi, qalinlikdagi va fizik-kimyoviy xossali tola shakllantiriladi. Tolalani shakllantirish chog‘ida sellyuloza eritmasidan qattiq sellyuloza ajratiladi va bu sellyuloza o‘zining kimyoviy tuzilishi bo‘yicha tabiiy sellyuloza o‘xshaydi. Fizikaviy tuzilishi bo‘yicha bu regenerirlangan sellyuloza tolalsi paxta va zig‘ir sellyulozadan o‘zining makromolekulasining joylashishi, nadmolekulyar tuzilishi jihatidan farq qiladi.

*Viskoza tolasi.* Bu tolani olish uchun yog‘och sellyulozasiga 18-20% li NaOH bilan ishlov beriladi va ishqoriy sellyuloza hosil qilinadi.

Ishqoriy sellyulozani ishqorning suyultirilgan suvli eritmalarida eruvchan birikma holiga aylanishi *ksantogenatlash* bosqichida, ya’ni sellyulozaning ksantogenat efiri hosil bo‘lishi chog‘ida yuz beradi.




Eterefikatsiyalovchi agent ditiougol kislota angidridi – CS<sub>2</sub> cerouglерод hisoblanadi. Asosiy reaksiya bilan bir qatorda qo‘shimcha reaksiya ham boradi:




Korxona sharoitida  $\gamma=50-70$  qiymatli ksantogenat ishlab chiqariladi. Bunday mahsulot 4-6% li NaOH eritmasida eruvchan bo‘lib, qovushqoq eritma hisoblanadi va bu eritma viskoza deyiladi.

Ksantogenat sellyuloza turg‘un bo‘lmagan birikma. Ksantogenat sellyuloza ma’lum vaqt «yetilishi» uchun saqlab turiladi – murakkab efirni asta sekin qisman

gidrolizlanishi uchun. Natijada uning kimyoviy tarkibi o‘zgaradi va eritmaning qovushqoqligi ortadi. So‘ng filtrlab, quritilgach filera orqali tola shakllantiriladi. Fileradan chiqayotgan viskoza suyuq tolalari cho‘ktirish vannasiga tushadi. Vannada ksantogenat eritmasidan tolani cho‘ktiruvchi reagent bo‘lib, bu reagent uni gidrolizlaydi, qattiq ip ko‘rinishiga o‘tkazadi, bu ip gindratsellyuloza makromolekulasidan tuzilgan. Cho‘ktirish vannasining asosiy moddasi bo‘lib:  $H_2SO_4$ ,  $Na_2SO_4$  va  $ZnSO_4$  xizmat qiladi.



Viskoza tolasini ishlab chiqarish sxemasi quyida keltirilgan (13-rasm).



13-rasm. Viskoza tolasini ishlab chiqarish sxemasi

Shakllantirish jarayonida viskoza iplari cho‘ziladi, bunda gindratsellyuloza makromolekulalari eritmadiagi xaotik holatdan toladagi tartiblangan holatga o‘tadi. Makromolekulalar nadmolekulyar hosilalar shaklida (pachka, kristalitlar, mikrofibrillar) tola o‘qi bo‘yicha orientrlangan bo‘ladi. Cho‘ktirish vannasi

tarkibini va cho‘zish tezligini boshqarish orqali istagan xossadagi tolani olish mumkin.

Viskoza tolasi qalinligi bo‘yicha bir xil strukturaga ega emas, tola yuzasidagi makromolekula upakovka zichligi va orientatsiya darajasi har doim ichki qismiga nisbatan yuqori bo‘ladi. Bu holat bo‘yash jarayonida qiyinchiliklar tug‘diradi. Tabiiy sellyuloza viskoza tolasiga o‘tishi jarayonida u ko‘pgina reagentlarning konsentrangan eritmalari ta’siriga uchraydi. Natijada sellyuloza makromolekulasidagi glyukozid bog‘lar uziladi va uning molekulyar massasi kamayadi, polimerlanish darajasi 300-800 gacha pasayadi, nadmolekulyar tuzilishda jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi, kristallanishi darajasi 40-50 % gacha kamayadi. O‘z xossalari bo‘yicha paxtaga polioz (PD=500-600) va yuqori modulli viskoza tolasi ko‘proq o‘xshaydi.


Bu tolalar oddiy viskoza tolasidan polimerlanishi darajasi PD=600-800 va shakllantirish jarayonida yuqori plassifikatsion cho‘zilishi uchun sharoit yaratilganligi bilan farq qiladi. Polioz tolalarining fibrillyar tuzilishi va kristalligi paxta tuzilishiga yaqin keladi.

Viskoza tolasining afzalligi ularning sanitar-gigienik xossasidadir, kamchiligi nam holatda fizik-mexanik xossasini yo‘qotishi va etarlicha shaklni saqlay olmasligi. Viskoza elementar ip va shtapel (ma’lum o‘lchamda kesilgan elementar ip) ko‘rinishdan tashqari kord iplari holida ham ishlab chiqariladi. Kordlar avtomobil karkaslari, shinalari, oddiy va reaktiv samolyotlarning shassilari uchun shina sifatida ishlatiladi. Korddan tayyorlangan shinalarning xizmat muddati 30-40 % uzoq bo‘ladi. Masalan, 1 mm yo‘g‘onlikdagi jun ipi 15-18 kg, tabiiy ipak 32-40 kg, paxta tolasi 36-52 kg yukni ko‘tara oladi. Viskoza kord iplari esa o‘sha yo‘g‘onlikda 54-85 kg yukni ko‘tara oladi. Viskoza tolalari paxta va zig‘ir tolalariga nisbatan yanada gigroskopik bo‘ladi. Viskoza kislota va ishqor eritmalari ta’siriga chidamsiz bo‘lib, ular ishqor ta’sirida bo‘kadi va xatto qisman eritma holiga o‘tishi mumkin. Viskoza nam holatda pishiqligini 30-50 % gacha yo‘qotadi.

0,17 va 0,13 tekсли viskoza yuqori modulli tolalaridan tayyorlangan bobina ko‘ylakli, belyobop, sorochkali, astarli, tukli, sochiqli matolar va trikotaj


mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Viskoza tolarlari tabiiy ipakli aralashma matolar tayyorlashda ham keng qo'llanadi. Bunda kichik chiziqli zichlikdagi (8,4-6,7 teks) viskoza kompleks iplari ishlatiladi. Bulardan ko'yakli mato, buralgan iplaridan krepli mato, gofre va siqilgan effektli matolar ishlab chiqarish mumkin. Viskoza shtapel tolalaridan astarli va atlas to'qimadagi matolar ishlab chiqariladi. Viskoza shtapel tolalaridan kamvol matolarni ishlab chiqarishda jun bilan birgalikda qo'llanadi. Belyobop, yengil ustki va sport-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun viskoza tola va viskoza-paxta aralashma iplar ishlatiladi.

*Mis-ammiakli tolalar.* Mis-ammiakli tolalar tabiiy sellyulozani (yog'och sellyulozasi yoki paxta lenti) bevosita kupriaminogidrat (mis-ammiakli eritma) ning suvli eritmasida eritish orqali hosil qilinadi. Mis-ammiakli eritma mis gidroksidi yoki misning asosli tuzlari bilan konsentrangan ammiak (ortiqcha miqdorda olingan) dan olinadi.  $\text{NH}_3$  miqdori 25% dan kam emas. Bunda quyidagi kompleks hosil bo'ladi:  $[\text{Cu}(\text{NH}_3)_m(\text{OH})_2]$ , bu erda  $m=4$ . Bu reaktivda sellyuloza, kupriaminogidratni angidroglyukoza zvenosidagi ikkilamchi gidroksil guruhlar bilan o'zaro ta'sirlashuvi natijasida eriydi deb hisoblanadi:



Sellyuloza gidroksil guruhlarini misammoniy gidrat bilan o'zaro ta'sirlashuv darjasи  $\gamma = 200 - 220$  dan oshmaydi, qovushqoq eritmadagi sellyuloza konsentratsiyasi 6-12% ni tashkil etadi. Shu konsentratsiyali eritma tola shakllantirish uchun maqbul hisoblanadi. Mis-ammiakli tolani shakllantirish chog'ida flieradan chiqayotgan shakllantirish eritmasi suv oqimi bilan qo'shilib cho'ziladi va bunda ularning qalinligi to 100 marotabagacha kamayadi. Shu jarayon bilan bir vaqtda suv mis- sellyuloza kompleksini parchalaydi:  $\gamma$  miqdori 100 gacha kamayadi. Sellyuloza va kupriammoniygidratni molekulyar birikmasini

oxirigacha parchalanishi shakllantirishning ikkinchi bosqichida amalga oshadi. Ikkinchi bosqich: -qattiqlashgan struykalar 1,2-2% li sulfat kislota eritmasiga tushadi. Kompleksni parchalanishi va gidrat sellyulozani regeneratsiyasi sxema bo‘yicha kechadi:



Shunday qilib hosil qilingan tolani *mis-ammiakli* deb atalishi uni olish usuli bilan bog‘liq, aslida u ham viskoza kabi gindratsellyuloza tola hisoblanadi, Mis-ammiakli tola bir xil strukturali, yuzasida orienterlangan qobiq yo‘qligi bilan xarakterlanadi, shu sababli bu tola viskozaga nisbatan bir qator tekis bo‘ladi, qolgan boshqa fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari bo‘yicha bu tola viskozaga o‘xshashdir.

Miss-ammiakli tolalar namlikda o‘z mustahkamligini ikki marotaba yo‘qotadi. Bu tolani olish sanoat miqyosida keng tarqalmagan. Bunga sabab ko‘p miqdorda misning isrof bo‘lishi, ya’ni 1 tonna tola olish uchun 90 kg mis ishlatiladi.

*Gindratsellyuloza tolalarining xossalari.* Gindratsellyuloza tolalari paxta tolasiga nisbatan yuqori gigroskopiklikka, sorbsion xossaga ega va turli reagentlar ta’siriga sezgir hisoblanadi.

Ishqorning (NaOH) suyultirilgan eritmalarini (1% gacha) tolani bo‘ktiradi va uni pishiqligini kamaytiradi. Konsentrangan (3 % dan ortiq) eritmalarini tolani buzilishiga sabab bo‘ladi. Tolaga suyuq ammiak bilan ishlov berilganda bo‘kishi yaxshigina ortadi va quyi molekulyar fraksiyalarni erishiga olib keladi. Viskoza tolesi mineral va organik kislotalarning suyultirilgan eritmalariga (1 % gacha) chidamli, shuningdek organik erituvchilarga ham.

Gindratsellyuloza tolalar paxtaga nisbatan yuqori haroratga bardoshli: viskoza  $150^{\circ}\text{C}$  haroratda 100 soat davomida qizdirilganda uzilishdagi mustahkamligi 34,5 % ga paxta tolasiniki esa 63,5% ga kamayadi. Bu holat sellyulozaga tarkibidagi

farq, nodmolekulyar va molekulyar qurilmalarining o‘ziga xosligi bilan tushuntiriladi.

Gidratsellyuloza tolalar oksidlovchilar ta’siriga paxtaga nisbatan chidamli. Gidratsellyuloza tolani oksidlovchilar ta’sirida ( $\text{NaClO}, \text{Cl}_2, \text{H}_2\text{O}_2$ ) destruksiya tezligi ularni eritmadagi konsentratsiyasi, pH muhitini va harorat orqali aniqlanadi. Bunda ishqoriy muhit juda xavfli hisoblanadi. Nam holatda gidratsellyuloza tolalar o‘z pishiqliklarini 60 % gacha yo‘qotadi, g‘ijimlanadi va yuqori issiqlik o‘tkazuvchanlikka ega bo‘ladi.

Yuqori modulli viskoza va polinoza tolalari asosiy xossalari bo‘yicha paxtaga o‘xshash. Polinoz tolalari shakl turg‘unligi va g‘ijimlanmaslik xususiyati bilan ajralib turadi. Polinoz tolasining savdodagi nomi: polikot, zantrel, koylon, ayron, vislen (Rossiya). Gidratsellyuloza tolalariga yorug‘lik va mikro organizmlar huddi paxtaga ta’sir etgan kabi ta’sir qiladi.

*Bambuk tolalari.* 2002 yildan boshlab to‘qimachilik bozorida yangi tola – bambuk tolasi paydo bo‘lgan. Hozirgi kunda bambukdan turli to‘qimachilik mahsulotlari tayyorlanmoqda. Bambuk tolasi viskozaning boshqa bir ko‘rnishidir. Bambuk iplarini bo‘yashga paxta tolasiga nisbatan 15-20 % kam bo‘yovchi modda sarflanadi. Bambuk iplaridan to‘qilgan mato tabiiy ipak kabi yaltiraydi, paxtaga nisbatan yumshoq, bu mato g‘ijimlanmaydi, kir yuvish mashinasida yuvishda eskirmaydi. Bambuk tolasi to‘rsimon tuzilishga ega bo‘lganligi sababli u havoni yaxshi o‘tkazadi. Bambuk matolari insondan ajralib chiqadigan terni o‘ziga shimadi va tarkibidagi maxsus modda hisobiga turli zamburug‘larni ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun mato o‘ta gigienik xossaga ega bo‘lib, ancha vaqtgacha o‘zining muattar bo‘y (aromat)ini yo‘qotmaydi, undan tashqari bu mato inson haroratini  $2^{\circ}\text{C}$  ga pasaytiradi.

Bambuk eng tez o‘sadigan o‘simlik, u har soatda 2-3 santimetrga o‘sadi. 5-6 haftada 18-22 metrga yetadi. Ba’zida bambuk bir soatda bir metrga o‘sishi ham mumkin. Eng katta bambuk o‘simligini diametri 33 sm va uzunligi 40 metr bo‘lishi ham mumkin. Agar daraxtdan mahsulot olish uchun 20-70 yil kerak bo‘lsa,

bambuk 3-5 yilda tayyor bo‘ladi. Undan tashqari bambuk poyasi arralansa, shu joydan yangisi o‘sib chiqadi (14-rasm).




14-rasm. Bambuk o‘simligi

Bambuk o‘ta mustahkam o‘simlik, u po‘latdan ham mustahkamroq. Bambukdan to‘qimachilik sanoatida foydalanish yapon olimlari tomonidan kashf etilgan. U tez yangilanib turuvchi xom ashyo hisoblanadi. Bambukdan nafaqat kiyim-kechak, balki uy anjomlari, ya’ni sochiq, o‘rin-ko‘rpa, yostiq, idish yuvish sochiqlari ham tayyorlanadi. Bambuk tolalari ikki xil – kimyoviy va mexanik usullar bilan olinadi. Kimyoviy usul bilan olingan tolalar sun’iy tola bo‘lib, u «bamboo viscose» yoki "bamboo rayon" deb yuritiladi. Bambukdan sun’iy tolani olish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Bambuk bug‘latilib, uning yumshoq poyasi va barglari maydalanadi. Maydalangan massa o‘yuvchi ishqorning 15-20%-li eritmasiga xona haroratida 1-3 soat davomida ishqoriy sellyuloza hosil bo‘lgunga qadar shimdirib qo‘yiladi. Hosil bo‘lgan ishqoriy sellyuloza yaxshilab siqilib, maydalanadi va 24 soat davomida quritiladi. So‘ngra uglerod disulfid ( $CS_2$ ) qo‘shilib, sirop hosil qilinadi. Uglerod disulfid bug‘latilib, sirop ustiga 5%-li ishqor eritmasi qo‘shilib, sellyulozaning 5-7%-li eritmasi olinadi. Eritma sulfat kislotali shakllantirish vannasidan o‘tkazilib, undan tola olinadi.

Mexanik usulda olingan tola "bamboo linen" nomi bilan ataladi va bu tola qimmatbaho hisoblanadi. Mexanik usulda bambuk tolasini olish jarayonlari

mexanik usulda zig‘ir tola olish bilan bir xil bo‘lib, bambuk sellyulozasi bambukga fermentlar bilan ishlov berish orqali hosil qilinadi.

Bambukning ajoyib xossalari Sharqda azaldan ma’lum bo‘lgan. Bambuk bir necha yil suvda saqlansa ham chirimaydi. Bambuk poyasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan modda bo‘lib, uni yaponiyalik olimlar aniqlashgan. Bu modda «Bambuk nefriti» deb atalaib, u bakteriyaga va zamburug‘larga qarshi xossaga ega (15-rasm).



15-rasm. Bambuk tolasining xususiyatlari

Bambukdan tayyorlangan kiyimlar ultrabinafsha nurlardan himoya qiladi. Bambuk kiyimlardan 0,6 % ultrabinafsha nurlarni o‘tkazadi, bu paxta tolasidan tayyorlangan kiyimlardan o‘tadigan ultrabinafsha nurlardan 450 marta kam degani. Bambukda aminokislotalarning borligi inson tanasiga ijobjiy ta’sir etadi, allergiya chaqirmaydi. Bu matolaradan chaqaloq va yosh bolalar kiyimlarini tayyorlash tavsiya etiladi. Bambuk matolarini mustkhxkam, bo‘lib, bu mustahkamlik matoni quruq va ho‘l holatlarida ham saqlanib qoladi. Bambukdan tayyorlangan

kiyimlarni 5 yil quyosh tig‘ida kiyib yurishda ham rangi o‘zgarmaydi, bu rang 500 marta yuvilganda ham o‘zining boshlang‘ich tusini yo‘qotmaydi.

Nazorat savollari:

1. Sellyulozaning oddiy efirlari qanday usullarda olinadi?
2. Sun’iy tolalarni qanday xossalarga ega?
3. Viskoza tolasining afzalligi nimada?
4. Bambuk tolasi qanday usullarda olinadi?
5. Bambuk tolasining qanday xossalarini bilasiz?

## **5-Ma’ruza**

### **Atsetat tolalarini olish va ularning xossalari**

**Reja:**


1. Ats va TATS tolalarini olish va modifikatsiyalashning turli usullari.
2. Atsetat tolalarining xossalari.

Atsetat tolalar. Atsetat tolalar barcha ishlab chiqriladigan kimyoviy tolalarning 7% ini tashkil etadi. Atsetat tolasi sellyulozaning murakkab efiridan olinadi. Eterifikatsiya darajasi bo‘yicha diatsetat va triatsetat tolalar hosil qilinadi. Ats ni eterifikatsiya darajasi 240-250 va TATS niki 260-300 ga teng. Sellyuloza atsetatlarini polimerlanish darajasi 300-400. Ular quruq usulda diatsetatni atsetondagi eritmasidan va triatsetatni metilenxlorid va metil spirti aralashmasidan shakllantiriladi. Bu tolalarning ijobiy xususiyatlari quyidagilardir: yumshoq, kirishmaydi, g‘ijim bo‘lmaydi, buklanishlarga turg‘un, shaklni yaxshi ushlaydi. Kamchiliklari: elektrylanadi, ishqalanishga chidamsiz.


Atsetat tolalar filament ip va shtapel tola ko‘inishda ishlab chiqariladi. Ulardan ko‘ylakli, astarli, erkaklar ko‘ylagili, dekorativ matolar va galustkli,

hamda qalin kiyimlik matolar ishlab chiqariladi. Atsetatlar PA, PE, PAN, jun va viskoza tolalari bilan birgalikda ham ishlatalinadi. TATS bobinasidan kompleks iplar tayyorlanadi. Ulardan yana izolyatsion materiallar sifatida ham foydalaniladi. Atsetat tolalari tarkibida titan-1,3%, yog‘lovchi moddalar-2,5-3%, tuzlar-0,15% gacha va 0,5 % gacha erituvchi bo‘ladi.

*Ats va TATS tolalarini olish va modifikatsiyalashning turli usullari* Atsetat tolalarini ishlab chiqarishda oldin yog‘och sellyulozasi sellyulozaning uksusnokisliy murakkab efiriga aylantiriladi:



Jarayon boshida oldin sellyuloza triatsetati hosil bo‘ladi. Triatsetat sellyulozada 61,5 – 62,5% sirka kislota bog‘langan bo‘lib, almashinish darajasi 3 ga teng. Omillash (gidrolizlash) orqali triatsetat sellyulozadan sellyuloza diatsetat olinadi. Unda bog‘langan sirka kislota miqdori 54-56%, almashinish darajasi 2,3 – 2,5 ga teng (diatsetat deb nomlanish juda ham to‘g‘ri emas).



Atsetat va triatsetat tolalari quruq usulda shakllantiriladi, bu usulning mohiyati quyidagicha: polimerlarning tegishli erituvchilardagi (atseton yoki metilenxlorit mos ravishda) konsentrangan eritmalar struykalar ko‘rinishda filera teshiklaridan issiq havoli shaxtaga itarib chiqariladi.

Sellyuloza atsetatlaridan ho‘l usul bo‘yicha ham tola shakllantirish mumkin. Bunda fileradan chiqayotgan pryadilniy eritma cho‘ktirish vannasiga tushadi, cho‘ktirish vannasidagi suyuqlik polimerni eritmaydi.

Sellyuloza triatsetati quyilmadan ham shakllantirishi mumkin, bunda erituvchini qo‘llash va uni regeneratsiya qilish jarayonlarini qisqartirish hisobiga tola olish jarayonini arzonlashtirish mumkin. Lekin quyilmadan triatsetat tolalarini shakllantirish triatsetatni yuqori harorat ta’siriga chidamliligini oshirish talab

qilinadi. Yaponiyada Alon tolsi ishlab chiqariladi, bu tola o‘ta pishiq viskoza shtapellangan tolasini atsetillanganidir. Viskoza tolsi sirkalari angidridi bug‘i katalizatorligida atsetillanadi, so‘ng tola sirkalari kislotadan yuvib tozalanadi. Shuningdek paxtani ham sirkalari angidrid va erituvchi emas (masalan benzalan) aralashmasida ham atsetillanadi. HCl katalizator bo‘lib hizmat qiladi. Paxta tolsi kabi bobina va matolarni ham qisman atsetillash mumkin. Bunda atsetillash tola yuzasida ketadi. Atsetillash jarayonida paxta xossasi o‘zgaradi:  $\gamma=100$  bo‘lganda uning mikroorganizmlarga bo‘lgan bardoshliligi keskin ortadi, gigroskopligi kamayadi

Atsetat tola xossalari atsetil sellyulozaga optik oqartiruvchi, bakteritsit xossalari moddalar, shuningdek olov, issiqlik, yorug‘lik bardoshlilik xossasini oshiruvchi moddalar, rang mustahkamligini oshiruvchi va bo‘yovchi moddani qabul qilishini yaxshilovchi moddalar qo‘sish yo‘li bilan modifikatsiyalash mumkin. Triatsetat tolalar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar yuzaviy omillanadi (ishqoriy sharoitda) bu jarayon *S – parodozlash deyiladi*. Omillangan qavat qalinligi mikronga teng. Bunda sirkalari kislotani bog‘langan qismi 61,5-62,5 dan 59,5-60 % gacha kamayadi. Yuzaviy omillash tolani ishqalanishga, eskirishga bo‘lgan bordoshlilagini oshiradi, elektralanishni pasaytiradi va bunda uning ko‘pgina qimmatli xossalari saqlanib qolinadi. Atsetat tolalarining savdodagi ba’zi nomlanishlari:

Atsetat tolsi – atseta (shtapel), Selliy (filament tola), Bayyor, Teygen atsetat (filament) Yaponiya, Atsezil (filament va shtapel) Italiya.

Triatsetat tolsi – Tria – fazer (shtapel) Germaniya, Troysel, Kurpleta (filament va shtapel) Angliya, Arnel 60, Arnel (filament va shtapel) AQSH.

*Atsetat tolalarining xossalari.* Shakllantirish va tolani tortish sharoitini o‘zgartirishni boshqarish orqali aniq mexanik ko‘rsatkichli tola olishni ta’minalash mumkin. Bu ko‘rsatkichlar u yoki bu turdagilari kerakli maqsadlarda qo‘llanilishiga va keyingi ishlov berishlarga javob beradi.

Sellyuloza atsetatlaridan olingen ko‘pgina tolalarning uzilishdagi pishiqligi past qiymatga va tez ishdan chiqish xususiyatiga ega, bu esa shu tolalarning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Arnel – 60 va alon tolalari nisbatan yuqori pishiqlikka ega.

#### 9-jadval

Sellyuloza atsetatlari asosidagi tolalarning fizik-mexanik xossalari.

| Ko‘rsatkichlar                                       | Tolalar |       |          |      |
|--|---------|-------|----------|------|
|  | Atsetat | Arnel | Arnel-60 | Alon |
| Uzilish uzunligi, km:                                |         |       |          |      |
| - ho‘l holatdagi                                     | 7-8     | 7,2   | 13,5     | 19,8 |
| - 65 % nam holatdagi                                 | 10-13   | 10,8  | 18,9     | 25   |
| Cho‘zilishdagi uzulishi, %:                          |         |       |          |      |
| - ho‘l holatdagi                                     | 30-40   | 45    | 36       | 23   |
| - 65 % nam holatdagi                                 | 20-30   | 34    | 25       | 23   |
| Xalqaga tekshirishdagi pishiqligini yo‘qotishi, %    | 13-31   | 42    | 52       | -    |
| Tugunchaga tekshirishdagi pishiqligini yo‘qotishi, % | 13-31   | -     | -        | 35   |
| Muvozanatdagi namlik, % (65 % havodagi namlikda)     | 6,5     | 4,5   | -        | 5    |
| Zichligi, g/sm <sup>3</sup>                          | 1,32    | 1,3   | 1,3      | 1,34 |

Atsetat tolalar yuqori haroratga boshqa sintetik tolalarga nisbatan bardamli, 10- jadvalda atsetat tolalarining harorat xarakteristikalarini keltirilgan.

10-jadval.

Atsetat tolalarining harorat xarakteristiklari

| Harorat harakteristikasi  | atsetat tolalari | Triotsetat tolalari   |                      |
|---|------------------|-----------------------|----------------------|
|   |                  | Termoishlov-dan oldin | Termoishlov-dan sung |
| Yumshash harorati, $^{\circ}\text{C}$   | 225              | 300                   | 300                  |
| Max dazmollash harorati, $^{\circ}\text{C}$   | 180              | 180                   | 240                  |
| Tolaning dazmolga yopishib qolish harorati $^{\circ}\text{C}$   | 190              | 190                   | 250                  |
| 1 min davomida haroratli ishlov berilganda tolaning kirishishi, %<br>220 $^{\circ}\text{C}$<br>230 $^{\circ}\text{C}$ | 6<br>17          | 2,5<br>3,0            | 1<br>1               |

Triatsetattolalariniyuqoriharoratgabardoshliligi, ularniyuqoriharoratdabo ‘yashimkoniniberadi. Atsetat, ayniqsa triatsetat tolalari neylon va paxtaga nisbatan issiqlikdan eskirishiga chidamli hisoblanadi. 11-jadvalda atsetat tolalarini issiq ishlovdan so‘ng o‘z xossalarini o‘zgartirishi keltirilgan.

11-jadval

1-soat davomida atsetat tolalariga issiq ishlovberilganda uning xossalarini o‘zgarishi.

| Qizdirish sharoiti        | Harorat | Dastlabkisiga nisbatan o‘zgarishi, % |             |
|---------------------------|---------|--------------------------------------|-------------|
|                           |         | Pishiqligi                           | Cho‘zilishi |
| Qizdirishsiz              | -       | 100                                  | 100         |
| Havoda                    | 120     | 100                                  | 120         |
| Havoda                    | 150     | 94                                   | 115         |
| Havoda                    | 185     | Parchalanadi                         |             |
| Bosim ostida suvda        | 107     | 73                                   | 128         |
| Bosim ostida suvda        | 120     | 50                                   | 133         |
| To‘yingan bug‘ muhitida   | 120     | 49                                   | 82          |
| Qizdirilgan bug‘ muhitida | 120     | 82                                   | 102         |

Bu tolalarning yuqori termoplastiklikligi, ulardan tayyorlangan matolarga jgut holida ishlov berilganda ularning sinishiga va yuqori haroratda cho‘zilishiga olib keladi. Issiq holatdagi ho‘l mato rolikka o‘ralganda, ko‘pincha uning yuzasida muar nuqsoni va choklar paydo bo‘ladi. Triatsetat tolalarining termoplastikligi atsetat tolalariga nisbatan 5-6 marta ko‘p, bu holat ularga ishlov berish chog‘ida texnologik jihoz tanlashda inobatga olinishi lozim. Atsetat tolalarining termoplastikligi kalandrlash, tig‘izlash, plissellash yo‘li bilan mato fakturasini o‘zgartirish uchun ishlatilishi mumkin. Atsetat tolasining plastikligi bug‘li muhitda havodagiga nisbatan 10 baravar yuqori, shuning uchun bo‘yovchi moddani tolaga fiksatsiyalashda bug‘lash jarayonini tolani tortmasdan amalga oshirish talab qilinadi. Atsetat tolalaridan farqli o‘laroq triatsetat tolalariga bug‘ bilan ishlov berilganda ularning mustahkamliklari deyarli pasaymaydi (kamaymaydi, o‘zgarmaydi). Suvda triatsetat tolalarining termoplastikligi atsetat tolalariga nisbatan 5-7 marta kam.

Bo‘sh vannalarining harorati atsetat tolsi uchun  $60^{\circ}\text{C}$  dan va triatsetat tolalari uchun  $80-85^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo‘lmaganda bu matolarni bo‘yash uchun istalgan bo‘yash-pardozlash jihozlaridan foydalanish mumkin. Chunki ho‘l holatdagi TATS matolarini cho‘zilishi asosan plastik hisoblanadi (95% ga), o‘ta cho‘zilgan mato deyarli kirishmaydi. Bo‘yash va pardozlashda matoni cho‘zilishi 3-3,5% dan oshmasligi kerak.

Atsetat tolalar ob-havoga bardoshliligi bo‘yicha paxta, gidrat selluloza, ipak, neylon tolalaridan yuqori o‘rinda, lekin poliakrilonitril va juda oz miqdorda PE tolalaridan keyinda turadi.

Atsetat tolalari bir qator erituvchilar – atseton, metilenxlorid, murakkab efirlar, sirka kislota, dixloretan ta’siriga chidamsiz hisoblanadi. Ularning ba’zilari tolalarni tez eritsa, boshqalari juda bo‘ktiradi. Alon tipidagi tola erituvchilarda erimaydi. Suyultirilgan mineral kislotalar ta’sirida atsetat tolalarining atsetil guruhlari omillanadi, bunda oldin omillash polimerning amorf qismlarida kechadi, so‘ng bir qadar tartibli qismlariga o‘tadi. Konsentrangan mineral kislotalar atsetat tolalarini parchalaydi.

Ishqorlarning suyultirilgan eritmalari ta'siririda ham atsetat tolalari omillanadi, lekin TATS tolalar atsetat tolalarga nisbatan ishqor ta'siriga chidamliroq. Bu xolatdan S-pardozlashda foydalaniladi.  $100^{\circ}\text{C}$  va  $\text{pH} = 9,5$  da TATS tolalar omillanmaydi.  $20 \text{ g/l NaOH}$  ( $T=20^{\circ}\text{C}$ ) va  $5 \text{ g/l NaOH}$  ( $T=60^{\circ}\text{C}$ ) li bo'yash vannasida TATS tola hech qanday o'zgarishlarga uchramaydi.

Atsetat sellyuloza tolalari oksidlovchilar – oqartirishda qo'llaniladigan ( $\text{NaClO}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{NaClO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}_2$ ) ta'siriga bardoshli. Bu xossa TATS ga nisbatan atsetatda pasiroq. Tabiiy va gidsratsellyuloza tolalariga nisbatan atsetat tolalari mikroorganizmlar va hashorotlar ta'siriga o'ta bardoshli.

Atsetat sellyuloza tolalari yaxshi dielektriklar hisoblanadi va bu almashinish darajasiga bog'liq. TATS tolalari o'ta elektrylanadi, ularning solishtirma qarshiligi atsetat tolalariga nisbatan 5 marta ko'p. Atsetat tolalari quydagi xolatlarda ishlab chiqariladi: filament (cheksz) iplar, shtatel tolalari, xom va massada bo'yalgan, yaltiroq va xiralantirilgan. Atsetat tolalarid an ipaksimon matolar tayyorlanadi: ko'ylakli, bluzkali, kastyumbop (poplin, fuler, rej, krepdeshin va boshqalar) astarli, tukli va galustukli.

Nazorat savollari:

1. Atsetat tolalarining olinishi.
2. Atsetat tolalarining kamchiliklari?
3. Atsetat tolalari qanday xossalarga ega?

## **6-MA'RUA**


### **Tabiiy oqsil tolalari va ularning xossalari**

**Reja:**

1. Oqsillar haqida umumiy ma'lumotlar
2. Jun tolasi va xossalari
3. Fibroinning tuzilishi
4. Seritsin


## 5. Fibroinning kimyoviy moddalar ta'sirida o'zgarishi

*Oqsil tolalari.* Jun va tabiiy ipak oqsil tolalar sinfiga mansub. Chet ellarda sun'iy usulda ham oqsil tolalar sintez qilinadi. Barcha oqsillar *proteinlardeb* ham yuritiladi. Ular yuqori molekulyar birikmalar bo'lib, tarkibida albatta azot, kislород, vodorod va uglerod bo'ladi. Ba'zi oqsillarda temir, oltingugurt, fosfor va galloidlar ham uchraydi. Oqsillar kislota va ishqor eritmalarida parchalanib oxiri aminokislota holigacha etib boradi. Aminokislotalar o'zaro polipeptid bog'lari orqali birikib oqsillarni hosil qiladi.




Oqsillarning xossalari ularning aminokislotali tarkibi, molekuladagi ketma-ketligi va oqsil makromolekulalarining fazoviy tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Tekshirishlarni ko'rsatishicha ko'pchilik hollarda oqsil bo'laklari ellips formada bo'ladi va ular ***globulyar oqsillar*** deb yuritiladi. Ba'zi oqsillar ip ko'rinishida bo'ladi, shuning uchun ular ***fibrillar*** deb yuritiladi (to'qima, teri, soch, ipak). Oqsillar to'rt xil strukturada bo'ladi.


**Birinchi strukturada** aminokislota qoldiqlarini polipeptid zanjirida ketma-ket joylashishi ko'rsatiladi. Birinchi strukturani o'rganish o'ta mushkul. Jun va tabiiy ipakning birinchi strukturasini to'liq o'rganilmagan.



Глицин Серин Тирозин Лейцин Фенилаланин




Ikkilamchi strukturada - oqsillarning polipeptid zanjirini geometrik shakli o'rganiladi. Oqsilning ikkinchi strukturasini  $\alpha$  va  $\beta$  shakllari ma'lum. Maxsus sharoitlarda  $\alpha$  forma tortilganda u  $\beta$ -shaklga o'tadi, lekin  $\beta$ -forma turg'un bo'lmaydi, u darpol  $\alpha$ -formaga o'tadi. Tabiiy ipak tabiiy sharoitda  $\beta$ -formada bo'ladi.



16-rasm. Oqsilning ikkilamchi strukturasi. *a*- $\alpha$ -shakli, *b*- $\beta$ -shakli.


Uchinchi struktura oqsil molekulasini shakli va formasini xarakterlaydi. Uchinchi strukturaga quyidagi bog‘lar tegishli:

1. Disulfid  $-S-S-$
2. Ion bog‘lar  $NH_3^+$  va  $COO^-$  lar orasidagi
3. Vodorod bog‘lar
4. Vander-Vaals kuchlari
5. Yon guruhlar orasidagi hidrofob bog‘lar



17-rasm. Oqsilning uchlamchi strukturasি

To‘rtinchistrukturaikkivaundanortiqpolipeptidzanjirlaridantashkilttopganoqsil laruchunxosdir. To‘rtinchi strukturada polipeptid zanjirning miqdori va uni joylashishini o‘rganiladi:



18-rasm. Oqsilning to‘rtlamchi strukturasи

Oqsil tolalari makromolekulasida ham ishqoriy ham kislotali funksional guruhlarning mavjudligi ularga amfoterlik xususiyatini beradi.

Kislotali muhitda aminokislota va oqsil musbat zaryadlanadi, ishqoriy muhitda esa manfiy zaryadlanadi.

12-jadval

Oqsil tolalari va seritsin tarkibidagi aminokislotalar miqdori (%)

| Aminokislotalar  | Jun  | Fibroin | Seritsin |
|------------------|------|---------|----------|
| Glitsin          | 6,5  | 42,8    | 1,1      |
| Alanin           | 4,4  | 33,5    | 10,1     |
| Serin            | 9,5  | 16,2    | 33,9     |
| Sistin           | 13,1 | -       | 1        |
| Terozin          | 6,1  | 12,8    | 3,8      |
| Glutamin kislota | 16   | 2,2     | 2,5      |
| Arginin          | 10,4 | 1       | 3,7      |


13-jadval

Ayrim aminokislotalarning formulasi quyida keltirilgan:

| Aminokislotalar | Kimyoviy formulasi  |
|-----------------|---|
| Glitsin         | $\text{H}_2\text{N}-\text{CH}_2-\text{COOH}$  |
| Alanin          | $\text{CH}_3-\text{CH}_2-\text{COOH}$<br> <br>$\text{NH}_2$   |
| Serin           | $\text{HO}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$<br> <br>$\text{NH}_2$   |
| Sistin          | $\text{HOOC}-\text{CH}-\text{CH}_2-\text{S}-\text{S}-\text{CH}_2-\text{CH}-\text{COOH}$<br>   <br>$\text{NH}_2 \quad \text{NH}_2$ |

|                 |  |
|-----------------|--|
| Glutaminkislota | $\text{HOOC-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH-COOH}$<br> <br>$\text{NH}_2$  |
| Arginin         | $\text{H}_2\text{N-C-NH-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH}_2\text{-CH-COOH}$<br>                       <br>NH $\text{NH}_2$ |
| Tirozin         | $\text{HO-(C}_6\text{H}_4\text{)-CH}_2\text{-CH-COOH}$<br> <br>$\text{NH}_2$   |


*Jun tolalar.* Jun – tolasi morfologik tuzilishi bo‘yicha ildiz, o‘zak va tola (sterjen)dan iborat. Jun tolasi ikki qavatdan tashkil topgan – tashqi va ichki, ba’zi tolalarda uchinchi qavat ham bo‘ladi. Tolaning asosiy qismi ikkinchi qavatdan iborat. Jun oqsil tola bo‘lib, u keratindan tashkil topgan. Keratin yuqori molekulyar birikmalar bo‘lib, 20 ta aminokislotadan tirik organizmda sintez qilingan. Jonivorlarni qoplovchi tolalardan olingan mahsulotga jun deyiladi. Ko‘pincha qo‘y junidan foydalaniladi. Jun ingichka, yarimingichka, yarimdag‘l va dag‘al turlarga bo‘linadi. Ingichka va yarim ingichka jun asosan puxli, yumshoq va ingichka tukli toladan iborat. Yarim dag‘al va dag‘al jun puxli toladan tashqari o‘zakli, bir qadar qo‘pol va qattiq tolalardan iborat bo‘ladi. Jun tolasi ko‘p hujayrali tuzalishga va ikkita - ustki va ichki qavatga ega. Jun tolasining yuza qismi 19-rasmda keltirilgan.



19-rasm. Jun tolasi yuzasining mikroskopda ko‘rinishi.

Jun tolasining ustki qavati eski hujayra - tangasimon shaklda bo‘lib, ichki qavat buralgan hujayrali, bu hujayralar hujayralaro modda orqali birlashgan. Ichki

qavatda yog‘ va bo‘yovchi moddalar bo‘ladi. Tola fibrillardan, fibrillar esa mikrofibrillardan (20-rasm, 1) tashkil topgan. Mikrofibrillar 11 tadan protofibrildan (20-rasm, 2) tashkil topgan bo‘lib, ularning 9 tasi bir-biriga tegib turuvchi halqa ko‘rinishda, 2 tasi halqa o‘rtasida joylashgan (20-rasm, 3). Protopibril kabel ko‘rinishdagi 3 tadan spiralni buralgan holda tashkil topgan.




20-rasm. Jun tolasining tuzilishi. 1-mikrofibril, 2-prototibril, 3-mikrofibrilning gorizontal ko‘rinishi.

Dag‘al jun tolasida uchinchi qavat ham bo‘ladi. Bu qavat markaziy hisoblanib, u kanal ko‘rinishda bo‘ladi va qurigan hujayra, hamda havodan tarkib topgan. Tolaning ichki qavati bir jinsli emas, u ikki yo‘nalishdagi strukturaga ega. Ular ikkita bir xil o‘zaro bir-biriga tegib turadigan silindrardir. Bu silindrler kimyoviy turg‘unligi va boshqa xossalari bo‘yicha o‘zaro farqlanadi. Turg‘un qismi parakorteks va turg‘un bo‘lmagan qismi ortokorteks deb yuritiladi. Jun tolalarining uzunligi taxminan 30-40 mm va diametri 0,025 mm ga teng. Bobina tayyorlash uchun yuvilgan, ya’ni dastlabki ishlov berish zavodlarida chiqindilardan tozalangan jundan foydalilanadi.

Jun murakkab tuzilishga ega. Junni 90% - ini keratin tashkil etadi. Keratin tarkibida  $C, H, N, O, S$  bo‘ladi. Elementar tarkibi bo‘yicha ko‘pchilik jun tolalari o‘zaro o‘xshash, farqi asosan oltingugurt hisobiga bo‘ladi. Keratin to‘r tuzilishiga ega. Keratin tarkibida yonbag‘ir radikallari murakkab bo‘lgan aminokislotalar ko‘proq bo‘ladi, uning makromolekulasi fazoda  $\alpha$ -spiral ko‘rinishda joylashadi.

Keratin  $\alpha$ -formadan  $\beta$ -formaga oson o‘tadi, bu o‘tish issiq suv yoki bug‘bilan ishlov berib, tortish chog‘ida vujudga keladi (21-rasm).



21-rasm. Jun tolasi polipeptid zanjirining  $\alpha$ -spirali (a) va  $\beta$ -spirali (b)

Junda keratindan tashqari yana bir qancha oqsil bo‘lmagan yo‘ldosh moddalar ham bo‘ladi: tuz aralashmalari, yog‘, mumsimon moddalar, sellyulozali va tasodifiy qo‘sishimchalar bor. Jun tolasida quyidagi moddalar bo‘ladi, %:

|                      |          |
|----------------------|----------|
| -keratin             | -90      |
| -jun yog‘i           | -0,5-1,5 |
| -yog‘lovchi moddalar | -0,5-2,0 |
| -o‘simlik moddalari  | -1       |
| -bo‘yovchi moddalar  |          |

*Jun tolasi xossasi.* Jun gigroskopik tola. Jun atrof muhit harorati va namligiga bog‘liq ravishda ko‘p miqdorda suyuqlik yutishga moyil. 100-105°C da quritilgan tola o‘z namligini yuqotadi. Qattiq va mo‘rt bo‘lib qoladi. Qayta namlashda jun yana namlikni yutadi va o‘zining yumshoqligi hamda mustahkamligini tiklaydi, lekin uzoq vaqt shu haroratda quritish jun tolasi buzilishiga olib keladi va tola sarg‘ayadi, hamda  $H_2S$  va  $NH_3$  ajralib chiqadi. Jun kuydirilganda kalla-pocha hidi keladi. Yonganda uchgan moddalar ishqoriy xarakterga ega.

Uning kimyoviy aktivligi tolani tuzilishi va keratinning aminokislotali tarkibiga bog‘liq. Tarkibida  $NH_2$  va  $COOH$  guruqlarini bo‘lishi keratinga amfoterlik xossasini beradi.

*Suv va bug‘ ta’siri.* Jun tolasiga suv va bug‘ intensivlik bilan shimaladi. Quruq tola namlikni juda faollik bilan shimib oladi va bunda issiqlik ajralib chiqadi. Asosan tola ko‘ndalang kesimi bo‘yicha namlikni so‘rib oladi, tola to‘liq to‘yinganda uning ko‘ndalang kesimining o‘lchami 118-120 % ga (boshlang‘ichga nisbatan) yetib boradi. Uzunligi bo‘yicha esa faqat 1-2 % ga o‘zgaradi xolos. Namlikni tola ichiga sorblanishi zanjirlar orasidagi bog‘lanish kuchlarini susaytiradi, bundan tashqari ikki xil zaryadlangan molekulalarni o‘zaro tortilishini ham kamaytiradi. Natijada tolanning mexanik xossasi o‘zgaradi, shuningdek tortilishga bo‘lgan qarshiligi ham kamayadi. Suv ta’sirida tolanning chiziqli o‘lchamlarini o‘zgarishi bilan bir qatorda muhit harorati va davomiyligiga bog‘liq ravishda jun parchalana boshlaydi, bunda uning 0,25 % massasi yo‘qoladi (ikki soat distillangan suvda qaynatishda). 99-100<sup>0</sup> C da uch soat bug‘ ta’sirida boslang‘ich mustahkamligi 18 % ga kamayadi: 6 soatda 23 % ga va 60 soatda 74 % ga. Suv bilan 80-110<sup>0</sup> C va bug‘ bilan 110-115<sup>0</sup> C haroratgacha ta’sir etish mumkin. Bunda yuqori haroratda jun tolasini parchalanishi (buzilishi) kuzatiladi.

*Kislota ta’siri.* Jun tolasi xossalari kislota quyidagicha ta’sir qiladi:

- kichik konsentratsiyali kislota eritmalarini xona haroratida (junga nisbatan 10 % miqdorda) jun tolasi pishiqligini ortiradi.
- qisqa vaqt ichida konsentrlangan kislota eritmalarini (junga nisbatan 80 % gacha) xona haroratida jun pishiqligiga ta’sir etmaydi.
- konsentrlangan kislota eritmalarini jun tolasini parchalaydi. Parchalash darajasi muhit harorati va davomiyligiga bog‘liq.
- bir xil sharoitda organik kislotalar mineral kislotalarga nisbatan kam ta’sir etadi.

*Ishqor ta’siri.* Ishqor nafaqat ko‘ndalang har xil zaryadlangan molekulalar orasidagi bog‘lar, xatto sistin bog‘larga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ishqor ta’sirida junning mexanik xossasi yomonlashadi, sarg‘ayadi oltingugurt miqdori kamayadi, bu o‘zgarishlarning darajasi ta’sir etish harorati, davomiyligi, ishqor xarakteri va uning konsentratsiyasiga bog‘liq. 3 % - li o‘yuvchi ishqorlarda junni qaynatsa, u darhol erib ketadi. Past haroratda ishqor ta’sirida junning pishiqligi

ortadi. 15 % - li konsentratsiyagacha junning pishiqligi kamayib boradi. Undan ortishi bilan pishiqlik ham ortib boradi. 38 % - li bo‘lganda junning pishiqligi boshlang‘ichga nisbatan 30 % ga ortadi. Ishqor tola yuzasiga ta’sir etib, uning ichki strukturasiga kirib bormaydi (yuqori konsentratsiyali ishqor qisqa vaqt ichida). Bobina hosil qiluvchi tolalar yuzasi bo‘yicha parchalanadi va siqib quritilgach yanada pishiqroq o‘zaro birikib qoladi. Ishqor jun tolasidagi sistin bog‘larga ta’sir etadi va ularni buzadi.


*Tuzlar ta’siri.* Ishqoriy va ishqoriy ietal tuzlari junga kam miqdorda sorblanadi. Shuning uchun ularning suvli eritmalarini junga suv kabi ta’sir etadi. Tuzlarning konsentratsiyasi 5 % dan ortsa va qaynatilsa junni parchalanishi boshlanadi (keratin ma’lum miqdorda eriydi, pishiqligi kamayadi, tola dag‘allashib qoladi). Qaynatish davomida suvdagi kalsiy va magniy tuzlari junni sarg‘aytiradi.

*Qaytaruvchilar ta’siri.* Qaytaruvchilar ishqoriy muhitda junga ta’sir qiladi. Bunday ta’sirda tola ko‘ndalang kesimi bo‘yicha bo‘kadi va uzunligi bo‘yicha kirishadi. 1 % li natriy sulfidi ta’sirida ( $65^0\text{C}$ ) jun parchalanadi va 50 % og‘irligini yo‘qotadi va oltingugurt miqdori kamayadi. Sistin bog‘lari uziladi. Qaytaruvchilar ta’sirida  $\text{NaHSO}_3$  ning 5%-li konsentratsiyasida qaynatilganda 30 % uzunligi kamayadi.

*Oksidlovchilar ta’siri.* Oksidlovchilar ham junga ta’sir etadi va sistin bog‘larini uzilishiga olib keladi. Yorug‘lik ta’sirida tolaning yuzaki cheshuychatosti kamayadi, bo‘kishi ortadi. Yorug‘lik ta’sirida sulfit va sulfat kislota hosil bo‘ladi. O‘sish jarayonida ham jun tarkibilagi 14 % oltingugurt yorug‘lik ta’sirida yo‘qoladi. Vodorod peroksidning 3 % - li eritmasida  $50^0\text{C}$  haroratda vaqt ortishi bilan keratindagi barcha elementlar miqdori kisloddan tashqari) kamayadi, lekin ularning nisbati saqlanib qoladi.

*Tabiiy ipak.* Pilladan olinayotgan ip ikkkita yonma-yon turuvchi ipdan va ularni o‘rab turuvchi yelim - seritsindan tarkib topgan. Seritsindan tozalangan fibroin gomogen ip ko‘rinishida bo‘ladi. Lekin unga kimyoviy va mexanik ta’sirlar ko‘rsatishi orqali uzunasiga mayda fibrillarga ajraladi. Pilla ipining 70-75 % -ini fibroin va 25-30% -ini seritsin tashkil etadi.

Tabiiy ipakni ipak qurti cheksiz ip ko‘rinishda hosil qiladi. Ipak qurti ikkita parallel ipni o‘zaro seritsin yelimi bilan yelimlangan holda ajratib chiqaradi. Ipak qurtidan chiqayotgan ip darhol qattiqlashib qoladi. Pilladan eshilgan ipni uzunligi  $262\pm52,5$  m. Fibroin sterjenlari fibrillardan tashkil topgan (22-rasm).



22-rasm. Tabiiy ipak tolasining tuzilishi. *a*-pilladan olingan ip, *b*-qaynatilgan ip.

Fibroinning birlamchi strukturasi xozirgacha to‘liq o‘rganilmagan. Tabiiy ipakni hosil qiluvchi zanjirlar o‘zaro polipeptid, vodorod bog‘lari va Vander-Vaals kuchlari bilan bog‘langan. Tolada orientirlangan uchastka 40-60 % ni tashkil etadi. Ipak qurtidan chiqishga tayyor bo‘lib turgan fibroin suvda eruvchan va orientirlangan emas, shakli bo‘yicha globulyar oqsillarga o‘xshaydi. Tabiiy ipakning  $\beta$ -formasi ipni ipak qurtidan chiqishida vujudga keladi. Fibroin asosan oddiy aminakislotalardan tarkib topgan.

Tabiy ipak boshqa tabiiy tolalardan (paxta, zig‘ir, jun) o‘zining hujayra tuzilishga ega bo‘lmaganligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan u o‘zining paydo bo‘lishi bo‘yicha sun’iy va sintetik tolalarga o‘xshaydi.

Pilladan olinayotgan ip ikkkita yonma-yon turuvchi ipdan va ularni o‘rab turuvchi yelim - seritsindan tarkib topgan. Seritsindan tozalangan fibroin gomogen ip ko‘rinishida bo‘ladi. Lekin unga kimyoviy va mexanik ta’sirlar ko‘rsatishi orqali uzunasiga mayda fibrillarga ajraladi. Pilla ipining 70-75 % -ini fibroin va 25-30% -ini seritsin tashkil etadi.

*Fibroinning tuzilishi.* Fibroinning birlamchi strukturasi hozirgacha to‘liq o‘rganilmagan. Tabiiy ipakni hosil qiluvchi zanjirlar o‘zaro polipeptid, vodorod bog‘lari va Vander-Vaals kuchlari bilan bog‘langan.

Tolada orientirlangan uchastka 40-60% ni tashkil etadi. Ipak qurtidan chiqishga tayyor bo‘lib turgan fibroin suvda eruvchan va orientirlangan emas, shakli bo‘yicha globulyar oqsillarga o‘xshaydi. Tabiiy ipakning  $\beta$  formasi ipni ipak qurtidan chiqishida vujudga keladi. Fibroin asosan oddiy aminokislotalardan tarkib topgan.

*Fibroin xossasi.* Fibroin spirtda, uglerod sulfid va boshqa organik erituvchilarda erimaydi. Suvda erimaydi, lekin suvni o‘ziga sorblaydi va bo‘kadi. Bo‘kishi ma’lum miqdorda bo‘ladi, ya’ni  $18^0\text{C}$  haroratda ko‘ndalang kesimi 16-18% ga va og‘irligi 30-35% ga ortadi. Uzunligi bo‘yiga faqat 1,2% ga uzayadi xolos. Havodagi namlikni yutib ham tabiiy ipak bo‘kadi. Kislota va ayniqsa ishqor eritmalarida tabiiy ipak intensiv bo‘kadi. Ishqor ta’sirida bo‘kishida jarayon qaytmas bo‘ladi.

Ba’zi tuzlarning eritmalarida fibroin ma’lum miqdorda bo‘kadi va qovushqoq eritma hosil qiladi. Fibroin mis - ammiakli eritmada, ishqoriy mis-glitsirin eritmasida, etilen-diamin eritmasida mis gidrooksidida, ammiak – nikelli eritmada, fosfor, sulfat, xlor, chumoli, dixloruksus kislota eritmalarida eriydi. Jun keratini bu erituvchilar ta’siriga chidamli hisoblanadi. Keratin va fibroindagi bunday farq, fibroinda ko‘ndalang bog‘larni yo‘qligi bilan tushuntiriladi.

*Fibroin reaksiyalari.* Fibroin atsillash, alkillash reaksiyalariga kirisha oladi. Formaldigid bilan ishlov berilgan ipak ishqorda kam eruvchan bo‘lib, mis – ammiakli eritmada erimaydi va mustahkamligi ortadi. Fibroinni uzoq vaqt suvda qaynatishda unda bir qadar gidroliz ketishiga olib keladi. Kislota va ishqor ishtirokida bu gidroliz kuchayib boradi. Fibroin ishqor ta’sriga o‘ta chidamsiz. Xatto kuchsiz ishqorlar ham (pH-10) qaynatish haroratida fibroinni gidrolizga uchratadi. 5-7% li o‘yuvchi ishqor bilan tabiiy ipak qaynatilganda, u darhol erib ketadi. O‘yuvchi natriyga nisbatan natriyfosfat, soda, natriy silikat, sovun eritmalar, ammoniy gidrooksidi tabiiy ipakka kamroq ta’sir etadi. Ishqorlar

ta'sirida tabiiy ipakni parchalanishi haroratga bog'liq. O'yuvchi ishqorlar bilan past haroratda tasir ettirilganda fibroinda deyarli o'zgarishlar sezilmaydi. Fibroin ishqorlarga nisbatan kislotalarga chidamliroq. Hatto mineral kislotalar ham past konsentratsiyada qizdirish orqali ta'sir ettirilgada ham fibroin deyarli parchalanmaydi. Shuning uchun ham ulardan bo'yash jarayonida foydalaniladi. Amalda qaynatish yoki bo'yash jarayonidan so'ng tabiiy ipakka kislotalar bilan ishlov beriladi. Natijada tola maxsus skripli(donador) bo'lib qoladi.

Yuqori konsentratsiya va yuqori haroratda fibroin parchalanadi. Masalan konsentrangan sulfat va xlor kislotada xona haroratida tabiiy ipak bir zumda erib ketadi. Kislotali gidroliz ham ishqoriy gidroliz kabi ishlov berish harorati va muhit pH iga bog'liq. Yarim soat davomida tabiiy ipakni suyultirilgan sulfat yoki xlor kislota eritmalarida qaynatilsa va bunda pH 1,75 dan past bo'lsa, ipakning mustahkamligi pasayadi. Fibroin kuchsiz mineral va organik kislotalar ta'siriga bardoshli. Fibroin keratin kabi fermentlar ta'siriga chidamli. Lekin fibroinni tolali strukturasiga mexanik yoki kimyoviy ta'sir ettirilgan bo'lsa, u ferment ta'sirida gidrolizlanadi.

Fibroinga qaytaruvchi yoki oksidlovchilar ta'siri kam o'rganilgan. Oksidlovchilar ta'siriga bir qadar sezgir. Past konsentratsiyadagi xlor kislota fibroinni parchalaydi. Amalda tabiiy ipakni oqartirish uchun vodorod peroksidi eritmasidan foydalaniladi. Lekin vodorod peroksid eritmasida ham fibroinning massasi va azot miqdori kamayadi, ipak eritmalarini qovushqoqoligini orttiradi. Tabiiy ipak fotokimyoviy oksidlanishga chidamsiz. Havodagi kislorod ta'sirida tabiiy ipak parchalanadi. Ipakka qaytaruvchilar ta'siri kam o'rganilgan. Qaytaruvchilar ta'siriga chidamli.

*Seritsin* fibroinga nisbatan kamroq o'rganilgan. Seritsinni aminokislotali tarkibi tekshirilganda, uning fibroindan farq qilishi kuzatilingan. Fibroin tarkibidagi alanin va tirazin seritsinda kam miqdorda, glitsin esa nomigagina uchraydi xolos.


Seritsin spirtda, atseton va benzinda erimaydi. Lekin suv va kislota hamda ishqorlarning suvli eritmalarida eriydi. Uning suvda erishiga sabab kimyoviy

tuzilishining fibroindan farq qilishidir. Yon zanjirlarida qutbli guruhlarning ko‘pligi, zanjirning tartibsiz joylashganligi va ular orasidagi molekulalararo ta’sirlashuvning kamlidigkeitidir. Seritsinni suvda eruvchanligi haroratga bog‘liq. Harorat  $90^{\circ}\text{C}$  dan kam bo‘lsa, u faqat bo‘kadi va deyarli erima holiga o‘tmaydi.  $100^{\circ}\text{C}$  da tolani butkul seritsindan xalos etish mumkin. Buning uchun ko‘p vaqt talab qilinadi. Harorat  $105^{\circ}\text{C}$  dan ortganda seritsinni eruvchanligi keskin ortadi.  $110^{\circ}\text{C}$  da 1 soat davomida to‘liq eriydi. Seritsinning eruvchanligi muhitga ham bog‘liq, kislotali va ayniqsa ishqoriy muhitda seritsinning eruvchanligi ortadi. pH -9,5-10 bo‘lganda kuchsiz ishqoriy muhordan ham  $95-100^{\circ}\text{C}$  haroratda tola tez seritsindan ozod bo‘ladi. Seritsin fibroindan farqli o‘laroq fermentlar ta’siriga chidamsiz. Shuning uchun mikroorganizmlar ta’sirida seritsin parchalanadi. Xom ipakka formaldegid bilan ishlov berilganda seritsinni suvda eruvchanligi kamayadi. Xom ipakni seritsindan tozalagandan keyin qolgan seritsinli eritma jelatin holatida bo‘ladi. Ya’ni zol holatdan gel holatga o‘tadi. Seritsinni izoelektrik nuqtasi pH=3,9-4,3 ga teng. Bundan ko‘rinib turibdiki seritsin kuchsiz kislotalilik namoyon qilar ekan. Pillada fibroin va seritsin bilan bir qatorda 1-1,7 % miqdorda mineral moddalar ham bo‘lib, ular asosan silikatlardan, sulfatlar, fosfatlar xloridlar, kaliy, magniy, natriy, kalsiy karbonatlari va temirdan tarkib topgan. Pillaga uning tarkibidagi tabiiy pigmentlar rang beradi.

**Sun’iy oqsil tolalari.** Kazein va zein oqsil asosidagi sun’iy tola hisoblanadi. Bu tolalar oziq-ovqat mahsulotlaridan olinganligi sababli ishlab chiqarishda keng miqyosda qo‘llanilmaydi. Kazein tolesi faqat jun tolesi bilan bирgalikda aralash tolali mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlataladi. Kazein yumshoq, namlikni oson yutuvchi va issiqbardosh, hamda arzon toladir. Nam holatdagi Kazein tolesi yoki undan tayyorlangan mahsulotlarni quritish  $100^{\circ}\text{C}$  dan past bo‘lgan haroratda olib boriladi, aks holda tola mo‘rtlashib qoladi. Kazein sun’iy tola bo‘lishiga qaramasdan turli mog‘orlaydi, kuyabardosh emas. Bu tola vodorod peroksid yordamida uzoq vaqt past haroratda oqartiriladi. Yuqori haroratda vodorod peroksid ta’sirida tola sarg‘ayadi. Kazein tolasini aniqlash uchun tolali materialga

4-5 tomchi karbazol (formulasasi) ta'sir ettiriladi, tarkibida kazein bo'lgan tola bunday holda ko'k tusga kiradi. Kazein tolesi sutdan olinganligi sababli ayrim ma'lumotlarda bu tola «Melkwol» nomi bilan yuritiladi. Kazein tolasining uzilish uzunligi 9 km ga teng, agar bu tolani poliamid tolesi bilan solishtirsak, uning uzilish uzunligi 70-75 km ga teng. Kazein tolalarini tabiiy tolalar bilan qo'shib ishlatish boshlangandan so'ng bu tolalarni ishlab chiqarish bir qadar kengaygan. Dunyo miqyosida kazein tolalari Lanital, Laktofil, Aralak, Fibrolan, Marena, Ardil i Tiolan nomlari bilan ishlab chiqariladi. Marena – teri proteinlari chiqindilaridan, Ardil – yeryong'oq (Yaponiyada) va soya (AQSHda) proteinidan olinadi. Sun'iy kazein tolalari bo'yaluvchanlik xossalari bo'yicha junca o'xshash, lekin fizik strukturasi bo'yicha undan farq qiladi. Ularning tarkibida oltingugurni kamligi, hamda ko'ndalang sistin bog'larining yo'qligi ularni jun tolasidan asosiy farqi hisoblanadi. Shuning uchun ham kazein tolalarning mustahkamligi va turli ta'sirlarga turg'unligi jun tolasiga nisbatan past. Kazein tolesi sintezida uning makromolekulalari orasida ko'ndalang sistin bog'larini hosil qila olish orqali bu tolalarni ishlab chiqarish va ularni to'qimachilik sanoatida qo'llash imkonyatini kengaytiradi.

Zein tolesi o'simlik oqsili zeindan olinadi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida ishlab chiqarilishi to'xtatilgan. Bu tolani ishlab chiqarishni ikki xil usuli ma'lum. Birinchi usulda qimmat reagent mochevinadan foydalaniladi, ikkinchi usulda esa oqsilning ishqoriy eritmalarini qayta ishlash orqali hosil qilinadi. Zein tolalari «Vikara» nomi bilan ishlab chiqariladi. Vikara tolasini ishlab chiqarish uchun oqsil denaturatsiya (eritiladi) qilinadi, undan tola shakllantiriladi, bunda zein makromolekulasi to'g'irlanadi va orientrlanadi. Keyin tolaga formaldegid balan ishlov beriladi, bunda makromolekulalar orasida ko'ndalang bog'lar hosil bo'ladi. Zein tolasini aniqlashda unga 1 ml 0,1% -li triketogidrindengidrat ((ningidrina) (2,2-дигидрокси-1,3-индан-дион) (molekulyar formulasasi  $C_9H_6O_4$ ) ning suvli eritmasi ta'sir ettirilganda tola pushti rangga kiradi.



## 7-MA'RUZA

### Sintetik tolalarning olinishi va xossalari


#### Reja:

1. Geterozanjirli tolalar
2. Karbozanjirli tolalar

Sintetik tolalar geterozanjirli va karbozonzanjirli turlarga bo‘linadi. Geterozanjirli tola makromolekulalari uglerod atomidan tashqari boshqa atomlarni ham tutgan bo‘ladi ( $O_2$ ,  $N_2$ ). Bunday polimerlar asosan sikllarni polimerlash yoki polikondensatlash reaksiyalari orqali olinadi. Geterozanjirli tolalarga poliamid, poliefir, poliuretan va polimochevina tolalari kiradi.

Karbozanjirli tola makromolekulalarning asosiy zanjiri faqat uglerod atomlaridan tarkib topgan bo‘ladi. Bu polimerlar polimerlanish reaksiyasi orqali hosil qilinadi. Karbozanjirli tolalarga poliakrilo-nitril, polivinilspirt, pollivinilxlorid, poliolefin tolalari tegishli.

*Poliefir tolalar.* Bunga terilen (Angliya), dakron (AQSH), teteron (Yaponiya), tesil (Chexiya), eana (Polsha) va lavsan (Rossiya) tolalari ta’luqli. Xom ashyo sifatida bu tolalarni olish uchun dimetil terefalat va etilenglikol xizmat qiladi. Quyultmadan shakllantiriladi. To‘qimachilik ipi (chiziqli zichligi 11/40 teks), kord (20/80 teks) va shtapel tola (chiziqli zichligi 16,7-200 teks) ko‘rinishdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Umumiyligida ko‘rinishda quyidagicha yozish mumkin:




PE polidispers tuzilishli, qattiq zanjirli va u kristallananadi. Tolaning ichki tuzilishi yuqori darajadagi tartibga ega.

Tuzilishining zichligi va gidrofil guruuhlarining yo‘qligi sababli u gidrofob tola hisoblanadi. 65% nisbiy namlikda tola 0,4%, 100 % namlikda esa 0,6-0,8% namlikni yutadi. Suvli muhitda tola butkul bo‘kmaydi. Yuqori darajada elektralanishga ega. Bu xossalalar tolani bo‘yalishi va mexanik ishlash sharoitlarini yomonlashtiradi. PE ham PA kabi termoplastik tola, yumshash harorati 258-260°C ga teng, organik erituvchilarda eriydi Ba’zi reaktivlar ta’sirida PE tolalar(benzoy va solitsil kislota) bo‘kadi va bu hol bo‘yash jarayonida qo‘llaniladi. Ho‘l holatda ham PE ning uzilishdagi uzilish qiymati o‘zgarmaydi. PE mahsulotlari shaklni yaxshi ushlaydi (plisse), yuqori elastiklikka ega. PE tolalariga kuchsiz kislotalar xatto qaynash haroratida ham ta’siretmaydi. Past haroratda kuchli kislota ta’siriga chidamli. Kuchsiz ishqorlar ta’siriga chidamli. O‘yuvchi ishqor ta’siriga yuqori haroratda chidamsiz. PE oksidlovchilar ta’siriga bir qadar chidamli, biologik ta’siriga, mikroorganizmlar va kuyaga chidamli. PE tolasi yuqori termik bardoshlikka ega (70-235°C), g‘ijimlanmaydi, paxta, jun va viskoza tolalari bilan birgalikda qo‘llanishi mumkin.

PE polidispers tuzilishli, qattiq zanjirli va u kristallananadi. Tolaning ichki tuzilishi yuqori darajadagi tartibga ega. Tuzilishining zichligi va gidrofil guruuhlarining yo‘qligi sababli u gidrofob tola hisoblanadi. 65% nisbiy namlikda

tola 0,4 %, 100 % namlikda esa 0,6-0,8 % namlikni yutadi. Suvli muhitda tola mutlaqo bo‘kmaydi. Yuqori darajada elektr zaryadini to‘plash xossasiga ega. Bu xossalar tolani bo‘yalishi va mexanik ishlash sharoitlarini yomonlashtiradi.


*Poliamid tolalari.* Dunyo bo‘yicha ishlab chiqariladigan barcha sintetik tolalarning yarimini PA tolesi tashkil etadi. PA tolasiga kapron, anid, enant (Rossiya), silon (Chexiya), stilon (Polsha), grilon va mirlon (Shvetsariya), dederon (Germaniya), naylon (AQSH, Angliya, Fransiya), amilan (Yaponiya) taaluqli. Poliamid tolalari (kapron, enant, anid) quyidagi ko‘rinishga ega:



Bu tolalarni kimyoviy tuzilishi makromolekulasida  $-\text{NH-CO-}$  (amid) guruhi borligi bilan xarakterlanadi. Poliamid makromolekulasi  $-\text{NH}_2$  va  $-\text{COOH}$  kabi faol funksional guruhlarini tutgan bo‘ladi, lekin bu guruhlar faqat zanjirning oxirida joylashadi. Poliamidning molekulyar massasini yuqoriligi sababli bu guruhlar juda kam miqdorda bo‘ladi. Poliamid tolalari uchun strukturasini yuqori darajada tartibliligi va kristalliligi xosdir. Tolaning kristall fazasidagi cho‘zilgan makromolekulalar o‘zaro molekulalararo bog‘lanishlar, ya’ni Van-der Vaals kuchlari va vodorod bog‘lanishlar orqali bog‘langan. Vodorod bog‘lanishlar qo‘shni zanjirlardagi  $=\text{NH}$  va  $=\text{C=O}$  guruhlararo vujudga keladi. PA yuqori elastiklik va uzilish uzunligiga ega. Barcha to‘qimachilik tolalari ichida ishqalanishga bo‘lgan chidamliyligi bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi, shuning uchun undan noski-paypoq ishlab chiqarishda keng foydalaniladi. Bu xossasi bo‘yicha PA tola barcha tabiiy va sintetik tolalardan ustun turadi, ya’ni paxtanikiga nisbatan 10 marta, junga nisbatan 20 marta yuqori. Egiluvchanligi bo‘yicha 10000 marta buklanishga bardoshli. Ular yuqori qayishqoq-plastik xususiyatga, buklanishga chidamliylik (paxta va junga nisbatan 10 barobar va viskozagaga nisbatan 100 barobar) xossasiga ega. Kamchiligi: issiq va yorug‘lik ta’siriga chidamsiz, elektrlanadi, juda silliq yuzaga ega.


Suvda bu tolalar juda kam bo‘kadi, shuning uchun ular ho‘l holatda pishiqligini faqat 5-10% ga yo‘qotadi xolos. 65% nisbiy namlikda PA tolasi 3,4-4 % namlikni yutadi. Bunga PA makromolekulasida gidrofil guruhlarning kamligi sabab bo‘ladi deb qarash mumkin. PA tolalari organik erituvchilar (fenol, krezol, chumoli kislota) va mineral kislotalarda eriydi. PA lar termoplastik tolalar turkumiga kiradi, ya’ni parchalanmay yumshaydi: kapron 215<sup>0</sup> C, anid 255<sup>0</sup> C, enat-225<sup>0</sup>C. PA tolalarida amino va karboksil guruhlarini borligi ularga oqsillar kabi amfoterlik xossasini beradi.

Kislota va ishqorlar ta’sirida PA lar parchalanadi, ya’ni amid bog‘lar gidrolizlanadi.




PA tolalar ishqor ta’siriga bir qadar chidamli: amidga 40%- li NaOH bilan 90<sup>0</sup> C haroratda ta’sir qildirilganda u deyarli o‘zgarmaydi. Bu tolalar kislota ta’siriga chidamsiz ayniqsa, kuchli mineral kislotalar bilan yuqori haroratda ishlov berilganda. PA tolalari oksidlovchilar ta’siriga chidamsiz, shuning uchun to‘qimachilik sanoatida keng qo‘llaniladigan PA mahsulotlariga ishlov berishda natriy gipoxlorit va vodorod peroksididan foydalanimaydi. PA tolalar mikroorganizmlar va kuya ta’siriga chidamli. Agar zanjirdagi oxirgi funksional guruhlar inobatga olinmasa, PA lar aktiv reaksiyon xossa beruvchi funksional guruhlarni deyarli tutmaydi. Lekin amid guruhlaridagi vodorod bog‘lar bir qator PA hosilalarini hosil qilish va PA ni modifikatsiyalash imkonini beradi. Modifikatsiyalashda hosil bo‘ladigan molekulalararo ko‘ndalang bog‘lar erish hraratini, zichligini, issiq bardoshligini oshishiga, eruvchanligi va cho‘ziluvchanligini kamayishiga olib keladi.

*Poliakrilonitril tolalari* akrilonitrilni polimerlash reaksiyasi orqali hosil qilinadi.



Ko‘pincha bu tolalar polimerning DMF yoki rodanid eritmalaridan shakllantiriladi. Shakllantirish, cho‘zish, yog‘lash va quritish jarayonlaridan so‘ngtolaning termobardoshligini, kirishishga va ko‘p marotabalik deformatsiyaga bo‘lgan mustahkamligini oshirish maqsadida u *termorelaksatsiyalanadi*. Barchatolalar ichida yorug‘lik ta’siriga o‘ta chidamli tola hisoblanadi, issiqlik izolyasionxossasiga ega. Ko‘p hollarda jun bilan birgalikda ishlatiladi. Bu polimerdan olingan tolanning bo‘yaluvchanligi yomon bo‘lganligi, zinch strukturali va o‘tagidrofobligi sababli akrilonitrilni boshqa monomerlar bilan sopolimerlari asosida tola olinadi va nitron nomi bilan chiqariladi.






Dunyoda PAN tolalar nitron, orlon, akrilan, kreslon, zefran, drolon, valkrilon, prelan, pan, kurtel nomlari bilan ishlab chiqariladi. Tarkibida boshqa monomerlarni 15% dan ko‘p bo‘lmagan tolalar PAN tarkibiga kiritiladi. Sopolimer tarkibiga kiruvchi boshqa polimerlarning miqdori 15% dan oshmasligi lozim, aks holda PAN tola o‘zining qimmatbaho xossalarini saqlab qolmaydi. Qo‘shiladigan monomerlarni ba’zilari tolaga bo‘yaluvchanlikxossasini bersa, boshqalari tola strukturasini g‘ovaklashtiradi. O‘zbekistonda PAN tola nitron nomi bilan ishlab chiqariladi. Uning tarkibida metilmekrilat va itacon kislota bo‘lib, bu qo‘shimchalar tolaga mos ravishda elastiklik va bo‘yaluvchanlik xossasini beradi.

PAN makromolekulalari yuqori tartiblangan, strukturasi zinch, molekulalararo ta’sirlashuvi energiyasi yuqori. PAN ning zinch strukturaligi va


funksional guruhlarini yo‘qligi sabablibu tolalar 65% nisbiy namlikda faqat 1% namlikni yutadi.

PAN makromolekulalari yuqori orientlangan, strukturasi zich, molekulalararo ta’sirlashuvi energiyasi yuqori. PAN ning zich strukturaligi va funksional guruhlarini yo‘qligi sabablibu tolalar 65% nisbiy namlikda faqat 1% namlikni yutadi. Suvli eritmalarda bo‘kmaydi. PAN tolesi konsentrangan sufat kislota, noorganik tuzlar eritmasida, DMF, dimetgilsulfon, dimetilatsetatda eriydi.



Nam holatda mustahkamligini umuman yo‘qotmaydi, yuqori elastik xossaga ega (PA tolasidan keyingi o‘rinda turadi). Ishqalanishga bo‘lgan chidamliyliги bo‘yicha PA va PE tolalaridan keyingi o‘rinda turadi.  $220-280^0$  C haroratda yumshashni boshlaydi va bir vaqt ni o‘zida parchalanadi.



PAN tolalar kuchli noorganik kislotalar ta’siriga, oddiy haroratda suyultirilgan o‘yuvchi ishqor ta’siriga chidamli. Lekin yuqori harorat va yuqori konsentratsiyali NaOH ta’sirida PAN tola parchalanadi, parchalanish nitril guruhni gidrolizlanishi va makromolekulani buzilishi hisobiga boradi.




PAN ga kuchsiz kislotalar ta'sir etganda u yuqoridagi sxema bo'yicha sarg'ayadi. Bu sarig'likni oksidlovchilar (natriy xlorit-kislotali muhitda) va suyultirilgan  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  bilan ishlov berishorqali yo'qotish mumkin.

PAN tolalar oksidlovchilar va yuqori harorat ta'siriga chidamli. Ikki kun davomida tolani  $150^0\text{ C}$  haroratda saqlashda uning mustahkamligi pasaymaydi. Uzoq vaqt  $200^0\text{ C}$  da saqlanganda tolaning massasi 30% ga kamayadi, qorayadi va issiqlikka bardoshliligi ortadi. Bunday tolaga  $600-800^0\text{ C}$  da ta'sir ettirishda ham u o'ziningmustahkamligini va elastikligini ma'lum miqdorda saqlaydi. Tolani bunday quruq qizdirish natijasida uning makromolekulasida ma'lum o'zgarishlar bo'ladi, tola sarg'ayadi va eruvchanligi kamayadi.

PAN tolalari yorug'lik va atmosfera ta'siriga o'ta chidamli va bu jihatdan barcha tabiiy va sintetik tolalardan ustun turadi. PAN dagi CN-guruuhlar reaksiyon qobiliyatli. PAN tolalarining asosiy kamchiliklari bu ularni qiyin bo'yalishi, zinch strukturali va gidrofobiligidir. Tolaning bu kamchiliklarini bartaraf etish uchun tola polimerdan emas, balki sopolimerdan shakllantiradi. Sopolimer tarkibiga kiruvchi boshqa polimerlarning miqori 15% dan oshmasligi lozim, aks holda PAN tola o'zining qimmatbaho xossalariini saqlab qolmaydi. Qo'shiladigan monomerlarni ba'zilari tolaga bo'yaluvchanlikxossasini bersa, boshqalar tola strukturasini g'ovaklashtiradi. O'zbekistonda PAN tola nitron nomi bilan ishlab chiqariladi. Uning tarkibida metilmekrilat va itakon kislota bo'lib, bu qo'shimchalar tolaga elastiklik va bo'yaluvchanlik xossasini beradi.




*Polivinilxlorid tolalar* – xlorin, rovil, termovil, saron, daynel, vinon, saniv, xlorin nomlari bilan ishlab chiqariladi. PVX - polivinilxloriddan va boshqa monomerlar aralashmalaridan polimerlanish va sopolimerlanish reaksiyalari orqali hosil qilinadi.



Polimer eritmali yoki quyultmalaridan shakllantiriladi. Filament ip yoki shtapel tola ko‘rinishda ishlab chiqariladi. Texnik maqsadlarda va meditsina matolari uchun ishlatiladi. Ular past darajadagi termoplastiklikka ega va kam yonuvchan. Xlorinli trikotaj materiallar radikulit, revmatizm kasalliklarini davolashda ishlatiladi. PVX tolalaridan stullar uchun qoplamlar, to‘rlar, kimyoviy filtrlar tayyorlanadi. PVX asosan texnik maqsadlar uchun, mahsus kiyimlar va yonmaydigan qurilish materiallar olishda ishlatiladi.

Bu tolalar yaxshi fizik-mexanik xossaga ega, kislotalar, ishqor va oksidlovchi ta’siriga chidamli. Bu tolalar asosan atsetonda eriydi. Bu tolalarning barchasi ham gidrofil guruhi tutmaydi, hidrofob va suvli muhitlarda erimaydi. Kamchiligi: issiqbardosh emas, qiyin bo‘yaluvchan. Bu tolalar asosan texnik maqsadlarda qo‘llanadi.


*Polivinilspirt tolalar*-vinol (Rossiya). PVS ni suvli yoki suv va etil spirtili eritmasidan shakllantiriladi. PVS tolalarini shakllantirish uchun boshlang'ich modda sifatida vinilatsetatdan yoki polivinilspirtdan foydalanadi.



Polivinilspirt suvda eriydi va suvli eritma ko'rinishda tola shakllantirishda qo'llaniladi. Tola shakllantirish, cho'zish, yuvish, quritish va termoishlov berish jarayonidan o'tgach atsetillanadi. Vinol shtapel tolalari boshqa tolalar bilan aralashgan holda yoki o'zi mato va trikotaj ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Ishqalanishga bardoshli. Paxta aralashli mahsulotlarning xizmat qilish muddatini oshiradi. Boshqa sintetik tolalarga nisbatan gigroskopligi yuqori (4-8 %). Yorug'likka, issiqlikka chidamli va termobardosh tola hisoblanadi. Yumshash harorati 232-238°C.

PVS tolalaridan belyobop matolar olishda, hamda trikotaj va texnik mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. PVS tolasidan har xil choyshablar to'qish mumkin. Bu choyshablar yuvilgan taqdirda kam kirishadi. Bu tolalarning elastikligi paxta va viskoza tolasidan yuqori bo'lib, boshqa sintetik tolalar kabi ishqor va kislotalar ta'siriga turg'un bo'ladi. PVS tolalaridan sovinol suvda yaxshi eruvchan bo'lib, boshqa xil suyuqliklar ta'siriga turg'un bo'ladi. Shuning uchun ham undan xirurgiyada foydalaniladi. Kuralon namlikda 85 % gacha mustahkamligini saqlab qoladi, shuning uchun undan ustki kiyimlar tikiladi.

*Polivinilspirt tolalar*. PVS tolalarini shakllantirish uchun boshlang'ich modda sifatida vinilatsetatdan foydalanadi.



Polivinilspirt suvda eriydi va suvli eritma ko‘rinishda tola shakllantirishda qo‘llaniladi. Shakllantirilgan tola suvda eriydi, shuning uchun uning eruvchanligini oldini olish maqsadida unga qo‘shimcha ishlovlar beriladi. PVS tolalari kuralon, vinilon, vinol nomlari bilan ishlab chiqariladi. Tolaning elastikligi boshqa sintetik tolalardan past, lekin tabiiy va sun’iy tolalardan yuqorida turadi. 65 % nisbiy namlikda 5 % namlikni yutadi, ya’ni gigroskopligi bo‘yicha paxta tolasiga yaqin turadi. Ishqalanishga chidamli,  $200^0$  C haroratda yumshaydi, kislota, ishqor ta’siriga chidamli (suyultirilgan NaOH eritmalarida qaynatish, 20 % li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ga  $20^0$  C da 5% li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ga  $65^0$  C da chidamli) Yuqori haroratda konsentrangan mineral kislotalar ta’sirida eriydi. Tola chumoli kislotada ( $55^0$  C da), fenol va krezolda eriydi. Mikroorganizmlar ta’siriga chidamli.

*Poliolefin tolalar* quyultmadan shakllantiriladi. Yuqori mustahkamlikka va elastiklikka ega. Eng yengil tola, xatto suvdan ham yengil. Issiqlikka chidamsiz. O‘zi alohida va boshqa tolalar: jun, paxta, viskoza bilan birgalikda mato, gilam va trikotaj ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Etilen propilen, polipropilen tolalar o‘zlarining issiqlikka bo‘lgan chidamsizliklari tufayli keng ko‘lamda ishlab chiqarilmaydi.

Poliolefin tolalari polietilen va polipropilen asosida hosil qilinadi.

$-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-\text{CH}_2-$  polietilen


$-\text{CH}_2-\overset{\text{CH}_3}{\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}} -\overset{\text{CH}_3}{\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}} -\overset{\text{CH}_3}{\underset{\text{CH}_3}{\text{CH}}}-$  полипропилен

Bu tolalar gilam to‘qishda va texnik vazifalar uchun qo‘llaniladi. PO tolalaridan yelkanli kemalar va mahsus kiyim-kechaklar uchun matolar to‘qish

mumkin. Bu kiyimlar kislota va ishqor ta'siriga chidamli bo'lib, ulardagi dog'ni osonlik bilan ketkazish mumkin.

Poliolefen tolalar: o'zlarining issiqlikka bo'lgan chidamsizliklari tufayli keng ko'lamda ishlab chiqarilmaydi. Tolalar gidrofob, suvli muhitlarda bo'kmaydi, gidroskopligi 0 ga yaqin, qiyin bo'yaladi, kislota, ishqorning turli konsentratsiyali eritmalariga turli haroratlarda bir qator chidamli. Oksidlovchilar ta'siriga chidamli.

*Poliuretan tolalari.* Germaniyada birinchi bor poliuretan tolasi namoyondasi Perlon V shakllantirilgan. Bu tolaning cho'zilish xossasi qoniqarsiz bo'lganligi sababli uni ishlab chiqarish cheklangan. Perlon V dan asosan shetkalarning tolasi uchungina foydalanilgan. Oxirigi yillarda poliuretandan yangi tipdag'i tolalar - elastomerlarni olish kashf etildi. Makromolekulasida qutblangan guruhlar bo'lmanan va ohrilda OH-guruhlari bo'lgan, molekulyar massasi 2000 - 3000 ga teng qayishqoq bloklarni borligi hisobiga bu tolalar yuqori darajada elastik xususiyatga ega. Poliuretan tolalari tarkibida uretan guruh tutgan bo'ladi:



Spandeks tipidagi poliuretan tolalari rezina kabi elastik, lekin rezinadan o'zining mustahkamligi, elatikligi bo'yicha ustun turadi. Bu tolalardan sport kiyimlari, korsaj mahsulotlari tayyorlanadi. Tolaning shishalanish harorati  $-40^{\circ}\text{C}$ ,  $150^{\circ}\text{C}$  gacha termabardosh.

Nazorat savollari:

1. Sintetik tolalarning xossalari qanday?
2. Getereozanjirli tolalar haqida ma'lumot bering.
3. PAN tolalarining kamchiliklari?
4. PA tolalari qanday xossalarga ega?

## 8 -MA’RUZA

### To‘qimachilik yordamchi moddalar

Reja:

1. Pardozlash jarayonida qo‘llanadigan kimyoviy moddalar
2. Anionaktiv SAM lar
3. Kationaktiv SAM lar


*Pardozlash jarayonida qo‘llanadigan kimyoviy moddalar.* Pardozlash jarayonida qo‘llanadigan kimyoviy moddalar 2 ta asosiy guruhga bo‘linadi:


- asosiy moddalar;
- yordamchi moddalar

Yordamchi moddalar faollash katalizator, stabilizator, rang mustahkamlagichlar, ho‘llovchi dispersator vazifalarini bajaradilar. Ularga quyidagi moddalar taalluqli: sirt aktiv moddalar (SAM), kislotalar, ishqorlar, oksidlovchi, qaytaruvchi, erituvchilar, polimer va polimer hosil qiluvchi moddalar, biriktiruvchilar, optik oqartiruvchi va boshqalar.

SAM - suvda eriganda uning sirt tarangligi kamayadi. Ular uzun uglevodorod zanjiridan (10-20 ta uglerod atomli) va gidrofil guruhdan tashkil topgan. Shu gidrofil guruhlar suv molekulasi bilan vodorod bog‘ orqali birikish qobiliyatiga ega. Guruhlarni suvda dissotsillanishi bo‘yicha quydagilarga ajratiladi:

Анионлн 

Катионлн 


Нононоген 

SAM ning gidrofob qismi (radikali) yog‘ qatoridagi yoki yog‘-aromatik radikallari bo‘lishi mumkin. Gidrofil qismi: -OH; -SO<sub>3</sub>Na; SO<sub>2</sub>CH<sub>3</sub>; -COOH; -CH<sub>2</sub>-CH<sub>2</sub>-CH<sub>2</sub>-OH, -NH<sub>2</sub> guruhlarni tutgan bo‘ladi. SAM eritmarda kolloid zarracha molekula va ion ko‘rinishda bo‘ladi.

SAM quyidagi xossalarni namoyon etadi: ho‘llovchi, dispergator, emulgator, yuvuvchi, rang tekislovchi, ko‘pik hosil qiluvchi, yumshatuvchi, antistatik va boshqalar. Ularning bunday xossalarga ega bo‘lishlariga sabab, sirt tarangligini kamayishi va suvda erimaydigan moddalarga gidrofob qismini sorbsiyasidir.

**Anionaktiv SAM lar.** Kimyoviy strukturasi bo‘yicha sovun, alkilsulfat va sulfanatlarga bo‘linadi.


*Sovun* yuqori yog‘ kislotalarning natriyli, kalsiyli yoki ammoniy tuzlari. Umumiy formulasi R-COONa. Pardozlash korxonasida xo‘jalik sovunidan: (natriy stearat va palmitat natriy aralashmasi) C<sub>17</sub>H<sub>35</sub>COONa va C<sub>15</sub>H<sub>33</sub>COONa, olein sovunidan (natriy oleat) C<sub>17</sub>H<sub>33</sub>COONa yoki (ammoniy oleat) C<sub>17</sub>H<sub>33</sub>COONH<sub>4</sub> dan foydalilaniladi. Sovun yaxshi yuvuvchi va emulgirlovchidir, iflosliklarni eritmada ushlab qolish xossasiga ega. Tolalar 0,05-1% sovunni o‘ziga yutadi. Kamchiligi: qattiq suvga ta’sirchan; qattiq suvda erimaydigan Ca va Mg sovunlar hosil qiladi. Bu sovunning ko‘p sarf bo‘lishiga va dog‘ hosil bo‘lishiga olib keladi. Ularning suvda gidrolizlanishi natijasida ishqoriy muxit hosil bo‘ladi:



Kislotali muhitga chidamsiz.

**Alkilsulfatlar** - sulfoefir tuzlari -ROSO<sub>3</sub>Na. Ular birlamchi va ikkilamchi bo‘lishi mumkin. Birlamchilarini yuqori yog‘ spirtlarni sulfatlash orqali olinadi:



NaOH



Ikkilamchilar qo‘shbog‘li birikmalarni sulfatlash orqali olinadi.

Bular yaxshi erituvchi va yuvuvchidir qattiq suvga chidamli. Kislotalarning issiq eritmalarida gidrolizlanadi. Alkilsulfatlarga misollar keltiramiz:

Sulfiro-8- matoga nisbatan 0,5-2,5% sarf bo‘ladi, quyuq suyuqlik, faol moddasi-33%. Yuqori ishqoriy muhitga chidamli, ho‘llovchi sifatida bo‘yash va gul bosishda ishlatilinadi.



Kastor yog‘ini sulfatlash va gidrolizi orqali hosil qilinadi (kastor yog‘i bu ritsin kislotani sulfoefirdir). Quyuq jigarrangli suyuqlik. Ho‘lllovchi, emulgator, yumshatuvchi sifatida qo‘llanadi.


TMS preparati (novost)- yuqori yog‘ spirt sulfoefirlarining Na li tuzlari aralashmasi.



Kukun (38 % faol modda) va pasta (20 % gacha faol modda) ko‘rinishida ishlab chiqariladi. Dispergator, ho‘lllovchi va yuvuvchi sifatida ishlatiladi.

Quyuq qovushqoq suyuqlik (60 % faol modda), emulgator, va tolalarni yog‘lash maqsadida ishlatiladi.

«Progres» preparati - tarkibida alkilsulfatlar bo‘lgan quyuq suyuqlik. Emulgator va tekislovchi vazifasini bajaradi (26% faol modda).




Birlamchi alkilsulfatlarga nemis SAM lari tegishli: valopol OTS, ditalan WO, xilomin OG, marvelan. Bularemulgator, tekislovchi, yuvuvchi va yumshatuvchi vazifalarini bajaradilar.

*Sulfonattlar* - sulfokislota tuzlari. Umumiy formulasasi:




Sikloparafin, alkilaril moddalar va uglevodlarni sulfirlash orqali hosil qilinadi. Ular ho'llash, emulgirlash, ko'pik hosil qilish hossalariga ega. Qattiq suvga chidamli. Ishlab chiqarishda sulfonollar, smachivatel HB, dispergator HF, kontakt va metaupondan keng foydalaniladi.


Sulfanollar: Pasta yoki kukun ko'rinishda bo'ladi (40 % faol modda) ho'llovchi, emulgatorlar va yuvuvchi modda sifatida qo'llanadi.



Smachivatel HB: jigarrang-kulrang pasta. Suvning qattqlik tuzlariga sezgir (7 mgekv/l dan ko'p bo'lganda) ho'llovchi, dispektor vazifasini bajaradi.




Distergatorlar NF - distegatorlar, rang tekislovchi




Kontakt:  $\text{C}_n\text{H}_{2n-1}\text{SO}_3\text{H}$ - ho'llovchi, emulgator

Metounon: Emulgator, dispergator, yuvuvchi, ho'llovchi.




**Kationaktiv SAM lar.** To‘rtlamchi ammoniy asos tuzlari:  $[\text{R}_4\text{N}]^+\text{Ac}^-$  rang tekislovchi, yumshatuvchi, antistatik. Ulardan ba’zilari matolarga suv itarish xossasini beradi.

Viravnivatel A, A-20 - to‘q rangli suyuqlik kislotali va kation bo‘yovchi moddalar rangini mustahkamlashda ishlatiladi.



Alkamon D, OS-2, N - Pasta ko‘rinishda ishlab chiqariladi, antistatik, yumshatuvchi suv itarish xossasini berishda 101, 246, 246N preparatlari ishlatiladi.



**Noionogen SAM lar**oksietilenni yuqori spirtlar, alkilfenollar, yuqori karbon kislotalari va shu kislota amidlari bilan reaksiyasi (kondensatsiya) mahsulotidir, ho‘llovchi, dispergirlovchi, emulgirlovchi, yuvuvchi sifatida ishlatiladi. Suv qattiqligiga bardoshli. Tola o‘z massasiga nisbatan 0,1-0,25 % bu turdagি SAM larni o‘ziga sorblaydi.

Preparat OS-20, sintonollar, prevotsel WOF, PFD stearaks 6, 920, sinteks 920, ksilat- biologik yumshoq moddalar:



OP-10, OP-7, OP-4, OP-20, OS-20 - biologik qattiq modda. Biologik qattiq moddalarga yuqori spirt hosilalari, yuqori kislota hosilalari, alkilfenol hosilalari

tegishlidir. To‘qimachilik korxonasida OP-7 va OP-10 preparatlarida keng foydalilaniladi. Ular suvda eruvchan, emulgirlash, yuvish, rang tekislash, ho‘llash va antistatik xossalarga ega.

**Noorganik moddalar.** (Kislota, ishqor, oksidlovchi va qaytaruvchi). Pardozlash korxonalarida quydagilar qo‘llaniladi:

*Kislotalar* -  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HCl}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{HCOOH}$  va boshqalar.

*Ishqorlar va ishqoriy tuzlar* -  $\text{NaOH}$ ,  $\text{NH}_4\text{OH}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_3$ ,  $\text{NaHSO}_3$ ,

*K<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>Tuzlar* -  $\text{NaCl}$ ,  $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Fe}^{2+}$  tuzlari.

Bo‘yovchi moddani mustahkamlovchilar, yorug‘likka mustahkamlikni oshiruvchi va katalizatorlar.

*Oksidlovchilar:*  $\text{H}_2\text{O}_2$ ,  $\text{NaClO}_2$ ,  $\text{NaClO}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{NaBO}_3 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$ , perborat natriy-oqartiruvchi,  $\text{NaNO}_2$ -kubozollarni oksidlovchi, azo- bo‘yovchi moddalarni mustaxkamlovchi;  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  - oksidlovchi;  $\text{NaClO}_3$ ,  $\text{KClO}_3$  -oksidlovchi, zaxirali gul bosishda ishlatiladi.

*Qaytaruvchilar:*  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_4$  (gidrosulfit, distionit), rongolit  $\text{NaHSO}_2 \cdot \text{CH}_2\text{O} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  (formaldegidsulfoksilat),  $(\text{NH}_2)_2\text{SCO}_2$  - tiomochivina ikki oksid kub bo‘yovchi moddalar bilan qo‘llanadi;  $\text{Na}_2\text{S}$  - oltingugurtli bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yashda qo‘llaniladi;  $\text{NaHSO}_4$  va  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  - natriy tiosulfat bo‘yash va gul bosishga tayyorlash jarayonida qo‘llanadi.

**Organik moddalar:** Pardozlash jarayonilarida SAM bilan bir qatorda organik moddalar ham katta ahamiyatga ega. Ulardan intensifikator, katalizator sifatida, pardozlash jarayonlarida erituvchi, quyuqlashtiruvchi, appretlovchi moddalar vazifasini bajarishda foydalilaniladi.

**Organik erituvchilar:** spirtlar (metil, etil, gletsirin), uglevodorod aralashmalari (skepidar, atseton, murakkab efirlar butil atsetat);

**Mineral yog‘lar** - vazelin, tronsformator yog‘i, yuqori yog‘ kislotalar (olen yog‘i).

**Quyimolekulyar organik moddalar:** etilenglikol, mochevina, tiomochevina, salitsil kislota, benzoy kislotata, antraxinon, etilendiamintetrauksus kislota -

komplekson, trilon-B; ludigol; metanitro-benzolsulfonat natriy, leykotrop-V disulfokislotaning Sa li tuzi.

*Kompozitsiyalar:*

*Talka* " *preparati*- natriy alkilsulfat + kalgon + Na<sub>2</sub>SiO<sub>3</sub> + KMS + Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> + bevosita oq O - qaynatish jarayonida qo'llanadi, (Rossiya) massaga nisbatan 0,5-1,5 % miqdorda qo'llaniladi.

*Leonil EV* - (Germaniya) tarkibida 20% organik perekis moddalar va 80% ho'lllovchi bo'ladi. Oxorsizlantirish va qaynatish jarayonlarida qo'llanadi, massaga nisbatan 0,1-0,5 %

*Lufibrol O, lufibrol T* (Germaniya) tarkibi: organik perekis birikmalardan kompleks hosil qiluvchi + kompleks hosil qiluvchi + SAM. Oxorsizlantirish va qaynatishda ishlatiladi. Sarfi massaga nisbatan 1-5 %

*Lufibrol KV* tarkibi: qaytaruvchi + kompleks hosil qiluvchi + SAM. Oxorsizlantirish va qaynatish sharoitlarini birgalikda olib borishda qo'llanadi. Sarfi 5-7 %.

*Polimerlar* - bular suvda quyuq qovushqoq kolloid eritmalar hosil qiladi, gul bosishda quyuqlashtiruvchi sifatida qo'llanadi:

*Kraxmal* - (C<sub>6</sub>H<sub>10</sub>O<sub>5</sub>)<sub>n</sub>;

*Dekstrin* - (C<sub>6</sub>H<sub>10</sub>O<sub>5</sub>)<sub>n</sub>;

*Tragant* - basarin + arabin kislota;

*Na alginat* - (C<sub>6</sub>H<sub>7</sub>O<sub>2</sub>(OH)<sub>2</sub>OCH<sub>2</sub>COONa)<sub>n</sub>;

*KMS, PV, MS, PAA, KMK*.

*Polimerlar* - suvda erimaydigan. Suvli dispersiya (lateks) yoki emulsiya ko'rinishda kam yuviladigan pardoz berishda qo'llanadi, bunday pardozda matoning mustahkamligi, ishqalanishga bo'lgan chidamliyligi, qattiqligi ortadi.



*Polimer hosil qiluvchi birikmalar* - termoreaktivsmolalarni predkondensatlari yakuniy pardoz berishda qo'llaniladi. (kamkirishuvchanlik, eskirishga chidamlilik, qattiqlik).

*Glikozin* - penta va geksametilolmelaminning etilenglikol efirlari aralashmasi, rangsiz yoki ozgina ranglangan suyuqlik.

Metazin - metilol melaminni metil efirlari.


*Kremniyorganik birikmalar* (silikonlar). Asosiy zanjirida kremniy va azot atomlarini tutgan bo‘ladi. Gidrofob xossa berish uchun qo‘llaniladi, bular bilan ishlov berilgan mahsulotlarning ishqalanishga bo‘lgan chidamliligi ortadi. Suvda eruvchan silikonlar-rang tekislovchi, elektrolit, ishqorsizlantirish vazifalarini bajaradi.

Suvda eruvchan silikonlar.




Suvda erimaydigan silikonlar:

GKJ-94 - (gidrofobiziruyushaya kremneyorganicheskaya jidkost)




PMS-200-A – (polimetilsilosan) 50% li emulsiya, ipni ketib qolishdan saqlovchi pardoz berishda qo‘llaniladi.



*Rang tekislagichlar, mustahkamlovchilar* - kationli preparatlar:

*DSU-* ditsianidamidni formaldegidli kondensatsiyasi mahsulotini uksusnokisliy tuzi.



*Rang chiqaruvchilar* – diazotirlanadigan bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yashda azotashkil etuvchi sifatida qo‘llaniladi.  $\beta$ -naftol,  $\beta$ -oksinaftol kislota, fenilendiamin.

*Optik oqartiruvchilar* - rangsiz flyuoressirlanadigan modda, tolaga nisbatan moyillikka ega. Ular UB nurlarni yutib, ularni ko‘rinadigan - siyohrang, ko‘k, havoranglarini hosil qiladi. Bu ranglar matoni sariqligini yo‘qotadi. *Belaforlar, blankoforlar, rilyukslar, gelioflar, xostalyukslar, ultraforlar.*

Nazorat savollari:

1. Pardozlash jarayonida qo‘llanadigan kimyoviy moddalar
2. Sirt aktiv moddalar va ularning vazifalari
3. Anoionaktiv SAM lar, ularningg turlari va vazifasi
4. Kationaktiv SAM lar, ularning turlari va vazifasi
5. Noionogen SAM lar, ularning turlari va vazifasi

## **9 -MA’RUZA**

### **PAXTA TOLALI MATERIALLARNI BO‘YASH VA GUL BOSISHGA TAYYORLASH**

Reja:

1. Mato assortimentlari.
2. Paxta tolali materiallarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash
3. Tuk kuydirish jarayonining vazifasi va maqsadi.
4. Oxorsizlantirish jarayonining vazifasi va maqsadi.

*To‘qimachilik materiallari assortimetlari.* To‘qimachilik materiallari ip, bobina, trikotaj va gazlama ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Trikotaj va gazlama umumiy qilib mato deb ham ataladi. Mato assortimentlari juda turli-tumandir qo‘llanilayotgan mato turiga ko‘ra matolar 2 guruhga bo‘linadi:

1. Bir xil toladan to‘qilgan mato.
2. Bir necha turdag'i tolalardan to‘qilgan mato.

To‘qish usuli matoni xossasi va tashqi ko‘rinishini belgilaydi. Savdo-sotiq nuqtai nazaridan ip gazlamalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Bo‘z matolar guruhi (oq ko‘rinishda, bo‘yalgan, gul bosilgan).
2. Chit matolar (bo‘yalgan va gul bosilgan).
3. Oq mato guruhi (choyshabli, meditsina xalati, ich kiyim).
4. Satin guruhi (merserlangan, bo‘yalgan, gul bosilgan).
5. Ko‘ylakli matolar (yozgi, qishki, mavsumbop).
6. Kiyim-kechak guruhi (bo‘yalgan, gul bosilgan, melanj, qishki).
7. Astarli matolar.
8. Tik guruhi (matrasga mo‘ljallangan tik, gul bosilgan).
9. Tukli matolar guruhi (asosan bo‘yalgan holatda).
10. Ro‘molchali matolar (ro‘mol va ro‘molcha).
11. Sochiqliklar guruhi (vafeliyli, tukli, dasturxonli).
12. Xom mato guruhi.

- 13.Jihoz dekorativ maqsadlar uchun (bo‘yalgan, gul bosilgan).
- 14.Odeyalali matolar.
- 15.Qadoqlash maqsadida ishlatiladigan matolar.
- 16.Doka va dokali mahsulotlar.
- 17.Texnik matolar guruhi.

Quyida bir qator ip gazlama assortimentlariga tavsiflar keltirilgan.

**Chit** – yuza zichligi  $90\text{--}103 \text{ g/m}^2$  bo‘lgan mato, asosan sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan ko‘rinishda ishlab chiqariladi.

**Bo‘z** - yuza zichligi  $124\text{--}145 \text{ g/m}^2$  bo‘lgan mato, chitdan farqi uning qattiqligi va og‘irligida. Sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan ko‘rinishda ishlab chiqariladi.

**Satin** – silliq va yaltiroq yuzaga ega,  $1 \text{ m}^2$  dagi og‘irligi  $113\text{--}150 \text{ g/m}^2$  ga teng bo‘lgan mato. Satin matosi oqartirilgan, sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan ko‘rinishda ishlab chiqariladi. Satin matosi merserlangan holatda ham tayyorlanadi, undan tashqari satinka kumush-ipak pardozi ham berilib, uning tashqi ko‘rinishi ko‘rkamlashtiriladi.

**Lastik** – atlas to‘qimadagi mato, yuzasida to‘qima usulidan foydalangan holda turli rasmlar hosil qilingan bo‘lishi mumkin. Lastik matosi oqartirilgan, sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan ko‘rinishda ishlab chiqariladi.

**Batist, Markizet, Vual, Kiseya, Mayya** kabi assortimenlar yupqa, yuzaviy zichligi  $55\text{--}70 \text{ g/m}^2$  bo‘lgan, harir yozgi mato guruhlarini tashkil etadi. Ular oqartirilgan, sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan ko‘rinishda ishlab chiqariladi. Bu assortimentlar talab bo‘yicha yuzasi kumush-ipak pardozli, ozgina muar effekti berilgan, qayishqoq xususiyatli bo‘ladi. Matoning qalinligi tahminan  $0,15\text{--}0,20 \text{ mm}$  ga teng.

**Flanel** – bir yoki ikki tarafi tukli paxmoq mato. Issiqlik ushlab turish, yuqori gigroskopik xususiyatga ega. Mato sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan ko‘rinishda ishlab chiqariladi.

**Bumazeya** – bir tarafi tukli, gul bosilgan mato. Gul matoning tukli yoki silliq tarafiga tushirilishi mumkin. Bumazeya yuzasiga tuklar hisobidan gullar hosil

qilingan sidirg‘a bo‘yalgan holda tayyorlanadi. Uning tukli tarafini viskoza ipidan hosil qilish orqali yaltiroq tusi, tovlanuvchan ipaksimon mato hosil qilinadi.

**Zig‘ir tolali matolar.** Zig‘ir mato assortimentlari ko‘p turda ishlab chiqarilmaydi. Ulardan asosan yarim zig‘ir tolali matolar tayyorlashda paxta va poliefir tolalaridan foydalilanadi. Zig‘ir tolali matolar deyarli cho‘zilmaydi, chirishga bardoshli, gigienik xossalari yaxshi. Kamchiligi ularning kirishishi va g‘ijimlanishida.

**Polotno** – zig‘ir tolassi asosida va boshqa tolalar bilan aralashgan holda oqartirilgan, yarim oqartirilgan hollarda ishlab chiqariladi. Matoning qalinligiga mos ravishda ular ko‘ylak, choyshab, sochiq va kostyum tikishda qo‘llaniladi.

**Bortovka** (yoqa va monjetlarning ichiga qo‘yish uchun ishlatiladi) – faqat zig‘ir tolasidan yoki boshqa tolalar bilan aralashmasidan bir tarafiga yelim surtilgan holda ishlab chiqariladi.

Zig‘ir tolasini paxta tolassi bilan aralashmasidan keng assortimentdag‘i matolar guruhi tayyorlanadi, ular oqartirilgan, yarim oqartirilgan, bo‘yalgan va gul bosilgan hollarda tayyorlanadi. Odatda yuzaviy zichligi  $130\text{--}155 \text{ g/m}^2$  bo‘lgan matolar to‘qiladi. Zig‘ir tolasini poliefir tolassi bilan aralashmasidan yuzaviy zichligi  $150\text{--}280 \text{ g/m}^2$  bo‘lgan kostyumbop va ko‘ylakli matolar to‘qiladi. Ular sidirg‘a bo‘yalgan va gul bosilgan holda ishlab chiqariladi.

Tabiiy ipak asosidagi mato assortimentlari. Ipak matolarning 4%-ini tabiiy ipak assortimentlari tashkil etadi. Qolgan assortimentlar sun’iy va sintetik ipakdan tayyorlanadi. Tabiiy ipakdan tayyorlangan mato yuqori gigienik xususiyatga, chiroyli ko‘rinishga ega, ammo namlikda mustahkamligini yo‘qotadi, shuningdek ishqalanishga chidamsiz. Ipak mto tayyorlash sermashaqqat hisoblanadi.

**Krep – shifon** – yengil ( $25\text{--}48 \text{ g/m}^2$ ), yupqa ( $0,11\text{--}0,20 \text{ mm}$ ) harir mato.

**Krep – jorjet** – yarim harir yengil ( $42\text{--}67 \text{ g/m}^2$ ), yupqa ( $0,14\text{--}0,28 \text{ mm}$ ) yuzasiga xiralik effekti berilgan mato, krep-shifonga nisbatan o‘lchamlari barqaror, qattiq grifga ega.

**Krepdeshin** – yuzasi mayda donachador qilib to‘qilgan, yumshoq grifli, elastik yarimkrep mato.

**Krep – satin** – qalin, og‘ir ( $89\text{--}97 \text{ g/m}^2$ ), yuzasi yaltiroq, mayda donachador, har ikki tarafidan yuzasi sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan mato.

**Polotno** – paxta sifat ipdan tayyorlangan, yuzasi yaltiroq effektli, yumshoq, yuzaviy og‘irligi  $60 \text{ do } 100 \text{ g/m}^2$ , qalinligi  $0,20\text{--}0,30 \text{ mm}$  bo‘lgan mato.

**Baxmal** – poliefir bilan ipakning aralashmasian tayyorlangan tukli mato. Tukli tarafini poliefirdan tayyorlanishi matoning tukli qismini g‘ijimlanishdan saqlaydi va ishqalanishga bo‘lgan mustahkamligi oshiradi.

**Trikotaj matolari assortimentlari.** Trikotaj matolari assortimenti to‘qilishi, tuzilishi, ishlov berish turi, tolali tarkibi, ishlatilish sohasi va fizik-mexanik xossalari bo‘yicha turli-tumandir. Trikotaj matolari massasi bo‘yicha juda katta oraliqda, ya’ni  $1 \text{ m}^2$  da  $30\text{--}840 \text{ g}$  gacha bo‘lgan og‘irlikda ishlab chiqariladi.

Trikotaj tuzilishi bo‘yicha arqoq bo‘yicha va asos bo‘yicha, sidirg‘a va gulli to‘qilgan turlarga bo‘linadi. Ishlov berish turi bo‘yicha xom, oqartirilgan, sidirg‘a bo‘yalgan, gul bosilgan, taralgan (tukli matolar) holda ishlab chiqariladi. Ishlatilish sohasi bo‘yicha maishiy va texnik trikotaj turlariga bo‘linadi. Maishiy trikotaj quyidagi mahsulotlar uchun tayyorlanadi:

1. Ichkiyimlar;
2. Ustkikiyimlar;
3. Noski-paypoqmahsulotlari;
4. Qo‘lqopmahsulotlari;
5. Ro‘mol-sharf va bosh kiyimlar.

Yuqorida ko‘rsatilgan har bir sinf alohida guruhlarga guruhlar esa kichik guruhchalarga bo‘linadi. Trikotaj matosini to‘qishda ishlatiladigan ip turi, yigirilganligi, ishlatilayotgan jihoz turi bo‘yicha ham alohida belgilanadi. Birorta sinflanish trikotaj mahsulotlarni barcha ko‘rsatkichlarini to‘liq qamray olmaydi, shuning uchun mahsulotlar artikullar bilan belgilanib, har bir artikulda tegishli trikotaj mahsulot tayyorlangan ip turi, nomeri, ishlatilgan jihoz sinfi o‘z aksini topadi.

To‘qimachilik materiallarining texnologik xossalari quyidagilar bilan baholanadi:

- kirishishi;
- sitilishi (bichish jarayonida matoning asos yoki arqoq iplarining to‘qimadan ajralib chiqib ketishi);
- cho‘zilishi;
- tikuv ninasi ta’sirida teshilishi (prorubka).

To‘qimachilik materiallarining gigienik xossalariga quyidagilar tegishli:

- gigroskopikligi (namlikni yutishi);
- havo o‘tkazuvchanligi;
- issiqlikni ushlab turuvchanligi;
- elektrlanishi.

To‘qimachilik materiallarining fizik-mexanik xossalari:

- pishiqligi (ma’lum yuk ta’sirida o‘z musathkamligini saqlab qolishi);
- g‘ijimlanuvchanligi;
- drapirlanishi (skladkalarni ushlab turuvchanligi).

To‘qimachilik materiallarining ekspluatatsion xossalari:

- shakl saqlash qobiliyati;
- pillinglanishi (mato yuzasida mayda tugunchalarni paydo bo‘lishi);
- elastikligi.

To‘qimachilik materiallarining geometrik xossalari:

- yuzaviy (chiziqli) og‘irligi;
- eni;
- uzunligi;
- qalinligi.

To‘qimachilik materiallarining solishtirma tavsifi quyidagi 13-jadvalda keltirilgan.

### To‘qimachilik materiallarining solishtirma tavsifi


| To‘qimachilik materiallarining solishtirma tavsifi<br>(kamayib borish tartibi bo‘yicha) |            |                 |             |                 |
|---|------------|-----------------|-------------|-----------------|
| Mustahkamligi   | Kirishishi | Gigroskopikligi | Elastikligi | Yuviluvchanligi |
| Neylon  | Jun        | Paxta           | Elastan     | Elastan         |
| Poliester   |            | Zig‘ir          | Neylon      | Poliester       |
| Zig‘ir  | Paxta      | Ipak Viskoza    |             | Neylon          |
| Ipak  | Zig‘ir     |                 | Jun         | Akril           |
| Paxta   | Ipak       | Jun             | Zig‘ir      | Ipak            |
| Akril   | Atsetat    | Atsetat         | Poliester   | Atsetat         |
| Viskoza   |            | Neylon          | Akril       | Zig‘ir          |
| Atsetat   |            | Akril           | Viskoza     | Paxta           |
| Jun   |            | Poliester       | Paxta       | Viskoza         |
| Elastan   |            | Elastan         |             | Jun             |

To‘qimachilik materiallari ishlatalish sohasi, qanday mahsulot olish ko`zda tutilgan bo`lsa shunga qarab quyidagi ketma-ketliklardagi pardozlash jarayonlaridan o‘tkaziladi:


*Pardozlashga tayyorlash*




*Bo`yash*



*Gul bosish*



*Yakuniy pardoz*



To‘qimachilik materiallarini pardozlash jarayonlari va olinadigan natijalari bu materiallarning qator xossalariiga bog‘liq ravishda tanlanadi, texnologik ketma-ketlik tuzilib, tegishli eritma tarkibi ishlab chiqildai. Pardozlash jarayonlaridan o‘tgan materiallar tayyor hisoblanib, ular tikuvchilik korxonalariga jo‘natiladi yoki mato, bobina ip, trikotaj polotno sifatida savdoga chiqarilishi mumkin. To‘qimachilik materiallarining iste’molchilik xususiyatlari va xossalari pardozlash jarayonlarini belgilaydi.

Matolarda plastik xususiyat ularni issiq-nam ishlov berish natijasida cho‘zilishi, kirishishi, ma’lum shaklga ega bo‘lishi va keyin uni saqlanib qolishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mato yuzasidan turli bo‘rtgan shakllarni hosil qilishda matoning plastiklik xossasi katta ahamiyatga ega.

Qayishqoqlik xususiyati matodan turli dinamik shakldagi mahsulotlarni tikishda ahamiyatga ega. Matoning qayishqoqlik xususiyati uni tayyorlashda qo‘llanilgan tolalarning qayishqoqlik xossalariiga bog‘liq bo‘ladi. Tabiiy tolalarga sintetik tolalar qo‘shish orqali matoda turli shakllarni hosil qilish mumkin.

Matoning drapirlanish xususiyatiga ega bo‘lishi ulardan simmetrik joylashgan buklanmalarni hosil qilish imkonini beradi. Yumshoq matolar yaxshi drapirlanadi. Matoning darapirlanish xususiyati ham qayishqoqlik kabi mato tayyorlangan ipning xossalariiga bog‘liq. Ko‘pincha yaxshi drapirlanmaydigan tolalarga (masalan zig‘ir tolasiga) sintetik tola qo‘shish orqali ularning drapirlanishi yaxshilanadi.

Matoning qattiqligi undan turli bichimda kiyim tikish imkonini cheklaydi. Bunday matolardan faqat to‘g‘ri chizig‘li, jiddiy mahsulotlarni (djinsi shimlar) tayyorlash mumkin. Matoning qattiqligi nafaqt uni tayyorlashda qo‘llanilgan ipga, balki to‘qish usuliga ham bog‘liqdir.

Faktura – matoning yuzasini ifodalaydi. Fakturaga mos ravishda mato silliq, g‘adir-budur, relefli, tukli, tig‘izlangan, donachador turlarda bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar matoga to‘qish jarayonlarida beriladi. Ayrim hollarda fason iplardan mato tayyorlanganda yigirish jarayonida ham tegishli jarayonlar amalga oshiriladi.

Rang – insonlar uchun psixologik-emotsional ta’sir etadi. Qizil, qovoq sariq, sariq ranglar issiq ranglar hisoblanib, ular faoldirlar, ya’ni bu rangdagi kiyimlar go‘yoki jonlanadi, diqqatni o‘ziga tortadi, emotсional ta’sirlarni kuchaytiradi. Ko‘k, havo rang, yashil ranglar sovuq rang bo‘lib, ular insonni tinchlantiradi, qomatdagi nuqsonlarni berkitadi, odamni xushbichim ko‘rsatadi. Ranglar yorqin, to‘yingan, toza shiddati (intensivligi) bo‘yicha qiymatga ega. Ranglar va ularning tuslari juda ko‘p bo‘lib, to‘qimachilik sanoatida foydalanish uchun ular raqamlanadi. Shuning uchun ham korxonalarda ranglar atlas, ranglar kartasi kabi Pantone sistemalardan foydalaniladi.

Mato to‘qish yoki uni kimyoviy pardozlash - gul bosishda jarayoni yuzasida gullar hosil qilinadi. Gullar geometrik, o‘simlik, jonivorlar, peyzaj, biror bir predmet va boshqa mazmun va ko‘rinishlarda, bir rangli va ko‘p rangli bo‘lishi mumkin.

To‘qimachilik materiallari turli xossalarga ega bo‘lib, ular ishlab chiqarilayotgan mato va undan tayyorlanadigan mahsulotlarni qo‘llanish sohasi bo‘yicha boshqariladi.

Mato o‘lchamlarini mustahkamligi uning kirishishi va g‘ijimlanishi orqali ifodalanadi. Turli ta’sir natijasida material va undan tayyorlangan mahsulotni o‘z o‘lchamlarini saqlab turishi ularning estetik xossalariга ta’sir etadi. Matoni saqlash, jo‘natish va ekspluatatsiya jarayonlarida o‘lchamini o‘zgarishi uni kirishganini belgilaydi. Ayniqsa ho‘l ishlovlар chog‘ida matoning kirishishi vujudga keladi. Gidrofil tolalar gidrofob tolalarga nisbatan ko‘proq kirishadi. Mato bo‘yi eni bo‘yicha kirishishi mumkin. Matoni kirishishini mexanik (aralash tolali mato ishlab chiqarishda) va kimyoviy (matoga pardozlash korxonalarida maxsus yakuniy pardoz berish orqali) yo‘llar bilan kamaytirish mumkin.

G‘ijimlanishlik –bu matoni qaytmas deformatsiyaga uchrashidir, bunda mato yuzasida uning egilgan, bukilgan va bosim tushgan joylarida turli g‘ijimliklar va buklanishlar hosil bo‘ladi. Masalan lavsan, nitron va jun kabi matolar deyarli g‘ijim bo‘lmaydi, sellyuloza va gidratsellyuloza tolasili mato qattiq g‘ijimlanadi. Matoni g‘ijimlanishi ochilish burchagi orqali ifodalanib, % larda o‘lchanadi.

Ochilish burchagi bo'yicha barcha matolar uch guruhga ajratiladi: o'rtacha g'ijimlanadigan -30-45%; kam g'ijimlanadigan – 46-55% va g'ijimlanmaydigan - 55 % dan yuqori. Matoning g'ijimlanishini mexanik (aralash tolali mato ishlab chiqarishda) va kimyoviy (matoga pardozlash korxonalarida maxsus yakuniy pardoz berish orqali) yo'llar bilan kamaytirish mumkin.

Mato yuzasining fizik kimyoviy ta'sirlarda turg'unligi. Tukli matolarda tukning to'kilmasligi, g'ijimlanmasligi, silliq matolarda pillingni hosil bo'lmasligi, mato yuzasini yaltirab qolmasligi ahamiyatli hisoblanadi. Matoning eskirishi (iznosostoykost). Turli kompleks ta'sirlarda (fizik-kimyoviy, biologik, mexanik va atmosfera) vaqt davomida matoning o'z xususiyatlarini saqlab qolishi.

Mato ishlatilish sohasi bo'yicha turli xossalarga ega bo'lishi mumkin. Ular qiymatga ega bo'lib, tasdiqlangan turli uslublar yordamida nazorat qilinadi. Matoning og'irligi, uning yuzaviy zichligi bilan belgilanadi va  $\text{g/m}^2$  da ifodalanadi. Eng yengil mato bu ipak matolari bo'lib, ularning og'irligi  $40-60 \text{ g/m}^2$  ga teng. Jun palto matolarining yuza zichligi  $600-800 \text{ g/m}^2$  bo'lib, ular eng og'ir mato hisoblanadi.

Matoning uzilishga bo'lgan mustahkamligi uzilish kuchi bilan baholanadi va u N yoki kgs da ifodalanadi. Sintetik tolalai matolar, krep buramali, qalin va zich iplardan to'qilmagan matolarning uzilishga bo'lgan mustahkamligi yuqori bo'ladi.

Matoning cho'zilishi, uning uzilishdagi cho'zilishi hisoblanadi, mato namunasining uzilish vaqtida uning boshlang'ich uzinligiga nisbatan uzayganligi % da ifodalanadi. Mato arqoq tarafiga nisbatan asos tomoniga kam cho'ziladi. Matoning cho'zilishi uning shakl saqlashini belgilaydi.

Ranglarni fizik-kimyoviy ta'sirlarga bardoshligi. Bu ko'rsatkich bo'yalgan va gul bosilgan mato yuzasidagi rangni yorug'lik, dazmollah, sovunli ishlov, ho'l va quruq ishqalanish, kimyoviy tozalash, ter ta'siriga bo'lgan mustahkamligini bildiradi va u ball bilan ifodklknadi.

Yuqorida keltirilgan mato xossalardan tashqari yana mato iplarini siljishi (N) va matoni sitilishi (mm) kabi xossalalar xam borki, ular matodan mahsulot tikish uchun uni bichishda tikishda, ekspluatatsiya jarayonlarida o'ta muhim hisoblanadi.

Mato gigroskopikligi uning suv bug‘ini sorplash qobiliyati bilan baholanadi va % larda ifodalanadi. Bunda o‘lchov olib borilayotgan muhit (havo) namligi muhim ahamiyatga ega. Suv yutish qobiliyati matoni suvga bo‘ktirilganda uni suv yutishini bildiradi (%). Bu ko‘rsatkichlar ayniqsa ichki kiyimlar, choyshabli matolar va bolalar ichki va ustki kiyimlari uchun o‘ta muhim ahamiyatga ega. Havo o‘tkazuvchanlik matoni o‘zidan havoni o‘tkazib yuborishligini xarakterlaydi. Matoning bu xossasi  $1 \text{ m}^2$  matodan 1 s davomida o‘tgan havo miqdori bilan baholanadi va  $\text{dm}^3/\text{m}^2 \cdot \text{s}$  bilan ifodalanadi. Matoning havo o‘tkazuvchanligi uning g‘ovakligiga va qalinligiga bog‘liq. Kuz-bahor mavsumidagi matolar uchun ularni suvga turg‘unlik ko‘rsatkichi baholanadi. Bu ko‘rsatkich suv o‘tkazmaydigan va suv itaruvchi matolar uchun o‘lchanadi. Mato namunasining ikkinchi tarafida suv tomchisi paydo bo‘lishi uchun sarflangan bosim (Pa) bilan o‘lchanadi. Matoning elektrlanishi solishtirma elektr qarshiligi bilan xarakterlanadi (Om). Uning 1010-1011 Om qiymatida tolalarning o‘zaro ajralishiga 1 s dan ko‘p bo‘lmagan vaqt sarflanadi. Sintetik tolalar qattiq elektrlanadi. Issiqbardosh matolar o‘zida issiqlikni ushlab turish qobiliyati bilan baholanadi. Issiqbardoshlik  $1 \text{ m}^2$  matodan 1  $\text{Vt}$  issiqlik oqimi o‘tganida uning haroratni pasayishi ( $\text{v } ^\circ\text{C}/\text{m}^2 \cdot \text{Vt}$ ) bilan o‘lchanadi.

**Paxta tolali materiallarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.** Bobina, mato va trikotaj holatdagi ip mahsulotlarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlashda bir xil fizik-kimyoviy jarayonlar kechadi, lekin ularni amalga oshirish uchun turli usul va har xil jihozlardan foydalilanildi. To‘qimachilik materialini pardozlashga tayyorlash ketma-ketligi va tartib-tarkibi materialning tolaviy tarkibi, yo‘ldosh moddalar tabiatini va tola xossasiga bog‘liq bo‘ladi.

Pardozlash korxonasiga kelib tushadigan xom ashyo holatdagi ip gazlama yoki trikotaj polotnosining yuzasi tukli, sarg‘ish rangli bo‘lib, kam gigroskoplikka ega bo‘ladi. Xom materialda bir qator chiqindi - yo‘ldosh moddalar bo‘lib, ularning tahminiy miqdori quyida keltirilgan (%).


|                      |           |
|----------------------|-----------|
| Mumsimon moddalar    | 0,5-0,6   |
| Pektin moddalar      | 1,2 gacha |
| Azot tutgan moddalar | 1,0-1,2   |

Mineral moddalar 1,1-1,2


Oxorlovchi moddalar 3-8

*Mumsimon moddalar.* Paxtadagi mumsimon moddalar tarkibiga yog‘ qatoridagi bir qator yuqori molekulyar bir atomli spirtlar kiradi. Ozod holatda palmetin  $C_{15}H_{29}COOH$ , stearin  $C_{17}H_{33}COOH$ , olein  $C_{17}H_{33}COOH$  kislotalar, palmitin va stearin kislotalarning ko‘p atomli spirtlar bilan hosil qilgan murakkab efirlari kiradi. Murakkab efirlar ishqoriy sharoitda kislota va spirtlargacha gidrolizlanishi mumkin. Bular bilan bir qatorda qattiq uglevodorodlar ( $C_{30}H_{62}$ ,  $C_{31}H_{64}$ ), hamda ma’lum miqdorda suyuq uglevodorodlar ham mumsimon moddalar tarkibiga kiradi. Shuningdek mumsimon moddalar tarkibiga  $C_nH_{2n+1}OH$  formulaga ega bo‘lgan bir atomli yuqori spirtlar - gossipol (n=30), montanil (n=28), seril (n=26) spirtlar ham bo‘ladi. Mumsimon moddalar tolaning birlamchi devorida yuzasida joylashgan bo‘ladi. Ularning yumshash harorati  $76-80^0$  S. Ishqoriy muhitda 37 % mumsimon moda gidrolizlanishi mumkin, uning qolgan qismi faqat emulgirlash yo‘li bilan toladan chiqarilishi mumkin. Mumsimon moddalarning tola tarkibida bo‘lishi uni shamiluvchanlik xossasini yomonlashtiradi. Tabiiy tolali materiallarni pardozlashga tayyorlashda toladan mumsimon moddalarni chiqarish eng mushkul jarayon hisoblanadi. Lekin ishlov berish jarayonlarida tola tarkibidan ma’lum miqdorda mumsimon moddalarni qoldirish tavsiya qilinadi, chunki mumsimon moddalar tolaning qayishqoq-elastik xossalarni yaxshilaydi, hamda uning fizik-mexanik xossasini oshiradi. Pardozlashga tayyorlash jarayonlaridan to‘liq o‘tgan paxta tolali materiallar tarkibida taxminan 0,15-0,20% miqdorda mumsimon moddalar qoladi, mumsimon moddalarning toladagi miqdorini 0,11% dan kamayishi, matoning yirtilishga bo‘lgan mustahkamligini 30 % ga kamayishiga olib keladi.

*Pektin moddalar* - asosan poligalaktur (pektin) kislotadan tarkib topgan moddalardir. Pektin kislota zvenolari o‘zaro 1-4 uglerod atomlari bo‘yicha  $180^0$  da joylashgan, har bir zvenoda bittadan karboksil guruh bor. Pektin moddalarning molekulyar massasi 20-200000 oralig‘ida.



Poligalaktur kislotadagi karboksil guruhlardagi vodorodning bir qismi metil spirti bilan efir hosil qilgan, yana bir qismi  $\text{Ca}^{2+}$  yoki  $\text{Mg}^{2+}$  ionlariga almashgan.




Pektin moddalar asosan paxta tolasining birlamchi devorida joylashgan. Pektin moddalarini sellyuloza yoki mumsimon moddalar bilan birikkanligi sababli uni toladan chiqarish qiyin jarayon hisoblanadi. Poligalaktur kislotadan tashqari paxtada molekulyar massasi 3000 dan 30000 gacha bo‘lgan qand moddalar ham bo‘ladi.


*Azot tutgan moddalar* - azot tutgan moddalar paxtaning birlamchi devori va tola kanalida protoplazmada bo‘ladi. Ularning kimyoviy tarkibi aniq belgilanmagan. Azot tutgan moddalarining bir qismi  $60^0\text{S}$  haroratdagi suv bilan 1 soat davomida ishlov berilganda to‘liq erib ketadi, boshqa qismi esa uzoq vaqt NaOH eritmasida qaynatilganda eriydi.

*Mineral moddalar* - paxta tarkibida, Mg, Ca, K, Fe va boshqa metallar tuzlari bor. Ularning 95% -ini Ca va K tuzlari tashkil etadi.


*Tabiiy bo‘yovchi moddalar* – paxta tolesi flavonoidlar guruhidagi moddalar hisobiga rangli bo‘ladi. Paxta tolesi odatda oq rangda bo‘lib, ba’zan kulrang-yashil, qo‘ng‘ir va qaymoq rangida bo‘ladi.




Auron



4-Fenilkumarin



Izoflavon



Flavon


Tolalima teriallarni bo'yash va gul bosishga tayyorlash – bu xom material tarkibini yo'ldosh moddalardan tozalash orqali ularga tez va ravon suyuqlikning shimish xossasini berish va mustahkamoqlikka erishishdir. Tabiiy tolalarda asosan tabiiy chiqindilar, kimyoviy tolalarda esa ularni shakllantirish va qayta ishslash jarayonida ishlov berishda ishlatiladigan moddalar bo'ladi. Tarkibida yo'ldosh moddalar bo'lgan xom tolali material suv shimmaydi va ularda ravshan, ravon, mustahkam hamda to'yingan ranglarni hosil qilib bo'lmaydi. Tolali materiallarni yuzasi va g'ovaklarini tozalashda turli kimyoviy moddalardan foydalaniladi. Bu kimyoviy moddalar tolalarning fizik-mexanik xossalariiga ta'sir etmasligi lozim.

To'qimachilik materiallarini bo'yash va gul bosishga *tayyorlashdan maqsad* - tola, bobina va matodan tabiiy chiqindi va sun'iy yordamchi moddalarni chiqarish matoga bir tekis kapillyarlik va oqlik berishdir.

Tayyorlashning asosiy jarayonlari: partiyalarga ajratish, tikish, tuk kesish, tuk kuydirish, tuk to'kish, oxorsizlantirish, qaynatish, oqartirish, en kengaytirish va paxmoqlash. Mato assortimenti, ishlov berish usuli va sharoitiga ko'ra jarayonlarni ketma-ketligi o'zgartirilishi, ba'zilarini birgalikda olib borish yoki ulardan foydalanmaslik mumkin.

Ko'pchilik sintetik tolalarni oqartirish talab qilinmasada, lekin paxta va sintetik tolalar aralashmasili matolar kerakli gigroskoplikka va chiqindilardan tozalanishga erishishlari maqsadida tayyorlash jarayonidan o'tkaziladi. Pardozlash korxonalariga to'quvchilik fabrikalaridan kelib tushayotgan xom mato nazoratdan o'tkaziladi ishlov berish sharoiti va artikuliga mos ravishda partiyalarga ajratiladi.

Matoni partiyalarga ajratish ishlov berish texnologik jarayonini to'g'ri tanlashda, jihozni bir maromda ishlashida va mato sifatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Partiyaga kiradigan matoni alohida bo'laklari tikuv mashinasida tikiladi. Chok mustahkam, to'g'ri va silliq bo'lishi talab etiladi. Partiyalarga ajratilgan matolar xom mato omboridan oqartirish bo'limiga o'tadi. Tolali materiallarini to'qimachilik korxonalaridagi harakati ketma-ketligi quyidagi sxema ko'rinishda keltirilgan:



Keltirilgan sxemadan barcha tolali materiallar har qanady ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar pardozlashga tayyorlash va yakuniy pardozi berish jarayonlaridan albatta o‘tishi ko‘rinib turibdi. Ip gazlamani bo‘yash va gul bosishga tayyorlash ketma-ketligi quyida keltirilgan:

*tuk kesish  $\Rightarrow$  tuk kuydirish  $\Rightarrow$  oxordan tozalash  $\Rightarrow$  qaynatish  $\Rightarrow$  oqartirish  $\Rightarrow$  merserlash.*

Pardozlashga tayyorlash jarayonlarining vazifasi va mohiyati 15-jadvalda keltirilgan.

15-jadval

Pardozlashga tayyorlash jarayonlarining vazifasi va mohiyati

| Jarayonlar       | Jarayon vazifasi  | Jarayon mohiyati        |
|------------------|---|-------------------------|
| Tuk kuydirish    | Matoni yuzasiga chiqib qolgan mayda tolalardan tozalash   | Tolachalarini kuydirish |
| Oxorsizlantirish | Oxorni parchalash va uni toladan chiqarish.<br>Tolali materialni bo‘kishi va dastlabki tozalash | Ekstraksiya<br>Bo‘kish  |
| Qaynatish        | Tolali materialni yo‘ldosh moddalardan tozalash. Tolalarni bo‘kishi                             | Ekstraksiya             |
| Oqartirish       | Tolali materialni tabiiy bo‘yovchi moddalar va qoldiq chanoqlardan tozalash                     | Oksidlash               |
| Merserlash       | Tolaning bir tekis bo‘kishi, ichki yuzasini ortishi   | Bo‘kish                 |


*Tuk kesish* jarayoni asosan gul bosiladigan gazlamalar uchun qo‘llaniladi. Ip gazlama va aralash tolali matolarni yuzidagi, ziyidagi iplardan, tugunchalardan, tuk va boshqa chiqindilardan tozalash tuk kesish jarayonida amalga oshiriladi. Gul bosiladigan matolar gul bosish jihoziga kirishdan oldin yana bir bor tuk kesish jarayonidan o‘tkaziladi.

*Tukkuydirish.* Pardozlash fabrikasiga to‘quvchilik korxonasidan kelayotgan mato va trikotaj yuzasida xamda arqoq va tanda iplari orasida to‘qimaga qo‘shilmay qolgan tukchalar, uzilgan ipchalar, tugunchalar bo‘ladi. Bularni mato yuzasida bo‘lishi, bo‘yash va gul bosish jarayonida turli tuman nuqsonlarni paydo

bo‘lishiga olib keladi. Yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nuqsonlarni oldini olish maqsadida matolar tuk kuydirish jarayonidan o‘tkaziladi. Dokali, paxmoqlangan va tukli matolardan tashqari barcha ip gazlamalar tuk kuydirish jarayonidan o‘tkaziladi. Mato tuk kuydirish jarayonidan o‘tkazilmaganda bo‘yalgan mato yuzasida chiqib qolgan tolachalar turlicha nur qaytarganliklari sababli yaltiroq bo‘lib ko‘rinadi, undan tashqari gul bosish jarayonida mato yuzasidan mayda tolachalar uzilib chiqib, ularni raklya va gul bosish vallari orasiga tushib qolishi natijasida gul bosilgan mato yuzasida nuqson hosil bo‘ladi.

Respublikamiz pardozlash korxonalarida UGO-240-tuk kuydirish jihozlari bilan bir qatorda «Bobkok», «Beninger», «Kyusters» firmalarining tuk kuydirish jihozlari ham ishlamoqda. Tuk kuydirishda mato aynan gaz alangasidan o‘tmaydi, balki qizigan keramik yuzadan IQ nurlanish ta’sirida mato yuzasidagi mayda tolachalar kuyadi. Bu jihozlarda materialni ikki tomonlama kuydirish mumkin. Tuk kuydirish jihozlari quyidagi qismlardan tuzilgan:

1. Mato yo‘naltiruvchi
2. Mayda tukchalardan tozalash kamerasi
3. Tuk kuydirish kamerasi
4. CHo‘g‘ so‘ndirish vannasi



23-rasm. UGO –240 tuk kuydirish jihizi.

Mato mayda tukchalardan tozalash kamerasiga (2), mato yo‘naltiruvchi roliklar (1) orqali yoyma xolatda tortilgan va tekislangan xolda keladi. Kamerada (2) mato yuzasidagi tukchalar ko‘tariladi va ularning ma’lum qismidan mato tozalanadi. Tuk kuydirish kamerasida matoni ikki tomoni yuqori haroratli yuzadan

yoki ochiq gaz alangasi (3) ustidan o‘tkaziladi (harorat 1100-1200<sup>0</sup> C, tezlik 240 m/daq). Mato tuk kuydirish kamerasidan cho‘g‘ so‘ndirish vannasiga (4) keladi. Bu yerda ho‘l bug‘ yoki namlash vositasi yordamida mato yonishdan ximoyalanadi.

*Oxordan tozalash.* Mato yuzasida oxorni bo‘lishi, matoni qattiq bo‘lishiga va uni turli kimyoviy modda eritmalar bilan ishlov berish jarayonini qiyinlashtiradi. Matoni oxordan tozalash jarayonida gazlama to‘quvchilikda iplarga pishiqligini oshirish uchun qo‘llangan oxordan tashqari, paxta tarkibidagi suvda eriydigan yo‘ldosh moddalardan ham tozalanadi. Agar oxor suvda eruvchan bo‘lsa, u holda matoni issiq suvda yuvib oxordan tozalash mumkin. Bunda oxor oldin bo‘kadi va yuvish jarayonida mato tarkibidan chiqib ketadi. Oxor tarkibida suvda erimaydigan moddalar bo‘lsa (masalan, kraxmal) u holda oldin shu moddalarini parchalab, ularni suvda eriydigan holatga o‘tkazish kerak. Bunda ba’zi sellyuloza yo‘ldoshlari ham eriydi. To‘quvchilikda qo‘llaniladigan oxor turlari 1-jadvalda keltirilgan.


16 -jadval.

#### To‘quvchilikda qo‘llaniladigan oxor turlari


| Suvda eriydigan oxorlovchi moddalar   | Suvda erimaydigan oxorlovchi moddalar  |
|---|--|
| Tabiiy kraxmal:<br>- kartoshka kraxmali<br>- guruch kraxmali<br>- bug‘doy kraxmali<br>Modifikatsiyalangan kraxmal<br>- murakkab efirlar | Karboksimetilsellyuloza<br>Metilsellyuloza<br>Polimetilspirt<br>Akrilatlar<br>Oqsillar<br>Modifikatsiyalangan kraxmal<br>- oddiy efirlar |

Kraxmalni matodan chiqarish uni suvda eruvchan quyimolekulyar qandlargacha parchalash talab qilinishi bilan murakkablashadi. Kraxmal ikkita

polisaxarid – amiloza va amilopektinlardan tashkil topgan bo‘lib, u  $\alpha$ -glyukozid bog‘larini uzilishi bo‘yicha parchalanadi.



Amilaza



Amilopektin

Kraxmaldagi  $\alpha$ -glyukozid bog‘ni gidrolizlanishi sellyulozadagi  $\beta$ -glyukozid bog‘ni gidrolizlanishiga nisbatan oson bo‘lganligi sababli oxorsizlantirish jarayoni omillari – harorat, kimyoviy reagentlar tabiatи, muhit, davomiylik va reagentlar konsentratsiyalarini boshqarish orqali sellyulozaga ta’sir etmagan holda kraxmalni parchalash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ip gazlama va paxta-sintetik tolali aralashma matolarda 6-8 % oxor bo‘ladi. Oxor tarkibiga yelimlovchi moddalar (kraxmal, KMS, PVS va boshqalar), yumshatgichlar (paxta yog‘i, glitserin), gigroskop moddalar, antistatiklar kiradi.

Oxordan tozalashda kislota, ishqor, oksidlovchi va fermentlardan foydalaniлади, shuningdek bu maqsadda issiq suv bilan ishlov berib, matoni 12-24 soat davomida saqlash usuli ham qo‘llaniladi.

Kislota va ishqorlar bilan oxordan tozalash:  $H_2SO_4$ -2-3 g/l yoki  $NaOH$ -3-5 g/l,  $\tau=2-24$  soat,  $T=30-40^{\circ}C$  da matoga ishlov berish, so‘ng yuvish. Saqlash vaqtiga mato qalinligiga, oxor miqdoriga va oxorlash usuliga bog‘liq. Oxorsizlantirishda kislota va oksidlovchilarni qo‘llash nafaqat oxorni parchalashi, balki sellyulozaga ham ta’sir etib, mato mustahkamligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun bu reagentlar bilan ishlashda texnologik tartibga qat’iy rioya qilish talab qilinadi.

Hozirgi kunda oxorsizlantirish yuqori haroratda ishqoriy eritmalar, SAM va gigroskopik moddalar, ferment, oksidlovchi va qaytaruvchi ishtirokida olib boriladi. Zamonaviy tayyorlash usullarida oxorsizlantirish jarayoni qaynatish jarayoni bilan birgalikda olib boriladi. Oxorsizlantirish alohida jarayon sifatida faqat yuza zichligi  $200 \text{ g/m}^2$  dan yuqori bo‘lgan ip gazlama va paxta-sintetik tolali aralashma matolarni tayyorlashda ishlataladi.

Oxorsizlantirishni uzlusiz usullarda olib borishi 2 yo‘nalishda amalgamashiriladi:

1. Termabardosh fermentlarni qo‘llash. Bunday jarayonda mato yaxshi saqlanadi, jarayonni neytral sharoitda olib borish talab qilinadi. Fermentli tayyorlashda matodan 60-70 % oxor chiqariladi. Bakteritsid moddalar sifatida pankeratin va biolazani qo‘llash orqali kraxmalni parchalab, sellyulozaga umuman ta’sir qilmaslik mumkin. Bakteriotsid (enzim) moddalar o‘simlik, jonivor va mikroorganizmlar hayot faoliyati mahsuloti hisoblanadi. Pankeratin jonivorlarni oshqozon osti bezidan olinadi, biolaza esa bakterial xarakterdagi modda.
2. Oxorsizlatirishda oksidlovchilardan foydalanish - bu usulda har qanday oxor eriydi, qaynatish yoki oqartirish (aralashma matolar uchun) jarayonlari bilan qo‘sish mumkin, lekin matoni destruksiyaiga uchrash ehtimoli yuqori. Asosan  $\text{H}_2\text{O}_2$  (1-1,5 g/l), natriy gipoxlorit va boshqalardan foydalilanildi. Oxorsizlantirishda matodan 90 % oxor va sellyulozani ba’zi tabiiy chiqindilari chiqariladi va bu oqartirish jarayonini osonlashtiradi. Quyidagi jadvalda matoni oxorsizlantirishning bir necha usullari keltirilgan.

## Ip gazlamalarni oxorsizlantirish usullari

| Usullar                                | Kislotali                    | Fermentli                            |                  |
|--|------------------------------|--------------------------------------|------------------|
| Eritma tarkibi                         | Sulfat<br>kislota<br>4-6 g/l | Pankeratin<br>2 g/l<br>NaCl<br>3 g/l | Biolaza<br>1 g/l |
| Vanna moduli                           | 50                           | 50                                   | 50               |
| Ishlov berish harorati, <sup>0</sup> S | 80                           | 40                                   | 65-70            |
| Ishlov berish davomiyligi, daqiqa      | 15-20                        | 40                                   | 45               |
| Yuvish, 10 daqiqa davomida             | Sovuq suv                    | Iliq suv                             | Iliq suv         |

Yarim uzluksiz va uzluksiz usullarda matoni oxorsizlantirish uchun uch turdag'i  $\alpha$ -amilaza ishlab chiqariladi:

- 20-30<sup>0</sup>C haroratdayuqoriaktivlikkaega (oxorsizlantirishdavomiyligi 4-12 soat);
- 60-70<sup>0</sup>C haroratda yuqori aktivlikka ega (oxorsizlantirish davomiyligi 4-6 soat);
- 90-110<sup>0</sup>C haroratda yuqori aktivlikka ega (oxorsizlantirish davomiyligi 1-60 min).

Birinchi tip enzimlarni sovuq shimdirish-o'rash usullarida, ikkinchi tipini issiq shimdirish-rolikli va uchinchi tipdag'i enzemplarni qaynoq shimdirish – bug'lash usullarida qo'llash mumkin.

Uzlukli usullarda kislotali oxorsizlantirish quyidagicha olib boriladi: 0,5-1,0% li sulfat kislota eritmasida mato 40<sup>0</sup> C haroratda shimdiriladi, 4 soat davomida saqlanadi, so'ngra yuviladi. Bunda matoni saqlash davomida uni qurib qolmasligiga alohida e'tibor berish talab qilinadi, aks holda sellyulozani kislotali gidrolizi ro'y beradi. Kislotali oxorsizlantirishda mato tarkibidan 70 % oxokraxmal va ko'p miqdorda kul (mineral) moddalar chiqariladi.

Bakterial usul ham texnologiyasi bo‘yicha eng qulay usullardan hisoblanadi. Mato issiq suvgaga shimdirladi va 10-16 soat (ayrim hollarda 24 soatgacha) davomida saqlanadi. Matoni nam holda uzoq saqlaganda yuzasida turli bakteriyalar paydo bo‘ladi, ular uchun kraxmal ozuqa manbai hisoblanadi. Bakteriyalar fermentlar ajratib chiqaradi, ular esa o‘z navbatida kraxmalni gidrolizlab, suvda eruvchan holga o‘tkazadi. Ma’lum vaqt saqlangan mato yuviladi, bu usulni yarim uzluksiz usul deb atash mumkin, oxorsizlantirishda matodan 60-70 % oxor chiqariladi.

Nazorat savollari:

1. To‘qimachilik materiallaining bo'yash va gul bosishiga tayyorlashdan maqsad?
2. Tuk kuydirish jarayonining vazifasi va maqsadi?
3. Xom matoda uchraydigan chiqindi-yo’ldosh moddalar hamda ularni ketkazish usullari?
4. Oxorsizlantirish jarayoni haqida ma’lumot bering.

## 10 -MA’RUZA

### Qaynatish texnologiyasi

Reja:

1. Qaynatish jarayonining maqsadi, jarayonda qo’llaniladigan kimyoviy moddalar va ularning vazifalari.
2. Ip gazlamalarni qaynatish texnologiyasi.


*Qaynatish.* Oxorsizlantirilgan matoda 20-25 % oxor va suvda erimaydigan moddalar (mumsimon moddalar, pektin, oqsil moddalar) qolib, ular mato gigroskopligi va tashqi ko‘rinishini yomonlashtiradi. To‘qimachilik materiallarini

tez va ravon namlanishi uchun, ularga ishqoriy ishlov berish orqali, sellyuloza tarkibidagi rangsiz tabiiy yo'ldosh moddalardan tozalash jarayoniga qaynatish deyiladi.

Qaynatish jarayonida paxta sellyulozasi, yo'ldosh moddalardan tozalanish bilan bir qatorda, uning nadmolekulyar tuzilishida ham o'zgarish ro'y beradi. Qaynatish eritmasi tarkibi o'yuvchi natriy ( $\text{NaOH}$ ), natriy bisulfit ( $\text{NaHSO}_3$ ), SAM, natriy silikat ( $\text{Na}_2\text{SiO}_3 \cdot \text{nH}_2\text{O}$ ) eritmalaridan iborat.

Qaynatish jarayonining birinchi bosqichida to'qimachilik materiali oldin bo'kadi, so'ng ishqorni yutadi, keyingi bosqichda esa o'yuvchi natriy bilan yo'ldosh moddalar orasida kimyoviy reaksiya bo'ladi. Qaynatish eritmasining asosiy reagenti o'yuvchi ishqor, uning konsentratsiyasi jarayon tartib va tarkibiga bog'liq ravishda 10-100 g/l atrofida bo'lishi mumkin. Yuqori haroratda ishqoriy muhitda paxta tolasi o'ta bo'kadi va uning g'ovaklarining o'rtacha o'lchami bir necha barobar ( $5 \cdot 10^{-10}$  m dan  $30 \cdot 10^{-10}$  m gacha) kattalashadi. Bunda tolaning birlamchi devorlari qisman buziladi, mikrog'ovaklar hosil bo'lib, yo'ldosh moddalar diffuziyasini osonlashtiradi. Ishqoriy qaynatishda pektin moddalarini gidrolizlanib, suvda eruvchan holatga o'tadi va toladan to'liq chiqib ketadi. Azotli, ya'ni oqsil moddalar gidrolizlanib aminokislotalar hosil bo'ladi va ular o'z navbatida o'yuvchi natriy bilan birikib suvda eruvchan tuzlar hosil qiladi. Mineral moddalar yuvilib ketadi. Tahminan 40 % mumsimon moddalar gidrolizlanib, yog' kislotalarning natriyli tuzlarini hosil qiladi. Mumsimon moddalarining qolgan qismi SAM yordamida matodan emulgirlash yo'li bilan chiqarib yuboriladi. Mumsimon moddalar paxta tolasi yuzasida ma'lum darajada bir tekis joylashgan bo'ladi. Qaynatish jarayoni olib borilayotgan haroratda mumsimon moddalar tolada yumshagan holda bo'ladi. Bu moddalar tola yuzasidan plenka ko'rinishda oqib chiqib ketmaydi, aksincha tolaning ma'lum joylarida yopishib turadi. Qaynatish jarayonida sirt aktiv moddalar ta'sirida yumshagan mumsimon moddalar astasekinlik bilan sharsifat mikrotomchi shakliga o'tib, tolada bir nuqtada ushlanib turadi. Matoni yuvish jarayonlarida sirt aktiv modda molekulalari qurshovidagi


(emulgirlangan) mumsimon moddalarning mikrotomchisi toladan uzilib chiqib eritmaga o‘tadi (24-rasm).



24-rasm. Qaynatish jarayonida mumsimon moddalarni tola yuzasidan SAM ta’sirida chiqarish sxemasi.

SAM lar tolani namlanishini, hamda eritmani tola tarkibiga kirishini yengillashtiradi. Mumsimon moddalar va boshqa yo‘ldosh moddalar asosan tolaning birlamchi devorida joylashgan bo‘lib, kimyoviy reagentlar ta’sirida ular gidrolizlanib eritmaga oson diffuziyalanadi.

Qaynatish jarayonida (ishqoriy muhit, yuqori temperatura) tola g‘ovaklaridagi havo kislороди sellyulozani oksidlanishiga olib kelishi mumkin. Buni oldini olish uchun eritmaga kuchsiz qaytaruvchi  $\text{NaHSO}_3$  qo‘shiladi. Natriy bisulfit kislород bilan birikib natriy bisulfat hosil qiladi.



Natriy silikat yuqori haroratda gidrolizlanib, yuzasi yuqori sorbsion xossaga ega bo‘lgan kremniy kislota ( $\text{H}_2\text{SiO}_3$ ) hosil qiladi. Bu yuza qaynatish eritmasidagi chiqindilarni, hamda temir oksidalri (zang)ni shimib oladi va ularni qaytadan mato yuzasiga o‘tirishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Qaynatish jarayoni uzlukli va uzlucksiz usullarda olib borilishi mumkin. Qaynatish jarayonining sifati material kapillyarligi bilan o‘lchanadi. Qaynatilgan material oson namlanadi. Lekin u oq holda emas balki xira sarg‘ish rangda bo‘ladi. Oxorsizlantirilgan va qaynatilgan mato sifat ko‘rsatkichlari 18-jadvalda keltirilgan.

### Oxorsizlantirilgan va qaynatilgan mato sifat ko‘rsatkichlari

| Ko‘rsatkichlar         | Xom mato | Oxorsizlan-tirilgan | Qaynatilgan |
|------------------------|----------|---------------------|-------------|
| Kapillyarligi, mm/soat | 0        | 0                   | 6           |
| Oqlik darajasi, %      | 52       | 52,2                | 58,2        |
| Mumsimon moddalar, %   | 1,02     | 0,80                | 0,19        |
| Oxor, %                | 6,75     | 0,55                | 0,33        |
| Kul (mineral), %       | 1,26     | 1,01                | 0,22        |
| Temir, $10^{-5}\%$     | 62       | 53                  | 11          |
| Polimerlanish darajasi | 3020     | 2940                | 2810        |


Qaynatish jarayoni texnologiyasi. Qaynatish jarayonini uzlukli usulda olib borishda yuqori sifatli mahsulot olish mumkin, hozirgi kungacha ayrim assortimentlar (tibbiyot dokasi) qaynatish qozonida jgut holida qaynatiladi. Jgut holidagi mato qozonga taxlanadi, qozonni pastki qismidan qaynatish eritmasi yuboriladi, bunda qozon ichidagi havo jihozning yuqoridagi qopqog‘idagi tirqishdan chiqariladi. Qozonda qaynatish jarayoni  $130^{\circ}\text{C}$  haroratda mato yuza zichligi va uni ifloslanganlik darajasiga bog‘liq ravishda 2-12 soat davomida quyidagi tarkibli qaynatish eritmasida olib boriladi:

|                           |           |
|---------------------------|-----------|
| O‘yuvchi ishqor (100%-li) | 10        |
| Natriy silikat            | 3-5       |
| SAM                       | 0,5-1     |
| Natriy sulfit             | 10 gacha. |
| Vanna moduli              | 3,5       |


Vanna tarkibidagi natriy silikat sellyuloza yo‘ldoshlari bilan birga doimo qaynatish eritmasi tarkibida bo‘ladigan (barcha kommunikatsiyalar temirdan yasaladi) temir (III) gidroksidi (zang) bilan ham kompleks hosil qilib, uni matoga

sorblanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Qaynatish eritmasi tarkibida natriy silikat bo‘lmasa temir gidroksid dispersiyalari eritmadan matoga o‘tib, tolaning mikro- va makrog‘ovaklariga mustahkam joylashadi. Natriy silikat temir gidroksid dispersiyasi bilan mato g‘ovaklariga kira olmaydigan va mato yuzasidan oson yuvilib ketadigan kompleks hosil qiladi.

Uzlukli usulda tola, mato, bobina va trikotajni qaynatish qozon, ejektor mashinalari va jiggerlarda olib boriladi (**25-26-rasmlar**).



25-rasm. Trikotaj va gazlamani uzlukli usulda jgut holida pardozlashga tayyorlash (bo‘yash) DMS 03 jihози. *a*-tashqi ko‘rinishi, *b*-texnologik sxemasi



26-rasm. Trikotaj va gazlamani yoyiq holda uzlukli usulda pardozlashga tayyorlash (bo‘yash) DMS 23 HT jihози



27-rasm. Tolani pardozlashga tayyorlash (bo'yash) DMS 04 johozi



28-rasm. Tolani suvsizlantirish-presslash DMS 29 johozi


Qaynatish jarayonini uzluksiz usulda olib borish. Uzluksiz qaynatishda qisqa vaqt (60-120 daqiqa) davomida uzlukli usuldagagi kabi yuqori kapillyarlikka erishish talab qilinadi. Qaynatishning har ikkala usullarida ham yagona maqsadga erishish uchun bir xil kimyoviy va fizik-kimyoviy jarayonlar borilishini inobatga olgan holda, qisqa vaqt ichida boradigan uzluksiz usullarni bir qadar qattiq sharoitlarda olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Amalda kimyoviy reagentlarni yuqori konsentratsiyada qo'llash orqali jarayon amalga oshiriladi.

Uzluksiz usulda mato uzlukli qaynatish eritmasi tarkibidagi kimyoviy reagentlar eritmasiga shimdirliladi, bunda ularning konsentratsiyasi bir necha barobar yuqori bo'ladi:


|                           |        |
|---------------------------|--------|
| O'yuvchi ishqor (100%-li) | 30-130 |
| Natriy silikat (38%-li)   | 5      |
| SAM (0,5-3%-li)           | 0,5-1  |
| Natriy sulfit             | 4-30   |
| Vanna moduli              | 1      |

O'z massasiga nisbatan 100 % qaynatish eritmasiga shimdirlilgan mato  $101-103^{\circ} \text{C}$  haroratda mato yuza zichligi, qaynatish eritmasi tarkibi, matoni ifloslanganlik darajasiga bog'liq ravishda 2-120 daqiqa davomida bug'latiladi.

Bug‘latilgan mato bir necha vannada yuviladi. Bunda tola tarkibidagi chiqindilar matodan yuviladi. Qaynatish eritmasi tarkibidagi kompleks hosil qiluvchilar eritma tarkibidagi chiqindilar bilan birikib, tola va eritmadiagi chiqindilar miqdori muvozanatini buzadi, natijada toladagi chiqindilarni eritmaga o‘tishi yanada ortadi. Bir bosqichli usul asosan kam ifloslangan yengil ( $100-200 \text{ g/m}^2$ ) matolar uchun qo‘llaniladi. Ayrim hollarda shimdirish vannasida natriy bisulfit bo‘lmaydi. Ishqor konsentratsiyasi va ishlov berish davomiyligini qisqarish orqali matoni yaxshi saqlanishiga, va energetik resurslardan unumli foydalanishga erishiladi. Uzluksiz usul uchun turli firmalar tomonidan matoni yoyiq va jgut holatda, bir va ikki yo‘nalishli jihoz-tizimlar taklif etilgan.



29-rasm. ЛЖО-2 – yig‘ma oqartirish agregati. 1. MM-200-5- yuvish mashinasi (ishqor bilan shimdirish), 2. 3BA-2-4-bug‘lash-qaynatish apparatlari, 3. MM-200-5- qaynoq suv bilan yuvish mashinalari, 4. MM-200-5- sovuq suv bilan yuvish mashinalari, 5. SK-2 kompensatorlari, 6. УЖ 4-1-taxlash moslamasi, 7. MM-200-5- yuvish mashinasi (kislota bilan shimdirish), 8. KCK-2-1- kompensatori, 9. MM-200-5- yuvish mashinasi (vodorod peroksid bilan shimdirish).



30-rasm. Gazlamani yoyiq holda pardozlashga tayyorlash BENINGER tizimi

Yarim uzluksiz usulda qaynatish jarayonini olib borishda mato qaynatish eritmasiga shimdirlilib, xona haroratida (shimdirish-o'rash) yoki issiq kamerada (shimdirish-rolikli) 1-6 soat davomida saqlanadi, so'ngra uzluksiz usul kabi yuviladi.

Barcha usullarda qaynatish jarayonidan so'ng albatta neytrallash (kislotalash) jarayoni olib boriladi. Kislotalash jarayonida matoning oqlik darajasi bir oz ortadi, mineral moddalar toladan to'liq chiqariladi, hamda ishqor toladan toza yuviladi.

Nazorat savollari:

1. Qaynatishjarayoniningmaqsadi?
2. Qaynatish jarayonida qo'llaniladigan kimyoviy moddalar va ularning vazifalari nimadan iborat?
3. Qaynatishjarayoni texnologiyasini tushuntiring.

4. Qaynatish jarayonining sifati nima bilan o'lchanadi?
5. Qaynatishjarayoni usullari?

## 11 -MA'RUZA

### Oqartirish texnologiyasi

Reja:

1. Oqartirish jarayonining maqsadi, jarayonda qo'llaniladigan kimyoviy moddalar va ularning vazifalari.
2. Natriy gipoxlorit, vodorod peroksid va natriy xlorit bilan oqartirish jarayoni, jarayonning kamchiliklari va afzalliklari.
3. Ip gazlamalarni oqartirish texnologiyasi.

*Oqartirish* jarayonining vazifasi bu - to‘qimachilik materiallarini oqartirish, chiqindilar va bo‘yovchi moddalarni matodan to‘liq chiqarishdir. Qaynatish jarayonidan chiqgan mato hali oppoq bo‘lmaydi. Mato yo‘ldosh moddalarni parchalanishida qo‘ng‘ir, kul rang va sarg‘ish tusli bo‘ladi. Ko‘p hollarda oqartirilgan mato sarg‘ish tusda bo‘ladi, bunday matoga yakuniy pardoz berish jarayonida optik oqartiruvchilar bilan ishlov beriladi, bunda mato oppoq tusli bo‘lib, ultrabinafsha nurlarni yutadigan bo‘lib qoladi. Oqartirish uchun asosan vodorod peroksid va uning hosilalari, xlorli oqartiruvchilar (natriy xlorit, gipoxloritlar va boshqalar) qo‘llaniladi.

Natriy gipoxlorit - NaClO

Natriy xlorit - NaClO<sub>2</sub>

Vodorod peroksid - H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>

Vodorod peroksid bilan oqartirish. 80 % dan ortiq to‘qimachilik materiallari vodorod peroksid bilan oqartiriladi. Oqartirish jarayoni pH=11,2 bo‘lgan muhitda olib boriladi. Vodorod peroksid ishqoriy muhitda vodorod va pergidroksil ionlariga dissosiyalanadi:



Pergidroksil ion material tarkibidagi tabiiy rangli chiqindilarni parchalovchi agent hisoblanadi. Ip gazlama va trikotaj vodorod peroksid bilan jgut yoki yoyiq holatda, uzlusiz yoki uzlukli usullarda oqartirilishi mumkin. Pergidroksil ionlarini  $\text{HOO}^-$  hosil bo‘lishi bilan vodorod peroksidning ishqoriy muhitdagi oqartirish xossasi yuqori bo‘ldi. Asosiy reaksiya bilan birga qo‘srimcha reaksiyalar ham ketadi:



Reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan molekulyar kislorod sellyulozani (tolani) oksidlovchi ta’sirida parchalanishiga sabab bo‘ladi. Eritma ishqoriyligi va katalizatorlar (og‘ir metall ionlari  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Cu}^{2+}$  va boshqalar) ta’sirida reaksiya tezlashadi. Matoni oqartirishda yaxshi natijalarga erishish uchun jarayonni shunday sharoitda olib borish kerakki, bunda sistemada aktiv vodorod peroksid miqdori ko‘p bo‘lishi lozim. Shuning uchun oqartirish vannasida 3-3,5 g/l ishqor va stabilizator bo‘lishi kerak. Vodorod peroksidning eng effektiv stabilizatori natriy silikat va natriy metaslikatdir. Ularning stabilizatorlik xususiyati magniy tuzlari (0,3-0,5 g/l) muhitida yanada kuchayadi.

Natriy silikat jihoz va matoda har xil cho‘kma va dog‘lar hosil qiladi. Bu dog‘ va cho‘kmalarni kimyoviy yo‘l bilan yo‘qotib bo‘lmaydi. Silikat jihozga cho‘kib, ko‘p partiyadagi matoni nuqsonli bo‘lishiga olib keladi. Matoda silikatli dog‘larni bo‘lishi ularni qattiq, sinuvchan, ishqalanishga chidamsiz, hamda oqartirilgan matoni qiyinchiliklar bilan bo‘yalishiga sabab bo‘ladi, chunki silikatli dog‘lar bo‘yalmaydi. Hozirda silikatli stablizatorlarni qisman yoki to‘liq almashtirish muammosi turibdi.

Vodorod peroksid birinchi marta 1818 yilda kashf etilgan. 1866 yildan oqartirish (tabiiy ipak)da qo‘llanila boshlangan. Ip gazlamalarni oqartirishda vodorod peroksid 40-yillardan boshlab foydalanilgan. Ip gazlamalarni oqaritirishda eng maqbul sharoit deb harorat  $75-90^\circ\text{C}$ , pH=10,5-11 bo‘lgan holat hisoblanadi.

Ishlab chiqarishga 30-40 %  $H_2O_2$  tutgan texnik mahsulot pergidrol keladi.  $H_2O_2$  toza alyumin (99,5 %), zanglamagan po'lat va vinilplast yoki poliizobutilen qoplangan idishlarda saqlanadi.


Vodorod peroksidni keng qo'llanishiga sabab:

1. Jarayonni uzluksiz usulda olib borilishi.
2. Ish sharoitini yaxshiligi, ya'ni ishlash chog'ida zaxarli gazlar ajralib chiqmaydi.
3. Barqaror oqlikka erishish (matoni eskirishga bo'lgan chidamliligin ortishi).
4. Har xil tolali materiallarni oqlashda qo'llash mumkin.
5. Oqartirilgandan so'nggi ishlovlarni qisqarishi (kislotalash va xlorsizlantirish jarayonlari olib borilmaydi).

Kamchiligi:

1. Yuqori ishqoriy muhitda beqaror.
2. Stabilizator sifatida natriy silikatni qo'llanishi.


Gipoxlorit bilan oqartirish. Natriy gipoxlorit bilan ip mahsulotlarni ishqoriy sharoitda ( $pH=8,5-10$ ),  $30^0 C$  dan yuqori bo'lмаган haroratda oqartirish tavsiya etiladi. Aks holda gipoxlorit intensiv parchalanib sellyulozani destruksiyaga uchratishi mumkin. Natriy gipoxlorit ishqoriy sharoitda quyidagicha dissotsiyalanadi:




$ClO^-$  - rangli chiqindilarni parchalovchi oksidlovchi ion hisoblanadi.  $NaOCl$  ni matoga sarg'ish - kul rang beruvchi moddalar bilan ta'sirlashuvi natijasida sharoitga bog'liq ravishda turli reaksiyalar boradi: oksidlanish, birikish, xlordanish. Jarayonni olib borish texnologiyasi buzilganda sellyuloza oksidlanishi va oksitsellyulozaga aylanishi mumkin. Gipoxlorit bilan oqartirish kuchsiz ishqoriy muhitda  $pH=8,5-10,0$  da olib boriladi. Ishqoriy gipoxloritli eritmani barqarorlashtirish uchun natriy silikatdan foydalilanadi. Bu gipoxloritni oqartiruvchilik xossasini kuchaytiradi va sellyulozani destruksiyasini oldini oladi. Gipoxlorit bilan oqartirishda jarayon  $HClO$ ,  $Cl_2$ ,  $Cl_2O$  ta'sirida boradi. Gipoxlorit

bilan oqartirishda pH=7 bo‘lgan muhit eng xavfli hisoblanadi, bu muhitda sellyuloza maksimum parchalanadi. Maqbul sharoit kislotali muhit hisoblanadi, lekin bunga umuman yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki kislotali muhitda sehda antisanitar holat vujudga keladi, ya’ni xlor ajralib chiqadi. Matoni oqartirish davomida gipoxloritni sellyuloza chiqindilari bilan reaksiyasi natijasida eritmaning ishqoriyligi kamayib boradi. Buning oldini olish maqsadida silikat natriydan foydalaniladi.

Natriy xlorit bilan oqartirish. NaClO<sub>2</sub> - oq gigroskop kukun, suvda yaxshi eriydi va stabil-barqaror eritma hosil qiladi. Uning organik moddalar bilan aralashmasi ozgina qizdirish natijasida oson alanganadi. Sellyuloza chiqindilariga oksidlovchi va xlorlovchi sifatida ta’sir qiladi. Uning faolligi muhit kislotaliligi ortishi bilan oshib boradi va eng maqbul sharoit pH=4-5 hisoblanib, oqartirish jarayoni shu muhitda 80<sup>0</sup> C haroratda olib boriladi. Kislotali sharoitda natriy xlorit gidrolizlanib, xlor kislota hosil qiladi:



Xlorit kislota parchalanib aktiv kislorod (oksidlovchi atom) hosil bo‘ladi



Kuchli kislotali muhitda pH<2,5-3 natriy xlorit parchalanadi va xlor (II) oksid ajralib chiqadi:



Bu o‘ta noxush holat hisoblanadi, chunki ClO<sub>2</sub>-zaharli va jihozni korroziyaga uchrashiga olib keladi. Shuning uchun natriy xlorit bilan oqartirish jarayonini shunday sharoitda olib borish kerakki, bunda xloritni oqartirish faolligi maksimum bo‘lib, ClO<sub>2</sub> ni ajralishi minimum bo‘lishi kerak. Bunga erishish mumkin, bular: etilformiat, etiloksalat, monoammoniyfosfat. Bu faollashtiruvchilar oqartirish eritmasida gidrolizlanib, eritmani doimo kislotalilagini oshirib turadi. NaClO<sub>2</sub> ni afzalligi:

1. Universal, kimyoviy va tabiiy, ayniqsa zig‘ir tolalar uchun qo‘llash mumkin;

2. Sellyulozaga yumshoq ta'sir etadi ( $\text{pH}=2-3$  dan kam bo'limgan muhitda), deyarli sellyulozani destruksiyaga uchratmaydi;
3. U nafaqat oqsil, pektin va lignin tutgan chiqindilarni, balki mumsimon moddalarni ham parchalaydi. Shuning uchun tayyorlash texnologiyasidan qaynatish jarayonini chiqarib, faqat oqartirish jarayonini olib borish mumkin.

Xloritlar bilan oqartirish qator afzalliklarga ega bo'lishi bilan birga hozirda undan jarayon davomida zaharli modda – xlor (II) oksid ( $\text{ClO}_2$ ) ajralib chiqqani tufayli ishlab chiqarishda qo'llanishi cheklangan. Natriy xlorit bilan oqartirishda jihoz konstruksiyalarini xlor (II) oksid ta'sirida korroziyadan saqlash maqsadida ular titan yoki po'latning maxsus markalaridan tayyorlanishi talab qilinadi.

*Oqartirish (tayyorlash) jarayoni texnologiyasi.* Ip gazlamalarni oqartirish asosan qaynatish jarayoni bilan birlgilikda bir yoki ikki bosqichli usullarda dokasimon matolar uchun uzlukli, boshqa turdag'i matolar uchun uzlucksiz ravishda olib boriladi. Davriy usulda ip gazlamalarni qaynatish-oqartirish uchun vertikal yoki gorizontal qozonlardan foydalaniladi. 80 % ip gazlama va paxta-poliefir tolalari aralashmasili matolar uzlucksiz usulda qaynatish-oqartirish jarayonlaridan o'tkaziladi. Asosan quyidagi tizimlar qo'llaniladi:

- shimdirish-bug'lashli usul - ЛЖО-2, АОЖ-2 (Rossiya)
- qo'njli bug'lash kamerali - Amdes (Fransiya)
- bug'lash kamerasida rulonni o'rovchi -Bantler (Germaniya)
- 
- Redjiani (Italiya)
- 
- ЛИОР-120 (Rossiya)
- konveer tipidagi bug'lash kamerali - Kioto (Yaponiya)
- 
- Vakayama (Yaponiya)
- 
- kombinirlangan bug'lash kamerali - Bobkok (Germaniya)
- 
- Tekstima (Germaniya)
- 
- Klyaynevefers (Germaniya)
- 
- ЛМБ-140 (Rossiya)
- 
- ЛОБ-140 (Rossiya)

Paxta tolasi va ip gazlamani ikki bosqichli uzlucksiz usulda tayyorlash o‘zaro bir-biridan farq qiladi. Ishqoriy eritmaga shimdirilgan matoni bug‘lashga toladagiga nisbatan 2 barobar ko‘p vaqt talab qilinadi.

Ip gazlamalar uchun tayyorlashni bir va ikki bosqichli olib borish jarayonlari bor. Bir va ikki bosqichli ishqoriy-peroksidli bug‘latishli usullarning texnologik ketma-ketligi 19-jadvalda berilgan:

19-jadval

| Bir bosqichli<br>Oxorsizlantirilgan va yuvilgan matoni<br>shimdirish, g/l: |         | Ikki bosqichli<br>Qaynatish eritmasiga shimdirish,<br>g/l: |             |
|--|---------|--|-------------|
| Vodorod peroksid<br>(30%-li)   | 20-25   | Ishqor   | 25-30       |
| Natriy silikat   | 15-20   | Natriy silikat   | 3-5         |
| Ishqor   | 5-7     | Natriy bisulfit  | 2-3         |
| Xo‘lllovchi<br>(emulgator)   | 2-3     | SAM  | 1-2         |
| Harorat  | 90°C    | Harorat  | 90°C        |
| Bug‘lash   |         | Bug‘lash   |             |
| Harorat  | 100°C   | Harorat  | 100°C       |
| Davomiylik   | 60 min. | Davomiylik   | 90-120 min. |
| Issiq va sovuq suv bilan yuvish  |         | Issiq va sovuq suv bilan yuvish<br>Neytrallash, g/l        |             |
| Davomiylik   | 60 min. | H <sub>2</sub> SO <sub>4</sub>                             | 3-6         |
|  |         | Harorat  | 25°C        |
| 40 min ushlab turish   |         |  |             |
| Sovuq suv bilan yuvish: 2-3 marta  |         |  |             |
| Oqartirish eritmasiga shimdirish   |         |  |             |
| Vodorod peroksid<br>(30%-li)   |         | 5-10   |             |
| Natriy silikat   |         | 10-12  |             |
| Ishqor   |         | 3-5  |             |
| SAM  |         | 1-2  |             |
| Harorat  |         | 90°C   |             |
| Bug‘lash   |         |  |             |
| Harorat  |         | 100°C  |             |
| Davomiylik   |         | 60 min.  |             |
| Issiq va sovuq suv bilan yuvish  |         |  |             |

Ip gazlamalarni uzlukli usulda qaynatish quyidagicha (3500 kg massali marlya partiyasi uchun):

1. Matoni issiq suvgaga shimdirlash va qaynatish qozoniga taxlash, T=50-60°C.
2. Matoni qaynatish eritmasida 60-70°C haroratda qaynatish, g/l:  
ishqor (100%-li)-12-15  
natriy silikat(d=1,43)-5  
antraxinon-0,1  
SAM-0,5-0,8
3. 120-130°C haroratgacha qizdirish (60-90 min) va shu haroratda qaynatish (60-90 min).
4. Qozonni sovitish va qaynatish eritmasini chiqarib yuborish.
5. Qozonni suv bilan to‘ldirish (20-30 min) va yuvish
6. Matoni oqartirish, g/l:  
vodorod peroksid (100%-li)-3,5-4  
ishqor (100%-li)-1,0-1,2  
natriy silikat (d=1,43)-11-12  
SAM-1,0  
Umumiy ishqoriyligi, g/l: 2-2,25
7. Issiq suv bilan yuvish, T=60-70°C, 20 daq.
8. Sovuq suv bilan yuvish, T=20°C, 20 daq.
9. 3 ta MM-200-6 mashinalarida yuvish
10. Yoyish va quritish.


*Matoni uzlucksiz usulda yig‘ma holatda oqartirish.* Ip gazlamalarni yig‘ma holatda uzlucksiz qaynatish-oqartirish jarayoni LJO-2 tizimida olib boriladi. Bu agregatning texnologik sxemasi 29-rasmda berilgan.

Uzlucksiz, bug‘lash ishqoriy-peroksidli tayyorlash usuli - gazlama mashinaga 2 ta parallel en bo‘yicha yig‘ma o‘rovlar tarzida keladi. Oldin u shimdirlash mashinasida 60° S haroratda qaynatish eritmasiga shimdirliladi. Qaynatish eritmasi tarkibiga o‘yuvchi natriy (NaOH)-22-35 g/l, natriy bisulfit (NaHSO<sub>3</sub>)-3 g/l va ho‘llovchi modda-3g/l kiradi. Gazlama siqilgandan keyin gazlamada 100-120 % namlik qoladi. Gazlama ikki bug‘lash apparatlarida bug‘lanadi, so‘ng qaynoq va

sovuv suvda yuvib, oqartirish eritmasiga tushadi, siqilib yana bir bug‘lash apparatidan o‘tadi va bir necha yuvish mashinalarida yuviladi.

#### *Matoni uzlucksiz usulda yoyiq holatda oqartirish*

Matolarga jgut holatda ishlov berilganda ular deformatsiyaga uchraydi. Shuning uchun kuchli mexanik deformatsiyalar mumkin bo‘lmagan matolarni qaynatish-oqartirish jarayonlari yoyma holatda olib boriladi. Yoyma holatda matoga ishlov berishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bunda matoga kimyoviy reagentlarning bir tekis ta’sir etishidir. Lekin yoyma holatda ishlov berish jarayonining samaradorligi jgut holatdagiga nisbatan kam. Matolarga yoyma holatda uzlucksiz usulda ishlov berish uchun Shvetsiyaning «Benninger» (30-rasm), «Bobkok», Rossiyaning LOR-140 (31-rasm) tizimlari qo‘llaniladi. LOR-140 tizimi 3 ta seksiyadan tashkil topgan. Birinchi va ikkinchi seksiyalar orasiga tizimni bekor turib qolish vaqtini kamaytirish maqsadida 400 m gacha mato zaxirasi joylashadigan kompensator o‘rnatilgan. Bu kompensator birinchi va ikkinchi seksiyalarni bir biriga bog‘liq bo‘lmagan tarzda ishlash imkonini beradi. Birinchi seksiyada matoga ishqoriy eritma bilan ishlov beriladi, ikkinchisida - ishqoriy-peroksidli va uchinchisida matoni quritish jarayonlari amalga oshiriladi.






31-rasm. Matolarni yoyiq holatda oqartirish LOR-140 tizimi. 1-matoni jihozga joylashtirish qurilmasi; 2, 4, 7-siqish qurilmalari; 3-ishqoriy eritmaga shimdirish vannalari; 5-uzoq vaqt bug‘lash kamerasi; 6, 9-yuvish vannalari; 8-kislotaga shimdirish vannalari; 10-kompensator; 11-oqartirish eritmasiga shimdirish vannasi; 12-quritish barabnlari; 13-o‘rash jihizi; 14- taxlash jihizi.

Yarim uzluksiz usulda qaynatish-oqartirish jarayonini olib borishda mato qaynatish-oqartirish eritmasiga shmdirilib, xona haroratida (shmdirish-o‘rash) yoki issiq kamerada (shmdirish-rolikli) 1-6 soat davomida saqlanadi, so‘ngra uzluksiz usul kabi yuviladi. Jarayonlarini olib borish texnologik sxemalari 20-jadvalda keltirilgan.

20-jadval

#### Jarayonlarini olib borish texnologik sxemalari

| Jarayon turi                  | Texnologik sxemasi   | Harorat, °C | Davomiy -lik, soat |
|-------------------------------|--|-------------|--------------------|
| Shmdirish -rolikli «Rot owa»  |    | 100         | 3-5                |
| Shmdirish -rolikli «Pad-Roll» |  | 100         | 3-5                |
| Shmdirish -o‘rash             |  | 20-30       | 10-18              |


Yarim uzluksiz usulni ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimenti, tolaviy tarkibi, hajmi, ishlov berish turi bo‘yicha turli variantlarda olib borish mumkin. Kichik hajmda ishlab chiqariladigan mahsulotlar, tolaviy tarkibi bo‘yicha kimyoviy reagentlar ta’sirida oson destruksiyaga uchraydigan matolar, tarkibida qo‘sishimcha yo‘ldosh moddalar miqdori ko‘p bo‘lgan matolarni pardozlashga tayyorlashni yarim uzluksiz usulda olib borish iqtisodiy tomondan afzal hisoblanadi. Quyida yarim uzluksiz usul variantlaridan misollar keltirilgan:



32-rasm. Barcha jarayonlar alohida olib boriladigan yarim uzlusiz pardozlashga tayyorlash sxemasi



33-rasm. Oxorsizlantirish-qaynatish jarayonlari birlilikda olib boriladigan yarim uzlusiz pardozlashga tayyorlash sxemasi



34-rasm. Qaynatish-oqartirish jarayonlari birlilikda olib boriladigan yarim uzlusiz pardozlashga tayyorlash sxemasi.

Nazorat savollari:

1. Oqartirish jarayonining vazifasi?
2. Oqartirish(tayyorlash) jarayoni texnologiyasi?
3. Matoni uzlusiz usulda yig'ma holatda oqartirish jarayonini tushuntiring.
4. Matoni uzlusiz usulda yig'ma holatda oqartirish hamda matoni uzlusiz usulda yoyiq holatda oqartirish jarayonlarining bir-biridan faqri, afzalligi va kamchiliklari?

## 12 -MA'RUZA


### Zig‘ir tolali matolarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash

Reja:


1. Zig‘ir tolali matolarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash jarayonining mohiyati.
2. Zig‘ir tolali matolarni pardozlashga tayyorlash texnologiyasi.

Zig‘ir tolali materiallar sellyulozali tolalar turkumiga kirib, o‘zining tarkibi va tuzilishi bo‘yicha paxta tolasiga o‘xshaydi. Zig‘ir tolali materiallarni pardozlash chog‘ida kechadigan fizik-kimyoviy o‘zgarishlar mohiyati ip gazlamada ko‘rib o‘tilgan oxorsizlantirish, qaynatish va oqartirish jarayonlari ximizmidan farq qilmaydi. Shu bilan birga zig‘ir tolalar tarkibida sellyuloza miqdorini kamligi va yo‘ldosh moddalarning ko‘pligi bilan paxta tolasidan farq qiladi, ayniqsa paxta tolasida bo‘lmagan ligninni zig‘ir tolasida bo‘lishi unga qattiqlik va qo‘pollik beradi. Paxta tolasidan farqli o‘laroq zig‘ir tolsi elementar tolalar kompleksidan tashkil topgan. Elementar tolalalar o‘zaro o‘rtadagi plastinkalar orqali birikkan. Plastinkalar hujayralararo modda bo‘lib, u pektin moddalar, gemitsellyuloza va lignindan tashkil topgan. Tolaning bunday tashkil topganligi uni qayta ishslash jarayoniga alohida e’tibor qaratishni taqazo etadi.

Gemitsellyuloza – kichik polimerlanish darajasiga ( $\text{PD}=50-200$ ) ega bo‘lgan polisaxaridlar bo‘lib, elementar zveno sifatida besh (pentozanlar) va oltitadan (geksozanlar) uglerod atomi tutgan sikllardan tashkil topgan. Bunday guruhlar sifatida gemitsellyuloza ko‘proq d-glyukuron kislota va d-galaktoza tutgan bo‘ladi.




d-glyukuron kislota




d-galaktoza

Gemitsellyulozani o'simlik dunyosida ko'p tarqalgan nomoyondasi Ksilan bo'lib, u d-ksiloza zvenolarini 1-4 uglerod atomlari bo'yicha o'zaro  $\beta$ -glyukozid bog'lar bilan polisaxariddir, uning polimerlanish darajasi 80 ga teng.



Sellyuloza tolalariga kislota ta'sir ettirilganda gemitsellyuloza oson gidrolizlanib monomer holatga o'tadi. Tolada gemitsellyulozaning bo'lishi tolani yuqori mustahkamlikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Lignin – aromatik tuzilishdagi yuqorimolekulyar birikma, barcha o'simliklarda uchraydi. Lignin o'simliklarga mustahkamlik beradi. Zig'irda asosan o'rta plastinkada uchraydi, ligninni plastinkadan to'liq chiqarishda elementar tola kompleksi buzilishi mumkin. Lignin tarkibida xromofor sistema bo'lganligi uchun rangli moddadir. Lignin uch o'lchamli to'rsimon tuzilishga ega (35-rasm), shuning uchun uni tola tarkibidan chiqarish jarayonini qiyin. Ligninning suvda eruvchan hosilalari – lignosulfonatlar yuvuvchi moddalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.



35-rasm. Lignin kompleksining kimyoviy tuzilishi

Zig'ir tolali materiallarni pardozlash jarayonida kechadigan asosiy qiyinchiliklar - bu oqartirish jarayonida matodan ko'p miqdorda (material

massasiga nisbatan 25 % gacha) chiqindilarni chiqarishga to‘g‘ri kelishidir. Texnik zig‘ir tolasining kimyoviy tarkibi 21-jadvalda keltirilgan.

## 21-jadval

### Texnik zig‘ir tolasining kimyoviy tarkibi

| Moddalar               | Ivitishdan oldin | Ivitishdan keyin |
|------------------------|------------------|------------------|
| Sellyuloza             | 62,8             | 71,3             |
| Gemitsellyuloza        | 17,1             | 18,5             |
| Pektin moddalar        | 4,2              | 2,0              |
| Lignin                 | 2,8              | 2,2              |
| Mumsimon moddalar      | 1,4              | 1,7              |
| Oqsil moddalar         | 2,5              | 2,1              |
| Kul (mineral) moddalar | 1,06             | 0,71             |
| Boshqalar              | 15,0             | 12,0             |

Ilgari qaynatish va gipoxloritli oqartirish jarayoni yumshoq sharoitda olib borilgan va bu jarayonlar 4 marotaba qaytarilgan. Tayyorlashning bir davri bir – necha kungacha davom etgan. Hozirgi kunda zig‘ir tolali materiallarni pardozlashga tayyorlash jarayoni ikki bosqichda olib boriladi:


1. Zig‘ir tolali pilik oksidlash-qaynatish jarayonidan o‘tkaziladi.
2. Mato bug‘lash usuli bo‘yicha ishqoriy-gipoxloritli-perkosidli oqartirish jarayonidan o‘tkaziladi.

Zig‘ir tolali pilikni oksidlash-qaynatish  $98\text{-}100^{\circ}\text{C}$  haroratda 2-3 soat davomida davriy usulda olib boriladi. Qaynatish eritmasi tarkibi (g/l):  $\text{H}_2\text{O}_2$  (30%-li)-3; natriy silikat -10; soda-5. Yuvish, bobina olish va mato to‘qish.

Uzluksiz ishqoriy - gipoxloritli - peroksidli qaynatish usuli bo‘yicha zig‘ir tolali mato quydagicha tayyorlanadi:

1. Gipoxlorit eritmasiga matoni shimdirish (2 g/l faol xlор hisobida) va qizdirmasdan kompensatorda 1,5 soat saqlash.
2. Sovuq suv bilan yuvish.
3.  $H_2O_2$  ning ishqorli eritmasiga shimdirish:  $H_2O_2$ -3 g/l,  $Na_2SiO_3$ -11 g/l; soda - 3 g/l; harorat -  $90^{\circ}C$ ; 1,5 soat davomida kompensatorda bug'lash.
4. Issiq va sovuq suv bilan yuvish.

Oqlik darajasini yanada oshirish maqsadida ko'rsatilgan jarayonlar ikki marotaba qaytariladi.  $H_2O_2$  bilan ishlov berish chog'ida bir vaqtning o'zida xlorsizlantirish ham ro'y berib turadi.



Oxirgi yillarda zig'ir tolali matolarni pardoziplashga tayyorlash uchun natriy xlорит xam tavsiya etilgan. Bunday xolatlarda pardoziplashga tayyorlash jarayoni quydagicha kechadi:

1. Kislotalash;
2. Xloritli oqartirish ( $pH=5$ );
3. Neytrallash va ishqoriy peroksidli ishlov berish.

Bu usul bo'yicha jarayonlarni bir bosqichda olib borish orqali yuqori oqlik darajasiga va tolani ko'p miqdordagi mumsimon, oqsil va boshqa chiqindilardan tozalashga erishiladi.

*Zig'ir tolali matolarni pardoziplashga tayyorlash texnologiyasi.* Zig'ir tolalarning tuzilishi va kimyoviy tarkibini o'ziga xosligi, ularni pardoziplashga tayyorlash jarayonlarini olib borishning alohida texnologiyalarini yaratishni taqazo etadi. Ip gazlamalar deyarli doimo xom bobinadan to'qiladi, so'ngra pardoziplash jarayonidan o'tadi. Zig'ir tolali matolarni ishlab chiqarishda aksariyat hollarda kimyoviy ishlov berilgan bobinadan foydalilanadi. Bunga sabab zig'ir tolali mahsulotlar pardoziplash jarayonlarida o'z massasini 15-25 % gacha yo'qotadi, natijada ip ingichkalashib, mato zichligi kamayib ketadi. Bobinaning oqlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, undan tayyorlangan matoni oqartirish jarayoni shunchalik osonroq kechadi. Oq holatda ishlab chiqariladigan mato assortimentlari asosan yarim oqartirilgan bobinadan tayyorlanadi (yarim oqartirilgan bobina shartli

ravishda 1/4 oqartirilgan, 1/2 oqartirilgan, 3/4 oqartirilgan va 4/4 oqartirilgan deb belgilanadi. Oq mato ishlab chiqarishda bobina yoki lenta yarim oqartirilgan holatgacha oqartiriladi.

*Bobinani oqartirish.* Ishqoriy-gipoxloritli-peroksidli oqartirish usuli bo‘yicha jihozning bir aylanish davrida yarim oqartirilgan bobinani uzlukli usul bo‘yicha olish mumkin. Zig‘ir tolali materiallarni pardozlashga tayyorlash quyidagi texnologiya bo‘yicha amalga oshiriladi, ishlov berish vannasi moduli 20:1:

1. Quyidagi tarkibli vannada  $95\text{-}98^{\circ}\text{C}$  haroratda 2 soat davomida bobinaga ishlov beriladi.:

|                             |      |
|-----------------------------|------|
| - o‘yuvchi ishqor           | 2,3  |
| - kalsiysizlantirilgan soda | 12,2 |
| - natriy silikat (1,44)     | 1,0  |
| - SAM                       | 0,3  |
| - natriy bisulfit (1,34)    | 0,5  |

2.  $65^{\circ}\text{C}$  haroratgacha qizdirilgan suvda (20 daqiqadan 2 marta) va sovuq suvda 5 marotaba yuvish.

3. Boshqa apparatda  $20\text{-}25^{\circ}\text{C}$  haroratda 45 daqiqa davomida gipoxlorit bilan oqartirish.

4. Ikki marotaba sovuq suvda yuvish

5. Keyingi apparatda 30 daqiqa davomida kislota bilan ishlov berish. Sulfat kislotasi konsentratsiyasi 1-2 g/l. Vanna moduli 20. Kislota eritmasi harorati  $25^{\circ}\text{C}$ .

6. Bir marotaba sovuq suvda yuvish

7. Quyidagi tarkibli eritmada  $80^{\circ}\text{C}$  haroratda ishlov berish (xlorsizlantirish), (g/l):

|                    |     |
|--------------------|-----|
| - Vodorod peroksid | 0,1 |
| - Soda             | 1,5 |
| - Natriy silikat   | 1,0 |

8. Bir marotaba issiq suv bilan va bir marotaba sovuq suv bilan yuvish.


9. Yuvish mashinasida yuvish

10. Siqish (vakuum siqish qurilmalarida)

11. Ajratish

12. Quritish (quritish mashinalarida).

Bobinani oqartirish sxemasi quyida keltirilgan:



Yuqorida keltirilgan texnologik tartib bo‘yicha ishlov berilgan bobina 17,1 % massasini va 12,7 % mustahkamligini yo‘qotadi. Bobinani pardozlashga tayyorlash jihoziga solishdan oldin yigirish bo‘limidan keltirilgan bobina teshikli (perfarirlangan) silindrik patronga o‘raladi (yumshoq o‘rash). Kimyoviy jarayon tugab, bobina quritilgach yana qaytadan katushkaga o‘raladi (qattiq o‘rash).

Zig‘ir tolasini taralgan lenta ko‘rinishda oqartirish bobina oqartirishga nisbatan bir qator afzallikkarga ega. Pardozlash jarayonidan o‘tgan taralgan lentadan tayyorlangan bobina toladagi chiqindi va yo‘ldosh moddalar chiqarilganligi sababli bir qadar zinch tuzilishga ega bo‘lib, mustahkamligi ham yuqori bo‘ladi.

*Yarim oqartirilgan taralgan pilik olish texnologiyasi.* Taralgan pilikni vodorod peroksidli ishqoriy qaynatish samarali usullardan hisoblanib, u oksidlab qaynatish usuli deb ataladi. Toladagi fermentlar vodorod peroksidni katalitik parchalashini oldini olish maqsadida oksidlash qaynatish jarayonidan oldin taralgan pilikga sulfat kislota eritmasi bilan ishlov beriladi. Quyida yarim oqartirilgan taralgan pilik olish texnologik tartibi keltirilgan:

1. Taralgan pilikga 10-25° C haroratda 30 daqiqa davomida tarkibida 1,8-2,0 g/l sulfat kislota va 0,2-0,3 g/l SAM bo‘lgan eritma bilan ishlov berish.

2. Sovuq suv bilan 5 daqiqadan uch marotaba yuvish va soda eritmasi bilan neytrallash.
3. Oksidlab qaynatish, (g/l):
 

|                                |          |
|--------------------------------|----------|
| Vodorod peroksid (30%-li)      | 2,9-3,0  |
| Natriy silikat (zichligi 1,44) | 9,6-10,7 |
| Soda                           | 4,0-4,5  |

Oldin eritma 5 daqiqa davomida qizitilmagan holda sirkulyasiya qilinadi, so‘ngra 1 soat 30 daqiqa davomida eritma  $98^0\text{C}$  haroratgacha har 15 daqiqada sirkulyatsiya qilib qizdiriladi. Shuharoratda 1 soat 30 daqiqadavomidahar 30 daqiqadasirkulyatsiyaqilib, oksidlabqaynatishjarayoni libboriladi.

4. Bir marotaba  $70-75^0\text{C}$  haroratli suvda va bir marta sovuq suvda yuviladi.
5. Sirka kislotasining 1,4-1,5 g/l li eritmasi bilan  $10-20^0\text{C}$  haroratda 30 daqiqa davomida ishlov berish.
6. Ikki marotaba 10 daqiqadan sovuq suvda yuvish.

Taralgan pilikni oqartirish sxemasi quyida keltirilgan:


|                   |               |             |               |                    |               |           |               |
|-------------------|---------------|-------------|---------------|--------------------|---------------|-----------|---------------|
| ishlov berish     | $\rightarrow$ | yuvish      | $\rightarrow$ | oqartirish         | $\rightarrow$ | yuvish    | $\rightarrow$ |
| Kilotali eritmada |               | 3 marta     |               | vodorod peroksid   |               | issiq suv |               |
|                   |               |             |               |                    |               | bilan     |               |
| yuvish            | $\rightarrow$ | neytrallash | $\rightarrow$ | yuvish             |               |           |               |
| sovuq suv         |               |             |               | issiq va sovuq suv |               |           |               |

*Matoni uzlukli usulda oqartirish.* Yarim oqartirilgan bobinadan to‘qilgan zig‘ir toali matoni qaynatish-oqartirish jarayonini uzlukli usulda olib borish quyidagi tartib bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. Mato yuzasiga chiqib qolgan mayda tolachalarni kesish va tuk kuydirish jarayonlari olib boriladi.
2. Issiq suvda yoki qayta ishlatiladigan ishqor eritmasiga ( $40-50^0\text{C}$ ) bo‘ktirish.
3. Yuqoridagi bo‘ktirilgan matoni 12 soat davomida saqlash, erkin jgut holida qaynoq suv bilan yuvish.

4. O‘yuvchi ishqor eritmasi (8 g/l) bilan  $40-50^{\circ}\text{C}$  haroratda yuvish, qaynatish uchun qozonga taxlash.
5. Qozonda  $100^{\circ}\text{C}$  haroratda 5 soat davomida tarkibida quyidagi moddalar (%) mato massasiga nisbatan) bo‘lgan eritmada qaynatish: o‘yuvchi ishqor – 3,4; kalsiysizlantirilgan soda – 1,7; natriy silikat (zichligi 1,44) – 2,0; natriy bisulfit (zichligi 1,33) – 1,0; SAM – 0,4. Vanna moduli 4-5. Qaynatish jarayoni tugagach bir marotaba issiq suvda, ikki marotaba sovuq suvda yuviladi.
6. Ikkinchi ishqoriy qaynatish, jarayon davomiyligi 4 soat, vanna tarkibi, massaga nisbatan % da: o‘yuvchi ishqor – 1,8; kalsiysizlantirilgan soda – 1,0; natriy silikat (zichligi 1,44) – 1,0; natriy bisulfit (zichligi 1,33) – 1,0; SAM – 0,5.
7. Sulfat kislotaning 2-2,5 g/l li konsentratsiyali eritmasi bilan ishlov berish, ikki marta yuvish.
8. Gipoxlorit eritmasiga xona haroratida 2 soat davomida shimdirish.
9. Gipoxlorit eritmasi bilan 10 modulda xona haroratida 2 soat davomida oqartirish, so‘ngra yuvish.
10. Sulfat kislota eritmasi bilan ishlov berish va yuvish.
11. Tarkibida 0,6 % natriy silikat bo‘lgan vodorod peroksidning ishqoriy eritmasi bilan ishlov berish.
12. Tarkibida (massaga nisbatan % da) vodorod peroksid – 2,1-2,2; natriy silikat – 4,0-4,5; kalsiysizlantirilgan soda – 1,9-2,0 bo‘lgan eritmada  $80-90^{\circ}\text{C}$  haroratda 2 soat davomida oqartirish. Sovuq suv bilan yuvish.
13. Sulfat kislota eritmasi (2,0-2,5) bilan 1 soat davomida ishlov berish. Ikki marotaba yuvish.
14. Matoni jugut holida siqish va jgutni ochish.

Matoni uzlukli usulda oqartirish sxemasi quyida keltirilgan:



*Zig‘ir tolali matoni uzlucksiz usulda qaynatish-oqartirish.* Oq mato ishlab chiqarish uchun 55-60 % oqlik darajasigacha yarim oqartirilgan bobinadan mato to‘qilib, u 78 % dan kam bo‘lmagan oqlik darajasigacha oqartiriladi. Zig‘ir tolali matolarni uzlucksiz usulda oqartirishda LJO-1-L (29-rasm) tizimidan foydalilanildi. Tizimda matoni harakat tezligi 40-60-80 m/daq oraliqlarida bo‘lishi mumkin. Bu tizimda mato jgut holida erkin hrakatlanadi. Tizimning uzunligi 98 m ga teng. Tizimda ip gazlamalarni LJO-2 tizimida qaynatish-oqartirish kabi mato turli kimyoviy moddalar eritmalariga shimdiriladi va kompensatorlarda ma’lum vaqt saqlanadi. Kompensatorlarda eritma bo‘lishi ham mumkin, bo‘lmasligi ham mumkin. Tizimda matoga ishlov berish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Xona haroratida mato gipoxlorit eritmasiga shimdiriladi (g/l):

Aktiv xlor 2,0-2,5

O‘yuvchi ishqor 0,2-0,3

2. Eritmaga shimdirilgan matoni qizdirmsandan eritmasiz kompensatorda 1 soat 30 daqiqa saqlash.

3. Sovuq suv bilan yuvish.

4. Xona haroratida quyidagi eritmaga shimdirlish (g/l): vodorod peroksid (30 %-li) – 2,0-2,5; natriy silikat (zichligi 1,44) – 10-12; kalsiysizlantirilgan soda – 2,5-3,0.
5. Yuqoridagi tarkibdagi eritmali kompensatorga taxlash va 1,5 soat davomida qaynatish.
6. Issiq suvda ( $50-60^{\circ}\text{C}$ ) yuvish.
7. Sovuq suvda yuvish.
8. Xona haroratida mato gipoxlorit eritmasiga shimdirliladi (g/l):
 

|                 |           |
|-----------------|-----------|
| Aktiv xlor      | 2,0-2,5   |
| O‘yuvchi ishqor | 0,15-0,2. |
9. Tarkibda aktiv xlor (0,8-0,9 g/l) va o‘yuvchi ishqor (0,08-0,1) bo‘lgan eritmali kompensatorga taxlash va 1,5 soat davomida saqlash.
10. Sovuq suv bilan yuvish.
11. Xona haroratida quyidagi eritmaga shimdirlish (g/l): vodorod peroksid (30 %-li) – 2,0-2,5; natriy silikat (zichligi 1,44) – 10-12; kalsiysizlantirilgan soda – 2,0-2,5.
12. Tarkibida vodorod peroksid (1,7-2,1), natriy silikat (10-12) va kalsiysizlantirilgan soda (2,0-2,5) bo‘lgan eritmali kompensatorga taxlash va 1,5 soat davomida qynatish ( $80-85^{\circ}\text{C}$ ).
13. Issiq suvda ( $50-60^{\circ}\text{S}$ ) yuvish.
14. Sovuq suvda yuvish.
15. Xona haroratida 2-3 g/l li sulfat kislota eritmasiga shimdirlish.
16. Eritmaga shimdirligan matoni qizdirmasdan eritmasiz kompensatorda saqlash.
17. Sovuq suvda yuvish
18. Kislota qoldiqlarini ketkazish uchun soda eritmasi bilan ishlov berish.
19. Sovuq suvda yuvish.
20. Matoni quritishga jo‘natish.

Matoni uzlucksiz usulda oqartirish sxemasi quyida keltirilgan:

*I-bo 'lim, oxorsizlantirish*

shimdirish → saqlash → yuvish →  
ishqoriy eritma eritmasiz sovuq suv

*II-bo 'lim, oqartirish (vodorod peroksidli)*

shimdirish → saqlash → yuvish → yuvish →  
vodorod peroksid eritmali issiq suv sovuq suv

*III-bo 'lim, oqartirish (gipoxloritli)*

shimdirish → saqlash → yuvish →  
gipoxloritli eritmali

*IV-bo 'lim, oqartirish (vodorod peroksidli)*

shimdirish → saqlash → yuvish → yuvish →  
vodorod peroksid eritmali issiq suv sovuq suv

*V-bo 'lim, kislotalash*

shimdirish → saqlash → yuvish → neytrallash →  
sulfat kislota eritmasiz sovuq suv  
yuvish → quritish  
sovuq suv

Nazorat savollari:

1. Zig'ir tolali materiallarni pardozlashga tayyorlash jarayoni bosqichlari?
2. Zig'ir tolali materiallarni pardozlash jarayonida kechadigan asosiy qiyinchiliklar?
3. Zig'ir tolasini taralgan lenta ko'rinishda oqartirish bobina oqartirishga nisbatan qanday afzalliklarga ega?

## **13 -MA'RUZA**

### **Merserlash**

Reja:

1. Merserlash texnologiyasi.
2. Merserlash jarayonining mohiyati va mexanizmi.

Djon Merser 1844 yilda konsentrangan o'yuvchi ishqorni ip gazlama orqali filtrlaganda paxta tolasini kirishganini va filtrlangan eritma konsentratsiyasini kamayganini payqab qoladi. Bundan tashqari u keyinchalik paxta tolali mato mustahkamligini ham ortganini, hamda ishqor bilan ishlov berilgan tolaga bo'yovchi moddani sorblanishini ortganini aniqladi va o'yuvchi ishqor sellyulozaga ta'sir ettirilganda turg'un bo'lman kimyoviy modda – ishqoriy sellyuloza hosil bo'lishini tahmin qildi, buning uchun 1850 yilda Merserga Buyuk Britaniyada patent berildi. Lekin amalda ip gazlamalarni merserlash jarayoni 1898 yilda boshlandi. Angliyalik Lov tomonidan o'yuvchi ishqor bilan matoga tortilgan holda ishlov berilganda uni kirishmasligi, aksincha yaltiroqlikka ega bo'lishi va sorbsion xossasini ortishi kashf etildi va unga patent berildi. Merser tomonidan ishlov berilgan tolani yaltiroq xossasiga ega bo'lganligi aniqlanmagan. Lekin birinchi bo'lib Dj. Merserni paxta sellyulozasini konsentrangan ishqor ta'sirida o'z xossasini o'zgartirishini kashf etganligi sababli bu jarayon uning sha'niga «Merserlash» deb yuritiladi.

Qisqa vaqt ichida 16-20<sup>0</sup>C haroratda 225-300 g/l li ishqor eritmasida tarang tortilgan holatda ip gazlamalarga ishlov berish, hamda ularni issiq va sovuq suvda yuvish merserlash jarayoni deyiladi. Ko‘pincha (80 %) ip gazlamalar merserlanadi va ayrim hollarda paxtadan tayyorlangan materiallar: bobina, trikotaj va iplar ham merserlanadi. Paxta tolasili aralashmali matolar merserlanganda sintetik tashkil etuvchisini destruksiyanishdan saqlaydigan sharoit tanlanadi. Merserlangan ip gazlama yoki trikotaj yaltiroq, ipak jiloli xususiyatga erishadi, hamda uning gigroskopligi, pishiqligi va sorbsion xossasi ortadi. Bunga paxta tolasining morfologiyasi va nadmoleklyar tuzilishida kechadigan o‘zgarishlar sabab bo‘ladi. Merserlash jarayonida tola bo‘kadi, uning devorlari qalinlashadi va tola kanalining diametri kichiklashadi. Natijada paxta tolsi lentasimon shakldan silindir ko‘rinishgacha o‘zgaradi.

Ishqor sellyuloza bilan reaksiyaga kirishishida issiqlik ajralib chiqadi, shuning uchun jarayon 15-20<sup>0</sup> C haroratda olib boriladi. Shu bilan birga yuqori samaradorli yuqori haroratlari merserlash jarayonlari ham ma’lum bo‘lib, bunday sharoitda bir vaqtning o‘zida qaynatish jarayoni ham bo‘lib o‘tadi. Konsentrangan ishqor bilan paxta tolasiga ishlov berilganda, uning ko‘ndalang kesimi yumaloq shaklga o‘tadi, kanali butunlay yo‘qoladi, tola yuzasi silliqlashadi, to‘g‘irlanadi va natijada nur tushganda yaltiroqlik paydo bo‘ladi va bu merserlangan matoga xosdir. Merserlashni xom mato, qaynatinigan va oqartrilgan matolarga qo‘llash mumkin. Qaynatinigan matoni merserlash maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda ishqor ta’siri va ishlatingan ishqorni qayta qo‘llash samarali hisoblanadi. Lekin jarayonni uzlusiz olib borish uchun xom yoki oqartirilgan mato merserlanadi.

Yuqoridagilar bo‘yicha merserlash natijasida paxta tolasida qator o‘zgarishlar sodir bo‘lishini quyidagicha ajratib ko‘rsatish mumkin:

- barcha turdag'i reagentlar bo‘yicha tolaning reaksiyon qobiliyati ortadi;
- barcha turdag'i sorbentlar (suv, bo‘yovchi moda, pardozlashda qo‘llaniladigan moddalar) bo‘yicha tolaning sorbsion xususiyati ortadi;
- optik (yaltiroqlik) va fizik-mexanik (chiziqli o‘lchami, mustahkamligi, elastikligi) xossalari o‘zgaradi.

Ko'rsatib o'tilgan barcha yangi xossalar paxta tolasi morfologiyasi va nadmolekulyar o'zgarishi bilan bog'liq. Sellyulozaga konsentrangan ishqor eritmasi bilan ishlov berish, keyin uni suv bilan yuvish natijasida sellyuloza astasekin oldin ishqoriy sellyulozaga, keyin esa gidsatsellyulozaga aylanib boradi. Sellyulozadagi bunday o'zgarish uning kimyoviy tarkibiga ta'sir etmagan holda nadmolekulyar tuzilishiga sezilarli darajada ta'sir etadi. Avvalo bunda sellyulozada dekristallizatsiya kechadi, ya'ni uning amorf qismi 10-20 % ga ortadi, sellyuloza I o'rniga yangi kristall tuzilishli sellyuloza II hosil bo'ladi. Sellyuloza I ni sellyuloza II ga o'tishida makromolekulaning elementar zvenolari konfiguratsiyasida ham o'zgarishi kuzatiladi. Sellyuloza I da piran xalqalar bir tekislikda joylashgan bo'lib, gidroksil guruhlarning aksariyati o'zaro vodorod bog'lar orqali birikkan. Sellyuloza II da esa piran xalqalar bir-biriga nisbatan 90° C da joylashadi, natijada molekulalaro vodorod bog'lar uzilib, sellyulozaning amorfligi ortadi bu esa paxta tolasining reaksiyon va sorbsion qobiliyatini oshishiga sabab bo'ladi.

Merserlanish (GOST 25617-83) darajasi odatda tolaga bariy gidroksidni sorbsiyasi orqali aniqlanadi. Merserlangan tolaga sorblangan bariy gidroksid miqdorini merserlanmagan toladagi miqdoriga nisbatini 100 ga ko'paytirilgandagi qiymati barit soni deyiladi. Barit soni merserlangan bobina uchun 150-160, mato uchun 120-130 ni tashkil etadi.

Merserlangan tolada yangi fizik-mexanik va optik xossalarini shakllanishida tolaning konsentrangan ishqor eritmasida bo'kishi muhim ahamiyatga ega. Merserlash jarayonida tolaning ishqor bilan to'qnashgan qismlarining intensiv bo'kishi kuzatiladi. Bunday bo'kish natijasida etarlicha qovushqoqlikka ega bo'lган konsentrangan ishqor eritmasining tolani asosiy qismlariga kirib borishi qiyinlashadi. Ayniqsa zinch to'qilgan mato strukturasiga qovushqoq eritmani kirib borishi qiyin kechadi. Bunday holatda zinch strukturali matolarda bir tekis merserlanganlik effektini olish mushkullashadi.

Tolaning amorf va kristall strukturasiga ishqor molekulasi diffuziyasi natijasida molekulalararo vodorod bog'lar uziladi. Bu qismlarga suv molekulasi kirib boradi va ozod bo'lган gidroksil guruhlari bilan vodorod bog'lanish orqali


gidratlanadi. Bunday almashinish jarayonida tola ichida *osmotik bosim* ortadi, natijada tolaning diametri kattalashib o‘zi kirishadi, ikkilamchi devori qalinlashadi, ichki kanali kichiklashadi, tola tekislanadi. Bu o‘zgarishlarga bir qator omillar – ishqor konsentratsiyasi, ishlov berish harorati, pardozlashga tayyorlash sharoiti ta’sir qiladi.

Merserlash jarayonida tolaga berilgan mexanik ta’sir (tortilgan yoki tortilmagan) natijasida tola geometriyasining o‘zgarishi uni yaltiroqligiga yoki elastiklikka ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Agar merserlash tortilgan holda olib borilsa, u holda tola uzunasiga kirishmaydi, aksincha bo‘kadi, aylanib silindr holatga keladi. Bunday silindr tuzilishga ega bo‘lgan tola silliq yuzali mato yoki trikotaj hosil qiladi. Silliq yuzaga ega bo‘lgan mato yoki trikotaj tushayotgan nurni to‘laroq qaytarganligi sababli ular yaltiroq bo‘lib ko‘rinadi. Merserlanmagan mato yoki trikotaj tolalari yassi tuzilishli bo‘lib, unga tushayotgan nur ko‘proq tarqaladi va u xira tusli bo‘lib ko‘rinadi. Agar merserlash tortilmagan holda olib borilsa, tola, bobina, mato, trikotaj yaxshigina kirishadi va ular elastik xossaga ega bo‘lib qoladi.

Merserlash tola va matoning fizik-mexanik xossasini o‘zgarishiga olib keladi. Mato tortib merserlanganda merserlash jihozida matoning eni va uzunligini boshqrish orqali uning chizig‘li o‘lchamlari stabillashadi. O‘lchamlarini stabillashuvi mato elementar tolalaridagi kuchlanishni olinishi hisobiga amalga oshiriladi. Elementar tolalardagi kuchlanishini olinishi esa tolani bo‘kishida mavjud vodorod bog‘larni uzilishi, yangilarini hosil bo‘lishi, ishqoriy sellyulozani gidsratsellyulozaga o‘tishida (matoni ishqordan yuvish bosqichida) sellyulozani qayta kristallanish natijasida amalga oshadi.

Merserlash jarayoni zanjirli va zanjirsiz jihozlar: Bentler (Shveytsiya), Tekstima (Germaniya) da Rossiyaning ІМЗ-140-1 uzluksiz liniyalarida (36-rasm)olib boriladi. Zanjirli jihozlar xom, qaynatilgan va oqartirilgan matolarga ishlov berish uchun mo‘ljallangan. Texnologiyasi: Mato 225-300 g/l li ishqor eritmasiga ( $15-18^{\circ}\text{C}$ ) shimdiriladi. 170% gacha siqiladi va ma’lum vaqt stabillovchi silindrlardan o‘tadi. So‘ngra mato zanjirli uchastkaga uzatiladi, bu

yerda eni kengaytiriladi, suv sachratkichlar yordamida birlamchi yuviladi, siqiladi va 2 ta ishqorsizlantirish vannasidan o‘tadi. Bu yerda matoga issiq suv, bug‘ va sulfat kislota (3-10 g/l) bilan ishlov beriladi va 5 ta vannada yuviladi. 95-100 % - gacha siqiladi va quritiladi. Bu texnologiya bo‘yicha 1 ta polotnoga 80 m/daq tezlikda ishlov beriladi.



36-rasm. LMZ-140-1. Zanjirli merserlash tizimi. 1. Mato yo‘naltiruvchi mashina, 2. Turg‘unlovchi silindrlar, 3. Uch valli shimdirish mashinasi, 4. Zanjirli merserlash mashinasi, 5. O‘rtacha siqish moslamasi, 6. Yuvish vannalari, 7. SHimdirish vannalari, 8. Etiltirgich, 9. Uch valli siqish moslamasi, 10. Barabanli quritish mashinasi, 11. O‘rovchi mashina.

Zanjirsiz jihozlarda yupqa matolar merserlanadi. Bu jihoz (37-rasm) uzatish moslamasi, ishqoriy va yuvish korobkalari, ishqorsizlantirish bo‘limi, neytrallash zonalaridan iborat. Ishqoriy va yuvish korobkalaridagi pastki vallar po‘latdan-harakatlantiruvchan, yuqoridagilari rezina o‘ralgan va ular pastki vallar ustida ozod holda turadi. Polotno soni 2-4 ta tezlik-50 m/daq.

37-rasm. Zanjirsiz merserlashjihoz.

Merserlangan materiallarni sorbsion xossasini ortishi natijasida, uni bo‘yashga merserlanmagan materialni bo‘yashga nisbatan 12-25 % kam miqdorda bo‘yovchi modda talab qilinadi.

Shuningdek ip gazlamalarni merserlash uchun «Kioto» firmasining zanjirli va «Beninger» firmasining valli merserlash tizimlari ham qo‘llaniladi. Yoyiq holdagi trikotaj mahsulotlarini merserlash «Beninger» firmasining «Dimenza» uzluksiz ishlaydigan jihozlarida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari:

1. Merserlash jarayonining mohiyati nimadan iborat?
2. Merserlash jarayoni qanday sharoitda olib boriladi?
3. Merserlangan gazlamalar qanday xossalarga ega bo’ladi?
4. Merserlash vaqtida sodir bo’ladigan jarayonlar?

## **14 -MA’RUZA**

### **Trikotaj polotnolarini bo‘yash va gul bosishga tayyorlash**

Reja:

1. Trikotaj polotnolari va ularni pardozlashga tayyorlash
2. Trikotaj polotnolarini bo‘yash va gul bosishga tayyorlash jarayonlarining o‘ziga xosligi.
3. Trikotajga kimyoviy ishlov berish turlari, ularning vazifalari.
4. Trikotajni uzlukli va yarimuzluksiz usullarda oqartirish.

Trikotaj sanoati yengil sanoatning yirik sohasidan biri bo‘lib, unga tegishli korxonalarda texnik va maishiy mahsulot va buyumlarning keng assortimenti ishlab chiqariladi. Trikotaj mahsulotlar kamg‘ijimlanuvchanlik, yaxshi drapirlanuvchi, qomatga yopishib turishlik, elastik va yuqori gigienik xossaga ega bo‘lish bilan birga uni ekspluatatsiya qilish osonligi bilan ajralib turadi.

Trikotaj polotnosi ishlab chiqarish jihozlarining ish unumdorligining yuqoriligi va ulardan mahsulotlar tikish bir qadar oddiy texnologiya amalga oshirilishi sababli trikotaj polotno va mahsulotlarni tayyorlash gazlama to‘qish va ulardan mahsulot tayyorlashdan ancha arzon.

Tolaviy tarkibi bo‘yicha trikotaj polotnolari paxtali, junli, yarim junli, sintetik va sun’iy shtapel tolai turlarga bo‘linadi. Trikotaj ishlab chiqarishda sun’iy va sintetik tolalardan o‘zidan alohida va boshqa tolalar bilan aralashga holda keng miqyosda foydalilanadi. Sidirg‘a bo‘yagan trikotaj polotnolari asosan ich kiyimlar tayyorlashda qo‘llaniladi. Ust kiyimlar uchun mo‘ljallangan trikotaj polotnosi odatda bo‘yagan bobinadan tayyorlanadi, bunda bir tekis va mustahkam rangli polotno olish ta’milnadi. Trikotaj polotnolariga tekis to‘rli va silindrik to‘r qolipli jihozlarda gul bosiladi.

Trikotajga kimyoviy ishlov berish korxonalarida ularni pardozlashga tayyorlash jarayonlari kimyoviy va mexanik ishlov berish bosqichlaridan tashkil topgan. Trikotajni pardozlashga tayyorlash jarayonlari mohiyati va mexanizmi gazlamani pardozlashga tayyorlash jarayonlari kabi bo‘lsada ularni ketma-ketligi, olib borish usullari, qo‘llaniladigan jihozlari bir-biridan farq qiladi. Trikotaj polotnolari aylana va ochiq en ko‘rinishda to‘qiladi. Kimyoviy ishlov berish chog‘ida pardoz turiga ko‘ra polotnoga aylana, ochiq en ko‘rinishda, aylana polotnoga teskarisiga ag‘darilgan yoki ag‘darmasdan ishlov berish mumkin. Trikotaj polotnosini ishlatilish sohasi, undan tayyorlanadigan mahsulot turiga ko‘ra korxonaga kelgan polotno aylana ko‘rinishda yoki ochiq en ko‘rinishda tayyor holga keltiriladi.

Trikotajni qo‘llanish soxasiga ko‘ra uni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash jarayonini to‘liq yoki to‘liq bo‘lmagan tartibda olib boriladi. Masalan paypoq, ustki kiyimlar to‘q rangga bo‘yagan holda ishlab chiqariladi, bunda qaynatish jarayonidan so‘ng trikotaj oqartirilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘yaladi. Trikotaj polotnosini yuzasidagi va to‘qima orasidagi mayda tukchalardan tozalsh hozirgi kunda asosan fermentlar yordamida amalga oshiriladi. Ferment sifatida enzim keng

qo‘llaniladi. Ferment qaynatish-bo‘yash qozoniga asosiy jarayon tugaganidan so‘ng ma’lum miqdorda solinadi.

Korxonaga aylana ko‘rinishda keltirilgan va korxonadan ochiq en ko‘rinishda yuzasi paxmoqlangan holda chiqariladigan paxta tolali trikotajni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash ketma-ketligi:

*sifat nazorat* ⇒ *polotnoni uzunasi bo‘yicha kesish* ⇒ *RAM* (*yakuniy pardoz berish jihozida uzunasiga kesilgan polotno ziylariga ishlov berish*) ⇒ *qaynatish - oqartirish* ⇒ *jgut ochish* ⇒ *quritish* ⇒ *paxmoqlash* ⇒ *yakuniy pardoz berish* ⇒ *sifat nazorat, qadoqlash (Samfor)*.

Korxonaga aylana ko‘rinishda keltirilgan va korxonadan ochiq en ko‘rinishda yuzasi tukli (velyur) holda chiqariladigan paxta tolali (aralash tolali bo‘lishi ham mumkin) trikotajni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash ketma-ketligi:

*sifat nazorat* ⇒ *tampler* ⇒ *polotnoni uzunasi bo‘yicha kesish* ⇒ *RAM* (*yakuniy pardoz berish*) ⇒ *tuk kesish* ⇒ *qaynatish - oqartirish* ⇒ *sentrifuga* ⇒ *tampler* ⇒ *tuk kesish* ⇒ *RAM* (*yakuniy pardoz berish*) ⇒ *sifat nazorat, qadoqlash (Samfor)*.

Korxonaga aylana ko‘rinishda keltirilgan va korxonadan aylana ko‘rinishda gul bosilgan holda chiqariladigan trikotajga kimyoviy ishlov berish ketma-ketligi:

*sifat nazorat* ⇒ *qaynatish - oqartirish* ⇒ *aylanasiga siqish (ballon sigma)* ⇒ *quritish* ⇒ *Samfor* ⇒ *gul bosish* ⇒ *(pigmentlar bilan)* ⇒ *termik ishlov berish* ⇒ *sifat nazorat, Samfor*

*(aktiv bo‘yovchi moddalar bilan) bug‘lash* ⇒ *yuvish* ⇒ *aylanasiga siqish (ballon sigma)* ⇒ *quritish* ⇒ *sifat nazorat, Samfor*

Korxonaga aylana ko‘rinishda keltirilgan va korxonadan aylana ko‘rinishda paxmoqlangan holda chiqariladigan trikotajga kimyoviy ishlov berish ketma-ketligi:


*sifat nazorat* ⇒ *polotnoni teskarisiga o‘girish* ⇒ *qaynatish - oqartirish - bo‘yash* ⇒ *aylanasiga siqish (ballon sigma)* ⇒ *quritish* ⇒ *paxmoqlash* ⇒ *polotnoni teskarisiga o‘girish* ⇒ *sifat nazorat, Samfor*.

Trikotajga kimyoviy ishlov berish jarayonlari gazlamani kimyoviy pardozlash jarayonlaridan deyarli farq qilmaydi. Trikotaj matolari ham talab bo'yicha pardozlashga tayyorlash, bo'yash, gul bosish va yakuniy pardoz berish jarayonlaridan o'tkaziladi. Trikotaj matosiga kimyoviy ishlov berish, ya'ni kimyoviy pardozlash jarayonlari pardozlashga tayyorlash (qaynatish, oqartirish), bo'yash, gul bosish va yakuniy pardoz berish jarayonlaridan tashkil topgan. Trikotaj matosini to'qish jarayonida oxorlash jarayoni bo'limganligi sababli gazlamalardan farqli trikotaj matosi oxorsizlantirish jarayonidan o'tkazilmaydi. To'qish jarayonida iplarni to'quv jihozidan o'tuvchanligini yaxshilash, tolani elektrlanishini kamaytirish maqsadida turli *surtlovchi* moylardan (smazochnoe maslo) foydalaniladi, ular esa matoni qaynatish jarayonida tola tarkibidan chiqb ketadi. Trikotaj matosini yuzasidagi va to'qima orasidagi tuklar (mayda tolalar) dan tozalash gazlamani tuk kuydirish jarayonidan farq qiladi. Bu jarayon kimyoviy ishlov berish turiga mansub bo'lib, mayda tolachalar trikotaj matosidan turli fermentlar (enzimlar) yordamida ketkaziladi. Eritma tarkibidagi fermentlar bobinaga qo'shilmagan, mayda tolalar, to'quv jarayonida iplarni uzilishida vujudga kelgan tugunchalarga ta'sir etib, ularni mo'rt holatga keltiradi. Mo'rt holatga kelgan mayda tolalar yuvish va keyingi mexanik ishlov berish jarayonlarida trikotaj matosi yuzasidan to'kilib ketadi.

Trikotaj matosini qaynatish, oqartirish va merserlash jarayonlari vazifasi, bu jarayonlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan kimyoviy moddalar gazlamalarni pardozlashga tayyorlash jarayonlari vazifasi va qo'llaniladigan kimyoviy reagentlari turi bilan bir xil. Trikotaj matolariga ishlov berishda, jihoz tanlashda ularni cho'ziluvchanligini, to'qilish turini (ochiq en yoki aylana ko'rinishda) hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

***Trikotajni uzluksiz usulda oqartirish.*** Trikotajni uzluksiz usulda oqartirishni ishlab chiqarishga qo'llash iqtisodiy jihatdan qoniqarli bo'limganligi sababli juda sekinlik bilan amalga oshirilib kelmoqda. Trikotajni uzluksiz oqartirish uchun ikki tipdag'i jihozlar ishlab chiqarilgan *yig'ma xolatda* va *yoyiq holatda* ishlov beruvchi.


Birinchi tipga Germaniyaning «Klyaynebefers» va «Bryukner» jihozlari taalluqlidir. «Bryukner» firmasining «Kolorado» tizimi trikotajni ikki bosqichda oqartirishga mo‘ljallangan (37-rasm). Bunda aylana ko‘rinishda to‘qilgan trikotaj birinchi bosqichda natriy gipoxlorit bilan so‘ng ikkinchi bosqichda vodorod peroksid bilan oqartiriladi.



37-rasm. «Kolorado» oqartirish tizimi. 1- vodorod peroksid bilan oqartirish va yuvish kamerasi; 2-yuvish jihizi; 3- gipoxlorit eritmasiga shimdirish mashinasи;

Polotno shimdirlish mashinasida 3 gipoxlorit eritmasiga shimdirliladi, siquvchi vallar yordamida siqiladi va maxsus saqlash mashinasida (djey-boks)  $25-30^{\circ}\text{C}$  haroratda 30 daqiqa davomida saqlanadi. Keyin polotno yuvish jihozida (2) yuviladi va o‘nta kamerali jihozga (1) uzatiladi. Birinchi beshta kamerada vodorodperoksidbilanoqartirishjarayonikechadi. Har bir kameraga 50 kgdanpolotno joylashadi, ishlovberishharorati  $90^{\circ}\text{C}$ . Keyingi beshta kamerada oldin issiq, keyin iliq va oxiri sovuq suv bilan yuvish jarayoni bajariladi. Djey-boksva kamerali jihozda polotnoni joylashtirish va harakatlantirish konstruksiyasi shunday bajarilganki, unda polotnoga ishlov berish jarayonida uni yig‘ilib qolishiga yoki tortilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi, shuning uchun polotnoni tortilishi minimal qiymatga ega bo‘ladi. Kameraning pastki qismini eritma bilan to‘ldirilganligi polotnoga oqartirish eritmasi bilan intensiv ishlov berish va yaxshi qaynatish imkonini beradi.


Ikkinchi tipga Rossiyaning ЛБ-220Т тизими va Germaniyaning «Flyasner» firmasining jihozlari taalluqli. ЛБ-220Т тизими пaxta va aralash tolali aylana ko‘rinishda to‘qilgan trikotaj polotnolarini oqartirishga mo‘ljallangan (38-rasm).



38-rasm. Paxta va aralash tolali aylana ko‘rinishda to‘qilgan trikotaj polotnolarini oqartirish LB-220T tizimi


Tizim polotnoni joylashtirish moslamasi (1), oqartirish eritmasi bilan ishlov berish jihози (2), tasma konveyerli bug‘lash kamerasi (3), to‘r barabanli yuvish jihоzлari (4) va quritish jihози (6) dan tashkil topган. 20-30 daqiqали bug‘lash jarayонida polotno taxlangan shaklda harakatlanadi. Yuvish jihоzлari odatda to‘rtta o‘rnatiladi, ulardan uchtasi yuvish uchun, bittasi esa apretlash uchun xizmat qiladi. Yuvish jihоzлari oralig‘iga siqish vallari o‘rnatiladi. Tizimga birdaniga 2-3 ta polotnoni joylashtirish mumkin. Bu turdagи tizimda polotnoni tortilishi o‘ram holdagiga nisbatan kam, shuning uchun polotnoni ezilgan va singan joylarini hosil bo‘lish ehtimoli ham kam.

***Trikotajni uzlukli va yarimuzluksiz usullarda oqartirish.*** Trikotajni kichik xajmda, turli assortimentlarda, har xil ranglarda ishlab chiqarish talab qilinsa, u holda ularni qaynatish-oqartirish jarayонlarini uzlukli usulda olib borish maqsadga muvofiq keladi. Bu maqsadda ejektorli qozonlardan foydalaniladi. Ejektorli qozonlarda trikotjga jgut holida ishlov beriladi. Yoyiq holatda ishlov berish uchun uzlukli usulda jigger jihоzларida amalga oshirilishi mumkin. Yarim uzluksiz usulda oldin polotno yoyiq holatda pardozlashga tayyorlash eritmasiga, ya’ni qaynatish-oqartirish eritmasiga shimdirilib (39-rasm), texnologik reja bo‘yicha 2-12 soat davomida aylanib turilgan holda xona yoki issiq haroratda saqlab turiladi.



39-rasm. Yarim uzlucksiz usulda pardozlashga tayyorlash jihози.


Talab qilingan vaqt o'tgach polotno uzlucksiz ishlaydigan yuvish jihозида yuviladi. Trikotaj polotnolarini cho'zilishdan saqlash maqsadida ular qattiq tortilmagan holda teshikli vallar orqali harakatlantiriladi (40-rasm).



40-rasm. Trikotaj polotnolarini uzlucksiz usulda yuvish DMS 24 jihози

Buning uchun to'qimachilik materiali oldin xom mahsulot omborxonasida nazoratdan o'tkaziladi va partiyalarga ajratiladi, so'ng kerakli hajmdagi va bir qozonga joylashtirishga mo'ljallangan material tikilib (agar trikotaj polotnosi aylana ko'rinishda to'qilgan bo'lsa, partiya bo'laklari tikilgach ag'darma jihозда teskarisiga o'giriladi), qaynatish-oqartirish qozoniga jo'natiladi. Bitta qozonda ham qaynatish-oqartirish, ham bo'yash jarayonlarini olib borish mumkin. Oqartirilgan material yuza zichligiga bog'liq ravishda yoki aravalarni o'zida (suvning oqib ketishi uchun ma'lum vaqt mahsulot aravalarda saqlanadi), senrifugada yoki tamplerda suvsizlantiriladi. Keyin materiallar assortiment turiga ko'ra (aylanma ko'rinishda to'qilgan polotnoni bo'yi bo'yicha kesish), paxmoqlash, tuk kesish, en berish, yumshatish, yakuniy pardoz berish, dazmollash jarayonlaridan o'tkaziladi.

Aylana to‘qilgan trikotajlarni merserlash jarayoni «Stabilo Flou» firmasining jihozida olib boriladi (41-rasm).



41-rasm. «Tis» firmasining «Stabilo Flou» merserlash mashinasи. 1-mato yo‘naltiruvchi. 2-ishqor eritmasiga shimdirish zonasi. 3-stabillash.

**Trikotaj polotnolarini uzlukli usulda pardozlash.** Trikotajni kimyoviy pardozlash korxonalarida quyidagi mexanik jarayonlaramalgaoshiriladi: polotno rulonini ochish va tegshili partiyalar hosil qilish uchun ularni bir-biriga tikish, aylana ko‘rinishda to‘qilgan polotnolrni teskarisigao‘girish, suvsizlantirish, quritish, kalandrlash, tuk chiqarish, paxmoqlash, stabillash, en berish, sifat nazorat.


*Polotno rulonini ochish va tegshili partiyalar hosil qilish uchun ularni bir-biriga tikish.* Korxonaga keltirilgan trikotaj polotno partiyasining 15% - i sifat nazoratidan o‘tazilib, olingan natija shu partiyaning barcha hajmiga taalluqli deb hisoblanadi. Sifat nazoratidan o‘tgan partiyadagi rulonlar rulon ochish mashinasida ochilib (42-rasm), aravalarga taxlanadi.



42-rasm. Rulon ochish jihози.

Taxlash jarayонидаги тегишли партияга ишлов бериш кетма-кетлиги бо‘йича янги партиялар ташкіл етілді. Бу партияга тегишли бо‘лган полотно бо‘лаклари ишлов бериш жиhoзининг hajmiga mos ravishda kerakli og‘irlikka ega bo‘ladigan miqdorda bir-biriga tikiladi. Polotno bo‘laklari tikuv mashinasida yaxlit bitta lenta ko‘rinishda tikiladi. Polotno bo‘laklarini tikishda ularni o‘ngi va teskarisiga alohida ahamiyat beriladi. Bir partiyadagi barcha bo‘laklar bir taraflama tikilgan bo‘lishi kerak. Tikish jarayонидаги chocni bir tekis bo‘lishi, polotnoda eni bo‘йича chocga buralib kirgan joylarini bo‘lmasligi talab qilinadi, choc eni 1,5 sm dan oshmasligi lozim. Rulon ochish mashinasi uzluksiz usulda ishlaydi.

*Aylana ko‘rinishda to‘qilgan polotnolrni teskarisiga o‘girish.* Ayrim assortimentdagи trikotaj polotnolariga kimyoviy ишлов бериш үчун korxonaga keltirilgan aylana ko‘rinishdagи polotno kimyoviy ишлов берishdan oldin tekskarisiga o‘giriladi. Bularga yuzasi paxmoqlangan yoki tolalari polotno yuzasiga chiqarilgan (velyur) assortimentlar tegishli. Polotnoni teskarisiga ag‘darish jihozlari (43-rasm) ma’lum miqdordagi polotnoga ишлов берishga mo‘ljallangan, bu jihoz uzlukli usulda ishlashga mo‘ljallangan.



43-rasm. Polotnoni teskarisiga ag‘darish jihizi.


*Suvsizlantirish.* Bu jarayonni siqish jarayoni deb ham yuritish mumkin. Trikotaj polotnosiga oqartirish-bo‘yash jihozida kimyoviy ishlov berilgandan so‘ng, u qozondan jgut ko‘rinishda tagida teshikchalari bo‘lgan aravalarga olinadi. Ishlov berilgan polotnoni aylana yoki yoyiq holatiga va keyingi ishlov berish jarayonlariga bog‘liq ravishda polotnoni suvsizlantirish uchun aylana ko‘rinishda siqish (ballon siqma), sentrifuga, nam jgutni ochish, bo‘ylamasiga kesish jihozlari qo‘llaniladi.

Aylana ko‘rinishda ishlov berilgan va keyingi jarayonlardan ham aylana ko‘rinishda o‘tadigan assortimentlar ballon siqma jihozida (44-rasm) suvsizlantirilib, talab etilgan en bo‘yicha tekislanib aravalarga «kitob» ko‘rinishda taxlanadi. Ballon siqma jihizi uzluksiz usulda ishlaydi.




44-rasm. Aylana ko‘rinishda to‘qilgan polotnoni suvsizlantirish-siqish jihizi.

Yoyiq ko‘rinishda ishlov beriladigan assortimentlar aravalarda ma’lum vaqt saqlanib, keyin jgut ochish jihozida (45-rasm) yoyiq holatda silliq qilib boshqa aravalarga taxlanadi. Jgut ochish jihozи uzluksiz usulda ishlydi.



45-rasm. Jgutochishjihizi.

Aylanako‘rinishdakimyoviyishlovberilgan, keyingijarayonlardanyoyiqholatdao‘tadiganassortimentdagipolotnoqozondanchiqar ibolingandaaylanako‘rinishdagitagidag‘ildiragiborbo‘lganaravalargachiqaribolinadi. Bu aravadan jgut holidagi polotno bo‘ylamasiga kesish jihozidan o‘tkaziladi (46-rasm). Bu jihozda bir vaqtning o‘zida ham polotno bo‘ylamasiga kesiladi, ham suvsizlanadi. Eni ochilishga mo‘ljallangan polotnoni to‘qish jarayonida bo‘ylamasiga bitta ip tashlab ketilishi hisobiga polotnoni uzunasi bo‘yicha kesish chizig‘i hosil bo‘ladi.



46-rasm. Aylana ko‘rinishda to‘qilgan polotnoni bo‘ylamasiga kesish jihizi.

Polotno jihozdan o‘tishi davrida datchik shu ip qolgan hududni belgilab kesish pichog‘iga to‘g‘rilab beradi, natijada polotno uzunasi bo‘yicha bir tekis kesiladi. Tagi g‘ildirakli aylana ko‘rinishdagi arava doimiy ravishda kerakli tarafga aylanib polotnoni jihozga tekissh uzatilishini ta’minlaydi. Bo‘ylamasiga kesish jihizi uzlusiz usulda ishlaydi.


Yuzasiga tolachalari chiqarilgan (velyur) assortimentidagi polotno assortimentlari qaynatish-oqartirish jarayonidan keyin sentrifugada suvsizlantiriladi (47-rasm). Bunda yaxlit lenta ko‘rinishda tikilgan partiya yana qaytadan choklari ochilib alohida bo‘laklarga ajratiladi.



47-rasm. Sentrifuga – polotnoni suvsizlantirish jihizi.


Sentrifugaga bir marotaba suvsizlantirish uchun bir xil rangdagi polotno yuklatiladi. Suvsizlantirish uchun to‘q ranglarda bo‘yalgan polotnolarga ishlov berilgandan so‘ng och rangli yoki oq polotno suvsizlantirilsa sentrifuga to‘ri albatta yaxshilab yuviladi. Velyur assortimentini sentrifugada suvsizlantirish keyingi tolachalarni kesish jarayonini osonlashtiradi. Sentrifuga uzlukli tarzda ishlaydi.

*Quritish.* Suvsizlantirilgan polotnoni quritish uzlusiz va uzlukli ishlovchi quritish jihozlarida amalga oshiriladi. Quritish jarayonida polotnoni cho‘zilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Qaritish barabanlari yuzasini to‘liq qoplash maqsadida aylana ko‘rinishdagi assortimentlar bir vaqtda ikkita parallel qilib jihozga joylashtiriladi. Quritish asosan konvektiv usulda amalga oshiriladi (**48-rasm**).



48-rasm. Polotnoni konvektiv usulda quritish jihizi.

Jihoz konstruksiyasiga mos ravishda polotno yoyiq holda to‘rli cheksiz lenta ustida yoki teshikchali quritish barabarlari yuzasida (kontakt usul) quritiladi. Velyur assortimentidagi assortimentlar sentrifugadan chiqgach uzlukli usulda ishlovchi tampler jihozida quritiladi. Ko‘p hollarda quritish jarayoni bilan birgalikda en kengaytirish jarayoni ham amalga oshiriladi. Aralash tolali polotnoga ishlov berishda quritish uchun quritish-en kengaytirish-stabillash jihozlari ham qo‘llaniladi (49-rasm). Quritish jihozitdan chiqgan polotno tekis qilib «kitob» ko‘rinishda aravaga taxlanadi.




49-rasm. Quritish-en kengaytirish-stabillash jihizi

*Kalandrlash.* Bu jarayonda polotno bug‘latiladi (qaynoq qizigan valdan o‘tadi), dazmullanadi va eni kengaytiriladi. Kalandrlash jarayonida polotnoga kerakli bo‘lgan yuzaviy zichlik beriladi, xalqa strukturasidagi qiyshayishlar to‘g‘irlanadi. Kalandrlash jarayonida yuqori sifatga erishish uchun kalandrda «kitobdan» «kitobga» prinsipida ishlash tavsiya etiladi. Kalandrlash jihozidan

eniga mos ravishda 1 yoki 2 polotno parallel o‘tishi mumkin. Ishlov beriladigan polotnoning yuza zichligiga mos ravishda jihoz 8-25 m/daq tezlikda ishlaydi.

*Paxmoqlash.* Futer to‘qimasida to‘qilgan trikotaj polotnolari paxmoqlash jarayonidan o‘tkaziladi. Paxmoqlash jarayonida polotno yuzasidagi tolachalar titilib, tukli qatlam hosil qilinadi (50-rasm). Bu qatlam hosil qilinganda polotno yuzasidagi xalq strukturasi ko‘rinmay qolib, polotnoning yuzasi chiroyli ko‘rinishga ega bo‘ladi.



50 -rasm. Paxmoqlash jihizi.

Paxmoqlash jarayonidan paxta tolali, paxta tolasini boshqa tolalar bilan aralashmasili, jun va yarim jun polotnolar o‘tkaziladi. Yuzasi paxmoqlangan polotno teskarisiga o‘girilib (paxmoqlangan yuza ichkarisida bo‘ladi), keyingi jarayonlarga jo‘natiladi. Paxmoqlash jarayonidan o‘tishga mo‘ljallangan assortimentlar kimyoviy pardoz berish jarayonidan oldin teskarisiga (paxmoqlanishi kerak bo‘lgan yuza tashqarida bo‘ladi) o‘girilgan bo‘ladi.

*Tuk kesish.* Yuzasidakaltatolaliqatlamhosilqilish – velyurpolotnoolishuchuntukkesishjarayoniamalgaoshiriladi. Tuk kesishdan maqsad tolalarga aniq bir uzunlik berishdir. Tuk kesish jarayoni kesish-pardozlash jihozlarida (51-rasm) amalga oshiriladi.



**51-rasm.** Tuk kesish jihizi.

Trikotaj polotnolaridatuk kesish jarayoni davujud gakeladigan bir qator qiyinchili klarbo'lib, butrikotajni elastikligi, uzunasibo'yichacho'zilishivaziylariniburalibketishibilan bog'liq. Tuk kesish jarayoni polotnoga ishlov berish turiga ko'ra bir necha bor qaytarilishi mumkin. Gul bosishga mo'ljallangan trikotaj agar uning yuzasi paxmoqlanmasa va velyur bo'lmasa polotno pardozlashga tayyorlash va bo'yash jarayonlaridan so'ng tuk kesish jarayonidan o'tkaziladi. Velyur polotnolar pardozlashga tayyorlash va bo'yash jarayonlaridan odin va keyin - ikki martaba tuk kesish jarayonidan o'tkaziladi. Tuk kesish jihoziga uzatiladigan polotno yuzasida g'ijimliklar, buklanishlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Jihozdan eni yaxshi tortilgan holda o'tkaziladi. Jihoz 5-32 m/daq tezlikda ishlaydi. Tuk kesish jarayoniga kirishdan oldin polotno havo ta'sirida betartib holda quritiladi (**52-rasm**), bunda polotno yuzasiga yopishib qolgan tukchalar ko'tarilib, tuk kesish sifatiga ijobiy ta'sir etadi.



52-rasm. Tukli trikotaj polotnolarini kesish jarayonidan oldin quritish johozi - Tamplar

*Stabillash.* Stabillash jarayonidan tarkibida paxta va sintetik tolalar bo‘lgan trikotaj polotnolarida amalga oshiriladi. Stabillash jarayonidan so‘ng polotno kam kirishuvchan bo‘lib yuzasi silliq yuzaga ega bo‘ladi. Stabillashning asosiy omillaridan biri poltnoni eni bo‘yicha bir tekis qizishi, jarayon davomiyligi va haroratini bir xil ushlab turish hisoblanadi. Stabillash jarayoni ko‘p hollarda quritish jararyoni bilan birgalikda olib boriladi. Stabillashuchunuzluksizishlaydiganjihozlarqo‘llaniladi.

#### *Yakuniypardozberish.*

MexanikusuldayakuniypardozberishjihozlaridatrikotajpolotnolarigaGOSTtalabibो‘yichaen, yuzaviy zichlik berilib, aylanako‘rinishdagipolotnolarkitobko‘rinishda, yoyiqko‘rinishdagipolotnolarrulonlargao‘ralib, polietilen bilanqadoqlanadi.

*Sifat nazorat.* Sifat nazorat jarayonidan 15 % xom polotno va 100 % tayyor polotno o‘tkaziladi. Xom mato standart bo‘yicha enini to‘g‘ri kelishi, polotnoda yirtiqlar, teshiklar mavjudligi, turli to‘qimachilik nuqsonlarini bor-yo‘qligi aniqlanadi. Polotno yuzasiga turli yog‘ va moylarni to‘kilganligi tekshiriladi. Tayyor polotnoning sifati tekshirilganda shu polotnoni GOST yoki TSH talablarga javob berishi nazoratdan o‘tkaziladi. Bunda tayyor polotno eni, yuza zichligi, rang tekisligi, gullarni talabga javob berishi, polotno yuzasida turli dog‘larni borligi, paxmoqlangan va tolachalari chiqarilgan assortimentlarada hosil qilingan qatlamning tekisligi nazorat qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Trikotajga kimyoviy ishlov berish jarayonlari qanday amalga oshiriladi?
2. Trikotaj matolarni suvsizlantitsh jarayoni qanday uskunalarda amalga oshiriladi

## 15 -MA'RUZA

### **Bobinani pardozlashga tayyorlash. Materiallarni pardozlashga tayyorlanganlik sifatini tekshirish**

Reja:

1. Bobinani pardozlashga tayyorlash.
2. Pardozlash jarayoni sifatini tekshirish.
3. Pardozlash jarayonida vujudga keladigan nuqsonlar.

***Bobinani pardozlash.*** Tayyor oqartirilgan yoki bo'yalgan iplarni ishlab chiqarishda yigirilgan xom ip kimyoviy tayyorlash jarayonlaridan o'tadi. Bu jaryonlarni amalga oshirish uchun ipni turli shakldagi pakovkalarga qayta o'rash talab etiladi. Qayta o'rashning 5 ta asosiy usuli mavjud: bobinaga, jgutga, pochatkaga, bobinaga, navoyga.

Ipni bobinaga qayta o'rash bir qancha afzallikkarga ega: osonlik bilan sifatini tekshirib, sifatsiz joylarini chiqarib tashlash mumkin; kimyoviy ishlov berish chog'ida kimyoviy reagentlar bobinaga tez va bir tekis shimaladi; quritish jarayonining ish unumdorligi yuqori. Bobinadagi ipga ishlov berish jarayonining surʼat-harajati bobinada yoki yuzasi teshik valikda ishlov berish jarayonidan qimmat.

Jgutda ishlov berishda ham kimyoviy reagentlar ipga tez va bir tekis shimaladi; quritish jarayonining ish unumdorligi yuqori, lekin erishilgan sifat darajasini aniqlab bo'lmaydi. Pochatkalarini bo'yashda ravon rang olishga erishib bo'lmaydi. Ipni bobinaga qayta o'rab bo'yashda yigirish va burama berish jarayonida yo'l qo'yilgan nuqsonlarni aniqlash imkoniyatibo'lmaydi. Barcha

nuqsonlar bobinani ich qismlarida qolib ketadi. Ammo ishlov berish jarayoni boshqa usuldagilarga nisbatan arzon. Navoyda ishlov berishda ham yigirish va burama berish jarayonidagi nuqsonlarni tekshirish imkoniyati bo‘lmaydi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan barcha qayta o‘rash jaryonlarida ipni uzilishi, ***ugarva podmet hisobigama***’lum miqdorda ip massasini yo‘qolishi sodir bo‘ladi.

Ishlov berishdan oldin ip nazoratdan o‘tkazilishi lozim. Paxta tolasida organik va noorganik tipdagi chiqindilar, hamda tabiiy nuqsonlar (*jgutiki,kombinirlangan jgutiklar*, yetilmagan va maydalangan urug‘,tola va puxlikojitsa) bo‘lib, ular tolani yigirish jarayonini qiyinlashtiradi. Ba’zi nuqsonlar yigirish jarayonidan o‘tib, kimyoviy jarayonlargacha yetib keladi. Bu esa o‘z navbatida kimyoviy jarayondan oldin olib boriladigan qayta o‘rash jarayoniga ta’sir etadi, ya’ni ipning uzilish sonini ko‘paytiradi, nuqsonlarni matoga o‘tishi esa, nuqsonli mato hosil bo‘lishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan nuqsonlardan yetilmagan va maydalangan urug‘, tola va puxli kojitsalar paxta tolasini dastlabki tozalash va yigirish jarayonlaridan o‘tib, to mato to‘qilguncha yetib keladi va ip yoki mato yuzasida qora dog‘larni hosil qiladi.

Qayta o‘rash jarayonida ip massasini yo‘qolish miqdori quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$U_m = \left[ \frac{l_1 + l_2 + l_3 K + l_4 \frac{n}{100}}{L} + \frac{g}{G} \right] * 100 \quad (1)$$

Bu erda:

$l_1$ - pachatkadagi ipni jihozga zapravkalash oldidan sarf bo‘ladigan ip miqdori, m – 1,5

$l_2$ - pachatkani almashtirishda iplarni ulash uchun bobinadan echib olinadigan ip miqdori, m – 0,75

$l_3$ - uzilgan ipni ulash, ipni bo‘sh joylari va sletlarniolib tashlash maqsadida pochatka va bobinadan echib olinadigan ip miqdori, m – 1,75

K- bitta pochatkaga to‘g’ri keladigan ipni uzilish miqdori:

$$K = \frac{r}{10^6} L$$

Bu erda:

r – ipni 1 mln m. uzunligiga to‘g’ri keladigan uzilishlar

soni – 50-120

L- pochatkadagi ipni uzunligi, m

$$L = \frac{G \cdot 10^6}{T_{mec}}$$

l<sub>4</sub>- yigirish va burama berish jihozlarida pochatkaga ipni yomon o‘ralishi natijasida ishlanmay qolgan ipning o‘rtacha uzunligi, m – 10


n- oxirigacha ishlanmagan pochatkalar soni, % - 10

g- nazorat olib borilgan vaqtida hosil bo‘lgan pux va chang massasi, kg


G-nazorat olib borilgan vaqtida qayta o‘ralgan ip massasi, kg

Iplar kimyoviy jarayondan oldin MM 150-2 jihozida teshikchali silindrga qayta o‘raladi. So‘ng silindrga o‘ralgan ip silindr tashuvchiga joylashtiriladi va kimyoviy ishlov berish qozoniga joylashtiriladi. Kimyoviy ishlov berish qozonida ip qaynatiladi, oqartiriladi (ko‘p xollarda qaynatish - oqartirish jarayonlari birgalikda olib boriladi) va rangli iplar talab qilinganda bo‘yaladi.

Bobinani qaynatish - oqartirish uchun DILMENLER firmasining uzlukli ishlaydigan qozonlari (53-rasm), ishlov berilgan bobinalarni suvsizlantirish uchun sentrifuga, quritish jihozlari (55-rasm) ishlatiladi. Bobinani merseralsh jarayoni jgut yoki bobina xolatda olib boriladi. Bobinani jgut yoki bobina xolatda merserlash vallari gorizontal joylashtirilgan Germaniyaning «Tekstima» yoki vallari vertikal joylashtirilgan Italiyaning «Mekanotessile» jihozlarda ham olib boriladi (54-rasm).



53-rasm. Bobinani pardozlashga tayyorlash (bo'yash) DMS 04 HTjihizi.



54-rasm Bobinani merserlash jihizi.


Ipni oqartirish 1:10 modulda  $100^{\circ}\text{C}$  haroratda 60-70 min davomida olib boriladi. Oqartirish eritmasi vodorod peroksid, SAM, ishqor va natriy silikat (yoki natriy metasilikat) dan tarkib topgan. Oqartirish jarayoni tugagach eritma qozondan to'kib yuboriladi keyin issiq va sovuq suv bilan yuviladi.

Kimyoviy ishlov berish jarayoni tugagach qozondan silindr tashuvchi chiqarib olinadi va silindrlar sentrifugada markazdan qochma kuch tasirida suvsizlantiriladi.

So‘ng silindrlar quritish uchun quritish shkafiga joylashtiriladi. Quritilgan iplar yana teshikchali silindrda konuslarga qayta o‘raladi va to‘qish sexiga uzatiladi. «Dilmenler» firmaning jihozlarida kimyoviy ishlov berilgan bobinalarni suvsizlantirish, quritish jarayonlari bitta qurilmada amalga oshiriladi.



55-rasm. Bobinalarni quritish  
KABINELLI jihozi



56-rasm. Bobinani suvsizlantirish-  
quritish DMS 14 HT jihizi

Ishlab chiqarish sharoitida iplarni amaliy sarfi ko‘p xollarda nazariy sarf miqdoridan ko‘p bo‘ladi. Ipning nazariy va amaliy sarf miqdorini o‘zaro farq qilishiga sabab: ishchilarni ipni qayta o‘rash jihozigajoylashtirish, uzelgan iplarni ulash, ip nuqsonlarini ajratish jarayonlarida ipni ko‘p sarf qilishlari, oxirigacha ishlanmagan pochatkalar sonini normadan ko‘p hosil bo‘lishi, metall silindrlarni bo‘yash apparatiga joylashtirish vaqtida silindrdaagi bobinaning ko‘p qismini kesilib ketishidir.

Qayta o‘ralgan iplarni oqartirish va bo‘yash jarayonlari korxonada tasdiqlangan texnologiya bo‘yicha olib borilishi talab qilinadi. Kimyoviy ishlov berish jarayonida xam ip massasi ma’lum miqdorda yo‘qoladi.

Ip maxsulotlariga kimyoviy ishlov berish jarayonida paxta tolsi tarkibidan tabiiy qo‘srimcha moddalar eritmaga chiqib ketadi. Pishgan paxta tolasining o‘rtacha tarkibi quyidagicha: %:

Sellyuloza

– 94,0

|                     |       |
|---------------------|-------|
| Mumsimon moddalar   | – 0,6 |
| Organik kislotalar  | – 0,8 |
| Pektin moddalar     | – 0,9 |
| Azotli moddalar     | – 1,3 |
| Kul moddalar        | – 1,2 |
| Qand                | – 0,3 |
| O‘rganilmagan qismi | – 0,9 |

Oqartirish va bo‘yash eritmalari tarkibidagi ishqor, sirt aktiv modda, silikat natriy va vodorod peroksid moddalari ta’sirida tola tarkibidagi mumsimon moddalar emulgirlanib emulsiya holatida eritmaga o‘tadi. Azot tutgan moddalar gidrolizlanadilar va gidroliz maxsulotlari suvda eruvchanligi tufayli yuvish jarayonida ip tarkibidan chiqib ketadilar. Tarkibida karboksil guruhi bo‘lgan moddalar esa tuzga aylanib suvda eruvchan xolatga o‘tadilar. Etilgan paxta tolasidan taylorlangan maxsulotlar kimyoviy ishlovlardan so‘ng 5-6 % massasini yo‘qotishi lozim. Lekin ishlab chiqarish sharoitda massaning yo‘qolishi ipni naviga qarab ko‘p bo‘lishi mumkin. Bunga sabab iplar turli tip va navdagi paxta tolasidan tayyorlanganshidir. Ip tarkibida ko‘p miqdorda lignin (chanoq, ko‘sak, barg, poya va chigit bo‘lakchalari) bo‘lsa, u ishqoriy ishlov jarayonida toladan chiqib ketadi. Undan tashqari ipning ko‘p qismini etilmagan paxta tashkil etsa, bu o‘z-o‘zidan massani ko‘p miqdorda kamayishiga sabab bo‘ladi. Etilmagan paxta tolasida sellyuloza 80% gacha kamayib ketishi mumkin. Ip turli nav va tipdagi xom ashyodan tayyorlanganligi sababli kimyoviy ishlovlardan so‘ng ipning chiziqli zichligi (teksi) uzinligi bo‘yicha har xil qiymatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Bo‘yalgan va oqartirilgan iplar mato to‘qish fabrikasiga borishdan oldin yana qayta o‘rash jarayonidan o‘tadi (teshikli metall silindrlardan konuslarga o‘raladi). Qayta o‘rash jarayonida ip miqdorini yo‘qolishi yuqoridagi formula orqali hisoblanadi. Odatda ipni qayta o‘rashda nazariy 0,024-0,15 %, amalda esa 1,3-3,0% ni tashkil etishi mumkin.

Agar ip sifatsiz xom ashayodan tayyorlangan bo‘lsa, ipga ishqoriy ishlov berish jarayonida uning fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini pasayadi, chala yuvilgan iplarni quritish jarayonida uning tarkibidagi ishqor konsentratsiyasi ortadi va bu ham ipning fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini pasayishiga sabab bo‘ladi, natijada ipni qayta o‘rash jarayonida ipning yo‘qolishi nazariy maiqdordan amaliyda ko‘p bo‘ladi.

Qayta o‘rash jarayonida ip massasini kamayish darajasini pasaytirish uchun quyidagilarga amal qilish tapvsiya etiladi:

1. Ipni etilgan paxta navlaridan tayyorlash.
2. Ipni bir-biriga yaqin bo‘lgan xarakteristikadagi xom ashylardan tayyorlash.
3. Turli tip va navdagi xom ashayodan tayyorlangan iplar uchun kimyoviy jarayonda ip massasini kamayish miqdorlarini normativlashtirish.
4. Yigirish va qayta o‘rash sexidagi ishchilar kvalifikatsiyasini oshirish (ugarga chiqadigan ip normalarini saqlash, pachatka va silindrga ipni o‘rashda texnologik normalarga rioya qilish).
5. Kimyoviy ishlov berish jarayonida yuvish jarayonini to‘liq borishiga rioya qilish (ipni quritishdan oldin ishqoriy reaksiyaga tekshirish).
6. Kimyoviy jarayonlarda qo‘llaniladigan teshikli metall silindrлarni plastmassali silindrлarga almashtirish.
7. Kimyoviy ishlov berishda silindrлarni sterjenlarga joylashtirishda ipni kesilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik.

*Sellyulozali materiallarni pardozlashga tayyorlanganlik sifatini tekshirish.* Pardozlashga tayyorlangan mato sifati davlat standartlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

1. Matodagi kraxmal miqdorini aniqlash.
2. Oqlik darajasini aniqlash
3. Kapillyarlikni aniqlash
4. Ip gazlamalarni merserlanganlik darajasini aniqlash.

Matoda qolgan kraxmalni sifatiy aniqlash. Nam matoga tarkibida 0,1 g yod kalyt tutgan 100 ml suv tomiziladi. Matoda agar kraxmal qolgan bo'lsa, eritma tomgan joyda ko'k rang hosil bo'ladi. Kraxmal miqdoriga qancha ko'p bo'lsa, hosil bo'lgan rang intensivligi shuncha yuqori bo'ladi.

**Oqlik darajasini aniqlash.** Namunalarning oqlik darajasi «Minolta» spektrofotometrida aniqlanadi. Spektrofotometr oq va qora etalonlar bo'yicha kolibrovka qilinadi. Uning Data baza katagi bosiladi va spektrofotometrga qora maska joylashtirilib Measure katagi bosiladi va bir oz poylab turiladi. Ekranda oq etalonni qo'yish mumkinligi to'g'risida axborot chiqgach, spektrofotometrga oq etalon joylashtirilib yana Measure katagi bosiladi. Ekranda kolibrovka tugaganligi xaqida axborot chiqadi. So'ng quydagi amallar ketma-ket bajariladi: mato spektrofotometrga joylashtiriladi, RH katagi bosiladi OREN AS WAITEX. Ekranning tepe chap tarafidagi birinchi tugma bosiladi. Ekranda o'lchanayotgan mato oqlik darajasi qiymati to'rtta standart bo'yicha hisoblanib, son va grafik ko'rinishda chiqadi. Talab qilinganda ularni qog'ozga ko'chirish mumkin. To'qimachilik maxsulotlarining oqlik darajasi % larda ifodalanadi.

**Kapillyarlikni aniqlash.** Uzunligi (tanda bo'yicha) 30 sm va eni (arqoq bo'yicha) 5 sm bo'lgan namuna kalyb bixromat eritmasiga (3 g/l) 1 sm tushuriladi va eritma solingan idish tepasiga vertikal xolda ilib qo'yiladi. Rangli eritmaning namuna bo'yicha ko'tarilishi kuzatiladi va ko'tarilish balandligi 1, 5, 10, 20, 30 va 60 daqiqalarda o'lchanadi. Agar 30 daqiqada eritmaning ko'tarilish balandligi 125 mm atrofida bo'lib, ko'tarilish satxi tekis bo'lsa, mato bo'yashga yaxshi taylorlangan hisoblanadi. Qaynatish ravonligini aniqlash uchun eritmani maksimal va minimal ko'tarilish balandliklari o'lchanadi va farqi aniqlanadi. Farq qancha kichik bo'lsa mato shuncha ravon qaynatilgan bo'ladi.

**Merserlangan matoni bo'yaluvchanligini tekshirish.** Tortib merserlangan va bo'sh holatda merserlangan, hamda xom mato namunalariga tarkibida 1 g/l bevosita havo rang bo'yovchi modda bo'lgan bo'yash eritmasida ishlov beriladi. Namunalar sovuq bo'yash eritmasiga solinadi, so'ngra eritma 5-10 min davomida isitiladi,

so‘ngra namunalar yuviladi. Ishlov berilgan namunalarning rang intensivliklari o‘lchanadi va taqqoslanadi.

**Fizik-mexanik xossalari.** Xar bir pardozlash jarayonidan o‘tgan matodan namuna olinib korxona laboratoriyasida uning uzilishga bo‘lgan mustahkamligi (N) va uzilishdagi cho‘zilishi (%) mahsus qurilmalarda o‘lchanadi. Ипларнинг мустахкамлик хусусиятини «Stalimat C», «AUTOGRAPH AGS-H» жихозида ГОСТ 6611.2-73 бўйича аниқланди.

«Stalimat C» жихози тўқимачилик иплари, калава ва бошқаларнинг узилишдаги мустахкамлигини текшириш учун қўлланилади. Ушбу қурилма DIN 51 221, DIN 53 834, ISO 2062 стандартига биноан доимий деформация тезлиги принципи бўйича ишлайдиган автоматик қурилма хисоблонади. Оғирлик кучи: ~ 100 Н; Чўзилувчанлиги: 0,1-800 %.

«AUTOGRAPH AGS-H» жихози тўқимачилик иплари, калава ва бошқа турдаги толаларнинг узилишдаги мустахкамлигини текшириш учун қўлланилади. Бу жихоз маҳсус компьютер программаси ёрдамида ишлайди. Унда қўйидаги маълумотлар намоён бўлади: узилишдаги мустахкамлик, Н; узилишдаги чўзилувчанлик, %.

Matoning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tegishli xujjalarda keltirilgan qiymatlarga mos kelishi shart, mos kelmasligi texnologik jarayonni buzilganligi yoki ishlov berilayotgan eritma tarkibini talab qilingan tarkib mos kelmasligida vujudga kelishi mumkin.

Matoni pardozlashga tayyorlash jarayonida vujudga keladigan nuqsonlar:

Tuk kuydirishda:

1. CHala va notekis kuydirilgan.
2. Xar xil ziyli kuydirish.
3. O‘ta kuydirish.

Oxorsizlashtirishda:

1. CHala oxorsizlashtirish.

2. Matoni bshashib qolishi (tuzalmaydi), bu nuqsonlar mato ko‘p vaqt saqlanganda va matoni qurib qolishi natijasida vujudga keladi.

Qaynatish:

1. Notekis qaynatish.
2. Sovunli dog‘lar - matodagi  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  tuzlari cho‘kmasi.
3. Zangli dog‘lar.
4. Qo‘ng‘ir dog‘lar.
5. Matoni bo‘shashi.

Oqartirish

1. Matoni cho‘zilishi
2. CHala oqartirilganlik
3. Oqlik darajasini va kapillyarligini pastligi.
4. Sovunli dog‘lar
5. Matoni bo‘shashishi
6. Oqlikni muqim emasligi
7. Matoni mahalliy bo‘shashishi.

Merserlash:

1. Etarlicha bo‘lmagan yaltiroqlik
2. Ziyarda zanglarni paydo bo‘lishi
3. Ziyarlarni yirtilishi
4. Mato enini notejisligi.

Bu nuqsonlar texnologik parametrlarga rioya qilmaslik va jihozni nosoz ishlashi natijasida vujudga keladi. Nuqsonlar qaytar va qaytmas bo‘lishi mumkin. Qaytmas nuqsonli matolar gruntli gul bosishga, o‘yinchoq fabrikasiga jo‘natilishi mumkin yoki tayyor mato massada yoki lahtak ko‘rinishda sotuvga chiqarishga mo‘ljallanadi.

Mato sifati to‘liq, tanlab na nazorat bo‘yichat ekshiriladi. Tashqi ko‘rinishi, qadog‘i va tamg‘asini normativ-texnik xujjatlarga mos kelishi to‘liq 100% tekshiriladi. Tanlab tekshirish faqat standart, texnik shart yoki tegishli shartnomaga asosan o‘tkaziladi. Sifatni nazorat tekshirish savdo tashkilotlari

tomonidan to‘qimachilik korxonalarida o‘tkaziladi. Bunday hollarda bozor uchun tayyorlangan matoning kamida 10%-i nazoratdan o‘tkaziladi.

Nazoratdan o‘tgan matoda nuqsonlar ip, to‘qima va pardoz bo‘yicha turlarga ajratiladi. Ipdagi nuqsonlar tolani yigirish, unga burama berish, ip olish uchun tolalar aralashmasini noto‘g‘ri tayyorlash, yaxshilab taramaslik, pilikni notenks tortish jarayonlarida vujudga keladi. Bu nuqsonlar matoning sifati tashqi ko‘rinishini yomonlashtiradi, xizmat qilish va yaroqlilik muddatini kamaytiradi.

To‘quvchilikdagi nuqsonlar to‘quv jihozini noto‘g‘ri rostlash, ipning sifati past bo‘lganda, ishchilarining xatosi bilan vujudga keladi. Pardozlash bosqichi nuqsonlari oqartirish, bo‘yash, gul bosish, paxmoqlash va yakuniy pardoz berish texnologik jarayonlarini buzilishida sodir bo‘ladi.

Mato tashqi ko‘rinishidagi nuqsonlar ikki – xududiy va tarqalgan turlarga ajratiladi. Xududiy nuqsonlari bu – matoning ayrim joyida hosil bo‘lgan dog‘lar, teshiklar, rang tuslarining o‘zgargani va boshqalar. Tarqalgan nuqson esa mato bo‘lagi bo‘yicha yoyilgan bo‘ladi. Xududiy nuqsonlar o‘lchami bo‘yicha baholanadi.

O‘lchami katta bo‘lgan xududiy nuqsonlar (2sm dan katta bo‘lgan dog‘lar, teshiklar, choklar, rangn tusini o‘zgargan qismlari) mato bo‘lagidan to‘qimachilik korxonasida kesib tashlanadi. Bunday nuqsonlar korxonada kesib tashlanmay bo‘lsa, magazinda tekshiruv chig‘ida aniqlansa, ular kesiladi va korxonaga qaytariladi va ularga jarima solinadi. Nuqsonlarni kesib tashlash orqali bir to‘pdagi mato bo‘laklari soni standart talablariga mos kelishi shart.

Tegishli xujjatning minimal talablaridan og‘ish bo‘lgan xollarda mato 2-navli hisoblanadi. Masalan zig‘ir matosi uchun 1-navga tegishli bo‘lgan minimal ko‘rsatkichlardan ko‘pi bilan quyidagi og‘ishlar (%) bo‘lganda u 2-navga qabul qilinadi: eni bo‘yicha – 1,5; yuzaviy zichligi bo‘yicha – 5,0; 10 sm dagi iplar soni bo‘yicha – 2,0; uzilishga mustahkamligi bo‘yicha 5,0.

Tayyor mato 15 – 18°C haroratda havoning nisbiy namligi  $60 \pm 65\%$  bo‘lgan sharoitda saqlanadi. Harorat va namlikni ortishi matoda mikroorganizmlarni rivojlanishiga va ular ta’sirida chirishiga sabab bo‘ladi. Ko‘pchilik matolar uchun

quyidagi ko‘rsatkichlarni nazorat qilish majburiy hisoblanadi: tolaviy tarkibi (%), iplarning chiziqli zichligi (teks), 10 sm dagi asos va arqoq iplarning soni, mato eni (sm), matoning yuzaviy zichligi ( $\text{g}/\text{m}^2$ ), uzilishdagi mustahkamligi (N), rang mustahkamligi (ball).

Nazorat savollari:

1. Qayta o‘rashning qanday asosiy usullarini bilasiz?
2. Bobinani qaynatish-oqartirish jarayoni qanday sharoitda olib boriladi?
3. Matoni padozlashga tayyorlash jarayonida vujudga keladigan nuqsonlar?
4. Matoning sifati qanday tekshiriladi?

## **16 -MA’RUZA**

### **Juntolaassortimentlari**

Reja:

1. Jun tolali mahsulotlarini padozlashga tayyorlash jarayoni turlari va ularning vazifalari
2. Jun matolarni tig‘izlash va yuvish.
3. Jun matolarni karbonlash va paxmoqlash.
4. Kamvol matolarni padozlashga tayyorlash

Jun matolari turli ko‘rinishdagi matolarning qimmat turiga ta’luqli bo‘lgan matolar guruhiga kiradi. Jun matolar chiroyli, pishiq, ko‘rinishini yo‘qotmaydigan, yuqori darajada issiqlik tutish xususiyatiga ega bo‘lib, undan qishlik kiyimlari ishlab chiqariladi.

Jun matolar boshqa matolarga nisbatan ancha ilgari ishlab siqarila boshlangan. Jun matosining ayrim xossalari o‘zaro nomutanosibdir, ya’ni jun suvni o‘zidan itaradi, lekin boshqa matolarga nisbatan namlikni o‘ziga yaxshi singdiradi. Jun matosi qishda issiq tutadi, shu bilan birga yozda salqinlik baxsh etadi, o‘zi havo o‘tkazadi, va tananing nafas olishiga yordam beradi. SHu bilan birga matodagi bo‘shliqlar termos vazifasini o‘taydi, issiq va sovuqdan himoya qiladi.

Jun inson terini o‘ziga tortdi va tana yuzasidan o‘ziga singdiradi. Jun tana namligini kiyimning ichki tarafiga sorblab oladi va u erdan namlik havoga uchib ketadi.

Jun matolar assortimenti. Jun matolar tolaviy tarkibiga ko‘ra quyidagicha sinflanadi:

- sof jun mato – 95% jun toladan tashkil topgan;
- jun mato – tarkibida 70% dan kam bo‘lмаган miqdorda jun tolesi bo‘lgan matolar;
- yarim jun mato - tarkibida 20% dan kam bo‘lмаган jun tolesi bo‘lgan matolar. Qo‘llanadigan xom ashyo turi, bobina olish usuli va junmatoni pardozlash texnologiyasi bo‘yicha ular kamvol (gerebenli) va suknoli-movut (yupqa va qalin) turlarda bo‘ladi.

Kamvol matolar yuzasida to‘qima rasmi yaxshi ko‘rinadi, ularning asosiy qismini kostyumli (jun va yarim junli matolar) va ko‘ylakli matolar tashkil etadi.

Yupqa movut matolar: jun tolali va yarim junli draplar; ko‘ylakli: jun va yarim junli,odeyalo va mebelbop matolar. Qalin movut matolar: junli, yarim junli movut, qalin movut odeyalo, oyoq kiyim va maxsus matolar.

Ishlatilish sohasi bo‘yicha jun matolar maishiy (kostyumli, ko‘ylakli, paltoli) va maxsus (texnik, mebel, oyoq-kiyim va boshqalar) turlarda bo‘ladi. Bularning har birining tarkibiga junli va yarim junli matolar kiradi, asosiy qismini yarim junli matolar tashkil etadi. Maishiy matolar ishlab chiqarishda tolalar aralashmasi tarkibiga ko‘pincha poliefir, poliakrilonitril, poliamid va viskoza tolalari qo‘shiladi. Kastyumbop matolar asosan jun va PE dan, ko‘ylakli va paltoli matolarni 60 va 40 % ni esa nitron tolasidan qo‘shib tayyorlanadi. Kimyoviy iolalarni boshqa turlari maxsus matolar va mebal, xamda texnik matolarni tayyorlash uchun qo‘llaniladi. Tarkibida 40-50% lavsan tutgan aralash tolali matolarning pillinglanishi keskin kamayadi. Bunday matolar engil bo‘lib, sof jun matoga nisbatan ishqalanishga bardoshli bo‘ladi.

Jun matolarning yuza zichligi GOST bo'yicha quyidagicha bo'ladi, g/m<sup>2</sup>:

| Kostyumbop matolar | Kuylakbop matolar | Paltobop matolar |     |               |     |
|--------------------|-------------------|------------------|-----|---------------|-----|
| - kamvol           | 210               | - kamvol         | 190 | - kamvol      | 380 |
| - kamvol-moaut     | 340               | - kamvol-movut   | 500 | - yupqa movut | 450 |
| - yupqa movut      | 380               | - yupqa movut    | 500 | - flanel      | 300 |

Jun matolarga ho'l ishlov berish jarayonlaridan so'ng mato kirishadi. Ho'l ishlov berilgandan keyin arqoq va tanda uzunlik o'lchovlari bo'yicha 3,5% dan ko'p bo'lmasa, ular kam kirishaditgan matolar hisoblanadi. Ho'l ishlovlardan keyin arqoq uzunligi bo'yicha 5,0% va tanda uzunlik o'lchovi 4,0% dan ko'p o'zgarmagan mato kirishadigan mato hisoblanadi. Tayyor sof jun matosining namligi 13% ga teng bo'lishi me'yorlangan.

To'quv stanogidan olingan mato xom mato deb yuritiladi. Xom mato qattiq, turli chiqindilar bilan ifloslangan, suvda ho'llanmaydigan xolda bo'ladi. Xom mato yuza zichligi, eni, og'irligi va bo'laklarning o'lchami bilan tayyor matoga o'xshaydi. Asosan estetik jihatdan talabga javob bermaganligi sababli xom mato kimyoviy pardozlash jarayonlaridan o'tkaziladi.

Pardozlash jarayonida oldin mato barcha chiqindilardan tozalanadi, so'ogra bo'yaladi yoki rangsizlantiriladi, gul bosiladi, eng oxiri talabgor talabi bo'yicha turli yakuniy pardoz berish jarayonlaridan o'tkaziladi. Bo'yashgacha bo'lgan jarayonlar bitta qilib bo'yashga tayyorlash jarayoni deb yuritiladi.

To'quv bo'limidan chiqgan mato xom mato qabul qilish bo'limiga texnologik pasport bilan birgalikda qabul qilinadi. Xom mato texnologik pasportida xar bir bo'lak matoni xarakterlaydigan ma'lumotlar (bo'lak raqami, artikul, matoni to'qishda ishlatilgan bobina turi, uzunligi, og'irligi, to'quv bo'limida aniqlangan nuqsonlar, mato navi, oxor va emulsiya turi, tig'izlash jarayonida matoni kirishish darajasi) keltiriladi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan tayyor mato xolida xam o'zgarmaydiganlari matoning o'ziga

yozib o‘qyiladi. Mato bo‘dagining bir boshiga bo‘lak raqami yozilsa, ikkinchi boshiga artikul raqami va partiyasi yoziladi.

Xom matoni qabul qilish bo‘limida sifat nazorat o‘tkazilib, pardozlash uchun partiyalar tashkil qilinadi. Jami matoning 10%-i korxona standarti bo‘yicha sifat ngazoratdan o‘tkaziladi. Olingan natija barcha partiya uchun ta’luqli hisoblanadi. Faqat oq xolatda ishlab chiqariladigan assortimentdagi mato sifat nazoratdan to‘liq o‘tkaziladi.

Matoni tashqi ko‘rinishidagi nuqsonlar, fizik-mexanik ko‘rsatkichlari va rang mustahkamligi (agar mato bo‘yagan bo‘lsa) bo‘yicha navi belgilanadi. Barcha nuqsonlar ball bo‘yicha baholanadi. Uzunligi 30 m bo‘lgan mato bo‘lagida barcha nuqsonlar yig‘indisi 10 dan oshmasa birinchi navli, 34 tagacha bo‘lsa ikkinchi navli hisoblanib, nuqsonlar soni 34 dan ortganda bu mato bo‘lagi navlanmaydi.

Mato sifatini tekshirish sifat nazorat jihozlarida amalga oshiriladi. Korxonalarda B-260-5 rusumdagি sifat nazorat jihozlari ishlatiladi. Bu erda B – jihoz nomini (brakovochnaya), defisdan keyingi yozilgan sonlarni birinchisi jihozning santimetrda ifodalangan ishchi enini, keyingisi esa shu jihozni ishlab chiqarilgan tartib raqamini bildiradi.

Mato eni jihozga o‘rnatilgan chizg‘ich yordamida  $\pm 0,3\%$  aniqlikda o‘lchanadi. Matoda aniqlangan defektli joylarga belgi qo‘yiladi. Belgi qo‘yilgan bo‘laklar tozalash va choklash, yamash uchun jo‘natiladi. Tozalash, choklash jarayonlari maxsus qiya stollarda bajariladi. Matoda bor bo‘lgan tugunchalar, xalqachalar, matga tasodifan kirib qolgan qalin iplar, turli o‘simlik tabiatli chiqindilar pinset bilan qo‘lda tozalanadi. CHoklash mato to‘qilgan ip bilan to‘qima rasmiga mos ravishda amalga oshiriladi. Tozalash, choklash stolining yuzasi tagidan yoritish moslamasi bilan jihozlangan. Mato yuzasidan tuguncha va iplardan, turli chiqndilardan tozlangandan keyin yorug‘lik o‘tayotgan joylari qo‘shni tanda va arqoq iplarni u yoki bu yoqqa surish orqali berkitiladi. Tozalash va choklash jarayonidan so‘ng mato yana sifat nazorat jihozidan o‘tkazilib

bajarilagn jarayonlar sifati belgilanadi. Qayta tekshirishdan so‘ng matoning navi o‘zgarishi mumkin.

Matoga turli surtlovchi moylar tushib moyli dog‘lar hosil qilingan bo‘lsa, ular organik erituvchi, SAM yoki ularning aralashmalari bilan tozalanadi. Odantda surtlovchi moyli dog‘lar quyidagi tarkibli eritma bilan tozalanadi, %: SAM-10, skipidar-30, aviatsiya benzini-60. Moyli dog‘larni tozalashdan oldin matoning dog‘li joyi tagiga filtr qog‘ozni qo‘yiladi, moyni tozalash jarayoni to moyni filtr qog‘oziga o‘tgunicha davom etadi.

Sifat nazoratidan o‘tgan mato oqartirish-bo‘yash jarayoniga mos ravishda partiyalarga ajratiladi. Partiyalarni tashkil etishda xom matoni toalviy tarkibini bir xillik darajasi, rangi, artikuli, rasmi, eni va uzunligi ahamiyatga olinadi. Uzlukli ishlov berish jarayoni uchun bitta partiyada 6-8 bo‘lak movut mato, 12-18 bo‘lak kamvol mato bo‘lishi mumkin. Xar bir bo‘lakning uzunligi inobatga olinadi, bunda agar engil mato bo‘lsa, bo‘laklar orasidagi farq 3 metrdan, o‘rtacha og‘irlikdagi matolarda 2,5 m va og‘ir matolar uchun esa farq 2,0 m ko‘p bo‘lmsligi lozim. Uzunligi bo‘yicha katta farq qiladigan mato bo‘laklaridan alohida partiya tashkil etiladi. Partiyaning umumiy uzunligi kamvol matolar uchun 500, movut matolar uchun 180-200 metrdan oshmaydi.

Uzluksiz ishlov berish jarayonlarida partiyadagi bo‘laklarning soni jihozni 0,5-1 smena davomida uzluksiz ishlashini ta’minlashga etadigan miqdorda bo‘ladi. Partiyadagi mato bo‘laklarini bir-biriga tegib turgan holda tikiladi. Bunda chok o‘rni qalinlashmaydi va keyingi jarayonlarda turli nuqsonlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lmaydi.

Partiyaga ishlov berish jarayonlari va sifatini boshqarish uchun partiyalarga texnologik partiya tuzilib, partiya shu karta bilan birga xaraktalanadi. Bu kartada texnologik jarayonlar nom iva jarayonlarni olib borish tartiblari ko‘rsatiladi. Partiya xar bir jarayondan o‘tganda tegishli shaxs tomonidan texnologik kartaga belgi qo‘yiladi. Yoki texnologik karta tegshili partiya o‘tishi belgilangan talonlardan tashkil topgan bo‘lib, har bir jarayondan so‘ng ishchi kerakli talonni yirtib oladi. Shu talonlar soni bo‘yicha ishchining ish hajmi aniqlanadi.

Mato strukturasiga bog‘liq ravishda (*komvol*-kostyumbop va kuylakli matolar va *movut*-paltoli matolar) pardozlashga tayyorlash jarayoni o‘zaro bir-biridan farq qiladi. Xom mato tarkibiga kiruvchi va chiqarilishi lozim bo‘lgan chiqindilar turkumiga junli moy qoldiqlari, oxorlovchi modda (yigirishda surtilgan), oxor va sellyulozali chiqindilar kiradi. Quyida movut va kamvol matolarga ishlov berish jarayonlari keltirilgan:

*Komvol matolar uchun:*

- tuk kuydirish;
- yuvish;
- karbonlash;
- pishirish.

*Movut matolar uchun:*

- tig‘izlash;
- yuvish;
- karbonlash;
- paxmoqlash.

Bu jarayonlardan 2 xil maqsad ko‘zda tutiladi:

- matoni chiqindilardan tozalash - tuk kuydirish, yuvish va karbonlash;
- mato va tola strukturasini o‘zgartirishi - tig‘izlash, paxmoqlash.

*Tuk kuydirish.* Bobinani yigirish jarayonida buramaga kirmay qolgan tolalarining ozod uchlari xom mato yuzasiga chiqib turadi va unga paxmohlangan ko‘rinish beradi. Bunday matoga suvli ishlov berish jarayonlarida mexanik ta’sirlar natijasida bu tolachalar yanada tutamlashadi va mato yuzasida to‘qima gulini aniq ko‘rinmasligiga olib keladi, undan tashqari bo‘yagan matolarda ularning koloristik xususiyatlari kamayadi. Bunday matolar tuk kuydirish jarayonidan o‘tkaziladi. Kamvol matolarni xammasi faqat tarkibida kapron tolesi bo‘lmaganlari, tuk kuydirish jarayonidan o‘tkaziladi. Tarkibida sintetik tola bo‘lgan mato tuk kuydirish jarayonidan o‘tkazilganda yuqori haroratda tola yumshab mato yuzasida qattiq shariklarni hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Oq rangli va tarkibida sintetik tolalar bo‘lgan matolarni tuk kuydirish jarayoni o‘rniga tuk kesish jarayonidan o‘tkazish maqsadga muvofiq keladi. Agar xom mato tuk kuydirish va kesish jarayonlaridan o‘tkazilmasa, u xolda tuk kesish jarayoni tayyor matoda o‘tkaziladi. Tuk kuydirishi uchun Sellers (v=37-50 m/min), Tekstima (v=70-90 m/min) firmalarining tuk kuydirish mashinalaridan foydalaniladi. Jun matosi ikki taraflama gaz gorelkasi yuzasidan o‘tadi va mato yuzasiga chiqb qolgan tolachalr kuyadi.

Tuk jarayonidan o‘tgan mato yuzasida alangalanib qolgan tolachalar qoladi. Agar mato faqt jundan to‘qilgan bo‘lsa, bu muammo emas, chunki jun tolsi olovdan olingach darxol o‘chadi. Agar mato tarkibida sellyuloza tolsi xam bo‘lsa bu tola ancha vaqt cho‘g‘lanib turadi. SHuning uchun tuk kuydirish kamerasidan chiqgan mato sukno tortilgan valdan yoki ikki val orasidan o‘tkaziladi. Keyin mto yo‘nalishiga qarshi xarakatlanayotgan shetka bilan mato yuzasi tozalanadi. SHetkaga ventilyator o‘rnatilgan bo‘lib yonib kuygan maxsulotlarni shetkadan chiqarib yuboradi. Texnologik tartibga mos ravishda matoni xar ikala tarafi 1-2 marotabadan tuk kuydirish jarayonidan o‘tkaziladi. Tuk kuydirish ochiq alangada yoki qizdirilgan yuzada amalga oshiriladi. Qizdirilgan yuza harorati  $1100\text{-}1200^{\circ}\text{C}$  haroratda bo‘ladi.

*Jun matolarini tig‘izlash.* Tig‘izlashdan maksad yupqa va qalin movut matolarni qalinlashtirish va mato yuzasida tolalarni bir-biridan kirishishidan iboratdir. Movut matolarga ishlov berishda tig‘izlash jarayoni eng muxum jarayonlardan biridir. Bu jarayon chog‘ida jun tolalarini bir-biriga nisbatan umuman siljishi uchun sharoit yaratiladi, natijada mato uzunligi va eni buyicha kirishadi, kalinlashadi va uning yuzaviy zichligi ortadi. Tig‘izlash jarayonida mato yuzasida qavat hosil bo‘lib, bu qavat to‘quvchilik rasmini berkitadi. Tig‘izlangan matoning issiqlik izolyasiya xossasi, mustahkamligi, yuzaviy zichligi va yumshoqligi ortadi. Tig‘izlash jarayonida mato paxmoqlashga tayyorlanadi. Jun toladan boshqa tolalar tig‘izlanish qobiliyatiga ega emas. Movut matolar uzunligi buyicha 7-30% va eni bo‘yicha 20-40% miqdorda kirishadi. Tig‘izlanishga moyllik - jun tolasining spetsifik xususiyati bo‘lib, u tolaning qayishqoqligiga, tangachasimon qatlami va titiganligiga bog‘liqdir.

Tig‘izlash jarayonida tolalarning siljishida junning qayishqoqolik xossasi muhim ahamiyatga ega. Jihozning ishchi organlarini tolaga mexanik ta’siri ostida tola yoki uning biron bir qismi cho‘ziladi, fazoda siljiydi, lekin cho‘zish kuchini olish bilan tola darhol o‘zining birlamchi o‘lchamiga qaytadi, jun bu xossasi bilan boshqa tolalardan farqlanadi. Jun tolalarining qayishqoqligi keratin tuzilishi bilan bog‘liq xolda tushuntiriladi. Keratin makromolekulasi zanjirida manfiy va musbat

zaryadli funksional guruqlar bo‘lib, ulardan birini tortish-cho‘zish natijasida ikkinchisi tutamlangan (titilgan) xolatga o‘tadi. Titilgan xolatga cho‘zuvchi kuch ta’sir ettirilganda u rostlanadi, kuch olinishi bilan yana boshlang‘ich xolatiga qaytadi. Bu xususiyat tolaga xam ta’luqlidir. Kuch olinganda tolalarni tezlik bilan o‘z xoliga qaytishi vaqt birligida matoga ko‘p marotaba ta’sir etish imkonini beradi. Tig‘izlashga shuningtolaning titilganligi xam ijobiy ta’sir etadi. Tolalarni qaysi faslda kesilganiga xam bog‘liq ravishda tig‘izlash xususiyati o‘zgarishi mumkin. Baxorda olingan jun kuzdagiga nisbatan tig‘izlanishi pastroq. Qanchalik tola kam orientlangan bo‘lsa, shunchalik bu tolalar yaxshi tig‘izlanadi. Barcha omillar bir xil bo‘lgan sharoitda buramalar sonini ortishi va bobinaning chiziqli zichligini ortishi bilan tig‘izlanish sekinlashadi, chunki bunday xolatda tolalarning xaraktlanishi cheklangan bo‘ladi.

Tolaning tangachasimon qavati xam matoni tig‘izlanishiga etarlicha ta’sir etadi. Tangachalar uchini tepaga sal ko‘tarilgan xolda joylashganligi sababli tolalar xaraktlangan vaqtda ular o‘zaro bir-biriga ilakishib qoladi.

Tig‘izlanishga bo‘lgan moyillikka nafaqat jun tola xossasi, balki jarayonni olib borish sharoiti, ko‘llaniladigan reagentlar va harorat xam ta’sir etadi. Kislotali va ishqoriy eritmarda tig‘izlash jarayoni tezlashadi. Lekin ishqoriy muxitda jun tolasi parchalanadi, kislotali muxitda esa qattiqlashib koladi. SHuning uchun tig‘izlash jarayoni kuchsiz ishqoriy muxitda olib boriladi. Mato kuydagi eritmaga shimdirladi (g/l): SAM (sovun)-2-3; soda – 0,3-0,5; bu jarayon sovunlantirish deb ataladi. Tig‘izlash jarayonida matoda 125% eritma bo‘lish kerak, bundan ko‘p bo‘lsa tig‘izlash jarayoni cho‘zilib ketadi. CHunki mato jihozning ishchi organlaridan oson sidirilib ketadi, suyuqlik miqdori kam bo‘lganda esa mato qattiq ishqalanadi va u yidirilishi mumkin. Harorat 40°S atrofida ushlab turiladi, bu haroratda tolaning qayshqoqlik xossasi to‘liqroq namoyon bo‘ladi. Movut matolarni tig‘izlash uchun maxsus movut tig‘izlovchi mashinalar qo‘llaniladi (CB-500III, CB-300III1 va СВФ-500III1) va jihozlarning ishchi organlari matoga ko‘p marotaba ta’sir etadi. Sovunlanish uchun mato yoyilgan xolda ZMR-2 va MPV-200 SH mashinalaridan

o'tkaziladi. SHimdirish mashinası MPV-260 SH (180SH) yo'naltiruvchi moslama, vintli en kengaytiruvchi, shmdirish vositasi, siqish vallari va mato taxlagichdan tarkib topgan. Tig'izlashni uzluksiz usulda movut tig'izlash mashinasida olib boriladi. Bu mashinada vanna, silindrik vallar, qayshqoqli klapan, jgutni ajratuvchi reshetka, ikkita vertikal shetkali roliklardan tarkib topgan. Vallar yordamida mato mashinaga joylashtiriladi va junga arqoq iplari bo'yicha bosim tushadi klapan korob shaklida bo'lib, unda tub va yon devorlari bor (devorlar kimirlamaydi), qopqaog'ini bir tarafi richag yordamida maxkamlab ko'yilgan, boshqa tarafi mato jgutiga bosilib turadi. Richag sistemasi bo'yicha klapan qopqog'i xolatini o'zgartirish mumkin. O'zgartirish matoga berilayotgan bosimni oshirish yoki kamaytirish orqali amalgalash oshiriladi, shu bilan matoni uzunasiga kirishishini boshqarish mumkin. Yo'naltiruvchi vallar jugutni ajratish reshetkasiga uzatadi. Yuqoridagi vallar tepasiga suv sepkich o'rnatiladi. U orqali mashinaga tig'izlash eritmasi uzatiladi. Vertikal roliklar mato xarakati bo'yicha ozod xarakatlanadi. Ular orasidagi masofani o'zgartirish mumkin, bunda matoni eni bo'yicha kirishishini boshqarish mumkin. Tig'izlash jarayoni davomiyligi mato artikuliga bog'liq ravishda o'zgartiriladi: kamvol matolar uchun 20-40 minut (fulerovka) texnik movut uchun 10 soatga teng.

Tig'izlash jihozlarida shuningdek fulerovkalash xam bajariladi. Fulerovkalash bu- matoda tolalarmi o'zaro yaqinlashib, matoning yuzaiy zichligi ortadi, lekin to'qima guli ko'rinishda turadi. Fulerovkalash asosan kostyumbop matolar uchun olib boriladi.

Tig'izlash jarayonida quyidagi nuqsonlar hosil bo'lishi mumkin: eng ko'p uchraydigan nuqson bu – siniq (zalom) – mato yuzasida buklangan joylarni hosil bo'lishi. Bu nuqson mato bo'laklari o'zaro noto'g'ri tikilganda, yoki jihoz ishchi organlarini matoga xaddan ziyod bosim bilan ishlanganda sodir bo'ladi. Mato ziyi atrofija mayda buklamalarni hosil bo'lishi. Bu nuqson tig'izlanadigan matoni jihozga joylashtirishdan oldin uni eng ko'rinishda tikilganda sodir bo'ladi. Eng ko'rinishda tikilgan matoning tig'izlanishi yaxshi natija beradi, ammo arqoq ipda

qiyalik (kost)bo‘lsa matoni ziyidan o‘rtasiga qarab kalta-kalta buramalarni paydo bo‘lishiga olib keladi. To‘dalanib qolinishi— matoning ayrim xududlarini qalinlashib qolishi, bu xolat tig‘izlash eritmasini jihozga notekis uzatilishida, matoni jihozga talab darajasida joylashtirilmaganda sodir bo‘ladi. Undan tashqari tig‘izlash jarayonida matoda turli tirlangan joylarni hosil bo‘lishi, yirtilish, sitilish kabi nuqsonlar xam paydo bo‘ladi. Mato yuzasi bir tekis tig‘izlanmay, to‘quvchilik gulি ko‘rinib turadi. Mato to‘qishda ishlatilgan bobina sifati xam tig‘izlashda namoyon bo‘lib qoladi. O‘ta ko‘p buram berilgan iplar uzilib, yorilganga o‘xshash nuqsonlarni keltiradi. Nuqsonlarni oldini olish uchun jihzdan foydalanish tartibiga rioya qilish, hamda tig‘izlash texnologiyasiga amal qilish talab qilinadi.

*Paxmoqlash.* Maqsadi, mato yuzasida o‘ziga xos bo‘lgan tukli qatlamni hosil bo‘lishidir. Matoga o‘ziga xos bo‘lgan ko‘rkamlik berishdan tashqari paxmoqlashda matoni yumshoqligi va issiqlik izolyasion xossasi xam yaxshilanadi. Paxmoqlash jarayonidan movut matolarning ayrim artikullari o‘tkaziladi. Turli navdagи matolar yuzasidagi tolachalar bir tarafga karagan bo‘ladi masalan: bayka yuzasida bir tarafga yotgan silliq tolachalari bo‘ladi, bobrik matosida tolachalar vertikal va uzunrok joylashadi, drap-velyurda tolachalar kalta vertikal joylashadi. Paxmoqlash jarayonidan keyin matoning fizik-mexanik ko‘rsatkichi kamayishi kzatiladi. SHuning uchun paxmoqlashga mpo‘ljallangan mato oldindan mexanik xossasini inobatga olgan xolda to‘qiladi. Paxmoxlovchi yuzani mato iplari bilan ko‘p marotabalik qisqa to‘qnashuvi natijasida mato yuzasiga tolalarning uchlari chiqarib olinadi, natijada mayin qatlam hosil bo‘ladi. Paxmoqlashdan oldin mato tig‘izlash va yuvish jarayonlaridan o‘tgan bo‘lishi shart. Matoda yog‘li chiqndilarni bo‘lishi uni paxmoxlovchi yuzadan sirpanib o‘tishiga sabab bo‘ladi, natijada qatlamni qalinligi va bir tekisligi kamayadi. jun mato nam xolda paxmoxlanadi. Mato nam xolatda paxmoxlanganda undan chiqarib olinayotgan tolalarning uzilishi kamayadi, chunki ho‘l tolaning cho‘zilishdagi uzilishi quruq toladagiga nisbatan bitr necha barobar yuqori. Paxmoxlanadigan mato massasiga nisbatan 70-100% bir tekis taqsimlangan namlikka ega bo‘ladi.mato tarkibida ko‘p miqdorda viskoza tolasi bo‘lsa yoki

g‘ovaksimon bo‘lsa, bunday matolar ho‘llanmay paxmoxlanadi. Paxmoqlash jarayoni mato ip turiga, nomeriga va buramalar soniga bog‘liq bo‘lib, mato zichligi qanchalik yuqori va ipning buramalar soni ko‘p bo‘lsa, shunchalik bu mato qiyin paxmoxlanadi. Paxmoqlash uchun ignali valiklar yoki shishkali plankalar qo‘llaniladi.

Paxmoqlash sifatli bo‘lishiga matoning yuzasi paxmoqlash shishkalarining o‘tkir uchlari yoki kardolentani ignasi bilan to‘qnashganida yuzaga keladi.

Paxmoqlash uchun ignali paxmoxlovchi 24 ta valikli (ИВ-24-180III), ikki barabanli ramkali shishkali paxmoxlovchi (ВШН-3-180III), «Tekstima» firmasining M6720 va paxmoqlash - kesish ВСЛ-180 jihozlari ishlatiladi.

Paxmoqlash turi (ignali, shishkali) va sifati xar bir artikul uchun aloxida tanlanadi, bunda matoni tashqi ko‘rinishi, keyingi ishlovlar usuli, turlarni bir tekisligi va qalinligiga e’tibor beriladi.

Yarim junli va junli matolar oldindan paxmoqlash (velyur sifatini berish) jarayonini shishkali jihozda, yakuniy paxmoqlash uchun kesish liniyasi ishlatiladi. Vertikal tuki bo‘lgan matolarga (bobrik ko‘rinishda) paxmoqlashdan so‘ng MOB-1 jihozida ishlov beriladi. Matoga ishlov berilganda namlik 25% ga teng bo‘ladi. Jihoz tezligi 3-5 m/min.

Ignali paxmoqlash jihozlarida (58-rasm)) mato lenta ko‘rinishda yoki cheksiz lenta ko‘rinishda o‘tishi mumkin matoning 3-4 bo‘laklari tikilib lenta shakllantiriladi.



58-rasm. Ignali paxmoqlash jihizi.

Mato aravachadan mato yo'naltiruvchi, tortuvchi rama, tekislovchi va uzatuvchi vallar orqali paxmoxlovchi barabanga o'tadi. SHu erda mato yuzasi paxmoxlanib, orqadagi uzatuvchi val orqali barabandan chiqarib olinib, mato taxlagichga o'tadi. Agar paxmoqlash jarayonini bir necha bor qaytarish talab qilinsa mato cheksiz lenta ko'rinishda tikiladi, bunda paxmoqlash zonasidan chiqgan mato rolikli kompensator orqali yana paxmoqlash uchun uzatiladi. Paxmoqlash jarayonini sifatiga ignali yuzani tozalab turish xam ta'sir etadi. Baraban tagiga o'rnatilgan shetkalar yordamida ignali lenta doimiy ravishda tozalanib turiladi.

Ignali paxmoqlash mashinalari 10-12 m/min tezlikda ishlaydi. Jihozdan mato yuza tarafi bo'yicha 4-11, teskari tarafi bo'yicha 1-4 marotaba o'tadi. Sof jun matolar aksariyat xollarda shishkali paxmoxlovchi jihozlarad paxmoxlanadi. Paxmoqlash jarayoni bir necha soat davom etadi, jarayon orasida tukchalarni kesish jarayoni xam amalgalash oshirilib turadi.

Amalda movut matolarga beriladigan barcha ho'l ishlov berish jarayonlari jugut xolatda olib borilgani uchun «Sinish» deb yuritiladigan nuqson hosil bo'ladi. Siniqlarni tuzatish uchun yoki unga bog'lik bo'limgan xolatda paxmoqlashdan oldin matoga issik suv bilan LZP-180SH va «Tekstima» tizimida ishlov beriladi. Ish tartibi:

12-15 m/min tezlik

- |                 |                        |
|-----------------|------------------------|
| 1- vanna        | - 70-75 <sup>0</sup> C |
| 2-6 (8) – vanna | - 90-92 <sup>0</sup> C |
| 7 (9) – vanna   | - 70-75 <sup>0</sup> C |
| 8 (10)- vanna   | -18-20 <sup>0</sup> C. |

Paxmoqlashda vujudga keladigan nuqson asosan mato yuzasida qalin, bir tekis qatlamni hosil bo'lmasligi bilan bog'liqdir. Bunga sabab mato yaxshi tig'izlanmasa, yuvilmasa, yomon karbonlashdan o'tgan bo'lsa bunday mato juda yaxshilab paxmoxlanganda cham bir tekis qatlam hosil bo'lmaydi. Agar mato paxmoqlash jihoziga turli taxlangan joylar bilan uzatilsa, yo'l-yo'l

paxmoxlanmagan joylar paydo bo‘ladi. Bunga shuningdek mato bo‘laklari silliq tikilmaganda xam shunday nuqson bo‘ladi. Mato sifatli paxmoxlansa-yu, lekin quritish jarayonida mato issiq havo oqimiga qarshi xarakatlansa, mato yuzasidagi tolachlar xaotik xolatda qurib qatlam buzilib chiqadi. Sifatli qatlamga erishish uchun texnologik ko‘rsatkichlarga amal qilish talab qilinadi. Matoni suvsizlantirish uchun sentrifuga va siqish vallari qo‘llaniladi.

*Yuvish* - bu ko‘p tarqalgan, ko‘p marotaba qaytariladigan va ko‘p energiya talab qilinadigan jarayondir. Yuvish jarayoni uchun pardozlashga sarf bo‘ladigan barcha energiyaning 40% -i sarf bo‘ladi.

Yuvishdan maqsad jun tolali materiallardan har xil turdag'i chiqindilar, tabiiy moy qoldiqlari, mineral chiqindilar, oxorlovchi va yigirishda qo‘llanilingan komponetlar, hamda to‘qishdan oldin ishlatilingan oxor va emulsiyalarni chiqarishdan iborat. Chiqindilarni murakkab tarkibi, ya’ni tabiiy chiqindilardan tashqari yana korxonalarda ishlatilinadigan kraxmal, uning gidroliz maxsulotlari, PVS, PAA, mineral yog‘ va boshqalar tayyorlash jarayoni uchun maxsus texnologiya va jihozlar tanlashni taqazzo etadi. Yuvishning ikki usul ma’lum:

- organik erituvchilar bilan ekstraksiyalash;
- SAM bilan kuchsiz ishqoriy muhitda gidrolizlash va emulgirlash.

Birinchi usulda tola yaxshi saqlanadi, chiqindilar tez chiqariladi, erituvchi qayta ishlatiladi, lekin maxsus germetik jihoz talab qilinadi va yong‘indan xavfli. SHuning uchun asosan ikkinchi usuldan foydalaniladi. Jun - kamvol mato assortimenti va korxona quvvatiga bog‘liq ravishda yuvish jarayoni yoyiq (uzluksiz usul) yoki jgut xolatda (uzluksiz yoki davriy usul) olib boriladi. YOyiq xolatda matoni yuvish uchun LZP-180SH (“Tekstima” firmasi) dan foydalaniladi. Bu jihozda matoni yuvish jarayonini pishirish jarayoni bilan birgalikda olib borish mumkin.

Turli xom ashyolardan tayyorlangan kamvol matoni yuvish asosan jgut xolatda olib boriladi, bunda qo‘shimcha mexanik ishlov berish amalga oshiriladi va matoga maxsus junliylik beriladi. Davriy usulda tovush uchun МПЖ-Ш2, ПЖ-220 ШБ, uzluksiz usulda (jugut) ЛПЖ-1Ш1 jihozlari ishlatiladi (yuvish

mashinasiga mato spiral ko‘rinishda joylashtiriladi). Jihozdagi suv mato xarakatiga nisbatan teskari xarakat qiladi. Xozirgi kunlarda kamvol matolari uchun engil tig‘izlash jarayoni qo‘llanilmoqda (fulerovka). Bunda tig‘izdash-yuvish mashinalaridan foydalaniladi. “Xemmer”, DB1-1650 va jarayonlar birgalikda olib boriladi.

Yuvish uchun SAM va soda tutgan eritmalardan foydalaniladi. Mum-yog‘ maoddalarning ko‘p qismi emulgirlanadi va emulsiya xolatda matodan chiqib ketadi. Boshqa qismi soda ta’sirida gidrolizlanadi. Soda ta’sirida suv yumshaydi, tolaning bo‘kishi yaxshilanadi, natijada u chiqindilardan tez tozalanadi, kislotali yog‘larni neytrallaydi va bunda sovun hosil bo‘ladi. Agar matoda oxorlovchi modda sifatida kraxmal bo‘lsa, u xolda oxorsizlantirish jarayoni fermentlar yordamida olib boriladi:



Yoyilgan xolatda uzlusiz yuvish uchun ЛЗП-180III liniyasida quydagи texnologiyadan foydalaniladi:

Shimdirish (pankeratin bilan) → saqlash (15-20min kompensatorda) → yuvish (3 ta korobakada soda va SAM bilan) →iliq va sovuq suv bilan yuvish.

Jgut xolatdagi kastyumli va paltoli matoni yuvish 2-4 soat davomida jgutda ishlovchi jihozda olib boriladi. Texnologiyasi:

1. 40-50°C, SAM-0,5-3 g/l, soda 1-4 g/l, 30-60 min.
2. Birinchi yuvish: 40-50°C, SAM-0,5-3 g/l, soda 1-4 g/l, 30-60 min, 20-50 min davomida 40-45°C gacha ko‘tariladi.
3. Ikkinci yuvish: 40 min, 40-50°C (koshiobom va paltoli matolar uchun) SAM - 0,5-1 g/l, soda - 1g/l, M=1:7 bo‘lganda 15 min; M=1:8 bo‘lganda 40 min; M=1:10-1:12 bo‘lganda 20-50 min. Harorat 35-40°C, 30-40°C, 25-30°C (har biriga mos ravishda)

МПЖ-III2 yuqori tezlikda ishlaydigan jihoz ( $v=125$  m/min) yuvish jarayonining umumiyligini 80 minutgacha qisqartirsh mumkin.

Movut matolarni yuvish moxiyati va texnalogik maqsadi kamvol matolarni yuvishdagidan farq qilmaydi. Lekin ularda chiqindi miqdori va turini ko‘p bo‘lganligi uchun bu erdagи yuvish jarayoni davomiyligi va yuvuvchi moddalar tarkibi ko‘proq bo‘ladi. Movut matolarni xom xolatda yoki tig‘izlashdan keyin yuvish mumkin. Movut matolarni yuvish uchun jugut xolatdagi matolarni yuvuvchi jihozlardan, ya’ni ПЖ-220SH va МПЖ-SH2, shunindek МП- 180III apparatidan foydalaniлади.

SAM konsentratsiyasi 1,5-3 g/l, soda 2-3 g/l (uzlukli yuvish uchun), SAM-2,5-3 g/l, soda 2-3 g/l (uzliksiz yuvish xom xolatda), agar yuvish tig‘izlashdan so‘ng olib borilsa SAM 1-1,5 g/l, soda 2-3 g/l.

*Pishirish* – matoga muqim o‘lchovlar berish maqsadida beriladigan ishlov, ya’ni yoyilgan xolatdagi tortilgan matoga qaynab turgan suv bilan ishlov beriladi, so‘ngra sovitiladi. Jun va yarim junli kostyumbop va ko‘ylakli mavut matolar pishirish jarayonidan o‘tkaziladi. Pishirish jarayoni uchun uzlukli va uuzluksiz jihozlardan foydalaniлади. Uzluksiz usulda 13P-180SH, “Tekstima” (Germaniya) va “Nikki” (Yaponiya) liniyalaridan foydalaniлади. Bosim ostida pishirish uchun ( $T=110^{\circ}\text{C}$ ) “Kotikrabb” (Germaniya) va L13-180 SH liniyasi ishlataladi.

Yigirish, tarash va to‘qish jarayonlarida jun tolalar xar xil kuchlanishlarga uchraydi, va bular xom matoda bir xil bo‘lmaydi. Ho‘l ishlovlar vaqtida bunday matoning chiziqli o‘lchamlari turlicha kirishadi. Pishirish jarayonida jun strukturasida o‘zgarishlar yuzaga keladi, natijada keyingi ho‘l ishlovlar chog‘ida mato kam kirishuvchanlikka, ho‘llanishga, bukilishga kam moyillikda bo‘ladi.

Pishirish jarayonini suvli muhitda yoki bug‘ yordamida olib borilganda ham agar texnologik jarayonga amal qilinmasa, turli nuqsonlar paydo bo‘ladi. Matoni buklanib qolishida mato yuzasida hosil bo‘ladigan aniq yo‘llar eng ko‘p uchraydigan nuqson hisoblanadi. Bu nuqsonni paydo bo‘lishiga sabab mato bo‘laklarini noto‘g‘ri tikilishida yoki matoni jihozga tekis uzatilmaganida vujudga keladi. Jarayonni talab qilingandan ko‘ra kam vaqt davomida olib borishda etarli darajadagi pishirilganlik effekti hosil bo‘lmaydi. Bu nuqson matonga keyingi ishlov berish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. YA’ni fulerovka jarayonida mato

keragidan ortiq kirishadi, yuvish va bo'yash jarayonlarida mato yuzasida turli yo'llar paydo bo'ladi. Pishirish jarayoni bir tekis olib borilmasa, bo'yash jarayonida matoda turli intensivlikdagi ranglar hosil bo'ladi.



*Karbonlash.* Jun tolali kamvol matolarni korbonlash jarayonining moxiyati va maqsadi kamvol matodagidan farq qilmaydi, lekin neytrallash chuqurroq olib boriladi. Karbonlash - jun matodan sellyuloza asosli chiqindilarni chiqarish jarayonidir. Bu chiqindilar (xas cho'p, ozuqa, sellyulozali tolalar) matoning tashqi ko'rinishini yomonlashtiradi. Bu jarayon jun va sellyulozani kislota va keyingi issiq ishlov berish ta'siriga turlicha ta'sirlanishlariga aoslangan. Bunday sharoitda jun xech qanday o'zgarishlarga uchramaydi, sellyuloza esa mo'rt gidrotsellyulozaga aylanadi. Karbonlash jarayoni quydagi bosqichlardan iborat: 3-6%-li  $H_2SO_4$  eritmasi bilan  $20^0C$  haroratda matoni shimdirish, 70-100% -li siqish,  $80^0S$  da quritish,  $110-115^0C$  da 5 min davomida termoishlov berish. Furitish jarayonida  $H_2SO_4$  konsentraysasi 70% -gacha ortadi, natijada  $H_2SO_4$  va yuqori harorat ta'sirida chiqindilar mo'rt qoldiqlar hosil qilib parchalanadi va bu qoldiqlar mexanik yo'l bilan matodan chiqariladi. So'ngra mato sovuq suv bilan yuviladi, 2%-li soda yoki ammiak eritmasi bilan neytrallanadi, 2 marta sovuq suv bilan yuviladi. Kamvol matolarni karbonlash yuvishdan oldin yoki keyin olib borilishi mumkin. Karbonlash uchun "Gardon Uaytli" (Angliya), "Xirano-Kinzoku" (Yaponiya), Flaysner (Germaniya) liniyalarida olib boriladi. Bu liniyalar 4 bo'limdan iborat: shimdirish, quritish-termoishlov berish, neytrallash quritish.

Neytrallash uchun jugut xolatdagi matolarga ishlov beruvchi PJ-220SH, MPJ-SH2 va LZP-180SH jihoz va liniyalari ishlatiladi. Neytrallashning umumiy davomiyligi 190-220 min.


Oqartirish – rangsizlantirish. Odatda ingichka mayin jun rangsiz bo'lib, undan turli rangdagi mato assortimentlarini tayyorlash mumkin. Bunday junda tabiiy pigment, ya'ni tolaga rang beruvchi modda bo'lmaydi. Yarim dag'al va dag'al jun och sarg'ish-jigarrangdan to to'g' jigarrang xatto qora rangda bo'lishi mumkin. Jundagi rang tusi va uning intensivligi tarkibidagi rangli tabiiy pigmentning miqdori va turiga bog'liq. Jonivorni yashash hayoti davomida junnini

o'sish davrida hosil bo'layotgan aminokislotlarni qisman gidrolizi, ularni oksidlanishi va polikondensatsiya reaksiyalari natijasida rangli mahsulotlar – pigmentlar paydo bo'ladi. Bu pigmentlar keratin bilan kimyoviy bog'langanligi sababli ularni toladan chiqarish jarayonlarini tashkil etishda keratinni saqlab qolinishi, ya'ni unga zarar etkazmaslikni hisobga olish kerak. Pigmentlar ishqorlarning kuchsiz eritmalarini va kislota ta'siriga turg'un, lekin oksidlovchi va qaytaruvchilar ta'siriga chidamsiz. Pigmentlarning bu xossalardan foydalangan holda jun tolassi va undan tayyorlangan mahsulotlarni oqartirishda osidlovchi va qaytaruvchilardan foydalaniлади. Ammo to'q rangli jun tolassi to'liq oqartirilmaydi. Odatda och rangli yoki oq jun oqartirish to'q rangdagi jun esa faqat rangsizlantirish jarayonlaridan o'tkaziladi. Shuning uchun ham tabiiy bo'yagan jundan turli och va yorqin ranglarga bo'yagan mag'sulotlarni tayyorlashni imkonli cheklangan.

Junni oksidlovchilar yordamida oqrtirishda amalda faqat vodorod peroksiddan foydalaniлади. Vodorod peroksidni pergidroksil-ion hosil qilib parchalanadi, bu ion turg'un bo'lmaganligi sababli atomar holdagi kislorod hosil bo'ladi, ular jun tarkibidagi pigmentni to suvda eriydigan holatgacha parchalaydi:



Ma'lumki ishqoriy muhit va yuqori haroratda vodorod peroksid suv va atomar kislorodgacha katalitik parchalanadi:



Vodorod peroksidning radikal-zanjirli mexanizm bo'yicha katalitik parchalanishi ayrim metall (temir, marganets va boshqalar) va ularning birikmalari ta'sirida shiddatli borib, vodorod peroksidning samarasiz sarflanishiga va keratinning sistin va peptid bog'lari bo'yicha destruksiyaga uchrashiga sabab bo'ladi. Vodorod peroksidni parchalanishini sekinlashtirish maqsadida oqartirish eritmasiga turli stabilizatorlar (natriy silikat –  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$ , natriy tetapirofosfat –  $\text{Na}_4\text{P}_2\text{O}_7$ ) qo'shiladi. Jun vodorod peroksid bilan ishqoriy va kislotali muhitda oqartirilishi mumkin.

Ishqoriy muhitda oqartirish jarayoni pH 8-9 bo‘lgan sharoitda quyidagi tarkibli eritmada olib boriladi:

| Oqartirish eritmasi tarkibi           | 1-usul | 2-usul |
|---------------------------------------|--------|--------|
| Vodorod peroksid 35%-li, ml/l         | 20     | 20-30  |
| Natriy tetraapirofosfat, g/l          | 1,5    | -      |
| Ammiak 25%-li, ml                     | 1,5    | -      |
| Natriy silikat, massaga nisbatan % da | -      | 2-3    |
| SAM, g/l                              | 1      | 1      |

Jun tola yoki matosi 45-50<sup>0</sup>C dan yuqori bo‘lmagan haroratda 1 soat davomida, so‘ngra eritmani qizdirish to‘xtatilib, sutka davomida sovuq eritmada aralashtirib turilgan holda oqartiriladi.

Kislotali muhitda oqartirish jarayonida jun keratinini parchalanishi bir qadarkamroq ro‘y beradi. Kislotali muhitda oqartirish jarayoni pH 5-6 bo‘lgan sharoitda quyidagi tarkibli eritmada olib boriladi:

| Oqartirish eritmasi tarkibi   | Qiymatlari |
|-------------------------------|------------|
| Vodorod peroksid 35%-li, ml/l | 20         |
| Natriy tetraapirofosfat, g/l  | 1          |
| Kislotali natriy fosfat, g/l  | 1          |
| SAM, g/l                      | 1          |

Jun tola yoki matosi 85-90<sup>0</sup>C dan yuqori bo‘lmagan haroratda 20-30 daqiqa davomida oqartiriladi. Kislotali muhitda oqartirilgan junning oqlik darajasi ishqoriy muhitda oqartirilgan jundan 3-5% kam bo‘ladi. CHunki vodorod peroksidning pergidroksil-ion hosil qilib parchalashi rN qiymati yuqori bo‘lganda samarali hisoblanadi.

Qaytaruvchilar yordamida jun tolsi oqartirilganda eritma tarkibida asosiy reagent sifatida natriy bisulfit-NaHSO<sub>3</sub>(yoki natriy gidrosulfit-Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>4</sub>) dan foydalilaniladi. Bisulft oqartirish hona haroratida bir sutka davomida moduli 20 teng

bo‘lgan, 0,5-1%-li natriy bisulfit eritmasida olib boriladi. So‘ngra material siqiladi va sulfat kislota eritmasi (massaga nisbatan 5%) bilan 15 daqiqa davomida ishlov beriladi, keyin suv bilan yuviladi. Natriy gidrosulfit bilan oqartirish 50°C haroratda 5 soat davomida olib boriladi.

Qaytaruvchilar bilan oqartirilgan junning oqlik darajasi turg‘un emas, yuvish jarayonidan so‘ng vaqt o‘tishi bilan materialning oqligi bir oz kamayadi. Oqartirish jarayonining sifati junning oqlik darajasi, yorqinligi va keratinning destruksiyasi bilan baholanadi. Oqlik darajasi mahsus asboblarda 100% absalyut oq etallonga nisbatan baholanadi. Yorqinli koeffitsienti dastlabki ishlov berilmagan junning oqlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, uning maksimal qiymati 74-76% dan ortmaydi. Oqlik darajasining barqarorligi namunani 1 soat davomida suvda yoki kislotaning suvli eritmasida qaynatishda uning yorqinlik koeffitsientini o‘zgarishi bilan baholanadi. Keratinning parchalanish darajasi 0,1 N-li o‘yuvchi ishqor eritmasida 65°C haroratda bir soat davomida moduli 100 ga teng bo‘lgan eritmada oqartirilgan materialni eruvchanligi bilan aniqlanadi. Oqartirish jarayonidan o‘tmagan junning bunday tarkibi 10-12% ni tashkil etadi. Oqartirilgan materialda bu qiymat 18-20%-gacha ortadi, agar junning erish qiymati 30% ni tashkil etsa, demak bu holat junni chuqur destruksiyaga uchraganini bildiradi. Bunda jun sarg‘ayadi, erish qiymatining ortishi esa jun makromolekulasida ko‘ndalang kovalent bog‘larni uzilishi va quymolekulyar peptidlarni hosil bo‘lganligi bilan tushintiriladi.

Jun mahsulotlarini ishlab chiqarishda xom ashyo sifatida yo‘ldosh mahsulot, ya’ni lahtakdan foydalaniladi. Lahtak korxonaga yangi matodan kesilgan qiyqim, tegishli xujjat normalariga javob bermaydigan uzunlikdagi mato bo‘laklari yoki ishlatilgan jun mahsulotlar ko‘rinishida keltiriladi.


Korxonada lahtakga ayrim ishlovlar berilgandan so‘ng undan tola olinadi, bu tola qayta tiklangan jun nomi bilan yuritiladi. Iqtisodiy nuqtai jihatdan jun matolari ishlab chiqarishda birlamchi junga to 20% ga qayta tiklangan jundan qo‘shiladi.

Qayta tiklangan jun tolasini tayyorlash uchun korxonaga keltirilgan ikkilamchi to‘qimachilik materiali – lahtak dizengfeksiyalanadi, changsizlantiriladi, yanada mayda bo‘laklarga kesiladi, qattiq jismlardan (tugma, knopka, ilmoq va

boshqalar) tozalanadi, sellyulozali tolalardan tozalash uchun karbonlanadi. Bunday sharoitda agar jun mahsulot tayyorlashda tolalar aralashmasiga lavsan va kapron tolalari qo'shilgan bo'lsa, ular ham erib ketadi. Karbonlash jarayonida jun va nitron o'zgarishsiz qoladi. Yuqorida keltirilgan tartibda tayyorlangan lahtak mahsus jihozlarda tolalarag ajratish jarayonidan o'tkaziladi. Olingan mahsulot qayta tiklangan jun deb ataladi.

Agar lahtak bo'yagan bo'lsa, u holda karbonlash jarayonidan oldin ular rangsizlantiriladi. Rangsizlantirilgan qayta tiklangan junni och tusdagi ranglarga bo'yagan mato olishda qo'llash mumkin. Rangsizlantirish jarayonining tartibi va eritma tarkibi boshlang`ich rang intensivligiga bog'liq ravishda tanlanadi. Jarayonni engillashtirish maqsadida och, o'rta va to'q tusli rangdagi lahtaklar alohida partiyalarga ajratiladi. Ammo bo'yash jarayonida turli sinfdagi bo'yovchi moddalarni qo'llanilishi rangsizlantirish jarayonini qiyinlashtiradi, ayrim hollarda ijobiy natijaga erishmaslik ham mumkin. Rangsizlantirish uchun oksidlovchi va qaytaruvchilardan foydalaniadi. Rangsizlantirish jarayonidan oldin jun tolasi minera yog' va mum moddalardan, turli iflosliklardan SAM (1-2%) eritmasida 20-30 daqiqa 50°C haroratda ishlov berish orqali tozalanadi va yuviladi. Natijada jun nafaqat yog'lardan tozalanmasdan, xatto qisman bo'yovchi moddalardan ham tozalanadi.

Qayta tiklangan junni qaytaruvchilar ishtirokida rangsizlantirish tarkibida massaga nisbatan 3% chumoli kislota (85%-li), 3% rongalit (yoki 2% chumoli kislota (85%-li), 4% natriy gidrosulfit) bo'lgan eritmada 80-90°C (gidrosulfit bo'lganda 65°C) haroratda olib boriladi. Rongolit va gidrosulfit qaytaruvchilardir. Haroratni 90°C dan oshirishda sistin bog'larni uzilishi, natijada tolaning mustahkamligini pasayishi kuzatiladi. Agar lahtak to'q rangga bo'yagan bo'lsa, yangi tayyorlangan eritmada ishlov berish bir necha bor takrorlanadi. Qaytarish jarayonida hosil bo'lgan mahsulotlar rangsiz (lahtak azobirkma guruhiga mansub bo'lgan bo'yovchi moddalar sinfi bilan bo'yagan bo'lsa) bo'lib, ular suvda yaxshi eriydi va yuvish jarayonida toladan to'liq chiqib ketadi:



Agar bo‘yovchi modda tarkibida azoguruh bo‘lmasa lahtkani arngsizlantirish uchun oksidlovchilar qo‘llaniladi. Oksidlovchi sifatida kaliy bixromat ishlatiladi. Kaliy bixromat bilan kislotali muhitda ishlov berish chog‘ida ajralib chiqayotgan kislorod ta’sirida bo‘yovchi modda parchalanadi. Kislotali va xromli bo‘yovchi moddalarning ayrim nomoyondalari kaliy bixromat ta’sirida rangsizlanmay, aksincha yanada to‘qroq mustahkam komplekslar hosil qiladi. Ammo ko‘pchilik kislotali va bevosita bo‘yovchi moddalar oksidlovchilar ta’siriga o‘ta chidamsiz hisoblanadi. Jun tolali lahtak tarkibida 3-5% kaliy bikxromat va 3-10% sulfat yoki shavel kislotasi bo‘lgan eritmada rangsizlantiriladi.

Nazorat savollari:

1. Tuk kuydirish jarayoni haqida nimalarni bilasiz?
2. Jun matolarini tig’izlashdan maqsad nima?
3. Tig’izlash jarayonida qanday nuqsonlar hosil bo’lishi mumkin?
4. Jun tolali kamvol matolarni karbonlash jarayonining mohiyati?
5. Karbonlash jarayoni qanday bosqichlardan iborat?

## 17 -MA’RUZA

### **Ipak mato assortimentlari va ularni qaynatish**

**Reja:**

1. Tabiiy ipk assortimentlari.
2. Tabiiy ipakni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.

*Tabiiy ipak assortimentlari.* Tabiiy ipak matolari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- tabiiy ipakli matolar (tabiiy ipak bobinasiga va buramali tabiiy ipakdan, xom ipakdan)
- tabiiy ipakni boshqa tolalar bilan aralashmasidan tayyorlangan mato (asosiy tabiiy ipakdan yoki tabiiy ipakni boshqa tola bilan aralashmasi, tanda boshqa tolalardan)

Tabiiy ipak assortimentlari: krepli, silliq, jakkard, tukli, maxsus maqsadlar uchun, texnik maqsadlar uchun, donabay maxsulotlar.

Bu ko'rsatilaganlardan tashqari Respublikamizda milliy tabiiy ipakli va aralash xolatdagi abr (lug'aviy ma'nosi "bulutni bog'ladim", bog'langan asos iplar to'plami) matolari xamda iplar ishlab chiqariladi. Abr matosi - "Xon-atlas"ni o'ziga xosligi - bu ularni qaynatish jarayonini motok (kalava) ko'rinishda, bo'yash jarayonini esa libit (asos iplar to'plami, assortiment guliga mos holda) ko'rinishida olib borilishidadir. Krep matolarni qaynatish qattiq sharoitda va bo'sh xolatda uzoq vaqt davom etadi, va bu krep effektini beradi. Tabiiy ipakli matolarni padozlash kimyoviy texnologiyasida birinchi operatsiya bu matoni qaynatish, ya'ni uni seritsindan ozod qilishdir.

Xom ipak, yigirilgan ipak va ulardan tayyorlangan mato yumshoq va yaltiroq tusli bo'lmaydi. Bu tolaning yuzasida seritsinni borligi bilan bog'liqdir. Mato to'qish jarayonida ipak asos iplar odatda oxorlanmaydi. Lekin xom ipak yigirishdan oldin tarkibida o'simlik (paxta, olivka yog'lari), jonivor (ilik yog'i) va mineral (vazelin, vazelin yog'i) yog'lar bo'lgan eritmada ivitiladi. Yigirish jarayonida turli-tuman iplardan foydalaniladi, ularni ajratish uchun tolalar kislotali bo'yovchi moddalar bilan och ranglarga bo'yaladi. Ko'rsatib o'tilgan barcha moddalar mato tarkibidan padozlashga tayyorlash jarayonlarida chiqarib yuboriladi.

Padozlash korxonasiga keltirilgan mato bo'laklari nazoratdan (eni, uzunligi, yuzasidagi ko'rinaligan nuqsonlar, yuza zichligi) o'tkazilib, tegishli padozlash jarayonlaridan o'tishiga qarab partiylar hosil qilinadi. Alovida partilar xar birining uzunligi 80-85 metrdan bo'lgan 8-10 ta bo'lakdan tashkil topadi. Uning miqdori ishlov beriladigan jihoz hajmiga mos ravishda tashkil etiladi. Tarkibi ipak bobina ipidan tayyorlangan matolar, shuningdek boshqa tolalar bilan aralashmasili (bobina) yarimipak matolar ikki yoki bir taraflama tuk kuydirish jarayonidan o'tkaziladi.

*Tabiiy ipakni bo'yash va gul bosishga tayyorlash.* Tabiiy ipakli maxsulotlarni bo'yash va gul bosishga tayyorlashdan asosiy maqsad undan elim (seritsin), tabiiy va burama berish jarayonida suritilgan yog'larni, mumsimon moddalar, pigmentlar va meneral moddalarni chiqarishdan iboratdir. Bu jarayon qaynatish yoki elimsizlantirish deyiladi va u suvli muhitda olib boriladi. Ishlatiladigan suvning qattiqligiga alohida e'tibor qaratiladi. Qattiq yumshatilmagan suvda - kimyoviy moddalar (tabiiy ipakni pardozlashga tayyorlash eritmasidagi) ning ko'pgina qismi reaksiya zonasidan chiqadi, seritsinni toladan chiqishi qiyinlashadi (kimyoviy moddalarni etishmaganligi, hamda uning makromolekulasida «choklanish» vujudga kelganligi sababli). Suvning qattiqlik tuzlari bilan hosil bo'lgan erimaydigan sovun va bo'yovchi modda mato yuzasiga cho'kadi va bir qator nuqsonlar hosil qiladi. Ipak yigirish va to'quvchilikdan pardozlash korxonasiغا kelayotgan xom to'qimachilik ipi va matosidagi sersin turli miqdorda bo'ladi, ya'ni 22% dan 33% gacha. Qaynatilgan tabiiy ipakni to'qimachilik texnologik xossalari ularda qolgan sersin miqdoriga bog'liqligi aniqlangan. Tabiiy ipakdagagi sersin miqdori 4-6% bo'lganda, quydagilarga erishiladi: ip chuvishda minimum uzilish, ishqalanishga maksimum chidamliylik va sindirishga bo'lgan chidamliylik.

Agar tabiiy ipakdan sersin to'liq chiqarib yuborilsa, tabiiy ipakdagi fibroin sterjenlari fibirillanadi (tolaga ajraladi) va bu qayta ishlash jarayonini yomonlashtiradi. SHunday qilib, tabiiy ipakni shunday sharoitda qaynatish kerakki, bunda ipning fizik-mexanikaviy xossasi maksisum saqlanib qolinishiga, qoldiq sersin miqdorining optimal bo'lishiga va tolaning sarbsion xossasini yaxshilanishiga erishish lozim. Qaynatish jarayoning samaradorligi elimsizlantiruvchi agentning tabiatni va konsentratsiyasiga, harorat va pH-muhitga bog'liq. Seritsin pH 4-7 bo'lgan muhitda toladan eritmaga deyarli o'tmaydi. Tabiiy ipak mhsulotlarini pardozlash eritmalarini tayyorlashda shuni xam inobatga olish kerakki pH 4,2 bo'lgan muhit fibroinning izoelektrik nuqtasi hisoblanadi. Seritsinni tabiiy ipakdan chiqarilishini eng yaxshi sharoiti deb harorat qaynash haroratiga yaqin bo'lganda va pH-10,5 dagi muxit qabul qilingan. Ko'pincha quyidagi elimsizlantiruvchi moddalar qo'llaniladi:

1. Oleinsovuni-7,5-15 + g/lsoda
2. Ishqoriy bufer aralashmalar-Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>(10g/l)+NaHSO<sub>3</sub>(4ml/l 38%-li)
3. Soda- Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>-5-10 g/l
4. Sintetik SAM lar-2-3 g/l + soda 1-3,5 g/l
5. Fermentlar-2-6 g/l

Tabiiy ipakni pardozlashga tayyorlashdan asosiy maqsad uni tarkibidagi elimsimon modda - seritsindan tozalashdir. Tabiiy ipakni elimsizlantirish seritsinni suvda, ishqorda va kislotalarda erishiga asoslangan. Odatda elimsizlantirish qaynash haroratiga yaqin bo‘lgan haroratda olib boriladi, shuning uchun bu jarayon qaynatish deb xam yuritiladi.

Qaynatish pH=9,5-10,5 muxitda olib boriladi. Qaynatish jarayoni ikki bosqichga bo‘linadi:

1. Qaynatish 1 soat 92<sup>0</sup>C haroratda 40% lisovun (14 g/l) va soda (0,5 g/l) eritmasida olib boriladi. Bu jarayonda tabiiy ipakni seritsindan ozod bo‘lishi bilan bir qatorda mato yuzasiga qaynatish eritmasidagi turli iflosliklar ham sorblanadi.
2. Qayta qaynatish. Bu jarayon 7-8 g/l sovun va 0,4 g/l soda tutgan yangi qaynatish eritmasida 20-30 minut davomida olib boriladi. Fayta qaynatilgan tabiiy ipak oldin ammiak eritmasida, so‘ng suv bilan yuviladi.
3. Qaynatilgan tabiiy ipakni oqligini oshirish uchun H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> eritmasida quyidagi tarkib bilan oqartiriladi: H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> - 20 - 25 g/l, τ - 2 - 4 soat, T - 70 - 75<sup>0</sup>C, pH=8 - 8,4.

Oqartirilgan yoki bo‘yalgan mato 30%-li sirkal kislotasining 2-5 g/l li eritmasida 15-30 minut davomida tiriltiriladi (harorat - 25-35<sup>0</sup>C).

Ko‘rsatilgan usulda tabiiy ipakni qaynatish uchun ko‘p miqdorda sovun sarflanadi, bu iqtisodiy jixatdan o‘zini oqlamasligi bilan bir qatorda qaynatishjarayonining unumdorligini pasaytiradi. Shuning uchun tabiiy ipakni qaynatishning yangi usullarini yaratish ustida ko‘plab ishlar qilingan.

1. Ishqorlarning bufer eritmalarida qaynatish. Tabiiy ipakni qaynatish 15-30 min 90-93<sup>0</sup>C haroratda 36 % li natriy bisulfit (4 g/l), soda (8 g/l), 40 % li natriy metilsulfat, SAM (2 g/l) eritmasida olib boriladi.

2. Soda eritmasida qaynatish. Tabiiy ipak texnik sodaning 3-3,5 g/l li eritmasida 90-95°C haroratda 20-30 min davomida qaynatiladi, so‘ng sovunning 3-5 g/l li eritmasida yoki boshqa SAM ning eritmasida yana qaynatiladi.

3. Fermentlar yordamida tabiiy ipakni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash. 1 soat davomida 70°C haroratda tabiiy ipakga quyidagi tarkibli eritmada ishlov beriladi: 0,8 g/l papain (o‘simlik asosidagi ferment), 0,8 g/l natriy giposulfit, 0,4 g/l natriy fosfat. So‘ng 5 g/l sovunli eritmada (70-75°C) 30-60 min davomida tabiiy ipakga ishlov beriladi va suv bilan yuviladi.

Xozirga kunda sovunli sodali usuldanelimsizlantirish jarayonida keng foydalilaniladi. Jarayon quyidagicha olib boriladi:

23-jadval

Tabiiy ipakli va boshqa tolalar bilan aralashmali matolarni qaynatish texnologik rejimi:

| Jarayonlar                  | Harorat, °C | Davomiylik, min | Vanna tarkibi, g/dm <sup>3</sup>                               |
|-----------------------------|-------------|-----------------|--|
| Qaynatish                   | 94-97       | 60-90           | Sovun (40%) -15/7,5<br>Soda -3/1,5                             |
| Qayta qaynatish             | 94-97       | 30              | Sovun (40%)-7,5<br>Soda-1,0                                    |
| Yuvish                      | 60-70       | 20              | Natriy gidrosulfit-0,5<br>$\text{NH}_2\text{OH}(25\%)$ -2 ml/l |
| Oqartirish                  | 75-80       | 20              | $\text{H}_2\text{O}_2(30\%)$ -2 ml/l<br>Silikat Na-1,5         |
| Yuvish                      | 60-70       | 40              | Kalgon-1   |
| Tiriltirish<br>(etiltirish) | 20-30       | 15              | $\text{CH}_3\text{COOH}$ (30%)-5 ml/l                          |

Sovun yuvish emulgirlash va dispergirlash vazifalarini bajaradi, bufer eritma hosil qiladi (pH-10,2-10,5 da). Ipakni qaynatish chog‘ida 1,0-1,5% sovun tabiiy ipakka yutiladi, natijada tabiiy ipak yumshoq, ko‘rkam va nozik bo‘lib qoladi. Lekin sovun suv qattiqligiga juda sezgir, bu matoda turli nuqsonlar (sovunli

dog‘lar, oq izlar, yog‘li dog‘lar) hosil qiladi. Ishqoriy bufer eritmalar va soda yuzaviy faollikka ega emas, shuning uchun tabiiy ipak bu eritmalarda qaynatilganda, ya’ni 20-30 min davomida to‘liq elimsizlanganda mumsimon, yog‘ va tabiiy bo‘yovchi moddalardan to‘liq tozalanmaydi.

«Kimiyoiy texnologiya» kafedrasida tabiiy ipakni qaynatishda SAM va fermentlarni qo‘llash ustida izchil izlanishlar olib borilgan. Sintetik SAM yuqori darajada emulgirlash va yuvish xossasiga ega va sovunlarga nisbatan suvning qattiqlik tuzlariga bir qadar chidamli. Tekshirishlar natijasida anionaktiv va kationaktiv SAM lardan tabiiy ipakni qaynatish uchun stearoks-6 eng maqbuli hisoblanadi. qaynatishda stearoks-6 dan foydalanish tabiiy ipakni fizik-mexanik xossalari yaxshi saqlanishini va ip chuvish xamda boshqa mexanik jarayonlarni olib borishda iplarni uzilishini minimumgacha kamaytirishni ta’minlaydi.

SAM larning kimiyoiy tabiatini seritsinni toladan ajralib chiqishi, ip yuzasida SAM ni chegara qavatidagi strukturasi, o‘zidagi molekula va ionlar jamligi xususiyatini ta’minlaydi. Sersinni chiqib ketgan joylarida SAM ni hosil bo‘layotgan yuzaviy qatlami, fibronni gidrolitik parchalanishdan saqlaydi va sersinni kerakli miqdorda saqlanib qolishiga olib keladi.

Sintetik PAV eritmalarida sersinni toladan chiqishi jarayonni boshlang‘ich bosqichida tezlik bilan boradi (10-15 min ichida), bu jarayon tolada sersin to 6-8% miqdorda qolgunicha davom etadi. Seritsinni shu qolgan miqdorini toladan chiqish tezligi kamayadi. Toladagi seritsin miqdori 4-6% bo‘lganda, u eng maqbul hisoblanadi.

SAM ni tolaga o‘ziga xos sorblanishi, shuningdek tabiiy ipakni hajm va yuzaviy xossalari o‘zgarishi keyingi bo‘yash jarayon tezligiga va rang sifatiga ta’sir etadi.

Qaynatishning fermentli, ya’ni protosubillin G3X bilan qaynatish usulini qo‘llash orqali tabiiy ipakni fizik-mexanik xossasini saqlanishiga va sorbsion harakteristikasini oshirishga erishishi mumkin. Bu preparat bilan elimsizlantirish yumshoq sharoitda olib boriladi: harorat 55°C, pH=7, modul=20:1, davomiylik 3 soat.

SAM eritmalari va protosubillin G3X larda qaynatilgan tabiiy ipakning ba'zi xossalariini tekshirishshuni ko'rsatdiki, bunda ferment bilan qaynatilgan tabiiy ipak sifatiy ko'rsatkichlar bo'yicha, an'anaviy sovunli sodali usulda qaynatilgan tabiiy ipakdan farq qiladi. Abr matolarni asos va arqoq iplari motok(kalava) ko'rinishda quyidagicha qaynatiladi:

| Jarayon               | Kimiyoiy moddalar                       | Kons.siya, g/l | Tartib |                 |
|-----------------------|---|----------------|--------|-----------------|
|                       |   |                | T, °C  | Davomiylik, min |
| 100 ta matokni solish | Yumshatilgan suv                        | -              | 25     | 10              |
| Qaynatish             | Steoroks-6<br>Kalsiysizlantirilgan soda | 2,0<br>1,0     | 96-98  | 15              |
| Yuvish                | Yumshatilgan suv                        | -              |        |                 |
| Suvsizlantirish       |   |                | 65     | 10              |
| Tiriltirish           | CH <sub>3</sub> COOH                    | 6 mm/l         | 25     | 10              |
| Quritish              | -                                       | -              | 25     | 20              |

Xon-atlas matosi tanda ipini bir bosqichli usulda qaynatish

| Jarayon         | Kimiyoiy moddalar                                       | Konsentrasiya, g/l     | Tartib |                 |
|-----------------|---|------------------------|--------|-----------------|
|                 |   |                        | T, °C  | Davomiylik, min |
| Qaynatish       | Steoroks-6<br>Soda<br>Aktiv bo'yovchi modda<br>Osh tuzi | 2<br>0,9<br>1,5<br>5,0 | 96-98  | 18              |
| Yuvish          | Issiq suv   | -                      | 80     | 10              |
| Suvsizlantirish |   | -                      | 65     | 10              |
| Tiriltirish     | CH <sub>3</sub> COOH                                    | 6 mm/l                 | 25     | 10              |
| Quritish        | -   | -                      | 25     | 20              |

Krepli matolarni MKP-1 jihozida Steoroks-6 eritmasida qaynatishning texnologik ketma-ketligi taklif etilgan va amalda qo'llanilgan.

### Krep matolarni qaynatish texnologik ketma-ketligi

| Jarayonlar      | Kimyoviy moddalar   | Konsentratsiya, g/l | Harorat, °C | Davomiylik, min |
|-----------------|---|---------------------|-------------|-----------------|
| Qaynatish       | Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>                             | 3,5                 | qaynatish   | 30              |
| Qayta qaynatish | Steorks-6<br>Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub>                | 1,6<br>0,5          | qaynatish   | 90              |
| Yuvish          | Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub><br>Kalgan                   | 0,2<br>0,5          | 70          | 25              |
| Yuvish          | Na <sub>2</sub> CO <sub>3</sub><br>NH <sub>4</sub> OH (25%) | 0,2<br>0,5          | 40-50       | 20              |
| Yuvish          | Kalgan<br>CH <sub>3</sub> COOH (30%)                        | 0,8<br>5 ml/l       | 20          | 15              |

Qaynatishdan so'ng qaynatish sifati aniqlanadi, ya'ni seritsinni chiqarilganligi tekshiriladi. Bunda fibroin va seritsinni ba'zi bo'yovchi moddalar ta'siriga turlicha xarakterda bo'lganliklariga asoslanadi. Sifatiy aniqlash uchun 1:1 nisbatdagi porsion rubin HVHS va bevosita diazo to'q yashil 2J larni umumiy konsentratsiyasi 1 g/l ga teng bo'lgan eritmasining 500:1 modulli vannasida 50<sup>0</sup>S haroratda 5 min davomida ishlov beriladi. Yuvishdan so'ng qaynatilgan tabiiy ipakni butunlay bo'yalmaganligini ko'rish mumkin. Sersinni miqdoriy aniqlash uchun tabiiy ipakga 5 min davomida porsion rubin HVHS ni 1 g/l li eritmasida 50<sup>0</sup>C haroratda 500 modulda ishlov beriladi va yuviladi, quritilgandan so'ng aniq tortilgan namuna va oq tabiiy ipak 50 ml H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> da (d=1,84) eritiladi va optik zichligi o'lchanib, seritsin miqdori hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Tabiiy ipak matolari qanday guruhlarga ajatiladi?
2. Yelimsizlantirish jarayoni haqida ma'lumot bering.

3. Tabiiy ipakni bo'yash va gul bosishga tayyorlashda qanday jarayonlar amalga oshiriladi?
4. Seritsinni tabiiy ipakdan chiqarish qanday sharoitda olib boriladi?
5. Qaynatish sifati qay tarzda aniqlanadi?
6. Tabiiy ipakning qaynatishning qanday yangi usullarini bilasiz?

## 18 -MA'RUZA

### **Sun'iy vz sintetik tolali maxsulotlarni bo'yash va gul bosishga tayyorlash**

Reja:

1. Gidratsellyulozali mahsulotlarni tayyorlash.
2. Viskoza iplari va shtapel tolali matolarni pardozlash.
3. Atsetilsellyulozali mahsulotlarni bo'yash va gul bosishga tayyorlash.
4. Triatsetat tolali mahsulotlarni tayyorlash.
5. Karbozanjirli tolali matolarni bo'yash va gul bosishga tayyorlash.
6. Geterozanjirli tolali matolarni bo'yash va gul bosishga tayyorlash

*Gidratsellyuloza shtatel tolalari va ip maxsulotlarini bo'yash va gul boshiga tayyorlash* jarayonining moxiyati nafaqat matodagi chiqindalarni chiqarish va bo'yovchi modda eritmasini bir tekis sorblanishini emas, balki krepli matolar strukturasi xususiyatini ochishdan xam iboratdir. Viskoza kompleks iplarini olishda makromolekulasini orientatsiya darajasini notekis bo'lishi, uni bo'yash jarayonida notekis bo'yalishiga sabab bo'ladi, shuning uchun tayyorlash jarayonida tolani bir tekis bo'kishiga erishish lozim. Matoning strukturaviy xususiyatlari ularni bo'yashga tayyorlash jarayonida ho'l-issiq sharoitda vujudga keladi, shuning bilan bir qatorda bunday sharoitda krepli effektni hosil bo'lishi tez amalga oshadi. Relaksatsion jarayon ho'llashni boshlang'ich pallasidayoq darxol boshlanadi: buramalangan iplar keskin-kirishadi, qisqaradi va natijada to'lqinsimon, relefli yuza hosil bo'ladi.

Viskoza tolali matolarni bo'yashga tayyorlashda uning deformatsiya ta'siriga (ayniqsa nam xolatda) chidamsizliklari inobatga olinadi. Xattoki sezilarsiz kuch ta'sirida xam tola cho'ziladi. Deformatsiya yo'qoladi, bu matoning chiziqli o'lchamini o'zgarishi bilan to boshlang'ich xolatigacha amalga oshadi.

*Viskoza iplari va shtapel tolali matolarni pardoziplash.* Viskoza ipli matolar oqartirilgan holatda ishlab chiqariladi. Bunday matolarda suvda eruvchan chiqindilar bo'lib ular SAM (1-2 g/l) va Na<sub>2</sub>SO<sub>3</sub> (0,5-0,8 g/l) eritmalari bilan 85-90<sup>0</sup>C haroratda 45-60 min davomida ishlov berilganda matodan chiqib ketadi. Oq mato ishlab chiqarishda qaynatib, issiq va sovuq suvda yuvilgan mato H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> ning kuchsiz ishqoriy eritmasida (2-7 g/l) bug'latish usuli bilan oqartiriladi. Bug'lash 100<sup>0</sup>C haroratda 2-3 min davom etadi. Peroksidli oqartirishda stablizator sifatida natriy silikatdan foydalaniladi. Bu operatsiyalarni bajarish uchun tabiiy ipakli matolarni qaynatish, oxorsizlantirish va yuvish jarayonlarini bajaruvchi ЙОР-140 ШЛ тизимidan foydalaniladi. Bu liniya viskoza va viskoza – atsetatli matolarni qaynatishga (tayyorlashga) mo'ljallangan.

Viskoza shtatel tolali matolar qiyin chiqariladigan kraxmalli oxor va moylovchi tutgan bo'lib, sarg'ish rangda bo'ladi. Ularni pardoziplashga tayyorlash jarayoni tuk kuydirish, oxorsizlantirish va oqartirishdan tarkib topgan. Kimyoviy tayyorlash bir bosqichli: ishqoriy – bug'lash usulida olib boriladi. Mato 50-60<sup>0</sup>S haroratli quyidagi eritmaga shimdiriladi, g/l: H<sub>2</sub>O<sub>2</sub>-0,3-0,5; Na<sub>2</sub>SiO<sub>3</sub>-6-7; NaOH-2-3; SAM-0,3-0,5. Siqiladi va bug'lash mashinasiga taxlanadi. Bug'lash 98-100<sup>0</sup>C haroratda suv bug'i bilan 10-15 min davomida olib boriladi. So'ngra mato issiq suvda, SAM eritmasi va sovuq suvda yaxshilab yuviladi. Ishlov berish uchun ЙБ-140 oqartirish tizimidan foydalanadi. Viskozali trikotaj maxsulotlar moysizlantiriladi yoki qaynativadi, so'ngra oqartiriladi. Agar moylovchilar suvda eruvchan bo'lsa, u holda moysizlantirish jarayoni olib borilmaydi. Jihozda polotno juda kam tortiladi.

Moysizlantirish:  $\tau=30-45$  min,  $T^0C=95-98^0C$ , SAM-1-2 g/l, soda-1-2 g/l

Oqartirish:  $\tau=30-60$  min,  $T=80^0C$ , M=20-25, SAM-0,3-0,4 g/l

Na<sub>2</sub>SiO<sub>3</sub>-0, 8-1 g/l, H<sub>2</sub>O<sub>2</sub> (30% -li)-1-1,2 g/l,

Oqartirishdan va yuvishdan so‘ng matoga optik oqartiruvchi moddalar (OOM) bilan (0,05 g/l va NaSl-3-5 g/l) 40<sup>0</sup>C haroratda 20 min davomida ishlov beriladi.

*Atsetilsellyulozali maxsulotlarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.* Trikotaj sanoatida atsetat iplardan yupqa sochiqliklar, ayollar ich kiyimi va trikotaj, ust-bosh va boshqalarda qo‘llaniladi. Atsetat tolalari termoplastik bo‘lganligi uchun ularni quritishda qaytmas buklanishlar, cho‘zilish va boshqa deformatsiyalar yuzaga keladi. Ularning buklanishga bo‘lgan moyilligi cho‘zilishiga nisbatan yuqori. SHuning uchun ularga ishlov berishda mato yig‘ma xolatda emas, balki yoyiq xolatda bo‘lishi maqsadga muvofiq keladi. Yig‘ma xolatdagi jarayonlar faqat 50-60<sup>0</sup>S dan yuqori bo‘lmagan sharoitda yuqori modulda olib borilishi mumkin. Atsetat tolali maxsulotlarni qaynatishdan maqsad - ulardan moylovchi, emulsiya, oxor yoki bo‘yovchi modda adsorbsiyasi va diffuziyasini qiyinlashtiruvchi boshqa moddalarni chiqarishdan iboratdir. Moylovchi va emulsiyalar tola massasiga nisbatan 2-4% miqdorda surtiladi. Ularning vazifasi tolaning elektralanishni kamaytirish, ishqalanishga bo‘lgan chidamlilagini oshirish, yumshoqlik va silliqlik berishdir. Tanda iplarni oxorlashda elimlovchi moddalar sifatida jelatin, poliakrilamid, polivinilspirtdan foydalaniladi, ular 3-5% miqdorda qo‘llaniladi.

Qaynatish va oqartirishning texnologik tartibi xar doim moylovchi va oxorlovchi moddalar komponenti tarkibi va xossasiga mos ravishda tanlanadi. Atsetat tolali matolarni tayyorlashda ularning murakkab efirliklariga va kislota, hamda ishqor ta’sirida oson gidrolizlanishlariga ahamiyat berish talab qilinadi. Atsetat tolalari 80<sup>0</sup>C haroratda 1 soat va 50<sup>0</sup>C haroratda 2 soatdan ko‘p bo‘lmagan vaqtda 0,5% -li HCl bilan ishlov berishga chidamli. Aks xolda tola gidrolizga uchraydi.

Sovunning 2 g/l li eritmasida 70<sup>0</sup>S haroratda ishlov berilganda, qisman gidroliz ketadi. NaON ni 0,5 g/l li eritmasi bilan 60<sup>0</sup>S haroratda 1 soat davomida

ishlov berishda atsetat tolalari deyarli gidrolizlanmaydi. ATS tolalarni rN-10 bo‘lganda  $70^0S$  haroratda yoki rN-9 bo‘lganda  $90^0S$  haroratda qaynatish tavsiya etiladi. Faynatish asosan Italiya firmasining Metssera apparatida va uzlusiz ishlaydigan LOR – 140 SHL tizimida olib boriladi. Metssera apparatida qaynatish quyidagi tartibda olib boriladi:  $\tau=40$  min,  $T=50^0S$ , sulfanol-2 g/l, Uayt spirt-0,5 g/l. Matoning o‘tish tezligi 10-60 m/min yoki SAM-1-1,5 g/l, kalgan 2 g/l,  $60^0S$ , rN=10

Trikotaj polotno yig‘ma va erkin xolda ishlov beruvchi barkalarda qaynatiadi: SAM-1 g/l,  $T=60^0S$ , 20-30 min.

ATS va TATS tolali matolarni oqartirish majburiy jarayon hisoblanmaydi, chunki ular etarli darajada oqlikka ega bo‘lishadi. Oqartirish jarayoni o‘ta oq holatdagi mato yoki ATS bilan viskoza, paxta, xamda PE tolalari aralashmasidan tayyorlangan aralash tolali matolar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Oqartirish uchun  $H_2O_2$ ,  $NaClO_2$ ,  $NaClO$  va  $CH_3COOH$  eritmalarini bilan  $50-80^0C$  haroratda ishlov beriladi. Atsetat tolalarini oqartirishda natriy gipoklorit va persirka kislota eng maqbuli hisoblanadi, ular ta’sirida ATS tolalar umuman gidrolizlanmaydi.

*Triatsetat tolali maxsulotlarni tayyorlash.* Faynatish va oqartirishdan tashqari TATS tolali maxsulotlar qo‘shimcha yana termofiksatsiyalanadi va yuzaviy gidrolizlanadi: S-pardoz. Matolarga suvli ishlovlar berish jarayonlari uzlukli va uzlusiz usullarda bo‘yash rolikli mashinalarda, Metsser apparatida, AOP-130 SHL apparatida olib boriladi, ularda buklanishlarhosil bo‘lmaydi.

TATS tolalar ishqoriy gidrolizlanishga bir qadar chidamli, shuning uchun qaynatishda suyultirilgan ishqorlardan foydalanish mumkin, bunday sharoitda 2 soat davomida ishlov berishda S-pardoz juda kam miqdorda bo‘ladi. Ayrim xollarda 30 min davomida NaON 80 g/l da sovuq sharoitda ham olib boriladi (TATS+ viskoza→ relefli effekt).

S-pardoz bu – TATS maxsulotlariga ishqorning issiq eritmalarini bilan ishlov berishdir, bunda tola yuzasida juda yupqa gidsatsellyuloza qobig‘i hosil bo‘ladi. Bu yupqa parda tolani elektrlanishini kamaytiriadi (taxminan 10 martagacha), ranglarni ishqalanishga va gaz, hamda yorug‘lik ta’siriga bo‘lgan chidamliligini

oshiradi, dazmollahsh va termofiksatsiyalashda yopishqoqligini kamaytiradi, yumshoqligini oshiradi. Bo'yash uchun bevosita, aktiv bo'yoqchi moddalarni qo'llash imkoni paydo bo'ladi.

S-pardoz yoyiq xolatda 94-96°C haroratda 90-180 min davomida SAM (1-3% matoga nisbatan) va NaON (3,0-3,5% matoga nisbatan) ning 5-6 modulli eritmasida olib boriladi.

Termofiksatsiyalashdan maqsad makromolekula zanjir ichidagi kuchlanishni tekislashdan iborat. Termoishlov berishi issiq havo, qizdirilgan yoki to'yingan bug' sharoitida olib boriladi. Buning uchun Kioto, Eliteks, Tekstima, ЛСШС-140ШЛ aggregatlaridan foydalaniladi.

Sintetik tolali matolar moylovchi, oxor va tasodifiy chiqindilar tutgan bo'ladi. Sintetik matolarni qaynatishdan maqsad ularni yuqorida keltirilgan chiqindilardan tozalash va muqim o'lchovlar berishdir. Muqim o'lchov berish matoni kirishishi, strukturasini yuzaga kelishi va ichki kuchlanishni chiqarishdan iboratdir.

Matoni kerakli darajada chiqindilardan tozalanishiga yuqori samarali yuvuvchi preparatlarni qo'llash, mato yuzasiga mexanik ta'sir etish va ishchi eritmalar bilan ishlov berish orqali erishiladi. Juda ifloslangan matolarni qaynatishda yumshatishga, dispergirlashga, emulsirlashga va ayrim hollarda ifloslikni kompleks hosil qiluvchilar bilan kimyoviy birikishiga uzoq vaqt ishlov berishga to'g'ri keladi (20 min gacha), bu esa o'z navbatida o'ziga xos jihoz tanlashni taqazo etadi. Matoni kirishishi, ichki kuchlanishlarni relaksatsiyalanishi uchun ularga ozod xolatda TYOM eritmalarida yuqori haroratda 10-20 min davomida ishlov berish lozim. Qaynatish jihozlarini ramalaridan va barabanlaridan kapron iplari asosidagi matolarni o'tishi xatto minimum tortilishda xam kerakli bo'lgan relaksatsiyani ta'minlamaydi, aksincha buklanishlarni hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Tajribalarni ko'rsatishicha mato relaksatsiyasini hosil bo'lishini bir qadar yaxshi sharoiti bu qaynatish jarayonida Metssera va Kioto firmalari jihozida yaratilgan. Bu erda mato uzoq vaqt ishchi eritmada erkin xolatda bo'ladi, bu esa o'z navbatida chiqindilarni chiqarilishiga, matoni relaksatsiyalanishiga olib keladi.

Kioto firmasi jihizi yuvilmagan, fiksatsiyalanmagan va xajmli iplarni qaynatish va kreplash imkonini beradi. ЛРП-180ШЛ тизимida kerakli bo‘lgan relaksatsiya darajasiga, matoni yuqori darajada hajmli bo‘lishiga erishish imkonini bo‘lmaydi.

Sintetik tolali matolarni yuvish  $60\text{-}100^{\circ}\text{C}$  haroratda 20-30 min davomida SAM ni 1-4 g/l li eritmasida olib boriladi. Faqat kerak bo‘lganda sintetik tolalar va ular asosidagi maxsulotlar oqartiriladi, chunki ko‘pgina sintetik polimerlar oksidlovchi ta’siriga o‘ta sezgir. Bunday holatda eng optimal oqartiruvchi bo‘lib natriy xlorit hisoblanadi. Bu modda boshqa reagentlarga nisbatan (oqartiruvchi moddalardan) kam oksidlovchilik potensialiga ega, bu miqdor sintetik tolalarni destruksiyalashdan saqlaydi. Oqartirish kislotali muhitda  $rN=4\text{-}4,5$  da  $90\text{-}95^{\circ}\text{S}$  harortada 30 min davomida, 3 g/l li natriy xlorit eritmasida olib boriladi. Sintetik maxsulotlarni oqartirish uchun persirka kislota (NUK) dan foydalanish maqsadga muvofiq keladi.

NUK-2

Kalgon-2

NaOH-1

SAM-0,5

T= $90^{\circ}\text{C}$ , 30 min

Agar o‘ta yuqori darajada oqlik talab qilinsa, u holda optik oqartiruvchi modda (OOM) lardan foydalaniladi. OOM bilan oqartirish jarayonini mohiyati ularni ultrabinafsha nurlarni yutib ko‘zga tasir etuvchi ko‘kish- binafsha nurlariga aylantirishi va bu nurlarni polimer substratning sarg‘ish rangi bilan qo‘shilib oq rang hissiyotini uyg‘otishdir.

OOM PA tolalariga ion bog‘lanishlar hisobiga birikadi va yuqori oqlik darajasini namoyon etadi. Bu effekt ayniqsa  $100^{\circ}\text{C}$  va undan yuqori haroratda yanada samarali bo‘ladi. Bundan tashqari OMM lar molekulalararo bog‘lar ham hosil etadi. Bu OOM lar kislotali bo‘yovchi moddalarga o‘xshaydi. SHuningdek dispers xarakteriga ega bo‘lgan OOM lar ham ma’lum va ular sintetik tolalarga qaynagan eritmalaridan yoki termozol usul bilan (molekulalararo bog‘lar hosil

bo‘lishi hisobi) birikadi. Odatda oqlik darajasi va tola yuzasidagi fluorensensiya intensivligi OOM larni nisbatan kichik konsentratsiyasida (0,1-1 % material massasiga nisbatan) amalga oshadi. Belgilangan konsentratsiyani ortishi tolada fluorensensiyanı o‘chishiga (kamayishiga) sabab bo‘ladi. Bundan tashqari OOM ni yuqori konsentratsiyada qo‘llash orqali nafaqat oqlik darajasini pasayishiga, balki noxush pushti, siyoxrang yoki sarg‘ish - yashil ranglar hosil bo‘lishiga olib keladi. SHunga e’tibor berish lozimki, ya’ni OOM ning oqlik darajasini samaradorligi u tola yuzasiga birikkanidagina namoyon bo‘ladi. Optik oqartirish jarayonini boshqa tayyorlash jarayonlari bilan birgalikda olib borish mumkin: oqartirish, yakuniy pardozlar berish, smola, latekslar bilan pardoz berish va termoishlov berish.

PA va boshqa sintetik tolali maxsulotlarni yuzaviy optik oqartirish jarayonini mexanik barka, ejektorli mashina yoki jiggerlarda  $100^0\text{S}$  harorat atrofida uzluksiz usulda olib borish mumkin yoki  $100^0\text{S}$  dan yuqori haroratda sirukulyasion apparatlarda navoy ko‘rinishda olib borish mumkin.

Vanna tarkibi, massaga, nisbatan % larda:

Ishlov berish → yuvish → quritish → termoishlov berish

BeloFor-0,2-1,0

$\text{CH}_3\text{COOH}$  (40%-li)-2-4

pH=3,5-4,5

$70\text{-}80^0\text{C}$ , 20-30 min.

$\text{H}_2\text{O}_2$  bilan oqartirish va OOM bilan ishlov berish jarayonlarini birgalikda olib borish.

SHimdirish, g/l → siqish → o‘rash → bug‘lash → yuvish → quritish

$\text{H}_2\text{O}_2$  (35 %-li) –20-35 ml/l 100% gacha rolikka  $100\text{-}103^0\text{C}$

$\text{Na}_2\text{SiO}_3$  ( $d=1,325$ )-20-25 2-3 soat

NaOH -5-7

ho‘llovchi -0,5

Tinopol VNT -1,5-3

Tinopol 2V –5-6

T=20-30<sup>0</sup>C

SHimdirish – bug‘lash usulini gul bosilgan matolarni oq foniga OOM bilan ishlov berish uchun tadbiq etish mumkin. Termozal usulda optik oqartirish SSHS mashinasida quydagicha texnologiya bo‘yicha olib boriladi.

SHimdirilgan, g/l → siqish → quritish

OOM-20 gacha 70%

CH<sub>3</sub>COOH-pH-4,0 gacha

TEM-0,5

T=20-80<sup>0</sup>C

Usulning kamchiligi: Ko‘pgina OOM lar yorug‘lik ta’siriga yuqori chidamlikka ega emas. Yorug‘lik ta’sirida OOM lar parchalanadi va natijada mato sarg‘ayadi.

Sintetik tolali maxsulotlarni tayyorlash jarayonida ham TATS tolali maxsulotlarni tayyorlash kabi termostabillash jarayoni muhim o‘rinda turadi. Bu jarayondan asosiy maqsad sintetik tolali maxsulotlarning chiziqli o‘lchamlarini stabillash, ularni kirishishini va buklanishlar, sinishlar, hamda g‘ijimliklarni oldini olishdan iboratdir.

Termostabillash jarayoni o‘z ichiga mato yoki istalgan turdagি sintetik tolali maxsulotlarni tarang tortilgan xolatda talab qilingan haroratgacha qizdirish va tezlik bilan sovitish bosqichlarini oladi. Odatda termostabillash jarayoni quritish-enkengaytirish stabillash jihozlarida (Kiota, Eliteks) issiq havo yordamida olib boriladi, bunda harorat kapron uchun 190<sup>0</sup>C, anid 215<sup>0</sup>C, lavsan 200-220<sup>0</sup>C, DATS-180-190<sup>0</sup>C, TATS-200-210<sup>0</sup>C bo‘lib, jarayon 60-90 sek davomida bo‘ladi.

Issiq havoni to‘yingan yoki qizdirilgan suv bug‘i bilan almashtirish termostabillash haroratini pasayishiga olib keladi.

Nazorat savollari:

1. Gidratsellyuloza shtapel tolalari va ip mahsulotlarini bo'yash va gul bosishga tayyorlash jarayonining mohiyati nimadan iborat?
2. Viskoza iplari va shtapel tolali matolarni pardozlashda qanday jarayonlar amalga oshiriladi?
3. Atsetat tolali mahsulotlarni qaynatishdan maqsad nima?
4. Termofiksatsiyalashdan maqsad?
5. Sintetik tolalarni qaynatishdan maqsad?
6. Sintetik tolali matolarni yuvish jarayoni haqida ma'lumot bering.
7. OOM bilan oqartirish jarayoni mohiyati nimada?
8. Termostabillash jarayoni qanday sharoitda olib boriladi?

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdukarimova M.Z, Xamrayev A.L., Miratayev A.A. Tolali materiallarni pardozlash kimyoviy texnologiyasi Toshkent, 2004, 322 b.
2. Z.Yakartepe. Dyeing and printing pill. T.K.A.M. Textile & Colothing research centre. 1999. -247 p.
3. Z.Yakartepe. Finishing of knits pill. T.K.A.M. Textile & Colothing research centre. 2007. -239 p.
4. Z.Yakartepe.Textile finishing in general. T.K.A.M. Textile & Colothing research centre. 1999. -304 p.
5. Г.Е. Кричевский. Химическая технология текстильных материалов. Том 1. Волокна, подготовка. М.: Легпромбытиздан, 2000. 545 с.
6. Vineet Joshi. Textile Chemical Processing. Student Handbook+Practical Manual FIRST EDITION: 2014. CBSE, India. 124 p.

## Mundarija

|  | bet |
|--|-----|
| 1-MA’RUZA. Kirish. Tolali materiallarini pardozlash kimyoviy texnologiyasi fani maqsadi, vazifalari.....           | 4   |
| 2-MA’RUZA. Tola hosil qiluvchi polimerlar.....   | 15  |
| 3-MA’RUZA. Sellyulozaning kimyoviy tuzilishi.....  | 28  |
| 4-MA’RUZA. Gidratsellyuloza va asetat tolalarining olinishi va xossalari.....                                      | 38  |
| 5-MA’RUZA. Atsetat tolalarini olish va ularning xossalari.....   | 51  |
| 6-MA’RUZA Tabiiy oqsil tolalari va ularning xossalari.....   | 57  |
| 7-MA’RUZA Sintetik tolalarning olinishi va xossalari.....  | 72  |
| 8 -MA’RUZA. To‘qimachilik yordamchi moddalari.....   | 83  |
| 9 -MA’RUZA. Paxta tolali materiallarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.....                                     | 92  |
| 10 -MA’RUZA. Qaynatish texnologiyasi.....  | 113 |
| 11 -MA’RUZA. Oqartirish texnologiyasi.....   | 121 |
| 12 -MA’RUZA. Zig‘ir tolali matolarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.....                                       | 131 |
| 13 -MA’RUZA. Merserlash.....   | 142 |
| 14 -MA’RUZA. Trikotaj polotnolarini bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.....  | 147 |
| 15 -MA’RUZA. Kalavani pardozlashga tayyorlash. Materiallarni pardozlashga tayyorlanganlik sifatini tekshirish..... | 163 |
| 16 -MA’RUZA. Jun tola assortimentlari.....   | 174 |
| 17 -MA’RUZA. Ipak mato assortimentlari va ularni qaynatish.....  | 194 |
| 18 -MA’RUZA. Sun’iy va sintetik tolali mahsulotlarni bo‘yash va gul bosishga tayyorlash.....                       | 202 |
| Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati.....  | 210 |

